

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**YAKUBOVA DILARAM TADJIYEVNA**

# **SURXONDARYO TARIXI**

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT  
“LESSON PRESS”  
2022

**UO‘K 93/94(073)**

**KBK 63.3(5O‘zb)**

**Ya49**

**Yakubova D.T.**

Surxondaryo tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. D.T.Yakubova. – T.: “Lesson Press” nashriyoti. 2022. – 246 bet.

Zamonaviy ta’limda turli xil innovatsion metodlar intellektual salohiyatning asosiy mezonini hisoblaniblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy – gumanitar soha rivojlangan sari yangi ilmiy metodlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma «Surxondaryo tarixi» fani doirasida yangi uslubiy materiallar hamda zamonaviy pedagogik yondoshuvlarning uyg‘unligi ochib berilgan.

В современном образовании различные инновационные методы являются основным критерием интеллектуального потенциала.

Сегодня развитием социально-гуманитарной сферы, повысилась потребность к научным методом. В данном методическом пособии в рамках по изучению дисциплины "Истрия Сурхандарьи" раскрыты взаимосвязь методических материалов с современным педагогическим подходом.

In modern education, various innovative methods are the main criterion of intellectual potential. Today, with the development of the social sciences and humanities, the demand for new scientific methods is growing. This manual reveals a combination of new methodological materials and modern pedagogical approaches in the field of "History of Surkhandarya."

**Taqrizchilar:**

**S.N.Tursunov,**

*t.f.d., Termiz Davlat universiteti professori;*

**A.X.Mengliboyev,**

*t.f.f.d. (PhD), Denov tadbirkorlik va dedagogika instituti instituti o‘qituvchisi.*

Ushbu uslubiy qo‘llanma Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘quv-uslubiy Kengashining 2022-yil \_\_\_ - \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978–9943-8546-3–1

© “Lesson Press” nashriyoti, 2022

© D.T.Yakubova, 2022

## KIRISH

«**Surxondaryo tarixi**» fani - o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Surxon vohasining ham alohida o‘rni mavjud. Chunki Surxon vohasi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladigan qadim maskandir. O‘tmish tariximiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan arxeologik yodgorliklarning ham aksariyat qismi shu vohada joylashgan, qolaversa, voha hududi insoniyatning eng qadim ajdodlari makon tutgan zamin hamdir. Voha hududida joylashgan Zarautsoy tasvirlari ibtidoiy odamlar tafakkur va tasavvuri asosida yaratilgan bo‘lsa, o‘z ahamiyati jihatidan Sopollitepa obidasi o‘troq tarzda turmush kechirgan ajdodlarimizning bebaho ilk manzilgohlari sanaladi. Jarqo‘tonda shakllangan dastlabki shaharsozlik madaniyati mamlakatimizda urbanizatsiyaviy rivojlanish yuzaga kelgan jarayonlarning debochasidir. insoniyat tarixning ajralmas qismi ekanligi, uning asosiy davrlari va taraqqiyotining tadrijiy bosqichlari to‘g‘risida, ularning uzviy bog‘liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealarning vorisiyligi va qonuniyligi haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

**Surxondaryo tarixi** fanida kechgan jarayonlarga nisbatan o‘z nuqtai nazariga asosan xulosa chiqara olishi va o‘z faoliyati, sohasining jamiyat tarixidagi o‘rni belgilash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma‘naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom g‘ururni uyg‘otishda, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda tarixiy tafakkurning ahamiyati katta.

## **MA'RUZA MASHG'ULOTLARI**

### **Surxondaryo tarixi fanidan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza mashg'ulotni o'tishga qo'yilgan asosiy talablar:**

Surxondaryo tarixi fanidan bakalavryat yo'nalishi talabalariga ma'ruza mashg'ulot turli shakllarida o'tiladi va uning mazmuni uchun umumiy holatga quyidagi talablar qo'yiladi.

1. O'qituvchi amaliy mashg'ulotning mavzusi asosida maqsadni aniq belgilash shart. Maqsadlar quyidagilarga bo'linadi:
  - Bilishga qaratilgan.
  - Tushunishga qaratilgan.
  - Amaliy tadbiquqqa qaratilgan.
  - Tahlil va umumlashtirishga qaratilgan.
  - Shaxsning munosabatiga ya'ni baholashga qaratilgan.
2. Ma'ruza mashg'ulot jarayoni ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga ega bo'lishi hamda tizimli tahliliy ma'lumotlarga boy bo'lishi lozim.
3. Mashg'ulot jarayoni bakalavryat yo'nalishi talabalar uchun guruh holda ma'ruza o'tish talab etiladi.
4. Ma'ruza mashg'ulotiga mos holda mavzudan kelib chiqib metod tanlanadi.
5. O'qituvchi o'tiladigan mavzuni mashg'ulot davomida talabalar tomonidan to'liq nazariy o'zlashyirishlarini ta'minlaydi.

### **Zamonaviy ma'ruza mashg'ulotga qo'yilgan talablar**

Zamonaviy ma'ruza mashg'ulot eng avvalo talaba shaxsining ta'lim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga yo'naltilgan nazariy bilimlar majmuyidir. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyatidan talabalar faoliyatiga ularning ta'lim olish jarayoniga ko'chiriladi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotda nutqining kreativligini namoyon eta olishi hamda talabalar shaxsiyatida o'z menini shakllantrishga ko'maklashishi lozim. O'z navbatida ma'ruza mashg'ulotlari shaxsiy fikrlar va ilmiy nazariyalar uyg'unligida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

**Zamonaviy ma'ruza mashg'ulotga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda 4 ga ajratish mumkin.**

- Birinchidan, ta'lim oluvchilarning maksimal faolligini ta'minlash;

- Ikkinchidan, maqsadlarning harakat va amallarda to'g'ri ifodalanishi;
- Uchinchidan, ma'ruza mashg'uloti belgilangan vaqt reglamentida to'liq nazariy ifodasini topishga erishilishi;
- To'rtinchidan, ma'ruza mashg'ulotlari zamonaviy texnologiyalar bilan hamohang olib borilishi.

### **Yangi pedagogik texnologiya asosidagi ma'ruza mashg'ulot ishlanmasi**

Ma'ruza mashg'ulot ishlanmasi 3 ta asosiy qismdan iborat bo'ladi.

1-qism. Majburiy bajariladigan qism: sana, mavzu, maqsad va vazifalari, jihozlanish, dars bosqichlari, ketma-ketligi, foydalanilgan adabiyotlar, vaqt taqsimoti.

2-qism. Mazmun qism: Yangi mavzu maqsadi, beriladigan ma'lumotlar, hamma topshiriqlar, magistrlar va o'qituvchi bajaradigan ishlar.

3-qism. Amaliy qism: Ijodiy yondashgan holda ma'ruza mashg'ulot jarayoni tashkil qilinadi. (Ma'ruza tushunarli bo'lishi uchun barcha zaruriy vositalardan foydalaniladi )

Amaliy mashg'ulot o'tishda:

#### **1. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulot o'tish davomida quyidagilarga amal qilish lozim.**

- ma'ruza mashg'ulot tipiga (Yangi mazmuni bayon qilish, bilimlarni takomillashtirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish tizimiga, nazorat qilish ishlariga);
- ma'ruza mashg'ulot turi (ilmiy-nazariy, debat);
- ma'ruza mashg'ulot tuzilmasi (tushuntirish, yangi fikrlarni nazariy tahlil qilish);
- ma'ruza mashg'ulotning yo'nalishi (maqsadlarni amalga oshirish).

#### **2. Kasbiy mahoratlardan foydalanish**

- Mazmuni aniq tushuntirish (ilmiy, aniq, mantiqan, yosh xususiyatini hisobga olganligi);
- Boshqarish: (nazariy tahlillar bilan mashg'ulot jarayonlarini ilmiylikini oshirish);
- Psixologik muhitni to'g'ri tashkil etish;
- Maqsadni aniq belgilagan holda metodni to'g'ri tanlash

# **1-MAVZU: SURXONDARYO TARIXI MAXSUS KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

## **Asosiy savollar:**

1. Surxondaryo tarixini o'rganishning asosiy vazifalari.
2. Surxondaryo tarixining asosiy bosqichlari.
3. Surxondaryo tarixining manbalari.
4. Surxondaryo tarixining tarixshunosligi.

## **Tayanch so'zlar:**

Surxondaryo tarixini o'rganishdan maqsad. Surxondaryo tarixini davrlashtirish. Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar. Voha tarixi yuzasidan yozma manbalar. Surxondaryo tarixi tarixshunosligi. Voha tarixini o'rganishning istiqbollari.

Xalqimiz bosib o'tgan ko'p ming-yillik tarixni xolisona tarzda milliy istiqloq g'oyalari asosida yoritish tarixshunoslik fanining bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan asl tamoyillarni anglab olish va tarixga yangicha nazar bilan yondashishda muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Kim bo'lishidan qat'iy nazar jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustaqkamlaydi».

O'tmish ildizi baquvvat millatni mahv etib bo'lmaydi, o'tmish tarixidan bahramand xalqni qul qilish ham dushvor masaladir. Shu sababln xam mustabid targ'ibotlar va jabrzulmga asoslangan sobiq sovet imperiyasi davrida xalqimizning bebaho qadim tarixi zulmat pardasi ortiga olinsada, uning qa'riga singdirilmadi. Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar, ulamo va fuzalolar quvg'in va qatl etildi, tariximiz buzib ko'rsatildi, milliy qahramonlarimizning nomlari badnom qilindi. Biroq hech bir zulm abadiy bo'lmaganidek, mustabid tuzum inqirozi bilan xalqimiz tiklanayotgan qadriyatlarning biri sifatida haqqoniy tarixini tiklash va undan ruhiy quvvat olishdek ulug' baxtga musharraf bo'ldi.

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Surxon vohasining ham alohida o'rni mavjud. Chunki Surxon vohasi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladigan qadim maskandir. O'tmish tariximiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan arxeologik yodgorliklarning ham aksariyat qismi shu

vohada joylashgan, qolaversa, voha hududi insoniyatning eng qadim ajdodlari makon tutgan zamin hamdir. Voha hududida joylashgan Zarautsoy tasvirlari ibtidoiy odamlar tafakkur va tasavvuri asosida yaratilgan bo'lsa, o'z ahamiyati jihatidan Sopollitepa obidasi o'troq tarzda turmush kechirgan ajdodlarimizning bebaho ilk manzilgohlari sanaladi. Jarqo'tonda shakllangan dastlabki shaharsozlik madaniyati mamlakatimizda urbanizatsiyaviy rivojlanish yuzaga kelgan jarayonlarning debochasidir.

O'zbek davlatchiligining ilk tonglari ham shu zaminda qaror topgan qadim Baqtriya hududlari bilan chambarchas bog'likliklar kasb etadi. Mamlakatimiz hududiga janubdan yov hamla qilgan davrlarda ham voha axli qalqon bo'lgan. Yuksak falsafiyaxloqiy aqidalarga asoslangan zardushtiylik dini negizlarining yuzaga kela boshlagan ma'naviy, ruhiy qadriyatlari shakllanishida ham vohaning munosib hissasi bor. Jahon fotixlaridan biri sanalgan Aleksandr Makedonskiy aholining jasorati va mardligiga qoyil qolgan. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholiklari davrida voha axlining mahalliy madaniyati qadim ellin madaniyati bilan omuxtalashib, hatto unga ta'sir o'tkazgan qudratli Kushonlar saltanatining ravnaqi ham bevosita ana shu tabarruk zamin bilan chambarchas bog'liq.

Voha ahli o'rta asrlar sharoitida ham mamlakatimiz tarixida, qolaversa, Sharq xalqlari tarixida muhim rol o'ynadi. O'rta asrlar mobaynida mintaqada shakllangan barcha davlatlar taraqqiyotida ana shu qadim maskanning munosib o'rni mavjud. Hatto sohibqiron Amir Temur xazratlari ham davlatchilik ramzi sanalgan tug' va nog'orani piri Sayyid Baraka qo'lidan Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'ida qabul qilib olgan edi. O'rta asrlar davrida vohada yashagan ko'plab allomalar diniy va dunyoviy bilimlar taraqqiyotiga o'zlarining munosib ulushlarini qushganlar. Insoniyat ma'naviy xazinasini boyitgan islom dini ravnaqida ham zamin ilm ahlining o'rni juda katta.

Tasavvuf taraqqiyotining yirik vakillari Al-Hakim at-Termiziy, Xoja Alouddin Attor va So'fi Ollayor hazratlari ham ana shu zamin farzandlaridir.

Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida amirlikning sharqiy beklklari sanalgan Boysun, Denov va Sherobod beklklari muhim o'rin tutgan. O'rta Osiyoda hukmronlik qilish uchun Buyuk Britaniya bilan siyosiy-maydonda raqobatlashgan chor Rossiyasi ma'murlari ham Termiz shahrining muhim strategik makon

ekanligini juda yaxshi anglagan va shu sababli shaharda o‘zlarining tayanch xarbiy istehkomlarini barpo etgan edilar.

Zo‘ravonlikka asoslangan sovet jamiyati-yillarida esa voha hududi kurashlar-maydoniga aylandi. Soxta va’dalar, aldov va zulm asosiga qurilgan mustabid tuzumga qarshi kurash olib borishda vohadan yetishib chiqqan milliy qahramonlar alohida mardlik namunalarini ko‘rsatdilar. Hisobsiz qirg‘inlar, qatliom va qatag‘onlarga qaramasdan voha axli iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun fidokorona mehnat qildi. Ikkinchi jahon urushining ayanchli musibatlari ham voha axlini chetlab o‘tgan emas. Suronli-yillarning mashaqqatlari va yo‘qotishlari viloyat aholisining qaddini buka olmadi. Urushdan keyingi tinch qurilish va tiklanish davrida sovet tuzumida qaror topgan rasmiyatchilik, zo‘ravonlik va byurokratiya voha mehnat axlining bunyodkorlik salohiyatini jilovlay olgan emas.

Respublikamizning mustaqillikka erishuvi viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotida muhim o‘zgarishlar, yangilanishlar davrini boitib berdi. Natijada viloyat sanoati, qishloq xo‘jaligi, umuman, butun infratuzilma ilg‘or va zamonaviy yangiliklar bilan omuxtalashdi. Mulkchilikning yangi qirralari qaror topdi, taraqqiyotning hayotbaxsh nasimlari esa boshladi bu yurtda.

Surxondaryo viloyatida qadimgi manzilgohlarning paydo bo‘lishi tosh davrining o‘rta (must‘e) bosqichida paydo bo‘lgan. Boysuntog‘dagi Teshiktosh g‘or makonida 8–9 yoshli bola skletining topilishi o‘z davrining olashumul kashfiyoti bo‘lib, O‘rta Osiyoni ham insoniyat shakllangan mintaqalardan biri sifatida qarashga imkon bergan. Arxeologiya va antropologiya fanlarining yangi ma’lumotlariga ko‘ra topilmaning yetmish besh ming-yil avvalgi davrga oidligi aniqlandi.

### **Axborot-uslubiy ta’minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta’limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu boradagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Ma’ruza usuli” hamda “Zinama-zina” texnologiyasi kabi interaktiv metodlaridan, shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

## Ma'ruza usuli

Bu uslub butunlay «so'zlash» orqali amalga oshiriladigan o'qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o'quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi.



### Ma'ruza metodining qulayliklari:

- Ma'lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar rasional ravishda taqdim etiladi
- Mazmun va vaqt jihatidan oson rejalashtiriladi
- Emosional jihatdan kuchli imkoniyatlar ishlatilishi mumkin

### Ma'ruza metodining kamchiliklari:

- O'quvchining faolligi nihoyatda cheklangan
- O'quvchi materialni o'zlashtirganligini deyarli aniqlab bo'lmaydi

### Ma'ruzani tushunarligini oshiruvchi jihatlar:

- Fikrni sodda tilda bayon etish
- Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'g'ri tuzilganligi
- Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash
- Rag'batlantirish (stimullar)
- Notiqlik, ravon tilda gapirish va talaffus

**Fikrni sodda tilda bayon etish:** O'z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'z fikrini murakkab tilda ifodalash - ziyolilik va professionalizm belgisi hisoblanmaydi. O'z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

Soda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi:

- Aytilgan fikrni ko'rgazmali qilib yetkazish
- Fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash
- Oddiy so'zlarni ishlatish
- Atamalar ma'nosini tushuntirib ketish
- CHet tili kirib kelgan so'zlarni iloji boricha ishlatilmaslik, ishlatilgan taqdirda tushuntirish berish
- Sodda tuzilishsha ega bo'lgan gaplarni ishlatish
- Aktiv fe'llarni ishlatish

**Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'g'ri tuzilganligi**

Ma'ruzaning ushbu belgisi ma'ruzaning tashqi tuzilishi va ichki tartibini to'g'ri tuzilganligini bildiradi. Ma'ruzaning tashqi tuzilishi - uni o'qishda qilinadigan quyidagi hatti-harakatlarini bildiradi:

- ◆ Ma'ruza mavzusi bilan tanishtirish
- ◆ Mavzuni asoslash
- ◆ Mantiqiy tuzilma asosida ma'ruzani olib borish
- ◆ Ma'ruzani yakunlash

Ma'ruzaning ichki tartibi uni o'qishda rioya qilinadigan mantiqiy ketma-ketlikni bildiradi:

- ◆ Ma'lumotlar mantiqiy to'g'ri ketma-ketlikda berilishi
- ◆ Ma'ruzaning alohida qismlari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish
- ◆ Mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish
- ◆ Bir fikrdan boshqa fikrga sakrab o'tishiga yo'l qo'ymaslik
- ◆ Muhim va uncha muhim bo'lmagan narsalarni farqlash
- ◆ «Fikrlar kalavasi» aniq bilinib turishi

**Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash.** Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vaqt ketmasdan, lo'nda, aniq va to'g'ri ifodalanishi tushuniladi:

- ◆ butunlay o'quv maqsadga qaratilgan
- ◆ asosiy mazmunga qaratilgan
- ◆ to'g'ri (bexato) ifodalardan iborat
- ◆ muhim va kerakli izohlar bilan cheklangan

**Rag'batlantirish (stimullar).** Rag'batlantirish (stimullar) deb ma'ruza tarkibidagi shunday qo'shimchalar tushuniladiki, ular ma'ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e'tibori va qiziqishini ta'minlaydi. Stimulyasiyaga quyidagilar yordamida erishiladi:

- ◆ Ma'ruza mazmunlarini turli qiziqarli faktlar, masalan urf-odat, hikoya yoki misollar yordamida aniqlashtirish
- ◆ Taassurotli gapirish
- ◆ Aytilayotgan fikrlarni ko'rgamali tarzda yetkazish (vizuallashtirish)
- ◆ qiyoslarda raqamlar va faktlarni ishlatish
- ◆ Tinglovchilarbop qiziqarli ifodalarni tanlash
- ◆ SHaxsiy fikrni bildirish
- ◆ Tinglovchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish

**Ma’ruzaning tuzilishi (strukturasi).** Ma’ruza odatda uch qismdan: kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo‘ladi.

Kirish qismi:

- qutlash
- Mavzu
- Maqsad
- Tashkiliy savollar
- Motivasiya, qiziqishni o‘yg‘otish

Asosiy qism:

- Asosiy fikr 1
- Asosiy fikr 2
- Asosiy fikr 3 va hokazo.

Yakuniy qism

- Natija va xulosa
- Umumlashtirish
- Umumiylashtirish
- Keyingi mavzuga nazar tashlash

### **Ma’ruzachiga qo‘yilgan talablar**

**Gavdani tutish:** Tik, tinglovchilarga qaratilgan, erkin, ikki oyoqqa mahkam tayangan, boshi ko‘tarilgan, ammo burun ko‘tarilmagan holatda.

**qo‘llar:** Bo‘sh holatda, ikki yonda osilib turgan yoki kamardan yuqorida ikki qul bir biriga ulangan; kamardan yuqoridagi harakatlar, tasavvurli (ifodali) hatti-harakatlar– gapirish tezligida emas balki, sokin, asta-sekin va xotirjam.

**Yuz:** Tinglovchilarga qaratilgan, xotirjam.

**Ko‘z qarashlari:** Hadeb bir kishiga tikilmasdan, auditoriyadagi har bir kishiga 3-5 sekund davomida qarash, samimiy

**Harakatlar:** Maqsadga muvofiq tarzda bir joydan boshqa joyga o‘tish, «o‘tirib-turishlar» emas, xotirjamlik bilan yordamchi vositalarni qo‘lga olish va ishlatish, xotirjam harakatlar, onda-sonda tinglovchilar tomoniga o‘tish.

**Ovoz:** Tanaffuslar bilan (ayniqsa harakatlar paytida), sekin tezlikda va baland ovozda gapirish.

### **“Zinama-zina” texnologiyasi**

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi) larni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan

bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

**Texnologiyaning maqsadi.** Talab(yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

**Texnologiyaning qo'llanishi:** ma'ruza(imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar:** A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi) larni mavzular soniga qarab 3-5kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul);
- talaba(yoki o'quvchi)lar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- o'qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar.Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.
- Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan

tayyorlangan materiallar, albatta, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;

- O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

*1 Suxrondaryo vohasida insoniyat tamaddunining ilk ko‘rinishlari qanday shaklarda vujudga kela boshlagan?*

*2 Surxondaryo vohasida vujudga kelgan etnografik jarayonlar.*

*3 Tarixiy qadryatlarning millat rivojlanishidagi o‘rnini baholang.*

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. , T., «Sharq»,. 1998.
2. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat etishga xizmat qilsin., T., «O‘zbekiston», 1999.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. 2008.
4. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. 2011
5. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997.
6. Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o‘rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.
7. Tursunov S.N., Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B., Surxondaryo tarix ko‘zgusida, Toshkent, «Sharq», 2001.
8. Tursunov S.N. Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B. Surxondaryo tarixi, Toshkent, «Sharq», 2004.
9. Jaloliddin Mirzo, Termiz tarixi, T., «Sharq», 2003.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, T., O‘zME nashriyoti. 111 jildlar.

## **2-MAVZU: SURXONDARYO VILOYATI TARIXINING ENG QADIMGI DAVRI**

### **Asosiy savollar:**

1. Paleolit davrida Surxon vohasi.
2. Mezolit davrida Surxon vohasi.
3. Jez davri yutuqlari va ilk ziroatchilik makonlari.
4. Surxon vohasi ilk temir davrida.

### **Tayanch soʻzlar:**

Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shugʻullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.

Maʼlumki, insoniyat taraqqiyotidagi madaniy tarixiy davrning ilk bosqichi mehnat qurollari toshdan yasalganligi sababli paleolit (grekcha «palayos» qadimgi, «letos» tosh degan maʼnoni bildiradi), yaʼni qadimgi tosh davri deb ataladi. Olimlar insoniyat tarixida uzoq davom etgan tosh davrini quyidagi bosqichlarga boʻladilar:

1. Qadimgi tosh davri (paleolit).
2. Oʻrta tosh davri (mezolit).
3. Yangi tosh davri (neolit).
4. Mis tosh davri (eneolit).

Paleolit davrida mehnat qurollari takomillashib, inson hayoti ham oʻzgarib bordi. Shunga koʻra paleolitning oʻzi ham uch bosqichga boʻlinadi: ilk, oʻrta va soʻnggi paleolit. Shuni alohida taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston hududida eng qadimgi odamlar 1 mln.-yildan ziyod vaqtdan beri, yaʼni ilk paleolit davridan buyon yashab kelayotganligini arxeolog olim Oʻ. Islomov isbot qilib berdi. Oʻ.Islomovning yozishicha, «Oʻzbekiston hududida odamning paydo boʻlish tarixining ilk bosqichlariga oid yodgorliklarni oʻrganish 1938-yildan boshlangan. Shu-yili A.P.Okladnikov boshliq ibtidoiy davr arxeologiyasini oʻrganish otryadi Boysun tumanidagi Surxondaryoning Zovtalashgansoy darasida joylashgan Teshiktosh gʻorini tadqiq qildi. Dengiz sathidan 1500 m balandlikdagi gʻorning uzunligi 21 m, eni 20 m, balandligi 79 metrni tashkil qiladi. Umumiy-maydoni 300 kv. m, shundan 100 kv. m joyi neandertallar yashaganligiga guvohlik beruvchi arxeologik materiallarga

ega. Yodgorlik 5 ta madaniy qatlamdan iborat. Bu hol manzilgoh bir necha marotaba tark etilganligidan dalolat beradi. g'orning har bir qatlamida bittadan, ba'zilarida ikkitadan gulxan qoldiqdari saqlanib qolgan. Bu gulxanlar atrofidan ko'plab tog' echkisi, bug'u, sirtlon, ayiq, quyon va har xil qushlarning suyak qoldikdari topilgan. Eng muhimi, yuqori madaniy qatlamdan 9–10 yoshlardagi neandertal bolaning qabri topilganligi yodgorlikni dunyoviy ahamiyatga molik darajaga ko'tardi».

Ushbu antropologik topilma katta qiziqish uyg'otdi va mutaxassis olimlardan G.F. Debes, M.M. Gerasimov, M .D. Gremyaikiy va V.A. Alekseevlar uni o'rganishda jonbozlik ko'rsatdilar. Aniqlanishicha, topilgan neandertal bola kalla suyagining hajmi 1450 sm kub bo'lib, uning' irqiy jihatdan Yevropa va Old Osiyo guruhiga mansub ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Teshiktosh g'orini qazish natijasida malum bo'ldiki, undagi kishilarning asosiy va muhim kasbi kiyik, arxar, tog' echkisi va boshqa hayvonlarni ovlash bo'lgan.

G'ordan topilgan hayvonlarning 667 ta suyagidan 649 tasi kiyik suyagidir. Ov ko'p odamlar ishtirokini talab qilganligi sababli u ibtidoiy odamlarni birga harakat qilishga jipslashtirgan asosiy omillardan biri edi. Yaralangan yirtqich hayvon bilan olishuvda ko'pincha odamlar halok bo'lganlar, ular qo'lga kiritgan o'ljalarni birga baham ko'rganlar. Ayollar termachilik, ya'ni mevacheva terish, ildiz kovlash bilan shug'ullangan va mexnat qurollari tayyorlaganlar.

Mashhur antropolog olim va haykaltarosh M. M. Gerasimov bolaning qiyofasini yaratdi, bolaning bosh suyagi juda siqiq, peshonasi yaydoq, past, qoshqovog'i osilib turadi. Chaynash muskullari baquvvat, iyagi tekis, bosh suyagining holati va bukchaygan qomati o'sha vaqt odamining hali qadini rostlab yurishga odatlanmaganidan dalolat beradi. U o'z qiyofasi bilan Yevropada yashagan neandertal shaklidagi odamlarga juda o'xshaydi. Uning qabri atrofiga quyilgan taka shoxlari bolani go'yo jinlardan himoya qilgan, bu quyosh ramzi bo'lib, diniy axamiyatga ega bo'lganlig'ini tasdiqlaydi. Xuddi shu o'rinda akademik B.G'afurovning fikrlari ancha e'tiborli ko'rinadi, olim Teshiktoshdan topilgan tosh buyumlarni o'rta paleolit davriga oid deb hisoblaydi. G'ordan topilib o'rganilgan uch ming donaga yaqin tosh buyumlardan 339 tasi tugallangan qurollar sirasiga kiradi. Ulardan o'tkir uchli toshlar pichoqqa monand bo'lib, ovlangan hayvonlarni terilashda,

daraxtlari qayta ishlashda foydalangan bo'lishlari mumkin. Bu neandertal odamlar, asosan, tog' takasi, kiyik, ayiq, sirtlon va boshqamayda hayvonlarni ovlagan, bular muste davriga to'g'ri keladi. Bundan tashqari bola skeleti atrofida tog' takalarining shoxlari yetganligi hodisasi, aftidan, maxsus dafn marosimi bo'lganini xotirga tushiradi. Ko'plab tog' g'orlarida qadimiy odam qunalg'alari aniqlangani xolda, muhimi Turkon (Sherobod)daryo sohillaridagi Boysuntog'ning Teshiktosh g'orlaridan topilgan bola bosh suyaklariga monand boshqa suyaklar hali hanuz butun boshli Markaziy Osiyoda topilganicha yo'q.

Qadimshunos olimlarning fikri va xulosasiga ko'ra, Teshiktosh g'oridagi hayot mezolit davrida ham davom etgan. Madaniy qatlamning qalinligi 40 m cha bo'lib, undan tog' echkisi, ayiq, toshbaqa suyaklari hamda kremniy, chaqmoqtosh, ohaktosh, qumtosh, yashma, kvarsit va boshqa vulqoniy tosh jinlaridan ishlangan turli xil gosh qurollari topildi. Toshdan yasalgan qurollar ichida paykonlar, qirg'ichlar, tosh pichoklar va tosh chopqilar bor edi. Bu topilmalar tufayli viloyat aholisining kadimgi hayoti va xo'jalik sohasidagi turmush darajasini aniqlash mumkin. Umuman, Surxondaryo vohasidan qadimgi odamlar yashagan 15 ta yuqori paleolit manzilgohlari topilgan. Teshiktosh yodgorligi O'zbekistonning janubiy hududidan topilgan o'rta paleolit (muste) davriga oid yodgorlikdir.

Viloyat hududida tosh davri yodgorliklari juda ko'p, shunday yodgorliklardan yana biri Amir Temur g'ori hisoblanadi. Bu g'or Teshiktosh g'origa ancha yaqin joylashgan bo'lib, asosan o'rta tosh davriga oiddir. Amir Temur g'oridan topilgan tosh qurollar Teshiktosh g'oridan topilgan tosh qurollarga ancha o'xshashdir. Amir Temur g'orida yashagan ibtidoiy odamlar ovchilik va termachilik mashg'uloti bilan shug'ullanganlar. G'orda olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida bu yerdan juda ko'plab hayvon suyaklarining topilishi yuqoridagi fikrlarning isbotidir. O'rta tosh davriga kelib, iqlimning isishi natijasida ibtidoiy odamlar faqatgina g'orlarda yashab qolmasdan, balki pasttekisliklar va vodiylarga ko'chib chiqib, makon qura boshlaganlar. Bu davrda ular qorin ilinjida ov o'ljalari izidan yurib, ularni ta'qib etib, asosan daydi hayot kechirganlar. Amir Temur g'ori qatlamlaridan eni 11,5 metr keladigan gulxan, yog'och, ko'mir qoldig'i topilgan. Bu joy past va zaxligi tufayli neandertal ovchilarining vaqtinchalik qo'nalgohi bo'lgan bo'lsa kerak.

Viloyatning oʻrta tosh davriga oid pasttekisliklarida joylashgan arxeologik yodgorliklar qatoriga koʻhna Termiz atroflari, Ayritom hamda Toʻpalang daryosi havzalaridan topib oʻrganilgan ibtidoiy davr odamlari manzilgoxlarini ham misol qilib koʻrsatish mumkin. Ushbu manzilgoxlardan toshdan va suyakdan yasalgan juda koʻplab ov qurollari topildi hamda atroflicha tahlil etilib, tegishli xulosalar oʻrtaga tashlandi, Surxondaryo viloyatida yuqori paleolit davri yodgorliklari asosan Toʻpalang daryosi vodiysi atrofida oʻrganilib tadqiq etildi. Hozirgi Toʻpalang daryosi suv ombori hududidagi beshta manzilgohdan yuqori paleolit davriga oid tosh qurollari topildi, ular orasida uchrindilar, parrak uchrindilar va qirgʻichlar mavjud.

Viloyatdagi yana bir qadimiy makon Machay gʻori mezolit, yaʼni oʻrta tosh davrining yirik yodgorligi boʻlib, Boysun togʻi etaklaridagi Machay soyining yuqorisida joylashgan. Machay gʻorida ovchilar va baliqchilar jamoasi yashagan, Ushbu yodgorlik 1938–1941-yillarda G.V. Parfyonov tomonidan ochib oʻrganildi. 1937-yilda arxeolog A.P.Okladnikov muste davriga oid ikkita qatlamni ochib ilmiy izlanishlar olib bordi. Arxeolog Oʻ. Islomov 1970–1971-yillarda Machay gʻorini oʻrganib, undan topilgan tosh va suyakdan yasalgan qurollar mezolit davriga oid ekanligini isbot qiddi.

Mezolit bosqichining eng muhim manzilgohdaridan hisoblangan Machay gʻori oʻrta tosh davrining mil. avv. VII–VI ming-yilliklariga oid boʻlib, bu manzilgoh Yuqori Machay va quyi Machay qishloqlari oralarida joylashgan. Arxeologik qazuv ishlari natijasida bu yerdan juda koʻplab turli shakllarda toshdan yasalgan ov qurollari, tosh pichoqlar, shuningdek, suyakdan yasalgan bigiz, igna va koʻplab miqsorda hayvon suyaklari hamda inson suyaklari topib oʻrganildi. Antropolog olim T. Xoʻjaevning fikriga koʻra, Machay gʻorida yashagan odamlar antropologik jihatdan yevropoid irqiga mansubdir.

Machay gʻorida yashagan ibtidoiy odamlar, asosan, oʻzlashtiruvchi xoʻjalikning ovchilik va termachilik mashgʻulotlari bilan shugʻullanganlar. Qolaversa, shu davrda yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish jarayoni ham aynan muste davrida sodir boʻlib, Machay gʻoridan topilgan suyak qoldiqlari ham bu fikrni toʻliq isbotlaydi. qizigʻi, bu yodgorlik oʻsha davr kishilarining suyak qoldikdari asosida insoniyatning antropologik qiyofasini va hayvonot dunyosini oʻrganishda bebaho manba hisoblanadi. gʻordan koʻplab togʻ echkisi, katta va kichik shoxli hayvon suyaklari topilib oʻrganildi va

natijada mil. avv. VIII–VII minginchi-yillarda Machay g‘orida yashagan odamlar xayvonlarni xonakilashtirishga o‘tganligidan dalolat beradi. Tag‘in esa o‘sha odamlar, ya‘ni siz bizning qadimiy ajdodlarimiz tabiatdagi mavjud tayyor narsalarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki ishlab chiqarish iqtisodiga ko‘nikma ham hosil qila boshlaganlar.

Eng muhim tomoni shundaki, ushbu g‘ordan ibtidoiy ajdodlarimiz quli bilan yasalgan va ularning o‘zlari ehtiyojlariga yarasha ishlatg‘an tosh qurollar fan olamiga olib kiritildi. Bu tosh qurollari Markaziy Osiyoning boshqa mezolit davri mazilgohlaridan topilgan tosh qurollaridan yasalgan usuli va shakllari jihatidan farq qiladi. Tadqiq etilgan yuqoridagi tosh qurollari mezolit davrining o‘ziga xos madaniyatini tashkil etadi va bu esa fanda *Machay madaniyati* nomini oldi.

Demak, Surxondaryo viloyatida eng qadimgi paleolit davridan boshlab, hozirga qadar inson hayoti va madaniyati uzluksiz davom etib kelmoqda.

Tasviriy san‘atning paydo bo‘lishi. Zarautsoy sirlari

Kishilik jamiyatining ilk bosqichi bo‘lgan tosh asriga oid tosh manbalar, matnlar, bitiklar, turli tasvirlar, rasmlar va ayni chog‘da toshdan yasalgan mehnat qurollarining dastlabki namunalari odamlar ijodkorligining natijasidir. Odamlar tabiat mo‘jizalarini va uning sir-asrorlarini tasavvur etish tufayli tirik jonzotlarga taqdid etishgan, ularning qiyofalarini yaratishgan. Rasmlar chizish orqali tabiatdagi narsa va hodisalarga o‘z ta‘sirini o‘tkazish yoki undagi asov holatlarni bo‘ysundirishga xayolan harakat qilishgan. Ana shu tasavvurlar ta‘sirida shakllangan va o‘zlarining ilk ibtidoiy tajribalarini to‘play boshlagan dastlabki odamlar mo‘jizakor tabiatdagi osori atiqalarning rasmini chizish uchun tabiiy tayyor g‘orlardan, qoyalardan foydalanganlar. Ana shunday manzilgohlardan biri Zarautsoy bo‘lib, u O‘zbekiston hududining Hisor tog‘ tizmasining janubi-g‘arbidagi Ko‘hitang tog‘ining yon bag‘rida joylashgan daradagi ung‘ir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san‘atning nodir namunalari bo‘lmish madaniyat maskanidir.

Sherobod tumanidagi qizilolma (bu qishloq ham bir paytlar Zaraut deb atalgan) va Zaraut qishloqlari yaqinidagi Zarautsoy bo‘yida toshga qizil kesak (bo‘yoq) bilan solingan suratlar topilgan va bu tasviriy san‘at yodgorliklari mezolit davriga oiddir. Unda chodir yopinib, o‘ziga dum bog‘lagan va o‘q-yoy ko‘targan ovchilar it hamda yovvoyi hayvonlar bilan birga tasvirlangan. Aftidan, qadimgi ovchilar ov qilinishi lozim

bo'lgan hayvonlarni cho'chimaslik uchun orqalariga dum bog'lab, chodir yopinib olgan bo'lsalar ajab emas. Bu dara Surxondaryoning o'tish va borish eng qiyin, eng mushkul bo'lgan Ko'hitang tog'lari etaklarida joylashgan bo'lib, qadimgi san'atning ajoyib hamda noyob yodgorliklaridandir. Shunday qaltis joyni, chiqish qiyin dara tepasidagi g'orni Zarautlik Rauf ismli o'n yashar bola qo'y boqib yurganida tasodif kashf etadi. Bu 1939-yilning bahori edi. Bir oylar chamasi o'tgach, topilma haqida xonadon a'zolari oilaning qadr-don do'sti bo'lib qolgan Ivan Fyodorovich Lomaevga aytib berishadi. Dovyurak izchiovchi, to'g'rirog'i ovchi-o'lkashunos, ayni paytda giyohshunos, tabiatning cheksiz havasmandi I. F. Lomaev do'sti Vahob Davlatov va uning o'g'li Rauf bilan birgalikda kamarga borishadi. O'z navbatida I.F. Lomaev ko'rganlari xususida o'sha paytlari Termizdagi Surxondaryo okrug muzeyi direktori G.V. Parfyonovga xabar beradi. qizig'i, G.V. Parfyonov 1931-yili ilk bor Surxondaryoga ish bilan kelganida xataklik qariyalardan tog'ning qaysidir g'orlarida hayvonlar, odamlar surati chizilganligi va noma'lum bitiklar borligi haqidagi ma'lumotlarni yozib olgan, ammo o'shanda bu sirli g'orlarning qayerdaligini hech kim aytib berolmagan edi. Qolaversa, I.F. Lomayevdan ilgari ham kamar rasmlari bilan qiziquvchilar bo'lgan, ulardan biri 1912-yili suratlardan nusxa olishga harakat qilgan harbiy topograf Fyodorov bo'lgan. Yuqoridagilardan shu narsa ayonki, ilgarilari ham bu noyob rasmlar bilan qiziquvchilarning bor bo'lganligi ehtimoliga zarracha shubha yo'q.

Zarautsoy suratlari dastlab I.F. Lomayev tomonidan o'rganildi, keyinchalik G.V. Parfyonov rahbarligidagi ekspeditsiya ish boshladi va ochiq qoyatoshning antiqa qizil rangli rasmlarini suratga tushirdi, ko'chirmalar oldi, muhimi yangi suratli joylar aniqlandi. Zarautsoyni tadqiq etishda G. V. Parfyonov, A. Yu. Roginskaya, A. S. Kirillov, I. F. Lomayev, A. P. Ivanova, V. K. Sandul va Sh. Ismoilovlar katta ishlarni amalga oshirdilar. Hatto ekspeditsiya ishtirokchisi asli kasbi rassom A. Yu. Roginskaya «Zarautsoy» nomli risolasini rus tilida 1950-yili e'lon qildirdi. A.Yu. Roginskaya 1942-yili Moskvadan Surxondaryo viloyat teatriga rassom sifatida ishga jo'natilgan bo'lib, G.V. Parfyonov tomonidan ekspeditsiyaga jalb etilgan edi. Ayniqsa, keyingi-yillarda Zarautsoy qoya rasmlari taniqli olim A. A. Formozov tomonidan puxta tahlil qilindi.


# O'ZBEKISTONDA ILK TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI

## Sarmishsoy qoyatosh surati



O'zbekiston hududida o'nlab qoya toshlarga bitilgan suratlar topilgan bo'lib, ularda ov manzarasi, hayvonot dunyosi, insonlar ko'rinishi ifodalangan.

Yangi ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi VII – VI - ming yilliklarda O'zbekiston hududida tasviriy san'atning ilk ko'rinishlari yuzaga kelgan.



## Sarmishsoy qoyatosh surati

Qoyatosh suratlari Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alarida keng tarqalgan. Sarmishsoy va Zarautsoy yodgorliklari Markaziy Osiyoda suratlariga eng boy hisoblanadi.

Zarautsoy suratlari orasida yovvoyi buqalarni ovlash manzarasi tasvir etilgan suratlar ayniqsa muhimdir. Zarautsoy darasidagi 200 dan ortiq rasmlarda odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi choʻchqa, burama shoxli echki, jayron, togʻ echkisi, hashorat; turli ov buyumlari: oʻq-yoy, nayza, oʻroqsimon qurollar, niqoblangan odamlar va boshqa oʻziga xos tarzda hayotiy qilib chizilgan rasmlar har qanday kishini lol qoldiradi. Suratlarda tasvirini topgan oʻq-yoy va xonaki itlar koʻmagida ov qilish sahnalari ularning mezolit davriga oidligini bildiradi, degan xulosaga keladi A. A. Formozov. Zero, oʻq-yoy va uy iti mezolit davrigacha nomaʼlum ekanini fan allaqachon tasdiqlagan. Akademik B.Gafurov boʻlsa Zarautsoy suratlarining neolit-eneolit davriga oidligi haqida fikr bayonini beradi. G.V.Parfyonov Zarautsoy suratlarini yuqori paleolit davriga oid deb belgiladi. Eng soʻnggi namunalari esa temir bronza davriga toʻgʻri keladi. Zarautsoy kamaridagi rasmlar bir necha asrlar davomida chizilib, ajdodlarimizning ov bilan bogʻliq urf-odatlarini, anʼanalarini oʻzida aks ettirgan ezgu niyatlari, tabiatga hurmati, vatanga muhabbat histuygʻulari aks ettirilgan edi.

Zarautsoy qoyalari chizilgan 246 tadan ortiq ibtidoiy rasmlarning hammasi bir vaqtda chizilmagan. Baʼzi tasvirlarning bir-birining ustiga qalashib ketganligi qam buni tasdiqlaydi. Zarautsoydagi dastlabki tasvirlar mezolit davrining oxirlariga oid boʻlib, taxminan bundan 10 ming-yillar muqaddam chizilgan. qoyalardagi keyingi tasvirlar bronza davriga oid boʻlib, mil. avv. II-III ming-yilliklarning mahsulidir. Zarautsoyda topilgan tasvirlar mamlakatimizdagi eng qadimiy rasmlar majmuasidir. Odamlar va hayvonlarning ana shu rasmlarida badiiy tasvir inson mehnati, uning yashash uchun kurashi bilan bogʻlangan. Bu sanʼat ibtidoiy odam ongida vujudga kelgan qiyofalarni oʻzining ibtidoiy tasviriga, qonunlariga ega boʻlgan asarga aylantirish mahoratiga asoslangan. Zarautsoy mamlakatimizda birinchi marta sanʼatshunoslik qoʻriqxonasiga aylantirilgan noyob manba sifatida ham juda ardoqlidir. Ammo yuqoridagilarga qaramasdan, Zarautsoy osoriatiqalarini saqlash sohasidagi ishlarni koʻngildagidek deb boʻlmaydi. Hatto «Zarautsoy95» va «Zarautsoy98» ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlarida ushbu suratlarni kelgusi avlodlar uchun asrab qolish haqida fikrlar yuritilganiga qaramasdan, hozirgacha mutlaqo qarovsiz va himoyasiz qolayotgan Zarautsoy tasvirlarini amalda qattiq muhofaza etish lozim koʻrinadi.

Ibtidoiy odamlar tomonidak misning o'zlashtirilishi natijasida misdan yasalgan mehnat va ov qurollarining takomillashuviga yo'l ochildi. Dastlabki o'troqchilikka asoslangan qishloqparning, yerto'la va chaylali uylarning paydo bo'lishiga imkon tug'ildi. Juft nikohli oilalarning tarkib topishi tufayli ajdodlar ruhini pok tutishga, ruhlarga sig'inishga, dehqonchilik va chorvachilikning alohida xo'jalik bo'lib rivojlanishiga yo'l ochib berildi.

### **Jez davri yutuqlari**

Sherobod, Sho'rchi, Bandixon tumanlari hududlarida o'tkazilgan arxeologik qazish ishlari tufayli Sopollitepa, Mo'lali, Jarqo'ton kabi yodgorliklarda urug' jamoasi makonlari topildi. Sopollitepa madaniyati Janubiy O'zbekistonda shakllangan va sun'iy sug'orishga asoslangan ilk makon bo'lib, qadimshunos olimlar bu yerdan ziroatchilikka oid bug'doy, arpa, suli, paxta urug'lari qoldiqlarini, kulolchilik, charxni ishlatish, hunarmandchilik turmushig'a doir ashyolar va san'at namunalari qoldiqlarini topdilar. Eng muhimi qabilani tashqi dushman hamlasidan himoya qilish maqsadida qurilgan qo'rg'on uch qatorli mudofaa devori bilan o'rab olingan. Qo'rg'onning umumiy-maydoni bir gektarga yaqin bo'lib, unda sakkizta mahalla istiqomat qilgan uylarda mo'rili o'choq, ayrim xonalarda sandal o'rni, ganch suvoq qoldiklari topildi. Kulolchilikka oid 20 dan ziyod xumdonlar, sifatli nafis qadah, ko'za, xum, choynak, lagan, mudofaa qurollari, idishlar, ko'zgu, to'qimachilik, ip va ipak mato qoldiqlari topib o'rganildi.

Sopollitepada istiqomat qilgan ajdodlarimiz bronza davridayoq qo'shni xalqlar bilan bevosita yaqindan aloqada bo'lganlar. Xususan, bu yerdan topib o'rganilgan ko'pgina buyumlar Janubiy Turkmanistonda topilgan buyumlarga juda o'xshashdir. Mil. avv. XVIII-XV asrlar oralig'ida Sopollitepa manzilgohida qizg'in hayot mavjud bo'lgan, ammo mil. avv. XV asrda Ulanbuloqsoy suvlarining qurishi oqibatida Sopollitepaliklar bu manzilgohni tark etib, Sherobod daryosining qadimiy irmog'i hisoblangan Bo'stonsoy qirg'oqlariga ko'chib o'tib, bu yerda Jarqo'ton nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan ilk shahar madaniyatini shakllantirganlar.

Jarqo'tonliklar ruhiy va ma'naviy kamolot borasida ham ajdodlariga nisbatan ancha yuksaklikka erishganlar. Bu yerda olib borilgan arxeologik izlanishlar jarayonida qabrlardan topilgan turli xil

hayvonlar va parrandalarning tasvirlari tushirilgan muhrlar va belgilar jarqo‘tonliklar diniy e‘tiqodida totemistik tasavvurlarning bir qadar ildiz otganligi, shuningdek, mug‘onalik odatlarining mavjud ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu yerdan olov ibodatxonasi ham topib o‘rganildi. Ushbu ibodatxona shaxar-maydonining eng baland joyida barpo etilgan, bu esa Jarqo‘tonning nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz, balki uning ayni shu mintaqada o‘sha zamon odamlari uchun ruhiy va ma‘naviy markaz bo‘lganligining ham birdan-bir isbotidir. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, jarqo‘tonlik ajdodlarimiz o‘zlarining shahar, qabila, urug‘ oqsoqoliga taalluqli muhr va tamg‘alariga ega bo‘lib, unda burgutning qanot qoqib uchayotgan tasviri, to‘rt xil ilonning harakatlanib turishi, har xil parranda va hayvonlarning, to‘qay mushugi, tog‘ echkisi, sher, cho‘chqalarning surati tasvirlangan. Arxeologlar mil. avv. II ming-yilliklarga oid zardushtiylik dinining paydo bo‘lishini ham Jarqo‘ton misolida taxmin qildilar. Zardushtiylik dini odatlariga kura to‘rt narsa muqaddas hisoblangan: 1. Suv. 2. Tuproq. 3. Havo. 4. Olov. Zardushtiylik dini an‘analariga ko‘ra o‘lgan kishini dafn qilishda ana shu to‘rt narsaga qatg‘iq amal qilganlar:

1. Suvga tashlash mumkin emas, chunki suv muqaddas.
2. Tuproqqa ko‘mish mumkin emas, chunki tuproq muqaddas.
3. Havoga tashlash mumkin emas, chunki havo muqaddas.
- 4 Olovga tashlash mumkin emas, chunki olov muqaddas.

Shuning uchun bu davrda o‘lganlarni tog‘u toshlarga,

odam yashamaydigan joylarga olib borib maxsus dahmalar ustiga qo‘yib, murdaning go‘shini yirtqichlar, qarg‘aquzg‘unlarga yedirganlar, suyaklarini esa maxsus idishlarga, ya‘ni ostadonlarga solib qo‘yganlar.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ni arxeologlar mil. avv. I ming-yilliklarning o‘rtalarida paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Bu dinning haqiqiy vatani qaerdaligini belgilash to‘g‘risida tortishuvlar, bahsu munozaralar va noaniqliklar bor edi. Arxeologlarning 1982-yildan Sherobod tumanidagi qadimgi yodgorliklarda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari bu fikrlarga ancha aniqlik va tuzatishlar kiritdi. Ba‘zi olimlar bu dinning vatani Xorazm deb hisoblasa, ikkinchi bir guruhi Eron deb da‘vo qilar, uchinchilari esa Baqtriya, to‘rtinchilari So‘g‘d deb hisoblar edi.

Xullas, Jarqo‘ton yodgorliklaridan topilgan topilmalar zardushtiylik dinining dastlab Baqtriya, ya‘ni Baqtriyaning shimoliy qismida, hozirgi Surxondaryo viloyati hududida bronza davrida paydo bo‘lganligini isbotlab berdi. Bu zardushtiylik dini paydo bo‘lishi tarixini 500-600-yil,

ya'ni bundan 2500-2600-yilga qadimiylashtirish imkonini berdi. Humo deb atalgan qush qiyofasidagi idishlar, ostadon deb atalgan suyakdonlar, zardushtiylik dini an'analariga muvofiq ko'mish usulining paydo bo'lishi ham ushbu fikrlar isbotidir. Arxeolog olim, akademik A. A. Asqarov Sopollitepa va Jarqo'ton qishloq xarobasi va qabristonini to'liq o'rganib, ushbu yolg'orliklar ko'hna Baqtriya hududidagi qadimgi Sharq sivilizatsiyasi va madaniyatining bir bosqichi ekanligini ilmiy jihatdan asosladi. A. Asqarov va uning shogirdlari butun manbalarni uch bosqichga bo'lib, Sopollitepaning ustki qatlamlaridan chiqqan ashyolarni «Sopolli bosqichi», Sopollitepaning ustki qatlamlaridan va Jarqo'tonning ostki qatlamlaridan chiqqan ashyolarni «Jarqo'ton bosqichi», Jarqo'tonning yuqori qatlamidagi manbalarni «Mo'lali bosqichi» deb yuritdi. Arxeolog olim B. Abdullaev Jarqo'ton qabristoni manbalarini sinchiklab o'rganib, «Mo'lali bosqichi»ning ikki davrdan: «Ko'zali» va «Mo'lali» davrlaridan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi. Shunday qilib, Sopolli madaniyati to'rtga bosqichga bo'linib, uning birinchi bosqichi «Sopolli bosqichi» mil. avv. XVII-XV asrlar, ikkinchi bosqich «Jarqo'ton bosqichi» mil. avv. XV-XIV asrlar, uchinchi bosqich «Ko'zali bosqichi» mil. avv. XIV asr o'rtalari va XIII asr, to'rtinchi bosqich «Mo'lali bosqichi» mil. avv. XI asrlarga oid deb belgilandi.

Sopolli madaniyati davrida kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar shaklining yetukligi va jarangdorligiga hech qaysi boshqa sopol idish tenglasha olmaydi. Sopolli madaniyatining barcha bosqichlarida sopollar, garchi birbiriga o'xshasada, sinchiklab qaralsa, farqi seziladi. Uzining nozikligi va shaklining yetukligi jihatidan «Sopolli bosqichi»ning sopollari boshqa barcha bosqich sopollaridan yasalish uslubi bilan ustun turadi. Jarqo'ton bosqichi sopollari «Sopolli bosqichi» sopollariga qaraganda og'ir va ancha qo'pol ishlangan. O'zbekistonning janubida bunday yuqori sifatli kulolchilik buyumlari tayyorlanishining sababi, avvalo yuksak dehqonchilik madaniyatining rivojlanganligi natijasidir. Sopollitepada kulolchilik hamda hunarmandchilikning ushbu turi ancha yuksalganligini mavjud ustaxonalar bilan birga boshqa yirik inshootlar, ya'ni qal'alar, ibodatxonalar, mahallalar ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo shaharlarining ilk namunasi deb tan olinayotgan Jarqo'ton turar joy makonida butun bir ilk shaharning barcha unsurlari topib o'rganildi.


Qadimgi Sharqning beshinchi sivilizatsiya o'chog'i sifatida fanga kirgan Baqtriyaning eng qadimgi shahri – Jarqo'ton yodgorligi - Surxon vohasida joylashgan. Bu yodgorlik 100 gektardan oshiq-maydonni egallaydi. Jarqo'tonda hokim qarorgohi, olov ibodatxonasi, saroy, shahar hunarmandlari yashagan mahallalar o'rganilgan bo'lib, u yerdan ilk zardushtiylikka oid moddiy madaniyat ashyolari topilgan

A. Asqarovning qayd etishicha, Jarqo'ton ikki qismdan iborat bo'lgan, ya'ni «Arki a'lo» va «Shahriston»dan. «Arki a'lo»da shahar hokimining qarorgohi hukmdor saroyi joylashib, umumiy-maydoni 3 gektarni tashkil etgan. Uning atrofi qalin mudofaa devori bilan o'ralib, sharqiy va janubiy tomonida shaharning asosiy aholisi dehqon va hunarmandlar yashagan «Shahriston» joylashgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 20 gektar-maydonni egallagan nekropol, yangi shahar qabristoni joylashib, 20 ga yaqin aholi turarjoy dahalari hamda dehqon, hunarmandlarning patriarxal jamoa qo'rg'onlari aniklandi.

Akademik A.Asqarovning alohida ta'kidlashicha, shaharlarning tashkil topishida, asosan aholining o'troq xo'jalik hayoti va u bilan bog'liq yana uch omil mavjudligi tarixan zarur xisoblanadi. Birinchisi qulay tabiiy sharoit, yangi unumdor tuproq, suv va boshqa geografik omillar, ikkinchisi hosildor sug'orma dehqonchilik va uchinchisi uni ta'minlovchi agrotexnikaning vujudga kelishidir. Bular shaharlarning paydo bo'lishidagi iqtisodiy omillar asosida vujudga kelgan tabaqalashgan jamiyatning diniy, harbiy va siyosiy jihatdan boshqaruv tizimi tug'ilishiga sharoit yetilgan bo'lishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlar, dehqonchilikda sun'iy sug'orish tizimining kashf etilishi daryolardan magistral kanallar orqali yangi yerlarga suv chiqarishni ta'minladi. Yerni ishlashda omoch va hayvon kuchidan foydalanish, to'qimachilik sohasida yigiruv va to'quv dastgohining, kulolchilikda charxning va murakkab xumdonning, metall eritish va quyish texnologiyasining kashf etilishi, uy hayvonlaridan transport sifatida foydalanishga, qurilishda Asosiy savollar asosida uyjoy va monumental binolar qurishga o'tish, atrof muhit qaqida to'plangan bilimlar asosida astronomiya, astrologiya, quyosh soati, taqvim, murakkab hisoblash tizimini ixtiro etish va boshqalar tufayli ijtimoiy hayotda tabaqalanish yuz berdi. Olimning tinimsiz mehnati tufayli uch gektarni tashkil etgan Arki a'lodan somon qushilgan xom g'ishtdan ishlangan, eni 3 metr, balandligi 56 metr bo'lgan mudofaa devori hamda uchta turar joy dahalari, maxsus chilangarlik ustaxonasi,

kengligi 70 sm, uzunligi 2,5 m, balandligi 1 m keladigan supa ustida beshta o‘choq topildi. A. Asqarov va uning shogirdlari bilan hamkorlikda Ark-maydonidan butun bir metall eritish sexi ochilib, «Metallurgiya zavodi» bir-biriga yaqin qilib qurilgan ikkita ikki yarusli doirasimon metall eritish pechkalari ochildi. Arxeolog tadqiqotchilar erishgan eng katta yutuqlardan biri Shahrison qismidan keng poydevorsupa ustiga qurilgan uyjoy majmualarini qazish jarayonida xonalarning biridan qabila oqsoqolining qabri topildi. qabr topilgan xona to‘rt xonali uyning eng kattasi bo‘lib (maydoni 39 kv. m), uning g‘arbiy devori ichiga mo‘rili o‘choq joylashtirilgan. qabrdan topilgan ashyoviy manbalar asosida oqsoqolning nafaqat jamoa sardori, balki hayotlik davridagi kasbikorini ham anikdab berish mumkin. Sardor qabrida 50 dan ortiq ashyolar bo‘lib, shundan 17 tasi oqsoqolning kasbiga aloqador buyumlardir. Oqsoqolning qabiladoshlari tomonidan marhumga uning ruhi narigi «dunyoga» toliqmay, dadil yetib borishi uchun har xil ovqatlar qo‘yilgan. Marhumning oyoq tomoniga 30 dan ortiq turli xil sopol idishlar, 2 ta bronzadan ishlangan kosalar, surmadon va 2 ta to‘g‘nag‘ichlar qo‘yilgan. Buyumlar qabr egasining usta zargar va ohangar bo‘lganligini isbotlaydi.

#### Jarqo‘tondan topilgan muhrlar



Jarqo‘ton yodgorligidan topilgan ilk shahar – davlat hukmdorlariga tegishli muhrlar.

Jarqo‘ton muhrlari, yasash texnologiyasi va shakllariga ko‘ra qadimgi Sharq dunyosi muhrlari bilan bir qatorda turadi. Ular bronza, tosh va sopolardan yasalgan bo‘lib, ishlanish xususiyatiga ko‘ra yuksak o‘rinni egallaydi.

Akademik A. Asqarovning xizmatlaridan yana biri otashparastlar ibodatxonasining topilishi bo'ldi. Bu majmua Arki a'lodan 350 metrlik chamasi janubisharqda, ya'ni Jarqo'tonning eng baland qismida qad ko'targan. Jarqo'ton ibodatxonasi to'g'ri to'rtburchak shaklda (44,5x60 m), tomonlari yorug'likka moslashtirilib qurilgan hamda chor atrofi xom g'ishtli qalin (4,5 metr) mudofa devorlari bilan o'rab olingan. Jarqo'ton ibodatxonasi ikki qismdan, ya'ni muqaddas sajdagoh va uning qoshidagi xo'jalik xizmat qismidan iborat maskandir. Shahar devorlari somonli loydan tayyorlangan g'ishtdan qurilgan. qabrlar asosan uy ichiga joylashtirilgan. Chunki aholi marhumlar u dunyoda ham yashaydilar, degan tushunchada bo'lgan. qabrlarda erkaklar o'ng biqini (tomoni), ayollar chap biqini bilan xuddi bola ona qornida yotgan paytdagidek g'ujanak holda yotqizilib dafn etilgan. Har bir qatorda 10 dan 50 tagacha sopol va bronzadan yasalgan idishlar, oziq-ovqat qo'yilgan. Bu sopol idishlar turlicha bo'lib, ular xum va xurmacha, vaza, choynak, kosalar, ko'zacha va laganlardan iborat. Idishlar shunchalik nafis va jarangdor qilib yasalganki, bu o'sha davrda kulolchilik juda taraqqiy etganligidan nishona beradi. qabristonni qazish vaqtida xumlardan uzum va jiyda urug'lari topilib, ular bog'dorchilikning ham ancha rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. X asrga kelib bir qator tabiiy va ijtimoiy sabablar oqibatida Jarqo'tonda hayot to'xtaydi. Bronza davrining ilk shahri hisoblangan Jarqo'ton siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan markaz sifatidaga o'rnidan judo bo'ladi hamda ko'p-yillar mobaynida bu yerda qaynab turgan hayot izlari so'nadi.

### **Surxon vohasi ilk temir davrida.**

#### **Dastlabki davlatchilik birlashmalarining shakllanishi**

Sopolli madaniyatining inqirozi natijasida vohada yangi bir madaniyat, ya'ni Kuchuktepa madaniyati shakllandi. Kuchuktepa madaniyati Sopolli madaniyatidan sinfiy munosabatlarning yanada kuchayuvi bilan farqlanadi. Kuchuktepa madaniyatida ko'zga tashlanadigan yana muhim bir xususiyat sun'iy sug'orishga asoslangan anhorning barpo qilinishidir. Chunki bronza davrida ziroatkorlik xo'jaligi asosan soy va daryolarning bo'ylarida shakllangan bo'lsa, bu davrga kelib yangi yerlar o'zlashtirildi va anhorlar qazildi. Ana shu xil

sugʻorish manbalari asosida Sherobod, Bandixon, Shoʻrchi dehqonchilik markazlari shakllandi.

Ushbu dehqonchilik oʻlkalarida Kuchuktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Hayitobodtepa, Gʻozimulla, Bandixontepa kabi istehkomli qoʻrgʻonlar qad rostladi. Mil. avv. I ming-yillikning birinchi yarmidan boshlab temirdan yasalgan mehnat qurollarining keng miqyosda yoyilishi jamiyat hayotida tub oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib keldi. Arxeologik tadqiqotlar natijasiga koʻra Surxon vohasida soʻnggi bronza va ilk temir davriga oid qadimiy madaniyat namunalari nihoyatda koʻp ekanligi aniqlandi. Mil. avv. I ming-yillikning birinchi yarmidan boshlab vohada temirdan mehnat va urush qurollari yasala boshlaganligi isbotlandi va ishlab chiqarishning xoʻjalik shakllari yana gurkirab rivojlandi. Sherobod, Boysun, Jarqoʻton, Bandixon, Shoʻrchi tumanlaridan topilgan arxeologik manbalarga tayanib viloyat hududida ziroatchilik bilan shugʻullanish usullari nihoyatda qadimiy va anʻanaviy ekanligini bilish mumkin.

Surxon vohasida dehqonchilikning takomillashib borganligini sunʻiy sugʻorish shaxobchalarining barpo qilinishi natijasida paxta, arpa, don, zigʻir, kunjut, qovun urugʻlari qoldiklari namunalarining topilishidan ham bilish mumkin. Ajdodlarimizning tinimsiz izlanishda boʻlganliklarini isbotlovchi manbalar beqiyos, masalan, mil. avv. VII–VI asrlarga oid Bandixon vohasidagi sunʻiy sugʻorishga oid kanal qoldiqlari, murakkab mudofaa inshootlari, Bandixontepa, Kuchuktepa, Qiziljartepa manbalari bunga misol boʻla oladi. Shunday boy tarixiy manbalarni oʻrganish va ularni ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga molik hamda kechiktirib boʻlmas vazifadir.

Surxondaryodagi qadimgi madaniyat jahon sivilizatsiyasi yutuqlarida oʻz oʻrni hamda salohiyati bilan ajralib turadi, ana shunday joylardan biri Kuchuktepa yodgorligidir. Vohadagi arxeologik qazilmalar boy tarixiy merosimizni oʻrganishni yanada mukammallashtirib, oʻtmish ajdodlarimiz turmush tarzini yoritishga alohida hissa qoʻshmoqda. Kuchuktepa yodgorligi mil. avv. IX–VIII asrlar (Muzrabod tumani)ga oid boʻlib, bu yerdan qoʻlda yasalib, ustiga qizil buyoqda naqsh solingan sopollar chiqdi. Kuchuktepaning ustki qatlamlaridan esa silindr-konus shakliga ega boʻlgan va kulolchilik charxida juda puxta qilib ishlangan idishlar topildi. Akademik A. Asqarov Kuchuktepa majmualarini davrlashtirib, Kuchuk I majmuasini mil. avv. XI–VIII asrlar yoki soʻnggi bronza davri, Kuchuk II, III va IV larni esa mil. avv.

VIII asrning ikkinchi yarmi va V asr boshlari bilan belgilashni qayd etdi. Kuchuktepa xarobalaridan topilgan xom g'isht va paxsadan bino qilingan istehkomlar, ular atrofidagi to hozirgi kungacha saklanib qolgan sug'orish ariqlarining quruq o'zanlari, sopol va metall buyumlar so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatini o'rganishga imkon beradi.

Kuchuktepa madaniyati keyinchalik Baqtriya madaniyati uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Surxon vohasida ilk temir davriga oid yodgorliklar ham anchagina bo'lib, bunga Jondavlattepa, Qiziltepa, Tallashqontepa, Bandixontepa, G'ozimulla va Hayitobodtepa kabi yodgorliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Dehqonchilik-maydonlarining kengayishi, mehnat qurollarining takomillashuvi va Bandixon vohasida sun'iy sug'orish inshootining barpo etilishi natijasida mehnat unumdorligi oshib, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarila boshladi. Ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi esa ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga sabab bo'ldi.

Temir buyumlarni hayotda keng miqyosda qo'llash qishloqlar taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. qishloqlarning atroflari mudofaa devorlari bilan o'ralib, ushbu manzilgohlar qal'alarga aylanib bordi.

Shu davrda ham dehqonchilik o'lkasi o'zining bosh shahriga, qishloq qo'rg'onlariga, harbiy istehkom va ibodatxonalariga ega bo'la boshladi. Arxeolog olimlardan A. Asqarov, L.I. Albaum va A. Sagdullaevlar tomonidan ushbu davrni o'rganish borasidagi sa'y harakatlar natijasi o'laroq qiziltepa va Hayitobodtepa shaharlarining umumiy-maydoni 10–12 gektar atrofida ekanligi aniqlandi. Ushbu shaharlar mudofaa inshootlari bilan o'ralgan bo'lib, asosan 2 qism, ya'ni arki a'lo va shahriston qismlaridan iboratdir. Sho'rchi tumanida joylashgan Qizilcha yodgorligi ham qadimgi Baqtriya uy-qo'rg'onlaridan biri bo'lib, bu yerdagi uy-joylar paxsa va xom g'ishtdan barpo etilgan. Bu yerning aholisi ham sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari bilan shug'ullangan.

Mil. avv. II ming-yillik oxiri I ming-yillikning birinchi yarmida vohada ibtidoiy munosabatlarning to'liq yemirilib, sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni sodir bo'ladi. So'ngti bronza va ilk temir davrida o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan aholining madaniy jihatdan chorvador qabilalarga nisbatan ancha ustunligi seziladi.

Xullas, Surxondaryo voqasida so'nggi bronza davriga mansub atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralib mustaxkamlangan qishloq

xarobalarining topib tekshirilishi bronza davri madaniyatini o'rganishda juda boy va qimmatli manbalar berdi. Keyingi-yillarda o'tkazilgan arxeologik tekshirishlar tufayli ilk temir davriga oid bir qancha ajoyib madaniyat yodgorliklari aniqlandi.

Sinfiy tabaqalanish kuchaygan sayin jamiyatni boshqarish qiyinlashadi. Jamoa boyliklarini taqsimlash, jamoani boshqarish, sug'orish inshootlarini barpo qilish, xo'jalik ishlarini yo'lga qo'yish, urug' va qabilalararo munosabatlarni tartibga solish, qo'shni qabilalar hujumini bartaraf etishni tashkil etish davlat zimmasidagi muhim vazifa edi. Shunday qilib, mil. avv. VIII–VII asrlarda Surxon vohasi hududlarida davlatchilik munosabatlarining shakllanishi uchun ehtiyoj tug'iladi va shu zaruriyat asnosida tarixi 2700-yilga borib taqaladigan qadimgi Baqtriya davlati qaror topadi. qadimgi Baqtriya davlati Eron ahamoniylari istilosiga qadar shakllangan davlat birlashmasi edi. Qadimgi Baqtriyani boshqargan sulolalar to'g'risida biror bir ilmiy xulosaga kelish qiyin.

Ahamoniylar saroyida tabiblik qilgan yunon muarrix Ktesiy (430354)ning «Persika» asarida Baqtriya la'li to'g'risida hamda Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan istilochilik yurishlari haqida ma'lumotlar mavjud. Ktesiyning ma'lumotlariga ko'ra, o'sha paytda Baqtriyaning podshosi Oksiart ismli kishi bo'lgan. Nilning Baqtriya zaminiga juda katta qo'shin bilan hujum qilganligini inobatga oladigan bo'lsak, o'sha davrda Baqtriyaning harbiy qudrati ancha yuksak darajada ekanini taxmin qilish mumkin. Bu davrda Baqtriya aholisining katta qismi ziroatkorlik va hunarmandchilik bilan mashg'ul edi. «Avesto»ning «Videvdat» (ikkinchi nomi «Vendidod») kitobida Baqtriya eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf Baqtriya nomining kelib chiqishi haqida to'xtalib, «Baqtriya daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan», deb hisoblaydi.

Mil. avv. 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri hisoblanadi. Baqtriya davlatining bu qadar yuksak darajada rivojiga qudratli shahar va qal'alarning ushbu davlatning markaziy savdo yo'llari ustida joylashganligi, hunarmandchilik rivoji va boshqa omillar sabab bo'lgan.

Shunday qilib, Eron ahamoniylari istilosiga qadar Janubiy O'zbekiston mintaqasida qadimgi Baqtriya davlati mavjud edi. Ushbu davlatning istehkomli qal'a va shaharlari sifatida Kuchuktepa, qiziltepa,

Tallashqon va Bandixon 2 manzilgohlarini ko'rsatish mumkin. Bularning har biri mahalliy hokimlarning o'rdasi hisoblanib, qadimgi Baqtriya podsholigi esa ushbu tuman va viloyatlarni birlashtiruvchi harbiy demokratik tipdagi konfederatsiya edi.



### **Axborot-uslubiy ta'minot**

Ushbu mavzuni o'tishda ta'limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda "So'zli tasavvurlar" pedagogik metodidan hamda mavzu bo'yicha vizual materiallar texnologiyasidan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko'zda tutilgan.

### ***So'zli tasavvurlar***

#### *Ta'rifi*

- O'rganilayotgan masala bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy so'zni oling.
- O'quvchilardan ular bu so'zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so'zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.
- Birona so'zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o'quvchilar dastlabki so'z bilan tasavvur qiladigan turli so'zlardan iborat "bir lahzalik surat" hosil bo'ladi.
- Mavzu o'rganib bo'lingandan so'ng har bir o'quvchidan ular ushbu mavzu bo'yicha nima deb o'ylashi yoki his qilishini bir so'z bilan

ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

Foydalanish doiralari

Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Afzalliklari


Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta’lim sifatini baholashga yordam beradi.

Qiyinchiliklari



Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat’iyan amal qilish lozim. Jarayonning cho‘zilishi mashq mohiyatini o‘zgartirishi mumkin.

Mavzu bo‘yicha vizual materiallar

**Savol: Surxondaryo viloyati tarixining eng qadimgi davrini o‘rganish va muhokama qilish usullari.**



## Mavzuga doir interfaol vazifalar taqsimoti



### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Poleolit davrida Suxrondaryo vohasida insoniyat tomonidan yaratilgan predmetlarning kundalik hayotdagi o'rnini izohlab bering.
2. Vohada ilk ziroatchilik omillari.
3. Ilk temir davrida Surxon vohasining ijtimoiy ahvoli.

### Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k. T.: «Sharq», 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1jild T.: «O'zbekiston», 1996.
3. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.—T.:Sharq, 2001.
4. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zgasida. T., 2001.
5. Annaev T. Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar T., 1997.
6. Xolmirzaev A. Zarautsoy sirlari. T., 2003.
7. Azimov M. Termiz tarixi, Termiz, «Jayhun», 2001.
8. Aminjonova T.N. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T., «O'qituvchi», 1977.

9. Berdiev X., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., 1991.
10. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severnaya Baktriya Taxaristan problemi istorii i kulturi, T. «Fan», 1990.

### **3-Ma'ruza: Surxon vohasi Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibida**

#### **Asosiy savollar :**

1. Baqriyaning tarixiy geografik joylashuvi.
2. Ahamoniylar istilosi va uning oqibatlari.
3. Baqtriyada yunonmakedon istilosi.
4. Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibida.

#### **Tayanch so'zlar:**

Baqriya va uning tarixiy geografik joylashuvi. Baqtriyayada Ahamoniylar istilosi. Baqtriyada Iskandar istilosi. Katan qo'zg'oloni. Baqtriya va Salavkiylar davlati. Antiox I islohotlari. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga ta'siri.

Ma'lumki, qadimgi Baqtriyaning hududiy joylashuvi va geografik chegaralari haqidagi masala XIX asrdan boshlab muhim ilmiy muammo sifatida o'rganib kelinmoqda. 1877-yili avstraliyalik sharqshunos V.Tomashek birinchilardan bo'lib Baqtra satrap (hokim)ligining Oksdan shimolga yoyilganligi haqidagi g'oyani ilgari surgan edi. Bu g'oyani arxeologiya ma'lumotlariga asoslangan M.M.Dyakonov rivojlantirdi va «Shimoliy Baqtriya» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi. Shu davrdan boshlab bu atama shimoldan Hisor tog' tizmasi, g'arbdan Ko'hitang tizmasi, janubdan Amudaryo, sharqdan Pomir tizmalari bilan chegaralanuvchi keng geografik hududni anglatadigan bo'ldi. Lekin bir qator olimlar bu fikrga qo'shilmaydilar. Ular yozma manbalarga tayangan holda yuqorida ko'rsatilgan hudud So'g'diyonaga qarashli bo'lgan va Baqtriyaning shimoliy chegarasi Amudaryo Oks orqali o'tgan deb hisoblaydilar. Amerikalik olim R. Frayning fikriga ko'ra, Baqtr shahri keng qamrovli o'lkaning madaniy markazi bo'lib, uni shimoldan, sharqdan va janubdan tog'lar o'rab turgan. Uning yerlarini sug'oruvchi Amudaryo uni ikki qismga: janubiy Surxondaryo viloyati, shimoliy Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg'oniston)ga ajratib turgan.

Mutaxassislar tomonidan Shimoliy Baqtriya hududida joylashganligi taxmin qilinayotgan Gabaza va Paretaka viloyatlarining geografik o'rni

masalasi ham ko‘rib chiqildi. Ma‘lumki, Kursiy Rufning «Iskandar tarixi» va Arrianning (95 175) «Iskandar yurishlari» asarlaridagi xabarlarida Shimoliy Baqtriya va So‘g‘diyona joylashgan viloyatlar, qal‘alar va shaharlar xususida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Uning ma‘lumotlariga ko‘ra, Iskandar yurishlarining uchinchi oyida qo‘shin bilan qishlik qarorgohidan chiqqan va Gabaza viloyati sari yurish qilgan.

Iskandarning Markaziy Osiyo janubiy viloyatlariga yurishining ikkinchi bosqichi mil. avv. 327-yilning bahorida boshlangan bo‘lib, asosan «paretaklar mamlakati» orqali o‘tganligi aytiladi. Ushbu viloyatning joylashgan o‘rni xususida olimlar turlicha fikr bildiradilar. Masalan, V.Tomashekiing fikriga ko‘ra, Paretaka viloyati Badaxshon hududida joylashgan va u tog‘li mamlakat bo‘lgan. V.V.Grigorevning taxminicha, Paretaka atamasi «tog‘li mamlakat» ma‘nosini anglatib, u Surxondaryo, Surxon va Kofirnihon vohalarida, ya‘ni Hisor o‘lkasining o‘rta va shimoliy qismida joylashgan. I.Markvart Paretakani «daryo yuvib turuvchi viloyat» deb ataydi va uning hozirgi Surxondaryo viloyati va Tojikiston hududida joylashganini ma‘lum qiladi.

Baqtriya davlati keng bepoyon o‘lka bo‘lib, janubda Hindiqush (Parapamis), shimolda So‘g‘diyona, g‘arbda Marg‘iyonagacha (Murg‘ob vohasi) bo‘lgan hududlardan iborat bo‘lgan. Mashhur tarixiy manba «Avesto»da bu o‘lkaning beqiyos yurt ekanligi ta‘riflanadi va Baxdi (Baqtriya) bayrokdari doimo baland hilpirab turadigan, ya‘ni shonshavkat o‘lkasi sifatida tilga olinadi. Baqtriyaning tarkibiy qismi bo‘lmish hozirgi Surxon vohasi hududi Oksning o‘ng soxilida joylashgan nihoyatda ravnaq topgan yirik shaharlarga ega bo‘lib, ular savdosotiq rivojlangan iqtisodiyosiy va madaniy markazlar sifatida mashhur edi. Baqtriyani yirik sulolalar boshqaradi, uning siyosiy kuchi cheksiz, harbiy qudrati shu darajada dahshatli ediki, hatto u yirik davlatlarni ham qo‘rquvga solib turgan. Yunon tarixchisi Ktesiyning yozishicha, Ossuriya (Geradotning aytishicha, eroniylar Suriyani shu nomda yuritishgan) podshosi Nin Baqtriyaga qarshi 1 mln. 700 ming piyoda, 210 mingdan ko‘proq otliq askar, 10 mingdan ortiq jang‘ aravalari bilan bostirib kelib, butun shahar va qishloqlarni talab, ko‘plab oltin kumushlar va qullarni olib ketgan. Muarrir Pompey Trog qadimgi manbalarni ko‘zdan kechirgan holda yozishicha, Ninning Baqtriyaga kdlgan bosqinchshshk yurishi davrida «... Baqtriya podshosi Zardusht (Zaroastr) bo‘lgan» ekan. Akademik A. Asqarovning ta‘kidicha:

«Ktesiy hikoyalarining asosida qandaydir tarixiy haqiqat borligiga ishonish qiyin emas. Masalan, Baqtriya bilan Ossuriya o'rtasida iqtisodiy aloqalar bo'lganiga shubha yo'q, chunki Baqtriyadan o'z davrida Ossuriyaga ikki o'rkachli tuyalar qatnagan, bu tuyalarda Baqtriya lazurati oqib borgan. Bular haqida Sargon II davri (mil. avv. VIII asr)ga oid manbalarda xabarlar beriladi».

A. Asqarov davom etib yozadi: «Mil. avv. VIII–VII asrlarda bir butun yirik madaniyat markazi sifatida shakllangan yurtlardan biri Baqtriyadir. Uning hududini O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Janubiy-g'arbiy Tojikiston yerlari, Shimoliy Afg'oniston (va Sharqiy Turkmaniston *B.M.*) tashkil etadi. Bu yurtda mil. avv. VIII–VII asrlarda «qadimgi Baqtriya podsholigi» tashkil topdi. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar shu yurtda shakllandi. Bu yurt zardushtiylik dinining ilk makonidir. Uning hukmdori Kavi Vishtaspa esa Zaratushtra diniy islohotini birinchilar qatorida qabul qilib, uni davlat dini deb e'lon qilgan».

**Iskandar istilosi.** Eron ahamoniylariga qarashli ko'pgina hududlarni egallagan Iskandar mil. avv. 329-yilda o'zining azaliy dushmani Doro III ni o'ldirtirgan Baqtriya satrapi Bessdan «qasos» olish bahonasida Araks (Amudaryo)dan kechib o'tib hozirgi Surxondaryo hududlariga bostirib kiradi. Iskandar istilosi arafasida Baqtriya satrapligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan o'lkalardan biri hisoblanardi. Kursiy Rufning ta'kidiga asoslanib Baqtriyadan Oks daryosi kechuvigacha bo'lgan masofani 400 stadiy (75 km) deb hisoblasak, Iskandar askarlari Termiz va Kelif shaharlari oralig'idagi kechuvdan o'tganligi ma'lum bo'ladi. Ushbu kechuv joyi Termizdan g'arbda joylashgan Sho'rob va Cho'chqaguzar kechuvi bo'lgan. Bu paytda Bess va uning hamrohlari Nautakaga chekingan edi. Iskandar hujumiga duchor bo'lgan ilk makonlardan biri hozirgi Sherobod tumani hududida joylashgan Tallashqontepa o'rnidagi Branxiylar shaharchasi xisoblanadi. Iskandarni Nautakaga olib boradigan asosiy yo'l ham aynan Sherobod vohasidan o'tgan bo'lib, bu yo'l suv manbalari, oziqovqat mahsulotlariga boy makonlari bilan qadimdan mashhur edi. Sherobod vohasida qadimiy dehqonlarning qishloqlari mil. avv. XVII-XV asrlardayoq paydo bo'lib, shuning uchun ham ushbu vohada ko'plab qo'rg'onlar joylashgan. Sherobod vohasini kesib o'tib So'g'diyonaga eltuvchi bu yo'l makedonlar uchun juda qulay bo'lgan.

Tallashqontepada olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida akademik E.V. Rtveladze bu tepada bir paytlar bino bo'lgan shaharni

yunon branxiylari nomi bilan bog'laydi. Yunon branxiylari bu zaminga Aleksandr Makedonskiy (356323) yurishlaridan 150-yil burun kelib qolganlar. Bu voqealar ahamoniylar shohi Kserksning Yunonga yurishi paytida, ya'ni mil. avv. 480-yilda ro'y beradi. Kichik Osiyo hududida joylashgan Milet shahrida Branx ismli nufuzli kohin avlodlari bunyod etgan Apollon xudosi sharafiga qurilgan mashhur ibodatxona bo'lib, Eron-Yunon urushi vaqtida shahar aholisining behuda qirilib ketishini istamagan kohinlar fors shohi Kserksga ibodatxona xazinasini topshiradilar. Keyinchalik branxiylar yunon xalqining g'azabidan qo'rqib, intiqomdan cho'chib, yengilgan forslar bilan Eronga qochishga majbur bo'ladilar, chunki ibodatxona xazinasini muqaddas sanalib, u daxlsiz hisoblangan. Manbalarning g'uvohligicha, miletliklarni shoh Kserks gononlar sira yetib borolmaydigan sharq tomondagi viloyatlardan biriga ko'chirib yuboradi. Kursiy Rufning aytishicha, branxiylar Amudaryoning narigi tomonidagi yerlarda kichik bir shaharchaga asos solganlar. Oradan 150-yil o'tgan bo'lsa hamki, branxiylar, mahalliy xalq an'analar qabul qilgan bo'lsalarda, o'zlarining urfodatlarini, rasmlarini hali esdan chiqarmagan edilar.

Iskandar Oksdan kechib o'tadi. Bu kechuv joyi, E.V. Rtveladze va A. Sagdullaevlar fikricha, Sho'rob qo'rg'oni (Turkondaryo, ya'ni Sherobodaryoning davomi qorasuvning Amudaryoga quyilish joyi) orqali sodir bo'lgan, sababi Baqtra (Balx)dan daryoning o'ng sohilida joylashgan Sho'rob qo'rg'oni (Paradagvi)gacha bo'lg'an masofa 70 km, Kalifgacha bo'lg'an masofa 90 km ni tashkil etadi. qolaversa, Kalifdan Nautaka (goho Ksenippa, qdrshi)ga borish qiyin, chunki u yerlar cho'l mintaqasiga kiradi, Iskandar esa o'z qo'shinini zinhor muqarrar o'lim changaliga tashlamas edi. Demak, Bessni ta'qib etgan Iskandarning Oks (Amudaryo)dan o'tgan joyi har qalay Sho'robqo'rg'on bo'lganligi haqiqatga yaqin turadi. qolaversa, manbalarning g'uvohdigicha, Bess o'z hamrohlari Spitamen va boshqalar bilan Termiz orqali Oksdan o'tadi hamda ko'prik vazifasini o'tovchi yagona kemani yondirib ketadi. Bundan tashqari Turkondaryo (Sherobodaryo) sohili bo'ylab qarshiga borish va Maroqandga yurish ancha qulay bo'lib, aholi xuddi shu vohalarda yashar edi, bu esa oziqovqat muammolari va yemhashak uchun juda muhim edi. qadimiy ipak yo'li ham xuddi shu hududdan o'tganligi taxmin etiladi.

Iskandarning Shimoliy Baqtriya yerlariga hujumi davrida bu yerda Kuchuktepa, Beshqo'ton, Tallashqon, Jondavlat, Bandixon, Bo'yirachi,

qizilcha va boshqa ko'plab mustahkam qal'alar va uyqo'rg'onlar bo'lgan. Surxon vohasining markazi qiziltepa bo'lgan, aholi sug'orma ziroatkorlik xo'jaligi bilan shug'ullangan. Yuqorida nomlari zikr qilingan arxeologik manzilgohlarda olib borilgan qazish ishlari jarayonida ko'plab miqsorda sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan urush va mehnat qurollari, urchuq toshlar, igna va zebziynat buyumlarining topilishi bu davrda qurilish, hunarmandchilikning temirchilik, kulolchilik, to'quvchilik, tikuvchilik va zargarlik sohalari jiddiy taraqqiy etganligini bildiradi. Iskandarning harbiy yurishlari to'g'risida qalam tebratgan Kursiy Ruf Baqtriya haqida ma'lumot berib, «Baqtriyaning tabiati boy va turli tumandir. Ba'zi joylarda ko'pdan ko'p daraxtzorlar, tok novdasi shirin va serob meva hosil qiladi, unumdor yerlarni ko'p sonli buloqdaryolar sug'oradilar, hosildor tuprog'ida bug'doy ekiladi, boshqa yerlar o'tloq uchun qoldiriladi», deb yozadi Kvint Kursiy Ruf. Shimolig'arbiy Baqtriyadagi ikki viloyat Paretaka va Bubakenani tilga olgan. Ushbu viloyatlardan biri Paretakaga Sherobod vohasi va unga tutash tog'oldi hududlari kiradi, Bubakenaga esa Bobotog'ning har ikkala hududlari, ya'ni kun chiqish va kun botish tomonlari ham kirgan.

Iskandar Paretakadagi qo'zg'olonni bostirish uchun Krater ismli sarkardasi boshliq qushinni qoddirib, o'zi Amudaryodan o'tib, Zariaspagaga (Balxning ikkinchi bir nomi) yo'l oladi. Paretakada ko'tarilgan qo'zg'olonga Katan va Avstan ismli jangchilar boshchilik qilishgan. Ikki o'rtada kechgan shafqatsiz jang jarayonida Katan va bir yarim ming baqtriyalik qo'zg'olonchilar halok bo'ladi, Avstan esa asirga olinadi. Yunonlarning Paretakadagi aynan mana shu janggi Baqtriya tuprog'idagi oxirgi janglardan biri edi.

Iskandarning istilosi davrida voha aholisi juda katta yo'qotishni boshidan kechiradi. Xususan, viloyatdagi Baqtriya madaniyatiga oid bo'lgan 36 ta yodgorlikning 33 tasi vayron qilinadi. Shahar va qishloqlar vayron bo'lib, ilg'ari aholi gavjum yashagan Muzrabod, Sherobod, Bandixon va Mirshodi vohalarini odamlar tashlab ketib, boshqa joylarni makon tutadi. Yunonlar bilan bo'lgan jangda juda ko'plab aholi qirilib ketadi. Xo'jalik qayoti ancha izdan chiqadi, qadimgi Baqtriya davriga oid bo'lgan boy madaniyat inqirozga yuz tutadi. Iskandar vafotidan keyin Baqtriya yerlari Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Salavkiylar sulolasining asoschisi Salavka I Nikator mil. avv. 311-302-yillar oralig'ida baqtriyaliklar ustidan ham o'z hukmronligini o'rnatadi.

Salavkiylar davlatida sharqiy satrailiklardan biri sanalgan Baqtriyaning ham o'zni juda katta bo'lgan. Salavkiylar davrida Iskandar istilosi paytida vayron bo'lgan shahar va qishloultr qayta tiklanadi, xo'jalik izga tushib, savdo jonlanadi. Aynan shu davrda ellin madaniyati bilan mahalliy madaniyatning o'zaro aralashuvi sodir bo'ladi. Baqtriyada yunon yozuvi tarqaladi. Yangiyangi qarorgohlar vujudga keladi, savdo rivojlanishi bilan yunon tangalari va yunon og'irlik o'lchovi birliklari tarqala boshlaydi.

Xususan, bu davr me'morchlligi va shaharsozligida ham ellin an'analarining keng miqyosda yoyilishi kuzatiladi. Ko'pgina tarixchilar shu paytgacha Termiz shahrining shakllanishi borasida ham ellin madaniyatining ta'siri mavjud deb hisoblaydilar. Jumladan, Hofizi Abro' Termizga Iskandar asos solgan desa, ayrim tarixchilar Termizning shakllanishini YunonBaqtriya podshosi Demitriyning nomi bilan bog'laydilar. Bu ikkala fikr ham izohga muhtoj bo'lib, Termiz shahrining shakllanishi juda qadimga borib taqaladi. Termiz shahri bronza va temir davrlarida Shimoliy Baqtriyada shakllangan Jarqo'ton, Tallashqon, Jondavlat, qizilcha va shunga o'xshash shahar va qo'rg'onlarning tadrijiy davomi bo'lib, uning shakllanishida Shimoliy Baqtriya urbanizatsiya jarayonining ta'siri katta bo'lgan. Demak, Termizning shakllanish jarayoni Yunon-Makedon istilosidan oldingi davrlarga borib taqaladi. Demak, Ipak yo'lining shoh bekatida joylashgan Termiz shahrining mil. avv. VI–V asrlargacha rivojlangan shahar bo'lganiga shubha yo'q.

Aleksandr Makedonskiy Termiz shahrini tayanch qal'a sifatida mustahkamlab, unga «Oks bo'yi Aleksandriyasi» nomini berganlig'i ingliz olimi V. Tarn asarlarida qayd etilgan. Iskandar daryo bo'yidagi bu manzilgohni mahalliy xalq g'alayonlaridan saqlash uchun muhim harbiy istehkom shaharga aylantirish Asosiy savollarsi bilan uni qayta qurdiradi. Urush oqibatida xarobaga aylangan shahar qayta ta'mirlanib takror tiklangach, unga «Oks Iskandariyasi» deb nom qo'yadilar. Aleksandr Makedonskiy yurishigacha ham daryo sohilida shahar mavjud bo'lgan, unda odamlar yashagan. Buni isbotlovchi yanga bir topilma yaqinda Eski Termiz hududida qayd qilindi, ushbu manzilgoh ham mil. avv. 3-ming-yillikning o'rtalariga taalluqlidir. Biroq Iskandar vafotidan so'nggi taxt talashishlar Termizning ijtimoiy hayotaga salbiy ta'sir ko'rsatib shaharda birmuncha vaqt taraqqiyotning sustlashgani haqida arxeologik va yozma manbalar xabar beradi. Shuning uchun bo'lsa kerak A.

Tomashek Termizning eng birinchi nomlari sifatida Antioxiya, Tarmita nomlarini keltiradi. Garchi bu fikr to‘liq isbotlangan bo‘lmasada, Termizning Antioxiya deb nomlanishi tarixiy haqiqat bo‘lib, buni biz qoratepa yodgorligidan topilgan sopol idish parchasida mazkur nomning uchrashida ham ko‘rishimiz mumkin. Boisi mil. avv. II asrda hukmronlik qilgan shoh Antiox xarobaga aylangan shaharni qaytadan tiklaydi va uni o‘z nomi bilan «Oks Antioxiyasi» deb yurita boshlaydi.

Termiz shahri tarixini o‘rganishda Salavkiylar va Yunon-Baqtriya shohlarining nomidan zarb qilingan tangalar alohida o‘rin egalladi. Bu topilmalar mil. avv. III-II asrlardayoq Termizning kattagina shahar bo‘lganligidan dalolat beradi, shahar taxminan 10 gektar-maydonni ishga‘ol etgan. Arxeologik izlanishlar tufayli Termiz xarobalaridan mil. avv. IV-III asrlarga oid madaniy xammom topildi. Zikr etilgan asrlarda shaharning ancha tez sur‘atlar bilan rivojlanganligini taxmin etish mumkin bo‘ladi. Arxeologik izlanishlar natijasida Termizning mil. avv. III-II asrlarga oid moddiy madaniyatini yorituvchi turli topilmalar qayd etildi. Fil suyagidan yasalgan turli narsalar, ayol ma‘budaning haykalchasi, nay bo‘lagi to‘pilmalari shaharda kulolchilik taraqqiy qilganligidan dalolat beradi.

Kushon davlatining asosiy beshiklaridan biri hisoblangan Surxon vohasi bu davrga oid Eski Termiz, Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Kampirtepa, Zartepa kabi shaharlari, Qoratepa, Fayoztepa singari buddaviylik ibodatxonalari bilan qadimgi dunyo tarixi va madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Bu shaharlar va buddaviylik ibodatxonalaridan topilgan devoriy suratlar, qadimgi yozuvlar, haykaltaroshlik, hunarmandchilik, zargarlik namunalari bilan jahon san‘atida munosib o‘rin egallagan. Bu hudud aholisiga qadimdan va ayniqsa, Kushon podsholigi davrida diniy bag‘rikenglik xos bo‘lgan.

### **Axborot-uslubiy ta‘minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta‘limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda “Bahs munozara” hamda “Assotsatsiyalar” pedagogik metodlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan.


**“Bahs-munozara” metodi** - biror mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida (7-chizma) “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



**“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

#### **“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

#### **“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

### **Ma'ruza mashg'ulotlarida Assotsiatsiyalar metodidan foydalanish texnikasi**

#### *Ta'rif*

O'quvchilarning har bir guruhiga bo'lajak mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan so'z yoki gap yozilgan plakat beriladi. Uning quyiga o'quvchilar ana shu so'z yoki gap ularning ko'zlari oldida gavdalantiradigan tasavvurlarini yozib qo'yadilar. Masalan: plakatda vertikal yo'nalish bo'yicha tanlangan mavzu bilan bog'liq bo'lgan tushuncha yoziladi. Ushbu so'zning har bir harfiga ishtirokchilar o'z tasavvurlarini bayon qiladilar va yozadilar. Masalan:

M – muammo, muloqot, mantiq, misol, masala...

U – uddalamoq, uzluksiz, uyg'unlashtirmoq....

N – nazariya, najot, navbahor, nafosat...

O – oqilonalik, omil, omma, ong...

Z – zimma, zukko, zamon, zarar, ziynat...

A – axborot, agrotexnika, ajoyibot, avaylash...

R – reja, ravnaq, rag'bat, raqam, rahnamo...

A – ahamiyat, ahvol, aql, ahillik, afzallik...

Turli guruhlarda bo'lajak mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan har xil so'zlar bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Barcha plakatlar ilib qo'yiladi, o'qib eshittiriladi, lekin izohlab berilmaydi.

### Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda.

### Afzalliklari

Mulohaza yuritish jarayoniga barcha o'quvchilar fikrini jalb qilish, ishtirokchilarning emosional holati.

### Qiyinchiliklari

Qiyinchiliklar mavjud bo'lmasligi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1 *Baqtriyaning shaharsozidagi yutuqlari va uning arxeologik ahamiyati.*

2 *Ahamoniylar bosqinida ijtimoiy hayotning ahvoli.*

3 *Surxon vohasi hududida davlatchilik tarixining ilk ko'rinishlari.*

### Adabiyotlar.

1.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q., T., «Sharq», 1998.

2.Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.

3.Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zgasida.T., 2001.

4.Aннаev T., Shaydullaev Sh., Surxondaryo tarixidan lavhalar, «Meros» nashriyoti, 1997.

5 Pyankov I.V., Baktriya antichnoy traditsii, Dushanbe, «Donish», 1982.

6 Termiz buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. T., «Sharq»,2001.

7.Sagdullaev A.S. Usadbi drevne Baktrii. T., «Fan», 1987.

8.Sagdullaev A.S., Baktrineskaya legenda. T., «O'zbekiston», 1990.

## **4-MAVZU: YUNON BAQTRIYA VA KUSHON PODSHOLIKLARI DAVRIDA SURXON VOHASI**

### **Asosiy savollar:**

1. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Surxon vohasi.
2. Kushon podsholigi davrida Surxon vohasi.
3. Surxon vohasining Yunon-Baqtriya va Kushonlar davri madaniyati.

### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon-Baqtriya podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy-iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorliklari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

Mil. avv. 250-yilda Baqtriya satrapi Diodot Baqtriya yerlarini Salavkiylar davlatidan ajratib, Yunon-Baqtriya davlatiga asos soladi. Bu davrda Yunon-Baqtriya davlatiga nafaqat Baqtriya yerlari, balki Soʻgʻdiyona va Margʻiyona yerlari ham boʻysuna boshlagan edi. Baqtriya yerlarining Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi aholiga bir qadar yengillik beradi. Bu davrda Baqtriya satraplari, bir tomondan, salavkiylar markaziy hokimiyati xurujlariga qarshi kurashgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, Parfiya podsholari tajovuziga qarshi kurash olib boradi. Mustaqillikka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylanadi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem davrida mamlakatning chegara hududlarini mustahkamlashga alohida eʼtibor beriladi. Mil. avv. 206-yildan boshlab Baqtriya yerlariga Salavkiylar davlatining solib turgan xavfi yoʻqotiladi. Bu davrda vohada sunʼiy sugʻorishga asoslangan ziroatchilik va hunarmandchilikning qator tarmoqlari ancha yuksaladi. Pirovard natijada koʻplab shaharlar qad rostlaydi, xususan, Mirshodi vohasida yashagan aholi Dalvarzintepa oʻrnidagi shaharga, Sherobod vohasida yashagan aholining bir qismi Jondavlattepa oʻrnidash shaharga, yana bir qismi esa Tallashqon II nomi bilan atalgan manzilgohga, Shoʻrchi qishlogʻi oʻrnida esa Kofirqalʼa (Kampirtepa) singari shaxdrlarga asos solinadi. Bu davrda Termiz (Tarmita) shahrining-maydoni bir necha gektarga kengayadi. Shuning uchun ham yunon muarrixlari oʻz asarlarida Baqtriya xususida

to'xtalib: «Baqtriya ming shaharli mamlakatdir» deb ta'kidlab o'tishlari bejiz emas edi, albatta.

Baqtriya o'sha davrda juda kattagina qo'shinga ham ega bo'lgan. Tez-tez bo'lib turadigan jangu jadallar ham Baqtriya taraqqiyotini to'xtata olmagan. Xo'jalikning turli sohalaridagi rivoji natijasida savdosotiq ham ancha kamol topgan. Bu davrda baqtriyalik savdogarlar Chin-Mochin, Hindiston va Eron kabi mamlakatlar bilan iqqisodiy aloqalar olib borganlar. Baqtriya ziroatkorlari yetishtirgan mahsulotlar haqida yunon va chin manbalarida o'ta hayajon bilan so'z yuritiladi.

Baqtriyalik hunarmandlar oltin, kumush, qo'rg'oshin, qalayi, mis va bronzadan juda nafis zebu ziynat buyumlari, uyro'zg'or va xo'jalik qurollari yasaganlar. Bu davrda to'quvchilik, ko'nchilik, qurolsozlik va zargarlik hunarlari ancha yuksaladi.

**Kushonlar davlati.** Yuechjiy qabilalari Baqtriya yerlarida o'rnashgandan keyin ham ma'lum vaqt yagona davlat barpo qila olmagan. Oradan ancha-yillar o'tgach, guyshuan qabilasi sardori Kudzula Kadfiz beshta qabilani birlashtirib Kushon davlatiga asos solgan. Kushon davlatining dastlabki o'zagini Baqtriya yerlari tashkil etgan. Kushonlar davlatining dastlabki poytaxti ham Sho'rchi tumani hududida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligi hisoblanadi. Kushonlar davlatini yabg'u unvoniga sazovor bo'lgan hokimi mutlaq podsho boshqargan. Podshoning asosiy tayanchi yaxshi qurollangan harbiy qo'shin bo'lgan. Kushonlar qo'shini asosan otliq va piyoda qismlardan iborat bo'lib, ular qilich, xanjar, nayza va jangovar bolta bilan qurollangan. Kushonlar davlatida davlatni satrapliklarga bo'lib idora qilish tartibi sakdab qolingan. Kushon podsholari katta va kuchli qo'shinga tayanib, mamlakat chegaralarini kengaytirib borganlar. Olib borilgan istilochilik yurishlari natijasida Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyoning kattagina qismi Kushonlar davlatiga bo'ysundirilgan. Kushonlar saltanati podsho Kanishka davrida (78–123) nihoyatda gullab yashnaydi. Bu davrda Xitoy, Rim, Parfiya singari o'sha davrning nufuzli davlatlari bilan savdo-sotiq, iqtisodiy va rasmiy aloqalar yo'lga qo'yiladi, madaniy sohadagi aloqalar ham ancha kengayadi.



**Kushon hukumdori Xuvishka tasviri. Zartepa**

Kushonlar davrida badiiy san'at yuksak darajada taraqqiy topgan. Bu davrning yuksak mahorat bilan yaratilgan haykaltaroshlik, devoriy rangtasvir san'ati Eski Termiz, Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom kabi shaharlarda ko'plab topilgan.



**Dalvarzintepadan topilgan oltin buyumlar**

Ko'hna dunyoning to'rt imperiyasidan biri - Kushonlar imperiyasi milodiy I - III asrlarda Vatanimizning qadimgi tarixiy – madaniy o'lkasi Baqtriyada shakllanib, o'z tasarrufiga Markaziy Osiyoning katta qismini birlashtirgan. Bu davrda shaharsozlik, ichki va xalqaro savdo, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik yuksak darajada taraqqiy topgan.



**Eski Termiz. Fayoztepa. Devoriy surat**

Kushon imperiyasida hunarmandchilik va zargarlikning barcha turlari rivoj topgan. Bunday buyumlar hozirda Surxon vohasining Kushon podsholigi davriga oid 150 dan ortiq shahar va qishloqlardan topilgan.

Xitoy tarixiy manbalarida qayd etilgan guyshuanlar milodiy I asrda Baqtriyada o'z hokimiyatlarini Kioszyuko rahbarligida o'rnatib, uning asl ismi Kudzula Kadfiz edi. Kudzula Kadfiz Xyumi, Shuanmi, Xeytun, Gaofu sulolalaridan iborat to'rt hokimlikni ham o'ziga bo'ysundirdi. Baqtriyada hokimiyatni mustahkamlab olgan Kudzula Kadfiz qo'shni viloyatlar bo'lgan So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimolig'arbiy qismlarini istilo qildi. Kushonlar imperiyasini mustahkamlashda Kudzula Kadfizning o'g'li Yangaochjen, ya'ni Kadfiz II muhim ahamiyatga ega bo'lgan ichki va tashqi siyosat yuritib,

Hindistonning Hind daryosi quyi oqimlari, hatto Gang daryosi vodiysigacha bo'lgan yerlarni ham o'z ixtiyoriga o'tkazdi.

Kushogshar davlati Kanishka hukmronligi davrida, ya'ni I asr oxiri II asr birinchi choragida yanada kuchaydi. Kushonlar hokimiyatini hind zaminining janubiy viloyatlari, So'g'diyona orqali Farg'ona, Sharqiy Turkiston ham tan oldi. Kanishka davrida Turkiston o'lkasining asosiy hududlarini o'z hokimiyatiga bo'ysundirib, Xorazm bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni yana mustahkamladi. Kanishka olib borgan siyosatni Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka, Vasudeva II lar davom ettirib, siyosiy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilganlar.

Biroq siyosiy kelishmovchilik, o'zaro nizo janjallar, hokimiyat uchun kurashni kuchaytirish tufayli kushonlar saltanati asta-sekin zaiflashib borgan. Kushonlar saltanati siyosiy ma'muriy boshqaruv tizimi an'anaviy satrapiyalar tizimiga moslashuv asosida qurilgan bo'lib, satraplar oliy hukmdor tomonidan uning ishonchini qozongan, chamasi ular o'z doirasi namoyandalari orasidan tanlangan. Shu bilan birga batraplik lavozimiga harbiy yurishlarda jonbozlik ko'rsatgan lashkarboshilar ham lozim topilgan vaqtlar bo'lgan, umuman olganda esa satraplar baqtriyaliklar orasidan bo'lishi shart edi.

Kushonlar davlati qo'shini yaxshi qurollangan bo'lib, umumiy harbiy qudrati 150200 ming kishini tashkil etgan. Kushon jangchilari uzunligi 1 metrdan oshiqroq har ikki tomoni o'tkir qilich, xanjar, nayza, jangovar bolta, sipqon kabi qurollar bilan qurollangan. Kushonlar suyak yo shox bilan qoplangan murakkab qo'sh kamonni ixtiro qilganlar. Bu kamon Uraloldi yerlari orqali Shotlandiyagacha, Sharkda Eron, Hindiston va Xitoygacha keng tarqalib, harbiy ishlarda keng qo'llanilgan.

Kushonlar davrida mamlakatning iqtisodiy xo'jaligi keng taraqqiy etib, metalsozlik, shishasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanib, oltin, kumush, qo'rg'oshin, qimmatbaqo toshlar, qurilish xom ashyolari qazib olish ancha takomillashib borgan. Kadfiz II ning amalga oshirgan pul islohoti natijasida 8 gramlik oltin tangalar, kumush, bronza tangalar savdo muomalasiga chiqarildi. Madaniy taraqqiyot natijasida yozuvlar ancha takomillashib so'g'dcha, xorazmcha, parfiyacha, baqtriyacha yozuvlar mukammallashib, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda ijobiy natijalarga erishdi. Kushonlar davrida Surxondaryo hududida saroylar qurish, arxitektura qurilishi rivojlanib, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik san'ati eng yuqori natijalarga

erishdi. Kushonlar imperiyasiga xos moddiy ma'naviyat asoslari keng rivojlanishi tufayli rasmiy, diniy, ishlab chiqarish, turar joy, sun'iy sutorish, mudofaa, tijoratga taalluqli qurilish binolari bilan uyg'unlashgan holda qurilgan.

Keyingi paytlarda Kushonlar davlatining shimoliy chegaralari masalasi ham ma'lum darajada ko'rib chiqildi. Ushbu masala ilk bor 1938-yili S.P. Tolstov tomonidan ko'tarilgan edi. Uning fikricha, So'g'diyona Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida kushonlar saltanati tarkibiga qo'shib olingan. Keyinchalik u Xorazmda topilgan tangalarga asoslanib, Xorazmni ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Kushonlar davlatining shimoliy hududlari to'g'risidagi S.P. Tolstov xulosalari keyingi tadqiqotchilar uchun uzoq vaqt ilmiy asos bo'lib xizmat qiddi, natijada qator boshqa o'lkalar ham ushbu saltanat tarkibiga kiritila boshlandi. Jumladan, 1950-yilga kelib K.V.Trever Choch viloyatini ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Tyanshan va Pomir-Oltoyda olib borilgan arxeologik qazishmalarning yakunlariga asoslangan A.N.Bernshtam Farg'onani ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Keyinchalik Ustrushona ham Kushonlar imperiyasi tarkibida bo'lgan, degan fikr paydo bo'ladi.

Kushonlar podsholigi davrida Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shahar madaniyati ancha ravnaq topdi. Kushonlar davrida Termiz shahrining iqtisodiy, madaniy jihatdan rivojlanganligini hunarmandchilik buyumlari, uy qurish sohasidagi me'morchilik san'ati, sug'orish inshootlari, ishlab chiqargan mahsulotlari orqali ham bilib olish mumkin. Bu davrda Termiz shahrining-maydoni 350 gektar bo'lib, Dunyotepa va Chingiztepa xarobalari o'rnida joylashgan. Chingiztepa va Qoratepa oralig'ida Amudaryoga qurilgan chig'iriqtar yordamida shahar markaziga ichimlik suvi chiqarilgan. Suv chiqarilgach, qoratepa ibodatxonasida maxsus hovuzlar yordamida suv tindirilib, keyin shahar tashqi devorining shimoliy tomoni bo'ylab qurilgan ariqcha orqali shaharga taqsimlangan. Milodiy II asrda podsho Kanishka qoratepa yodgorligi o'rnida Budda ibodatxonasini qurdiradi. Mamlakatda qishloq jamoalari ancha kengayadi. Bu davrda vohada ikkita yirik markaz mavjud bo'lib, bulardan biri: Amudaryo bo'yidagi Tarmita (Termiz) bo'lsa, ikkinchisi esa Chag'onrud (Surxondaryo) bo'yidagi Dalvarzintepa shaharlari edi. Bu shaharlar Kushonlar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy hayotida alohida o'ringa ega bo'ladi. Bundan tashqari Kampirtepa, Zartepa, Hayitobodtepa kabi

shaharlar ham mavjud bo'lib, ushbu shaharlar mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Viloyat hududida kushonlar davriga oid 130 ta yodgorlik mavjud bo'lib, shundan 80 tasi qishloqlar ko'rinishidagi manzilgohlar hisoblanadi. Kushonlar davrida markazlashgan davlatning qaror topishi xo'jalikning ravnaqiga sabab bo'lgan. Bu davrda ham ziroatchilikning g'allachilik, paxtachilik, bog'dorchilik va polizchilik sohalari jadal rivojlanadi. Tog' va tog' oldi hududlarida lalmikor dehqonchilik xo'jaligi ravnaq topadi. Yerni qayta ishlash, xususan, almashlab ekish borasida boy tajriba to'planadi, yangiyangi sug'orish tizimlari bunyod qilinadi. Chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilgan. Aynan ana shu davrda hunarmandchilik xo'jaligi yuksak darajada rivoj topib, ushbu sohaning kulolchilik, metallsozlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik kabi turlari ancha yuksalgan. Hatto Baqtriya shishasozlari 420-yilda Xitoy poytaxtida turfa rangdagi shishalar tayyorlab xitoyliklarni lol qoldirganlar.

Kushonlar davrida xo'jalikning ravnaqi savdo-sotiqning rivojiga xam turtki bo'ladi. Xususan, shu davrda Baqtriya savdogarlari Parfiya, Rim, Xitoy va Hindiston mamlakatlariga borib savdo qilganlar. Rimning Pompey shahri xarobalaridan kushon tangalarining yoki qoratepa kulol idishlari, Termizdan topilgan-may xamda ayshu ishrat xudolari Vakxoniya, tag'in Vakx Bolus sharafiga uyushtirilgan bayram sahnasi tasviri solingan loy idishlar, shuningdek, Hayitobodtepadan imperator Neron tangalarining topilishi yuqoridagi fikrning isbotidir. Bu davrda Surxon vohasi savdo yo'llari o'zaro tutashgan hudud bo'lib, albatta, bu holat o'lkaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir o'tkazgan. Termiz shahri hunarmandlari tomonidan tayyorlangan maqsulotlar qo'shni davlatlarga, jumladan, Parfiya, So'g'diyona, ChinMochin, Ozar va musulmon dunyosi mamlakatlariga chiqarilgan hamda yuqori baholangan.

Kushonlar davrida madaniy hayot ham yuksaklikka bo'y cho'zgan. Podsho Kanishka zamonidan boshlab boxtar tili davlat tili deb e'lon qilinadi. Kushonlar davrida me'morchilik ancha yuksalib, turar joy binolari, ibodatxonalar va saroylar qurish ancha avj olavd, Imoratlarni bezash, naqsh solish borasida ham o'ziga xos tajriba to'planadi. Bu davrda mahalliy madaniyat bilan hind madaniyatining o'zaro aralashish jarayoni sodir bo'ladi. Ayniqsa, Kanishka zamonida Buddha dinining davlat dini deb e'lon qilinishi natijasida buddaviylik e'tiqodi bilan

bog'liq ravishda haykaltaroshlik san'ati ancha yuksaladi. Buddha dini mil. avv. I ming-yillik o'rtalarda Hindistonda shakllangan. Buddaviylar 1956-yilda o'z dinlari shakllanganligining 2500-yilligini nishonladilar. Hindlar bu dinning asoschisi Shakya Muni, ya'ni hind shahzodasi Siddxartma Gautama Buddha deb hisoblaydilar. Buddaviylik dastlab quldorlar mafkurasi sifatda shakllangan. Buddaviylikda yomonlikka qarshi bosh ko'tarmaslik toyasi katta o'rin egallaydi.

Buddaviylikda beshta axloqiy talab (panchashina)ga rioya qilish ilgari surilgan. Ular: bironta ham tirik mavjudotni o'ldirmaslik, birovning mulkini olmaslik, birovning xotiniga ko'z olaytirmaslik, yolg'on gapirmaslik, spirtli ichimlik ichmaslikdan iborat. Kushonlar davrida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Uning xinayama, maxayama, keyinchalik lamaizm yo'nalishlari vujudga keldi. Kushonlar davrida Termiz shahrining buddaviylik tayanchiga aylanganiga shu narsa dalolat beradiki, bu davrda Termiz shahrining ibodatxonalari, ularning yonida esa monastirlar ham mavjud bo'lgan. Kushon podshosi Kanishkaning muhim xizmatlaridan yana biri shu bo'ldiki, u mamlakatni birlashtirish uchun kurash olib borib, mamlakat aholisini maqsad, mafkura bayrog'i ostida birlashtirish yo'lida muvaffaqiyatli harakat qildi.

Kanishka Kadfiz 78-yilda Panjob viloyatida buddaviylarning umumjahon yig'ilishini chaqirtiradi va buddaviylikning Maxayama yo'nalishini targ'ib qiladi, unga binoan Maxayama «hamma uchun birdek ulug' yo'l» deb biladi. Kushonshoxdar e'tiqod erkinligini joriy etgan bo'lsalarda, buddaviylikni kengroq yoyish va uni rivojlantirish uchun turli shaharlarda takyagoh, xonaqoh, ibodatxonalar qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari («Tripitaka»)ni ko'paytirish, ularni o'rganish, tarjima qilish va izohlash, yangi tafsirlar yezish kabi diniy-falsafiy tafakkur rivoji uchun sharoit yaratib berishdi. Bunday siyosat natijasida Tarmita o'z davrining yirik iqtisodiy, madaniy va buddaviylik dini markaziga aylandi.

Kushonlar davrida budda dinining ravnaqiga baqtriyalik rohiblar ham juda katta hissa qo'shadilar.

Xitoy, Tibet manbalarida buddaviylik dini targ'ibotchilari qatorida tarmitalik Dxarmamitara va toxaristonlik Gxoshakalarning nomlari ham qayd qilingan. Buddaviylik dinining yirik mazhablari sanalgan Xinoyama va Maxayama yo'nalishlari ham aynan shu zaminda ravnaq topadi. Viloyat hududida joylashgan kushonlar davriga oid arxeologik

yodgorliklar keng miqyosda o'rganilgan va ushbu tadqiqotlar jarayonida Kushoyalar saltanatiga doir boy tarixiy ma'lumotlar aniqlandi. Bu ma'lumotlarga asoslanib vohada Kushon saltanati davrida xo'jalik va madaniyat yuksak taraqqiy etganligini kuzatish mumkin.

Mavjud yodgorliklar bu to'g'rida juda ko'p tarixiy ma'lumotlar beradi. 1932-yilda Amudaryoda «Oktabryonok» katerida ketayotgan chegarachilar Ayritomga yaqin joyda oqtosh ko'rganlar, bu nog'orachi tasviri uyib solingan tosh friz ekanligi aniqlandi. 1933-yilda bu topilmaga professor M. Ye. Masson boshchiligida arxeologik ekspeditsiya yuborildi. Termiz shahridan 18 km sharkda balandligi 22,5 metr, qalinligi 1,5 metrli istehkom devorlari bilan o'ralgan III asrlarga oid budda ibodatxonasi topildi. U ohaktoshdan ishlangan ajoyib friz bilan bezatilgan edi. Ayiqtovon barglar orasida beshta sozanda surati o'yib ishlangan. Nog'orachi bilan rangbarang kiyimlardagi sozanda ayollar surati ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu sozandalardan biri ud, yana bittasi arfa chalayapti, frizda qo'llarida gulchambaraklar hamda chiroyli idishlar ko'tarib ketayotgan qizlar tasvirlangan.

Ibodatxonada buddaning haykali va boshqa ibodatxona qismlari qatorida toshdan yasalgan odam haykallari topilgan. Ular musiqa chaluvchilar, hadyalar tashuvchi erkak va ayollarning xaykallari bo'lib, ibodatxonaning tashqi tomoni karnizi shu haykallar bilan bezatilgan. Haykallarning qiyofasi va kiyimlarida Hindistonga xos belgilar yorqin bo'lib, bu ajoyib san'at yodgorligi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar samarasidir.

1936-yilga kelib M.Ye.Masson boshchiligida tashkil etilgan TAKE kushon davri tarixi va madaniyati masalalarini izchil tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib quydi. Xususan, Termiz shahrining rivojlanish pallasini kushonlar davriga to'g'ri kelishi va uning tarixiy topografiyasi aniqlandi. TAKE ishlari Ayritom, Chingiztepa va qoratepada olib borildi hamda tadqiqotlarda M. I. Vyazmitina, G.A.Pugachenkova, B.B.Piotrovskiy singari olimlar ishtirok qildilar. Ayritom peshtokdarining topilishi Shimoliy Baqtriyaning antik davr musiqa san'ati haqida ham so'z yuritish hamda ularni Afg'oniston, Hindiston va Sharqiy Turkiston haykaltaroshligida uchraydigan shularga aynan o'xshash musiqa asboblari bilan qiyoslash imkonini berdi. Tadqiqotlar natijasida Termiz yaqinida daryo kechuvlari mavjud bo'lib, daryoning o'zi Yuqori Panj va Xorazm vohalarini bog'lovchi qulay suv yo'li bo'lganligi aniklandi. Ko'xna shahar hududlaridan kushon podsholari

Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka va Vasudevalarning ko'plab tangalari topildi. TAKE ning tashkil etilishi Ayritom va Eski Termiz yodgorliklarining dastavval va qa<sup>^</sup> tomonlama o'rganilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Usha-yillari bu yodgorliklarning joylashgan o'rni, ularga asos solingan vaqt, ularning boshqa hududlar bilan munosabatlari hamda moddiy madaniyati masalalariga aniqliklar kiritildi.

Shimoliy Baqtriyaning tarixi va madaniyatini o'rganishda Hamza nomidagi O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi (O'zSE) tadqiqotlarining o'rni va ahamiyati masalalari ham ko'rib chiqildi. 1959-yilda G.L.Pugachenkova tashabbusi bilan tashkil qilingan ushbu ekspeditsiya izlanishlarida turli davrlarda E.V.Rtveladze, B.A.Turg'unov, A.S.Sagdullaev, Z.A.Hakimov, Ye.Nekrasova, V.A.Luneva, S.V.Levushkina, T.V.Belyaeva, S.A.Savchuk, D.Ilyosov singari olimlar ishtirok etdilar. Shimoliy Baqtriya hududidagi Dalvarzin, Xolchayon, Ko'hna Termiz, Kampirtepa, Zartepa, Ayritom kabi yodgorliklarda arxeologik tadqiqot ishlari olib borildi. UzSE xodimlari tomonidan baqtriya yozuvi yodgorliklarining topilishi, ayniqsa muhimdir. Bu borada 1977-yilda Ayritomdan topilgan haykal qoldiqlari va uning ostidagi olti qatorli baqtriya yozuvi fan olamida muhim voqea bo'ldi. Bu Surxkotal (qiziltog') yozuvlaridan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi, aniq tarixiy mazmundagi Kushon-Baqtriya yozuvi bo'lib, unga ko'ra, inshoot majmuini o'rab turuvchi to'siq Shodiya (shaxsi noma'lum) tomonidan qayta tiklangan va bu voqea Kushon podshosi Xuvishka hukmronligining to'rtinchi-yilida sodir bo'lgan. Yozuv va haykal Mirzod ismli usta tomonidan amalga oshirilgan.

II asrda Kushon davlati budda dinini Hindistondan Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonga tarqatib, uni davlat dini darajasiga ko'targan. V asrda Eronda moniylik dini vujudga keladi, lekin u Eronda uzoq tura olmaydi, uning tarafdorlari Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonga qochib o'tadi, ko'proq savdo yo'li ustidagi shaharlarda bu dinni tarqatadilar. Ba'zi arxeolog olimlar Markaziy Osiyoda topilgan ko'plab suratkashlik, rassomlik hamda haykaltaroshlik yodgorliklaridagi syujetlarning murakkabligiga qarab, ularni moniy dini bilan bog'lashga harakat qiladilar. Aslida bu xil Kushon imperiyasi davri (I-III asrlar) quldorlik tuzumining Markaziy Osiyo sharoitida eng rivojlangan davri bo'lganligi bilan bog'liqdir. Bu davrda, birinchidan, ko'chmanchi qabilalarning sug'oriladigan yerlarda joylashishi kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, quldor zodagonlar jamoalar yerini tortib olib, o'zlashtira

boshlaydilar. Shu tariqa jamoalar o'zichidan buzilib, butun-butun qishloqlar quldor zodagon dehqonlarga tobe bo'lib qoladi.

Dalvarzintepaning chekkaroq joyidan I asrda tiklangan Buddha ibodatxonasi, shahristonidan Buddaning boshi, Bodxisatvaning mahorat bilan ishlangan mahobatli haykali, fil suyagidan tayyorlangan shaxmatning ikki donasi topildi. Buddaning boshi loy va gipsdan yasalgan bo'lib, balandligi 39 sm, eni 25 sm keladi. Bodxisatvaning (o'sha davrga oid) haykali ham loy va gipsdan yasaliib, rang bilan bo'yalgan. Uning balandligi 2 metr 18 sm, eni 89 sm. U bir paytlar Buddha butxonasida turgan haykallar guruhidan biridir. Bu ko'hna topilmalar boshqa yodgorliklar bilan birgalikda 1988-yili Yaponiyaning Nara shaqidagi «Ipak yo'li Naraga boradi» deb nomlangan xalqaro ko'rgazmada namoyish etilgan edi. 1995-yili esa ular Parijdagi muhtasham «GrandPales» («Katta saroy»)ning nodir galereyasida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi.

Vayron bo'lgan antik davr devori ustida tiklangan binoning qachon qurilganligini juda aniqlik bilan belgilash mumkin. Ravoq ochilganda g'ishtlar orasidan VI–VII asrlarga oid turk-so'g'd tangalari chiqdi. Devor qurilishi uchun ishlatilgan to'rtburchak g'ishtlar ham shu davrga to'g'ri keladi. Dalvarzintepadagi antyk davr istehkomining tashlandiq holatga kelib yemirilish jarayoni, aftidan, IV–V asrlarga to'g'ri keladi. Mamlakat VI–VII asrlarda inqirozdan chiqqach, istehkom qulay, baland manzil sifatida qayta qurilib tiklanadi, shaharning o'zi esa xaroba bo'lib qoladi. Dalvarzintepa aholi maskani sifatida arablar istilosi chog'ida uzil-kesil tugadi, chunki arkda ham, shahristonda ham arablar kelganidan keyingi davrning izi Yo'q. Chag'aniyonni 705-yili qutayba bosib oladi va 737-yilda uning hokimi Chag'onxudot arablarga o'lpon to'laydigan bo'ladi. Xalq orasida hozirgi Dalvarzintepa juda qadimiy mamlakat poytaxtining qoldikdaridir, hukmdori afsonaviy qaxramon Dol (Zol) bo'lgan. Arablar bu shaharni xalifa qazrat Alining bevosita rahnamoligida egallaganlar, so'ngra bu shaharda hayot butunlay so'ngan, degan naql yuradi. Dalvarzintepaning juda katta joyni egallaganligi, qurilishlar zichligi, arxeologik qatlamlar qalinligi mazkur qadimiy shaharning mil. avv. I asrda va milodning dastlabki-yillarida barq urib, yashnab turgan viloyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi.

Chag'oniyon qayd etilgan antik davr ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan. Bu viloyat dastlab arablar istilosidan oldingi vaqtga oid tarixiy manbalarda eslatiladi. VII asr Xitoy solnomasida shunday

deyiladi: «Chinganyenna bu mamlakat mashrikdan mag'ribga 400 *li* va shimoldan janubga 500 *li* ga yaqin-maydonda yastangan. Poytaxti aylanasi taxminan 10 *li*. Sharq tomonda Xvolomo degan joyga borib tutashadi». 10 *li* taxminan 5 km ga teng. Bu yerda gap Chag'oniyonning an'anaviy markazi Dalvarzintepa to'g'risida borayotgan bo'lsa kerak. Chag'oniyon janubda Termiz viloyatiga tutashgan edi. Shimolda esa Xvolomo Xvaramo viloyati joylashgan, arab mualliflari asarlarida Xorun yoki Oxarun deb qayd etilgan. Ibn Xurdodbeh va qudama (IX asr) Chag'oniyondan 6 (yoki 3) farsax uzoqliqda Navandak, undan 7 farsax masofada Xamovaron nomli joylar bo'lganligini yozadilar.

Dalvarzintela antik davrda davlat ma'muriyati, yirik ibodatxonalar, iqtisodiy aloqa tarmoqlari, harbiy salohiyat mujassamlashgan katta tarixiy-madaniy viloyat markazi bo'lib, yirik markaziy shaharlar sirasiga kirgan. O'zidan kichik bo'lgan ko'plab aholi qarorgohlari unga bo'ysungan. Shunday bo'ysunuvchi shaharlar sirasiga Xolchayon ham kiradi.

Kampirtepaning o'rganilishi natijasida yozma manbalarda qayd qilingan Oks bo'yidagi Paradagvi Kampirtepa o'rnida bo'lganligi taxmin qilindi. Bu borada Kampirtepadan Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan iskandar tangasining topilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xullas, uzoq-yillar fanga noma'lum bo'lgan antik davr, xususan, kushon davri tarixi va madaniyati O'zSEning tadqiqotlari tufayli dunyoga mashhur bo'ldi hamda tarix faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

O'sha davrga oid yana bir yodgorlik Xolchayon bo'lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyatining Denov tumanida topildi. 1959-yilning bahorida Xolchayon jamoa xo'jaligining texnik ta'mirlash joyi kengaytirilayotganda buldozer kichik bir tepalikning chetini qirqqanida uchta tosh ustun bo'laklarini sudrab chiqargan, topilgan narsalar to'g'risida arxeologlarga xabar berilgan. 1960-yilda San'atshunoslik institutining professori G.A. Pugachenkova rahbarligidagi ekspeditsiya Xolchayon tepaligini tekshira boshlaydi. Bu yerdan topilgan yodgorliklar olimlarning har qanday tasavvuridan oshib tushdi, fanga yana bir tarixiy boylik Baqtriya badiiy madaniyatining ajoyib yodgorligi qo'shildi. Xolchayon topilmalarini ilmiy tekshirish jarayonida Xonaqohtepa, qorabog'tepa, Maslahattepa kabi tepaliklar ochib o'rganildi. Xonaqohtepada saroy poydevori toshdan, devori esa qalin (1,04 2,30 m) xom g'ishtdan ishlanganligi aniklandi.

Xolchayondagi tekshirishlar Baqtriya-Kushon zamonining binokorlik texnikasi to'g'risidagi ma'lum tasavvurni yanada kengaytirdi. Xolchayon saroyi arxitektura jihatidan g'oyat muhimdir. Asosiy zalining uch devori 3 m balandlikda oq ganch bilan suvalgan, undan yuqori qismlarda mahobatli haykallar joylashtirilgan. To'rtinchi devorning to'q qizil fonida oq ganchdan barg, gul, bir bosh uzum tasvirlanib, naqsh solingan. Saroyning asosiy zalidan chiqiladigan ayvondagi naqshlarda erkaklar surati ham bor: erkaklardan biri baqtriyalikka, yana biri mo'g'ulga o'xshaydi. Uch metr balandlikdagi panel tepasidagi haykal qizil va qora rang mineral bo'yoq bilan bo'yalgan. Haykalni to'la tiklash mumkin bo'lmadi, chunki uning-maydamayda bo'laklarigina saqlangan. Haykallarning kattaligi odam bo'yining uchdan ikki qismiga to'g'ri keladi. Arxeologlar bu boshni yerdan ehtiyotlik bilan kovlab olganda ularga kipriklari osilib turgan, salgina g'ilay qora ko'zlar qarab turganday ko'ringan. Topilgan ayol haykali ham diqqatga sazovordir: yuzi keng, oq dubulg'a toshda hurpaygan sochlari aniq ko'rinib turadi. Haykal tanasidan topilgan parchada haykal ustidagi xalat yoki yoping'ich saqlangan, xalat tagida to'q qizil rang ko'ylak ustidan beldan yuqorida oq tasma bog'langan. Bu haykal, tanasi, vaziyati, qo'llarining turishi, dubulg'a va xalatiga qaraganda, ma'buda Afina haykali bo'lsa kerak. Markaziy Osiyoga yunonlar ma'budasining qiyofasini makedoniyalik Iskandar olib kelgan, albatta. Xolchayon haykallari orasida Mitra, Nika va boshqa ma'budalarning qiyofalariga yaqin qiyofali haykallar ham bor.

Haykal parchalari orasida Xolchayon sozandalari haykallarining parchalarini ham uchratish mumkin. Baqtriya-Kushon yodgorliklarining yuksak san'atida ellin haykaltaroshligi bilan Parfiya san'ati an'analari ko'rinadi. Xolchayon haykali hozirgacha noma'lum desa bo'ladigan qadimgi Baqtriya san'atining allaqachonlar unutilib ketgan so'qmoq yo'lidagi yorqin izlaridandir. Xolchayonda tadqiqot olib borilgan bir nechta joyda Yunon-Baqtriya podshohligi davri (mil. avv. III-I asrlar) arxeologiyasi aks etgan. Demitriy tangasining topilishi hamda qorabog'tepada mil. avv. I asrlarga oid imoratlar qayd etilgani bunga misol bo'la oladi. Xolchayonda ossuariy sifatida og'ir qopqoqli a'lo darajada tayyorlangan xum tanlangan. Uning ichida bir to'p ko'krak suyagi va shikastlangan bosh suyagi yotardi. Aftidan, «ko'mishga tayyorlash» marosimida «Avesto»dagi mazdakchilik qonunqoidalariga amal qilingan ko'rinadi. Murda dastlab yyrtqich qushlar yoki maxsus

boqilgan murdaxo‘r itlar yeb ketishi uchun qo‘yilgan. So‘ngra tozalangan suyak qoldiklari suyakdonga joylashtirilgan.

Baqtriyaliklarning dafn marosimlari to‘g‘risida qadimiy mualliflarning ma’lumotlari deyarli yo‘q. Strabon Onesikritning baqtriyaliklar tirik keksalarni maxsus boqilgan odamxo‘r «go‘rkov» itlar yemishiga tashlashlari haqidagi xabarini keltiradi. Bu odatni Aleksandr Makedonskiy ta’qiklaydi, ammo ko‘mish marosimi to‘la tasvirlanmagan. Ayni paytda parfiyaliklar haqida yozganda, ularning «odatdagi ko‘mish marosimi itlar yoki qushlar yeb ketishi»dan iborat, g‘ajib tashlangan suyaklarni esa ular yerda saqlaydilar, deyilgan. Strabon yozgan ma’lumotga ko‘ra, Baqtriyadagi shahar devori orti toza bo‘lgan, biroq ichki katta qismi «odam suyagi bilan to‘libtoshib ketgan ekan». Shunday qilib, gap marhumning suyagini qandaydir tashqi qabristonda emas, balki aynan aholi maskani ichida saklash to‘g‘risida borayotir. Buni Xolchayondagi xum ossuariyning qadimiy qo‘rg‘onning aholi zich yashaydigan qismida saqpanib qolganligi ham tasdikdaydi. Antik davrda xumga solib ko‘mish an’iiasi Janubiy Tojikiston hududida (mil. avv. III asrlar) ham uchraydi. Biroq, u yerlarda yarim poklangan murda xumga solib ko‘milgan, Xolchayonda esa faqat suyakning o‘zi ko‘milgan. Bu topilma arxeologik adabiyotlarda xumga solib ko‘mish ossuariy dafnalarga xos, faqat keyingi davrga taalluqli urf-odat emas, balki bu ko‘mish marosimining boshqa turi deb qayd etilgan mulohazani to‘la tasdiqlaydi.

Umuman, qadimiy Baqtriya aholisi orasida ko‘mish marosimining turli shakllari mavjud bo‘lgan. Yunon-Baqtriya zodagonlarining asosan o‘z e’tiqodlari va udumlariga amal qilgani va Xolchayondagi ossuariy (idish)ga solib ko‘mish marosimi bunga yorqin dalildir. Bu masalada Xolchayondan topilgan mil. avv. III-II asrlarga oid sanamlar haykalchalari, shuningdek, suyakdan ishlangan yalang‘och ma’buda shakli aks etgan taqinchoq qadimda Sharqda mavjud bo‘lgan Ona Xudoga sig‘inish udumi bilan bog‘liqdir. Ayni paytda, Ellin-Yunon badiiy tasvir uslublarining Xolchayonning Baqtriya davri me’morchiligiga ta’sirini aks ettiruvchi topilmalar ham bor. Xolchayon taraqqiyotining yirik qurilish tadbirlari bilan bog‘liq navbatdagi bosqichi mil. avv. III asrlarga taalluqlidir. Bu davr tarixiy jihatdan ulkan siyosiy voqealar bilan bog‘langan. Mil. avv. 140-yillarda Gelioklning o‘limi bilan Yunon-Baqtriya podshohligining inqirozi yuz beradi.

Yunon-Baqtriya podshohligining inqirozga uchrashi, aftidan, Baqtriyaga saklarning dastlabki bostirib kelishi va o'zlari egallagan hududlarda o'troq bo'lib qolishi, so'ngra yuechjiylar bostirib kelib, saklarni Amudaryoning narigi sohiliga uloqtirib yuborishi davriga to'g'ri keladi. Bu zarba Xolchayonning ham taqdiriga o'z ta'sirini ko'rsatgan va mazkur joydan topilgan arxeologik topilmalarda, qatlamlarda o'z aksini topgan. Vaqt o'tishi bilan hayot o'z iziga tusha boshladi, yangi qurilishlar hamda ta'mirlashlar bundan dalolat beradi. Sakyuechjiy (yoki «toxar», qadimiy yozma arab manbalarida taxor bitiladi) davri Xolchayon tarixida arxeologik jihatdan aniq aks etgan.

Mil. avv. III asrlar uchun xos bo'lgan «badaviy Geliokl» deb ataluvchi bronza tangalarning topilishi aynan shu davrdagi gavjum shahar hayotidan darak beradi. Ularning shahristonning turli joylaridan topilganligi bu yerda har xil pullar muomalada bo'lganini va bozorning ehtiyoji keng ko'lamligini anglatadi. O'zining arxeologik topografik qoldiqlarida mil. avv. III asrlarda Xolchayon yirik aholi maskani sifatida namoyon bo'ladi. III asrlarda, ya'ni kushonlar davrida Xolchayon rivojlanishda davom etadi. Kadfiz II tangalarining topilishi, Kanishka, Xuvishka, Vasudeva tangalarining (aksariyati katta va o'rtacha halqali) ko'pligi va ko'plari siyqalanib ketganligi ularning keng ko'lamda bozor muomalasida bo'lganligini ko'rsatadi.

Milodiy II asr oxiri III asr boshlarida Kushon imperiyasi inqirozga yuz tutadi. Bu jarayon Xolchaenda ayniqsa yorqin iz qoldirgan. qorabog'tepa istehkomi darvozasi katta yong'inda qolgan va uning izlari kushonlar davri qurilishlarida yong'in qatlami tarzida saqlang'an. Xonaqohtepada o'rganib chiqilgan uchala imorat ham xarob etilgan yoki qulatilgan. Bu hol ayniqsa, saroyda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerda qimmatbaho ashyolar va ibodat buyumlari talon-toroj qilib ketilganligi bilan birga, taxtxonada tosh tagliklardan biri ag'darib tashlangan, ayvonda esa ustun tagliklari qo'porilgan, ba'zilar uloqgirib yuborilgan. Demak, Xolchayon taqsirida arxeologik jihatdan muhrlanib qolgan o'limga mahkumlik III asr boshida Kushon shohligini qamrab olgan umumiy voqea bo'lgan.

Xolchayondan VI asr oxiri VII asrga oid turkso'g'd turkumiga taalluqli ikkita tanga topildi. Ular So'g'd va Shoshdan topilgan tangalar bilan old tomon tuzilishi ikonografik jihatdan o'xshasa ham, ulardan ma'lum darajada farq qiladi. Bu tangalar Amudaryoning shimoliy qismidagi ayrim feodal viloyatlar turk. xoqonligiga mansubligini

anglatadi, tamg'alar va boshqa belgilardagi farq esa chag'onxudotlar zarb qilgan ashyolarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Darvoqe, arablar 719-yili Amudaryo bo'yi viloyatlariga yetib kelgan vaqtda, turkcha «yabg'u» unvonli Tish ismli Chag'oniyon hukmdori Toxariston qo'shinlariga bosh bo'lib turgan.

Arablar bosib olgan davrdan boshlab Xolchayon uzoq vaqt e'tiborsiz qoladi. XIII asr oxiri XIV asr boshida antik tepaliklarning ba'zilaridan qabriston sifatida foydalaniladi. XVI asrda qorabog'tepaning shimoli-sharqiy qismi do'ngligida qandaydir mulk paydo bo'ladi. Shundan so'ng shahriston atrof hududi yanada botqoqlikka aylanib, bizning davrimizgacha o'zlashtirilmay qoladi. Xolchayonni tadqiq etish Baqtriya madaniy hayotiga, ayniqsa, uning badiiy madaniyatiga yangi ma'lumotlar kiritadi. Bu kuzatishlar Markaziy Osiyoning mazkur yirik viloyatida antik davr shahar qurilishining ba'zi jihatlarini qayta ochib beradi. Bu borada tarixiy ma'lumotlar nihoyatda kam.

Eski Termizning qadimgi madaniyati zamirida ham kushon davriga xos ko'pgina yodgorliklar bor. Ular shu davrning yaqqol namunalaridan, sopol buyumlardan va moddiy madaniyatga doir boshqa narsalardan iborat. Toxariston vohasi Kushon imperiyasining g'oyat katta markaziy viloyatlaridan biri bo'lgan. Toxariston tuprog'idan toxaristonliklarning yuksak madaniyatidan dalolat beruvchi yodgorliklar topildi. Hozirgi Termizdan 10 km keladigan joydagi qoratepa g'oridan topilgan ajoyib yodgorlik ana shunday dalillardan biridir. Qazish ishlari Kushon davlati madaniyati to'g'risida g'oyat qimmatli ashyoviy dalillar va buyumli materiallar berdi.

Qoratepa buddaviylik yodgorligi Eski Termiz majmuasi tarkibiga kirib,-maydoni 7,5 ga ni tashkil qiladi. Tadqiqotlar natijasida qoratepaga milodiy I asr oxirlarida asos solinganligi, yodgorlik janubiy, g'arbiy va shimoliy tepaliklardan tashkil topganligi aniqlandi. qoratepaning o'rganilishi 1928-yilda A.S. Strslkov tomonidan boshlangan bo'lib, turli tanaffuslar bilan hozirga qadar davom etmoqda, hozirgacha to'qqizta ibodatxona ochib o'rganildi. qoratepada ganchdan yasalgan haykallarning parchalari topildi, ular ichida g'alati bir vaziyatda buklanib turgan to'rtta barmoq saqlangan qo'l parchasi diqqatni o'ziga tortadi. Bu qo'l parchasi kattaligiga qaraganda kishi bo'yidan ancha baland haykalni bo'lsa kerak. Buddha va unga doir manbalarning haykallari hovli o'rtasida joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Oq marmarga o'xshagan mergel ohaktoshdan yasalgan arxitektura bezaklari (odam boshining

barelefi, akanfa bargi va boshqalar) diqqatga sazovordir. Bular Hindiston, Pokiston va Afg'onistondan topilgan arxeologik yodgorliklarga juda o'xshab ketadi. Yo'lak va ayvondagi naqshlarda ham xuddi shunday mushtarakliklar borligi sezilarli darajadadir.

Qoratepa qazilganida undan budda dini marosimlariga oid buyumlar: toshdan yasalgan soyabon, qopqoqlar, nilufar surati va boshqa ko'plab narsalar topildi. Sopol buyumlar va devorlardagi yozuvlarning ham bu boradagi ahamiyati kattadir. Sopol buyumlardagi yozuvlarning ko'pi hindcha kaxaroshti va braxma yozuvlaridir, ammo binodan kushon yozuvli popolok ham topildi. Kushon yozuvi mahalliy sharqiy fors tiliga moslashtirilib, yunon alifbosi asosida tuzilgani aniqlandi. Budda ibodatxonasi to'satdan yuz bergan zilziladan yemirilgan bo'lsa ajab emas, chunki uning ko'pgina qismlari shunday ag'nab yotibdi. Bu bilan arxeologlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotini o'rganishda goyat qimmatli yodgorlikka ega bo'ldilar. Bundan tashqari qoratepadagi budda yodgorligi Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning Hindiston va Xitoy bilan bo'lgan aloqalarini o'rganishga ham imkon beradi. Axir, qoratepa hozirgi Afg'oniston va Hindiston, Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, qashqar orqali Xitoyga boradigan karvon yo'lining juda qizg'in, serqatnov joyida bo'lgan.

Kushonlar davrida Markaziy Osiyoga kirib kelgan budda dini bilan birga qadimiy mahalliy an'analar ham davom etavergan. Toxariston tuprog'idagi qadimgi qayqubodshoh shahrida o'ng qo'lida qandaydir idish tutib o'tirgan xotin tasvirlangan sopol haykalcha topilgan edi. Taxminlarga qaraganda, bu Vaxsh daryosidagi ma'buda bo'lsa kerak. Dushanbe yaqinidan topilgan qadimgi to'pxona qabristoni mahalliy diniy e'tiqod bilan bog'langan. U yerda o'likni qabrga orqasi bilan cho'zib, boshini shimolga, oyog'ini janubga qaratib solganlar. Shunisi qiziqki, o'likning og'ziga yoki ko'krigiga kumush tanga pul qo'iganlar. qadimgi ellin Yunonistonida va Yaqin Sharqdagi ellin mamlakatlari hududida ayni shunday odat mavjud bo'lgan. Bu odatva udumlar, rasm-rusumlar asta-sekin quldorlik davlatlari bo'lmish Yunon-Baqtriya podsholigi bilan Kushon imperiyasi taraflarga o'tib kela boshlagan. qadimshunoslar topgan kumush falslar chamberaksimon ramka ichiga olingan do'ng gardishdir. Ichiga fil surati solingan, ustiga to'rt burchak yombi qoplangan, undagi tasvirga ko'ra, bo'ynida maxsus kaltak ushlab fil o'rgatuvchi yoki fil haydovchisi o'tirgan. Fil haydovchining boshida salla, quloqqa isirg'a, fil ustiga o'rnatilgan qulfnamo qandaydir narsa,

jang davom etmoqda, jang payti minora tepasida ikkita jangchining kallasi ko‘rinib turibdi. Birining boshida dubulg‘a, qo‘lida nayza, u harbiy boshliq bo‘lsa kerak, yana biri bosh yalang, u harbiy askar bo‘lsa ehtimol.

YunonBaqtriya pullari aksar kumushdan, kamdankam hollarda bronzadan zarb qilingan, tanga pullarning bir tomonida podsho surati solingan. Do‘ng peshonasi, qirg‘iy burni, bo‘rtib turgan dag‘al iyagi uning kuchli iroda egasi ekanligidan dalolat beradi. Boshqa bir chaqa pulning bir tomonida Hindistonni zabt etgan Demitriy podshoning lablari bir-biriga qattiq yopishgan, shiddatli muhr tasviri bilan zarb qilingan, ikkinchi tomonida podshoning yunoncha unvoni yozilgan. Keng ko‘lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi davr tarixini davrlashtirish masalasini ilmiy asosda qayta hal qilish imkonini beribgina qolmay, balki quldorlik tuzumini hamda bu davrda savdo va hunarmandchilikning markazi bo‘lgan shaharlar madaniyatini o‘rganishda ham juda boy manbalar berdi. Arxeolog‘ik tadqiqotlar tufayli viloyat hududida quldorlik davriga mansub ajoyib tasviriy san‘at obidalari ochildi. Termiz yaqinidagi Ayritomda topilgan toshga o‘yilg‘an bo‘rtma suratlar, haykallar va devoriy rasmlar hamda Denovdagi Xolchayon va Dalvarzintegtadan topilgan loy va ganchdan yasalgan ko‘pdan ko‘p turli haykallar Surxon voxasida qadimda o‘ziga xos yuksak tasviriy san‘at madaniyati yaratilganligini isbotlaydi. Surxondaryoda topilgan qadimg‘i san‘at obidalari Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati bilan Eron, Hindiston, Yaqin Sharq va Kavkaz xalqlari madaniyatining birbiriga ta‘sir ko‘rsatganidan hamda dunyo xalqlari madaniyatining yaratilishida Markaziy Osiyo xalqyaari ham faol qatnashganligidan darak beradi. qoratepadagi budda ibodatxonalaridan chiqqan qimmatbaho haykallar va boshqa tasviriy san‘at obidalari, ayniqsa nodir va noyobdir. Bunday tasviriy san‘at va haykaltaroshlik yodgorliklari o‘z davrining hayotiy, mafkuraviy va diniy e‘tiqodlari, madaniy va maishiy hayoti to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi qimmatbaho manba hisoblanadi.

1998-yilda qoratepadagi budda ibodatxonalari guruhini o‘rganish bo‘yicha Sh.R.Pidayev rahbarligida o‘zbek-yapon qo‘shma ekspeditsiyasi tashkil etilib, hozirga qadar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mustaqillik-yillarida olib borilayotgan hamkorlikdagi tadqiqotlar natijasida antik davrda Surxon vohasida ro‘y bergan tarixiy-madaniy jarayonlar aniqlanib, fanga tatbiq etilmoqda.

Kushon davri arxeologik yodgorliklaridan biri Fayoztepa, Eski Termiz devorlarining shimolig'arbida, qoratepa tekisligining shimolig'arbidan janubisharqqa yo'naltirilgan holda qurilgan Buddha ibodatxonasi. Bu to'rtburchakli ziyoratgohning ichkari hovlisi ikki tomondan tirgak vazifasini o'tavchi yo'g'on ustunlar bilan ko'tarilgan bo'lib, maxsus ayvon bilan o'ralgan imoratdir. Ushbu Buddha obidasining qurilgan payti uysozlik, binokorlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, umuman, shaharsozlik va me'morchilik rivojlangan Kushon-Baqtriya davlati davriga, ya'ni milodning III asrlariga to'g'ri keladi.

So'z yuritilayotgan jamlanma asosan uch qismdan: kohinlar yotoqxonasi (hindboxtar me'morchiligi an'analari asosida qurilgan), markaziy ibodatxona va kohinlar jamoasi uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlaydigan xo'jalik va yordamchi imoratlardan iborat. Inshootning asosiy qismlaridan biri muqaddas, tabarruk va muborak diniy yodgorliklarni saqlaydigan joy qo'ng'iroqsimon pastki qismi turtib chiqqandek ishlov berilgan hovonchadir. Hovoncha xom g'ishtdan terilgan, uning usti oppoq qorsimon ganch bilan suvalgan. qizig'i, hovoncha ibodatxonaning boshqa jamlanmalari singari hovli markazida bo'lmay, balki hovlining tashqarisida «Siymo uyi» budda haykalchasi dargohiga qaramaqarshi o'rnatilgan. «Siymo uyi»dan topilgan ohakgil toshidan mohirlik bilan ishlangan 118 kilogrammik Buddha haykali va uning ikki yonida qo'l qovushtirib, sig'inib o'tirgan ikki rohibning haykalchasi bor. Bu dargohdan hovonchagacha g'isht va ohakgil toshlari parchalari yotqizilgan yo'lak o'tkazilgan.

Markaziy ibodatxona atrofida kattakichik xonalar, ya'ni ziyoratgoh, hujra va jamoa yig'ini xonalari mavjud bo'lgan. Masjid ibodatxona bilan bir eshik orqali tutashtirilgan, eshik ibodatxona hovlisining g'arbiy devorida bo'lib shimoli-g'arbiy tomondadir. Eshikning xovli tarafdagi yonida kattakatta ohakgil toshi bo'laklaridan terib qurilgan hovuzcha bo'lgan. Hovuzchaning bir tomoni ikkinchisidan torroq, ayni shu tomonning pastki qismida og'zi ochiq sher boshi tasvirlangan suv jo'mragi o'rnatilgan. Bu hovuzcha ehtimol diniy marosimlarda yuvinib poklanish uchun qurilgan, ibodatxona tokchalarida esa ganch haykalchalar bo'lib, ularning ichi loy bilan to'lg'azilgan. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, ana shu xil hovuzchalar hiqd budda sajdagoxlarida tahorat qilish uchun ishlatilgan. Arxeolog olim L.I. Albaumning fikricha, Kushon buddaviylik san'atida sher aksi va tasviri katta ahamiyatga molik bo'lgan, oqibatda aksar kulolchilik idishlarida sher kallasi, goho tog'

takasi bosh qismi tasvirining tushirilishi an'anaga aylangan edi. G.A. Pugachenkova tomonidan Eski Termiz shaharchasidan topilgan qulog'it tik arslon gavdali qanotli bahaybat mahluq rasmi tushirilgan ohak gildan ishlangan yaxlit qolipning topilishi yuqoridagi misolga dalil bo'ladi.

Fayoztepadagi devorlar qurilishiga asosan paxsa va xom g'isht ishlatilgan, tomlar xarilar bilan yopilgan, tomlarning ba'zilarigumbazsimon shaklda bo'lgan. Majmua xonalarining devorlariga turli manzarali suratlar, haykallar bilan bezak berilgan. Har xil tabiiy ofat va muhoraba sinovlariga bardoshi yetgan ko'pg'ina haykallar tuproq uyumlari ostida saqlanib, ularning shikast topgan siniqdarigina bizning zamonimizgacha yetib kelgan, xolos. Saklanib qolgan haykal bo'laklari va siniqlarining hajmiga qaraganda ayrim haykallarning bo'yi 4 metrgacha ekanini taxmin qilish mumkin, ular odatda qizil bo'yoqqa bo'yalib, ustidan tilla suvi yuritilgan. Ana shu bo'laklangan va singan haykallar bilan birga topilgan Kanishka va Vasudeva T tangalari zikr etilgan vayrona Budda ibodatxonasi ehtimol Vasudeva I davrida yemirilgan, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Jamlanmaga tobin uchinchi xo'jalik qismining devorlari monastr va ibodatxona devorlariga tutashtirib ko'tarilgan. Jamlanma xonalarining birida xom g'ishtdan qilingan eni 0,7metr keladigan uzun supa bor, bu aftidan, ovqatlanish joyi bo'lgan. Barcha xonalarining devorlari somon suvoq qilingan, faqat ikkitasi ganch bilan suvalgan, xonaning yeriga g'anch va yirik qum qorishmasi to'shalgan. qolgan ikki xonada tandir qoldiqlari va bezakli toshtovoqlarning sinig'i, boshqa bir xonada janubga qaratib o'rnatilgan suv quvuri, kulolchilik o'chog'i borligi aniqlandi. Demak, ibodatxonaga suv quvurlar vositasida olib kelingan, hatto shunga o'xshash quvurlarning qoratepa tomon, ya'ni janub tarafga yotqizilganligi (56 metrli quvur bo'laklari) kovlash natijasida kuzatilgan,

Ammo shaqarga suv quvurlar orqali qaysi tomondan olib kelingani muammosi ancha-yillar bahsli bo'lib turdi. Bu masalaini 1945-yili o'rgangan olim D.D. Bukinich ham muammoning yechimini topolmay «Termizga suv qaysi tomondan kelganligi savoliga qoniqarli javob olish amri mahol» deyishdan nariga o'tmagan edi. Shu o'rinda V.A. Kozlovskiy, V.P. Nikolaev, L.I. Albaum fikrlarini keltirib o'tish joiz, ular shaharga suv Amudaryodan olingan deyishadi. Lekin tarixiy asarlar buning teskarisini ko'rsatadi, chunonchi, XV asr jug'rofi olimi Hofizi Abro' «Termiz Chag'oniyon(Surxon)dan suv ichadi», deydi. Nihoyat termizlik yosh qadimshunos olim T.Annayev muammoning

yechimini topishga muyassar bo'ldi. Salovotdan ma'lum miqdor yuqori (shimol)da Tolitog'orada olib borilgan qazilma samarasi o'laroq Kushon davri Termiz va uning atroflarini sug'orish tizimi aniqlandi. Unga ko'ra suv Chag'onruddan Kattaqum orqali amalga oshirilgani isbotlandi. qazilmada suv olish joyi va uning qo'riqash istehkomi topildi.

Kushon davri Termizining III asrlarda qurilgan yirik buddaviy jamlanmasi Fayoztepa II asrda budda kohinlari tarafidan tashlab ketilgan, degan aqida mavjud. Balki bu hodisalar yer qimirlashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan taxminlar yuradi. Ammo dindorlar muqaddas ziyoratgoh sanalmish hovonchani o'z holicha qoldirib, uni e'tiborsiz tashlab ketmadilar. Hovonchani saqlash maqsadida uning chor atrofini xom g'ishtli devor bilan o'rab oldilar va hovonchani uzoq saqlanishiga imkon yaratdilar.

Fayoztepa atrofida V asrda Termizda hukmronlik qilgan eftaliylarning qabristoni bo'lgan. Xullas, Fayoztepa majmuasidan topilgan haykalcha dunyoning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlari bo'ylab sayohatda bo'ldi. Endilikda u Toshkentda saqlanmoqda. Umuman, Fayoztepa sirlarini ochish va tadqiq etishda olimlardan L.I.Albaum, B.M.Masson, A.Asqarov, G.A.Pugachenkovalarning ilmiy izlanishlari katta samara berdi. Arxeologlar qiziqqanga qadar bu tepa nomsiz edi, arxeologlarga yaqindan yordam bergani uchun Surxondaryo viloyat o'lkani o'rganish muzeyining shu-yillardagi direktori Rahmat Fayozovning otasi sharafiga bu tepa Fayoztepa deb ataladigan bo'ldi va shu nom bilan olamga tanildi.

Milodning dastlabki asrlarida Hindistondan Markaziy Osiyo janubiga buddizm tarqaladi. Bu yerlarga diniy aqidalar bilan birga budda san'ati ham keladi. Shu davrlarda Kushon Termizida va uning devori atroflarida buddizmning ko'plab ibodatxonalari, sajdagohlari, xonaqohlari va boshqa inshootlari qurildi. Termiz buddizmning muqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylandi. Zo'rmo'la Kushon Termizi qo'rg'on devorlari shimoliy sharqida qad ko'tarib turibdi. qachonlardir shahardan tashqaridagi bu yerlarda buddizmning yuksak me'morchilik uslubidagi qurilmalarining butun majmuasi Vixara ibodatxona bo'lganga o'xshaydi. Lekin o'rta asr Termizida bu yerlar ekin-maydonlari bo'lgani ma'lum. Faqat bu yerning bosh qurilmasi muqaddas joy ulkan hovonchaga o'xshash budda muqaddas ashyolari saqlanadigan minora o'z qoplamalari va shaklini yo'qotmay, asrlar osha yashab

kelmoqda. Olib borilgan qazilma natijasi to'g'ri burchakli supa (tagkursi) ustiga o'rnatilgan silindrsimon minoradek hovoncha o'z nihoyasida gumbaz bilan tugallanganligini ko'rsatadi. Bu inshoot asosan xom g'ishtdan terilgan bo'lib, uning tagkursisi (pedestolli) sirti oq toshtaxtalar bilan qoplangan. Ehtimol, bu toshlar ohak gil bo'lib, Xoja Gulsuvar (Burgut tog'i)dai keltirilgandir. Hovonchaning yuza qismi xom g'isht ustidan pishiq g'isht qoplangan va yuz (old) tomoni ochiq qizil rangga bo'yalgan. Hovonchaning diametri 14,5 metr, umumiy balandligi qachonlardir 16 metrga teng bo'lib, uning bo'yini xoda (tayoq)ga osilgan «Hurmat soyaboni» balandroq ko'rsatardi. Zo'rmo'laning bunyod bo'lishi ulug' kushonlar davriga, ya'ni milodning II asriga to'g'ri keladi. Uning qurilish ishlaridagi ko'lami Fayoztepanikidan ortiq va Termizdagi budda inshootlari qurilishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Zo'rmo'la minorasi Markaziy Osiyodagi shunday hovonchalardan va arxeologik qatlamlardagi minoralarga o'xshamaydigan yirik me'morchilik obidalaridandir. Zo'rmo'la hovoncha yoki minora ekanligi qaqida olimlar orasidagi bahslar yechimi topilgani yo'q. B.N.Kostalskiy («SurxonSherobod vodiysi tarixiyjug'rofik obrazi», Toshkent, «Vestnik irrigatsii», 1930, № 3, 4) bu masalaga shubha bilan qaragan. G.A.Pugachenkova Zo'rmo'laning buddizm minorasi deb atadi. B.V.Lunin esa «Kattatepa» deb nomladi. Hovoncha ruscha stupaning tarjimai bo'lib, uni bu yodgorlikka qiyoslash to'g'ri kelmaydi. Zo'rmo'la atamasi ruscha «Zurmula» deb buzib ifodalanib kelinganga o'xshaydi. U asli Zo'rmo'la, ya'ni «Katta mo'la» ma'nosini anglatadi. Mahalliy shevada «mo'la» so'zi loydan baland ko'tarib yasalgan, lekin minoradan kichik va undan farq qiladigan qurilma ma'nosini anglatadi. Dehqonlar oq jo'xori, tariq paykallarini ana shunday mo'lalardan palaxmon otib, hosilni qushlardan qo'rganligi ma'lum. Ana shunday mo'lalardan azonchilar din ixlosmandlarini ibodatga, namozga chaqirganlar. qadimda Zo'rmo'laning o'z nomi bo'lganligi ajab emas, hozirgi nomi bu ulkan inshoot qoldig'ining mahalliy xalqdar tomonidan atalishidan olingan bo'lishi mumkin.

Taniqli olim A.S.Strelsov (Sbornik kulturg Vostoka. Vsh. 1. Moskva, 1927) o'z asarini «Zo'rmo'la yoki Kattatepa» deb nomlashi bejiz emas. O'rta asr Termiz raboti o'rtasida, uning shimoliy devori yaqinida bir qator inshootlar bor ediki, ularning pishiq g'ishtlari allaqachonlar tashib ketilgan. Bu imoratlar eskidan (kushonlar davrida)

odamlar yashab kelgan joylarda qurilgan, bu yerlar II–V asrlarda kushonlar tashlab ketgandan keyin bo‘sh yotgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, II asrda yer qimirlashi oqibatida ko‘pgina inshootlar, uyjoylar vayronaga aylandi, ular qaytadan tiklanmaydi, balki urfodatga ko‘ra, irim qilingan yoki tiklashning iloji bo‘lmagandir. Shu tufayli buddizm ibodatxonalari, xonaqohlari va boshqa inshootlar qurilishi Kushon Termizining shimoli-sharqida Zo‘rmo‘la atrofida rivojlantiriladi.

Ilk o‘rta asrlarda bu yerlar tiklana boshlaydi, VI–VII asrlarda katta bo‘lmagan, lekin o‘z shakli bo‘yicha diqqatga sazovor feodal qasri (qo‘rg‘oni) saroyi quriladi. Ko‘shkning pastki qismi 25x25 metr bo‘lib, paxsa devordan ko‘tarilgan, uning bosh o‘qi bo‘ylab yotgan markaziy dahlizi, uning ikki tomonida beshtadan uzunroq xonalari bo‘lgan. Daxliz va xonalar gumbazlar bilan yopilgan, devorlarida teshiksimon derazalar bo‘lgan. Ko‘shkning ikkinchi qavati yengil materiallardan yopilgan bo‘lib, yozda yashashga mo‘ljallangan. Termiz qo‘rg‘oni Markaziy Osiyo qasriga xos ko‘shk edi, u ko‘p asrlar kishilarga xizmat qildi. Islom dini rivoji davrida uning yaqinida qurilgan masjid va qo‘shma xonalar ziyoratga keluvchilar uchun yotoqxona, sayyoh darveshlar uchun xonaqoh vazifasini o‘tadi. Ko‘shk vayronalari hozirgi Katta O‘zbek traktining Eski Termiz hududi ostida qolib, yo‘q bo‘lib ketdi.

Umuman, kushonlar davrida vohada iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayot yuksak darajada rivojlangan. Kushon hukmdorlarining tinimsiz ravishda olib borgan urushlari, ko‘chmanchilarning hujumlari hamda bo‘ysundirilgan o‘lkalarda mustaqillik uchun olib borilgan harakatlar oqibatida kushonlar saltanati inqirozga uchraydi. IV asr oxirlarida to‘xtar qabilalari kushonlar saltanatiga xotima beradi.

Ilk o‘rta asrlar davrida Surxon vohasini ham o‘z tasarrufiga birlashtirgan To‘xtariston qadimgi dunyo tarixi va madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Bolaliktepa, Kuyovqo‘rg‘on, Tavka qo‘rg‘oni devoriy suratlari va haykallari qadimgi dunyoning eng noyob badiiy san‘at asarlari turkumiga kiradi.

### **Axborot-uslubiy ta‘minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta‘limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda “Davra suhbatlari” hamda “SINKVEYN” pedagogik


metodlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

## “DAVRA SUHBATI” metodi



“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




**Belgilar:**

- 1-ta’lim oluvchilar
- 2-aylana stol

## **Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt

belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

#### **"Davra suhbatlari" metodining afzalliklari:**

- o'tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

#### **"Davra suhbatlari" metodining kamchiliklari:**



- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

## “SINKVEYN” texnologiyasi yordamida ma’ruza mashg‘ulotlarida muammoli vaziyatlarni yechish

“SINKVEYN” – bu besh qatordan iborat bo‘lib, unda bir tushuncha haqida axborot beriladi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so‘z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda unga harakat-holat (fe‘l) bilan to‘ldiriladi. To‘rtinchi qatorda so‘z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so‘zning ma’nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

### “Sinkveyn”

Kalit so‘zlar: (*kiritiladi*)



### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Surxon vohasi aholisining sotsial shakllanishi.*
2. *Surxon vohasi hudidida oila institutining tarixan shakllanish evolyutsiyasi.*
3. *Kushon podshjligi davrida vohada pul munosabatlari.*

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q., T. «Sharq», 1998.
2. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar., Meros, 1997.
3. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgasida.T., 2001.
4. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
5. Annaev T. «AlHakim atTermiziy». Toshkent , 1998.
6. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi., Toshkent, «Sharq» 2001.
7. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Hakimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari. T., Leturatura i iskusstvo. 1982.
8. Ibrahimov N. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. T, 1993.
9. Ma’naviyat yulduzlari. T., Xalq merosi, 2001.
10. Murtozaev B, Qodirov B. Chag‘oniyon adabiyoti. Yangi asr avlodi, T., 2003.
11. Mualliflar jamoasi. Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni. T. Fan, 2001.
12. Omonturdiev J., Al Hakim at Termiziy ta’limoti. T., Universitet, 2000.
13. Tursunov S.N. Buyuk siymolar. T., Sharq, 2002.

## **5-Mavzu: O'RTA ASRLARDA SURXON VOXASI**

### **Asosiy savollar:**

1. O'rta asrlar davrida Surxon vohasining muhim ijtimoiy siyosiy voqealari.
2. O'rta asrlarda Surxon vohasida iqtisodiy munosabatlar va mulkchilik shakllari.
3. IXXII asrlarda ilmfan va madaniyat.
4. Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida Surxon vohasi.
5. Mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlari.
6. Surxon vohasi Temur va Temuriylar davrida.

### **Tayanch so'zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag'וניyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo'g'ullar istilosi. Chig'atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

Milodning IIV asrlarida hukmronlik qilgan Kushon imperiyasi davrida Surxondaryo vohasi iqtisodiy, madaniy jihatdan taraqqiy etadi. Ammo III asrning ikkinchi yarmida saltanatda yuz bergan kuchli to'qnashuvlar imperiyani halokat yoqasiga olib keladi. Kushon saltanati Eron sasoniylari qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchragach, uning yerlarida bosqinchilarga qaram viloyat tashkil etiladi. Bu yerlar asosan Baqtriya Toxariston hududlariga to'g'ri keladi, viloyatni esa sasoniy shahzodalar idora qila boshlaganlar.

Toxaristonda toxarlar iqtisodiy va madaniy hayotga ko'p aralashmay mahalliy sulolalardan soliq olish xisobiga yashaganlar. Bu yerda 1 millionga yaqin aholi yashab, mamlakatda sun'iy sug'orish, hunarmandchilik, quruvchilik, to'qimachilik ancha rivojlangan. Buyuk ipak yo'lining rivojlanishi natijasida Janubiy Yevropa, Kichik Osiyo, Hindiston bilan bog'laydigan savdo-sotiq yo'llari yanada faollashdi. Toxariston bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy savdo aloqalari ancha taraqqiy etdi va ushbu hududda iqtisodiy-madaniy hayot ancha yuksaldi. Xitoy sayyohi Chjan syanning taxminan mil. avv. 128-yil ma'lumotiga qaraganda, yuechjiylar Toxaristonda tinch hayot kechirishib, ular xunlarga qarshi urushga qatnashishga rozi bo'lmaydilar. Toxarlar milodiy

IIV asrlarda dong taratgan Kushonlar imperiyasining tashkil topishida alohida qissa qo‘shganlar.

IV asrning 60-70yillarida Shopur II Markaziy Osiyo yerlariga shimoldan kirib kelgan xioniyalar bilan kurash olib boradi va ikkinchi marotaba yengiladi. Milodiy 380-yilda xion qabilalarining harakati tufayli Shimoliy Toxaristonda xion qabilalarining mustaqil viloyati vujudga keladi. Sharqiy Toxaristonda esa eftaliylar uyushmasidan iborat birlik tashkil topadi. Mamlakatimiz tarixida alohdda o‘rin tutgan Eftaliylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar qatorida ajralib turgan. Eftaliylar siyosiy hukmronligi V asr va VI asrning ikkinchi yarmiga qadar mavjud bo‘lgan. Eftaliylar haqida xitoy, hind, fors, arman, suriya, lotin tarixiy manbalari ma’lumot beradi. Xitoy manbalarida eftaliylar ida, iyada, idan, idyan atamaları bilan, suriya va lotin manbalarida eptal, abdal; arman manbalarida idal, tetal, xeptal; arab va fors manbalarida haytal, yaftal, hatal; hind manbalarida huna kabi nomlar bilan qayd etilgan. Xitoy manbalarida eftaliylarning yuechjiy yo uyg‘ur qabilalariga tegishli ekanligi ta’kidlab o‘tiladi. Vizantiyalik tarixchi Prokopiylar eftaliylar xunnlardandir, tanalari esa oq, deb ma’lumot beradi. Pahlaviy yozuvida bitilgan «BahmanYasht»dagi manbada Erondagi podshoxlik va oliy hokimiyat eroniy bo‘lmagan qulvachchalarga, ya’ni xion, turk, haftal (eftal), tibetliklar qo‘liga o‘tadi. Shuningdek, «BahmanYasht»da lo‘nda qilib eftaliylar eroniy emas, deb yozib qo‘yilgan. Xitoy manbalarida Idan (eftaliylar) sulolasi Xan sulolasi davridan ma’lum katta yuechjiy avlodidir. Dahya (Baqtriya) bu Tu xo la (Toxariston) demakdir. Bu yerlik hukmdorlarning nomi Iede (Eftal, eftalan, eftalit) bo‘lib, bu nom bilan davlat nomi atalgan. Eftal avlodlari mamlakatni mustahkamlash uchun bir qator muxim islohotlar o‘tkazib, o‘zlarining hukmron mavqelarini ancha mustahkamlab oldilar. Taxminan 457-yili Vaxshunvar (Axshunvar) boshliq eftaliylar Chag‘oniyon (Surxondaryo viloyatining Termizdan yuqori qismlari), Toxariston, Badaxshonda o‘z hokimiyatlarini o‘rnatdilar. Rim tarixchisi Prokopiylar (VI asr)ning yozma manbalarida «Eftaliylar davlatni qonunlar asosida boshqaradilar», deb ta’kidlaydi. Chunki davlatni ma’muriy-siyosiy jihatdan boshqarish uchun mukammal qonunchilik hamda qattiqqo‘l siyosiy boshqaruv tizimi mavjud bo‘lgan. Eftaliylar davrida mintaqada so‘g‘dcha, xorazmcha, buxorocho, karoshti (kxaroshtxi), eftaliycha yozuvlar madaniy jarayonga o‘z hissasini qo‘shgan. Eftaliy yozuvi haqida chinlik Syuan szan quyidagicha ma’lumot keltiradi:

«Yozuvlaridagi asosiy harflar soni yigirma beshta bo‘lib, ular yordamida iboralar, so‘zlar yasaydilar. Saxyafaga xatni eniga tushiradilar, chapdan o‘nxta qarab o‘qiydilar».

Sosoniylar Eroni Toxariston yerlarini yana qaytarib olish uchun harbiy harakatlar olib boradi. Xususan, Yozdigard II davrida bu harakatlar yanada kuchayadi. Arman tarixchisi Yegishe Vardanetning yozishicha, sosoniylar shohi xoiniylar bilan ikki-yil kurash olib borib, ularni bo‘ysundira olmagan. Sharqiy Toxaristondagi boy berilgan yerlarni qaytarib olish uchun eftaliylar bilan sosoniylar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar V asrning 30-yillaridayoq sodir bo‘lgan edi. Arman tarixchisi Vardanetning yozishicha, V asrning 50-yillarida eftaliylar ittifoqining kuchayib ketishi natijasida, ular janubdagi yerlarga qarab siljiy boshlaganlar. Taxminan 457-yilda Vaxshunvar boshchiligidagi eftaliylar Chag‘oniyon, Toxariston, Badaxshonda o‘z hokimiyatini o‘rnatadilar.



V-VII asrlarda Surxon vohasi, ya’ni shimoli-g‘arbiy Tohariston Eftalitlar davlati va Turk hoqonligining tarkibiy qismi bo‘lgan. Bu davrlarda ko‘plab shaharlarga va qishloqlarga asos solingan. Budrach, Bolaliktepa, Kuyovqo‘rg‘on, Tavka qo‘rg‘oni va boshqalar bu davrning noyob obidalari hisoblanadi.

Bu davrda vohada haykaltaroshlik va devoriy rangtasvir san’ati o‘z rivojining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan.



**Bolaliktepadan topilgan  
isiriqdon**



**Kuyovqo‘rg‘ondan topilgan  
haykal**

Ilk o‘rta asrlar davri voha hunarmandchiligi o‘ziga xos uslubda rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yuksak mahorat bilan yaratilgan kulolchilik, zargarlik, misgarlik va shishasozlikka oid noyob buyumlar Vatanimiz madaniyatining nodir namunalari hisoblanadi.

Eftaliylar VI asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoning bu katga qismini birlashtirgan kuchli davlat tuzadi. qisqa vaqtga bo'lsada, o'z davlatining asosiy o'zagini tashkil etgan Toxariston yerlarini sosoniylar Eroniga qaramliqdan saqlab qola oladi. 563–567-yillarda Turk hoqonligining hujumi tufayli eftaliylar mag'lubiyatga uchraydi, ammo eftaliylar hukmronligi Chag'oniyonda saqlanib qoladi.

Turk hoqoni Istemi va Xusrav I Anushervon orasida tuzilgan shartnomaga ko'ra Xusrav I Anushervon 571-yili Chag'oniyonni va eftaliylarga qaram bo'lgan boshqa joylarni oladi. Shu tariqa, Chag'oniyon deyarli, yetmish-yil Eftaliylar davlati tarkibida bo'ldi. Chag'oniyon Eftaliylar tarkibida ham, Sosoniylar davlatiga kirganda ham muayyan darajada mustaqil bo'lgan. qizig'i shundaki, Xusrav I Anushervon eg'allagan o'sha vaqtdag'i barcha Baqtriya viloyatlari orasida Dinovariy faqat Toxariston va Chag'oniyonni ko'rsatib o'tadi. O'zbekiston janubining eftaliylarga bo'isunganligini Peruz tangalariga taqlidan yasalgan eftaliy tangalarining Termiz, Xayrobodning barcha hududidan topilganligi ham tasdiqlaydi. Birmuncha keyinroq, aniqrog'i VII–VIII asrlar birinchi yarmida Chag'oniyonda Chochning turkiy hokimi va Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlari hukmdorlari tangalariga taqlidan zarb qilingan bu tangalarning old tomonida hukmdor va uning rafiqasining tasviri, orqa tomonida esa yuqori va pastki uchlari ilgaksimon romb shaklidagi tamg'a bo'lgan. Sosoniylar zarb qilgan tangalarga taqlidan yaratilgan oldingi tangalar bilan Chochning turkiy hukmdorlari tangalariga taqlid qilib zarb etilgan mazkur tangalarning bir-biridan keskin farq qilishiga asoslanib, Chag'oniyonda VII asrning birinchi yarmida hukmdor sulolalar almashuvi sodir bo'lgan va oddin hukm surib kelgan eftaliylar sulolasi o'rniga bu yerda hokimiyatga turkiy sulola kelgan, deyish mumkin. Ammo chag'onxudotlarning eski sulolasi o'z mavqelarini saqlab qolgan holda sosoniylarga emas, balki 589-yilda Toxaristonga kirib kelgan turklarga moslashib olgan degan taxmin bor, chunki turklar bir necha marta Toxaristonga bostirib kelganlar. qoon Tun Yobg'u davrida (618-630) Toxariston uzil-kesil turklarga qaram bo'ladi. Turkiy qabilalar Toxaristonga, ayniqsa uning shimoliy qismiga ko'plab kirib borganlar. Mazkur jarayonlar yuz bergan vaqtda Surxon vohasi Toxaristonning shimolig'arbiy qismini tashkil etgan. Xitoy manbalarida (Syuan szyan, XoyChao tafsilotlarida, VII–VIII asrlar) Shimoli-g'arbiy Toxariston yerlarida

Termiz va Chagʻoniyon mulkliklari mavjudligi tilga olib oʻtiladi. Termiz Amudaryoning oʻng qirgʻogʻidagi yerlarni va hozirgi Angor, Jarqoʻrgʻon tumanlarini oʻz ichiga olgan. Chagʻoniyon esa Chagʻonrud (qizildaryo) daryosining yuqori havzasidagi yerlarni, Hisor va Bobotogʻ togʻ oldi-maydonlarini oʻz tarkibiga olgʻan. Mulkchilikning markaziy shahri Budrachtepa oʻrnida joylashgan. Shuningdek, bu davrda Kuftan mulkligi ham boʻlib (bu arxeologik dalillarga koʻra, Sherobod vohasiga toʻgʻri keladi), uning poytaxti Xushvara deb atalgan.

VII asr oʻrtalarida Xurosonni istilo qilishni tugallagan arablar Toxariston yerlariga ham harbiy harakatlarini boshlaydilar. 651-yilda arablar bilan boʻlgan jangda chagʻoniyonliklar ham ishtirok etadilar. 652-yil boshida Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir Chagʻoniyonni egallashga muvaffaq boʻladi. 676-yilda Xuroson noibi Said ibn Usmon Termizni bosib olib, shaharni talon-toroj qiladi. Arablar tomonidan olib borilgan bu harbiy harakatlar vaqtinchalik muvaffaqiyatlar boʻlib, hali ular keng miqyosdagi harakatlar uchun hozirlik koʻrmoqda edilar. 689-yilda arablarning qaysim qabilasining rahbari Abdulloh ibn Xozimning oʻgʻli Muso ibn Abdulloh kichik harbiy guruh bilan Termizni qoʻlga olib, termizshohni shahardan quvib chiqaradi. Mahalliy aholi orasida katta obroʻga ega boʻlgan Sobit ibn qutba al-Xuzanning Muso ibn Abdulloh tomoniga oʻtishi va uni qoʻllab-quvvatlashi natijasida Muso arab xalifasi uchun soliq yigʻuvchilarni Movarounnahrda haydab chiqarishga muvaffaq boʻladi. Bu yigʻimlarning, yaʼni soliqlarning Termizda toʻplanishi natijasida shahar arablarning Movarounnahrda markaziga aylanadi. 704-yili arab lashkarboshisi Usmon ibn Masʻudning Soʻnggi hukmdori va Xuttalon podshosi bilan birgalikda amalga oshirgan yurishi natijasida Muso ibn Abdulloh boshliq isyonkorlar daf etilib, Termiz egallanadi. Arablar Movarounnahr yerlarini butunlay bosib olishga xalifa Abdumalik ibn Marvon (685–705) davrida kirishadilar. Ular Toxariston yerlarining-maydamayda mulkliklarga boʻlingani va ular oʻrtasida doimiy adovat mavjudligidan ustalik bilan foydalanadilar. 704-yili chagʻonxudot Tish Taliqon (Afgʻonistonning Toxar viloyati) shahriga oltin kalit va sovgʻasalomlar bilan tashrif buyurib, qoʻshni Shumon, Aharun mulkliklariga qarshi kurashlarda arablardan yordam soʻragan. Chagʻoniyon hukmdorlari arablarning harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Masalan, 706 va 709-yillarda qutayba ibn Muslimning Buxoro va

Paykand yurishlari bunga misol bo'la oladi. Chag'oniyon Toxaristonda nisbatan yirik va qudratli viloyatlardan sanalgan va uning avloddanavlodga o'tib kelgan o'z xukmron sulolasi Toxariston hukmdori bo'ladi. Chag'oniyon hududida ko'plab qishloqlar, yirik shaharlar bo'lgan, ular o'z pulini zarb qilib chiqargan. Bu viloyat shoxlari boshqa davlatlar bilan diplomatik, diniy va sulolaviy aloqalar o'rnatganlar. Masalan, Afrosiyob saroyidagi devoriy yozuvlarda ta'kidlanishicha, VII asrning ikkinchi yarmida Samarqandni boshqargan shoh Varxuman saroyiga Chag'oniyon hukmdori nomidan elchi kelgan.

Termiz va Chag'oniyonda sodir bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar Arab xalifaligi tarkibida bo'lgani sababli musulmon dunyosi mamlakatlari bilan uzviy bog'liq holda kechgan. 806–810-yillarda abbosiyarga qarshi ko'tarilgan Rafi ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda Termiz va Chag'oniyon xalqlari ishtirok etishgan. IX asrdagi Termiz va Chag'oniyonning siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar kam saqlangan. 821-yildan boshlab bu o'lkalar ham Tohiriylar davlati tarkibida bo'lgan. Buni Abdulloh ibn Tohir davrida yozilgan soliq ro'yxatda Termiz va Chag'oniyonning ham uchrashidan bilish mumkin. Bunda Chag'oniyon arab xalifasi xazinasiga-yiliga 48.500, Termiz esa 47.100 dirham to'lab turgan.

Yirik olim, qomusiy bilim egasi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy «Tarix arrasul valmuluk» («Payg'ambarlar va podsholar tarixi»), IX asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragida yashagan sayyoh va geograf olim Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy alIstaxriy (850–934) «Masolik ul-mamolik» («Mamlakatlarga olib boradigan yo'llar haqida») asarlarida ko'p mamlakatlar qatori Movarounnahr, xususan, Termiz viloyatining chegaralari, iqpimi, ma'muriy bo'linishi, aholisi va uning mashg'uloti, mashhur kishilari, savdo-sotiq masalalari haqida ma'lumot bergan. Ularda aytilishicha, Jayhun bo'yidagi Termiz qal'asi va shahriston shahar chekkasida joylashgan hamda mustahkam devor bilan o'rab olingan rabotdan iborat. Hukmdor saroyi qal'ada, qamoqxona (zindon) ko'handizda emas, shahristonda, ya'ni bozorning o'rtasida bo'lib, shu yerda jome' masjidi mavjud, namozgoh (fuqarolar namoz o'qiydigan joy) esa rabotda, ya'ni devorning ichkarisida qad ko'tarib turibdi. Bozor ichkarisidagi imoratlar xom g'ishtdan qurilgan, keng ko'chalarga va-maydonga pishiq g'isht yotqizilgan. Jayhun bo'yida, daryoning kechuv joyida shahar aholisi istiqomat qiladi, Termizning ekinzorlari Sag'oniyon

(Chag'onrud) daryosi suvi bilan sug'oriladi, aholi uchun ichimlik suvi quvurlar yordamida Jayhun daryosidan olingan.

X asr oxirida yashagan Al-Muqaddasiy (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiy) o'zining «Ahsan attaqosim fi ma'rifat alaqolim» («Iklimlarni o'rganish uchun yaxshi qo'llanma») nomli asarini yozib qoldirgan. Muallif, Termiz Jayhun bo'yidagi eng katta shahar ekanligini, hamma joydan bu yerga ko'plab ziyoratchilar, savdogarlar kelishini qayd qilgan. Shaharning ko'handiz qal'asi alohida ta'kidlanadi, ko'handizda bitta, shahristonda esa uchta darvoza borligi e'tirof etiladi. Al Muqaddasiy, shuningdek, yuqoridagi fikrlarni tasdiqlab, Sag'oniyon shahri Ramluga, uning viloyati esa Falastinga o'xshashligini, uning pishiq g'ishtdan terilgan baland ustunli, ravoqsiz masjidi bozorning o'rtasida joylashganligini, shaharning har bir mahalla va uy-xonadonlariga sopol suv quvurlari o'tkazilganligini ta'kidlaydi.

### **Sho'robqo'rg'ondan topilgan sirkor kosa**

IX–XII asrlar davomida Termiz va Chag'oniyon Movarounnahrda hukmronlik qilgan davlatlar tarkibiy qismi bo'lgan. Termiz va Chag'oniyon kabi shaharlar ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida yirik markazlar bo'lgan. O'lkada shaharsozlik jadal rivojlangan, ichki va tashqi savdo yuqori darajada taraqqiy topgan.



**Будрачдан топилган мис кели**

IX–XII asrlar mobaynida Termiz va Chag'oniyon shaharlarida misgarlik o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko'tariladi. Idishlar islimi, zoomorf va epigrafik naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, amaliy san'atning noyob durdonalari hisoblanadi.



### **Гармалитепадан топилган шиша идишлар**

Rivojlangan oʻrta asrlarda oʻlkaning Termiz, Chagʻoniyon, Xushvara, Xoshingird kabi shaharlari hunarmandchilikning shishasozlik turi bilan alohida ajralib turgan.

X asrning koʻzga koʻringan yirik olimi Istaxriyning shogirdi sayyoh geograf Ibn Havqal (Abulqosim ibn Havqal anNasibiy) ustozining iltimosiga koʻra «Kitob ul-masolik»ning xatolarini tuzatib, unga xaritalar ilova qiladi. Ibn Havqal oʻzining «Kitob surat alard» («Yerning shakli») nomli asarining Movarounnahr qismiga tarixiy voqealarni kiritib, kitobning qimmatini oshirishga erishadi. Sagʻoniyon Amudaryoga Termiz shahridan pastroqda qoʻshilishini tasvirlagan Ibn Havqal oʻz asarida Istaxriy qoʻllagan «qalʼa» atamasini ishlatmaydi, balki faqat koʻhandiz eski qoʻrgʻon haqida maʼlumot keltiradi.

Termiz oʻz navbatida qoraxoniylar va gʻaznaviylar oʻrtasida boʻlib turadigan muzokaralar va rasmiy uchrashuvlar joyi ham boʻlgan. Shunday rasmiy uchrashuvlardan biri 1025-yilda boʻlib oʻtadi. Tarixchi Gardiziyning yozishicha, 1025-yili Sulton Mahmud gʻaznaviy katta qoʻshin bilan Balx shahriga kelgan. Bu yerda Movarounnahrdan kelgan odamlar Buxoro va Samarqand hokimi Ali Tegin ustidan amirga shikoyat qiladilar. Movarounnahrni koʻrish niyatida boʻlgan Mahmud gʻaznaviy bundan foydalanmoqchi boʻladi va u katta qoʻshin bilan Balxdan Amudaryo tomon yoʻl oladi. Surxondaryo ustiga vaqtinchalik koʻprik qurishga buyruq beradi. Afsuski, Gardiziy nima uchundir Mahmud gʻaznaviyning Amudaryodan kechib oʻtganligini qayd qilmaydi. Ammo Mahmud gʻaznaviyning 1017-yilda Xorazmga qilgan yurishi payti Termiz yaqinida Amudaryo ustida koʻprik qurdirib, shu orqali daryodan oʻtganligi shoir Farruxiy qasidalarida oʻz ifodasini topgan. Ushbu koʻprikning qurilishi va uning Paygʻambar oroli orqali oʻtganligini taxmin qilish mumkin. Termizda katta jang oldidan oʻz qoʻshinini jamlab turgan Mahmud gʻaznaviy istiqboliga atrof viloyatlarning amirlari peshvoz chiqadi, bular orasida Chagʻoniyon amiri ham bor edi, afsuski, uning nomi eslatilmagan. Balx shahri

yonida 1008-yili ro'y bergan jangda g'aznaviylar o'z g'animlari qoraxoniylar lashkarini tor-mor etganlaridan so'ng, Termiz g'aznaviylar davlati tarkibiga batamom qaram etiladi. Termiz g'aznaviylar davlatida nafaqat yirik savdo markazi, balki mamlakatning shimoliy chegaralarini qoraxoniylar xujumidan himoya qiluvchi qal'a vazifasini ham o'tay boshlaydi. Xuddi shu davrda Chag'oniyon amirligi hukmron sulolalar qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasidagi o'zaro kurash vaziyatini to'g'ri baholab, o'z mustaqilligini saqlab qola olgan. Chag'oniyon qudratli g'aznaviylar davlatiga qo'shni bo'lsada, uning amirlari Muzaffar qiya va Faxr ad-Davla Ahmad ibn Muhammad o'zlarini qoraxoniylar vassali deb hisoblaganlar. Chag'oniyon davlatining siyosiy hayotini o'sha davrda zarb etilgan va arxeolog olimlar tomonidan qazib topilgan tangalar orqali anglash mumkin. Mavjud tangalar shundan dalolat beradiki, 1025–1027-yillarda Chag'oniyon qoraxoniylar davlati tarkibida bo'lgan, 1027–1039-yillarda esa mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan. Ammo 1038–1039-yillar va 1042–1043-yillarda Chag'oniyon o'z mustaqilligidan maxrum bo'lib, uni qoraxoniylar Bo'ri Tagin idora qilgan. Biroq Termiz va hatto Chag'oniyon ham 1031-yillar, aftidan, 1041-yillargacha hali g'aznaviylar tasarrufida bo'lgan ko'rinadi. Buni muarrix Abulfazl Bayhaqiy o'zining «Mas'ud tarixi» nomli asarida to'kis yoritgan, unda 1031-yilning 15–18-aprel voqealari hikoya etiladi. Hikoya qilinishicha, Sulton Mas'ud ibn Mahmud g'aznaviy 1031-yilning 15–18-aprel kunlari Termizda bo'ladi, Jayhun sohillarida ov qiladi, to'rt sherni shaxsan o'zi otib o'ldiradi, dabdabali maishat uyushtiradi. Termiz ahli va uning kutvoli (qal'a boshlig'i) qutlug' kamoli ehtirom ila Sulton Mas'udni kutib oladi, katta tantana uyushtiriladi, sozandalar, xonandalar, bozandalar tinim bilmay xizmatga shay turadilar. Hatto tarixchi Bayhaqiyning shaxsan o'zi bu xil cheksiz hurmat bilan qarshi olinish hodisasini Termizdan boshqa joyda uchratmaganini bir guvoh sifatida hayajonlanib so'zlaydi. Demak, hali XI asrning 30-yillari Termiz va Chag'oniyon g'aznaviylar ixtiyorida ekanligi ancha oydinlashadi, chunki Termizga tashrif buyurgan Sulton Mas'ud huzuriga Chag'oniyon amiri ham kelgan edi.

Termiz va Chag'oniyon 1056-yildan e'tiboran Saljuqiylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi, 1063-yilga kelib Chag'oniyonni to'la bo'ysundirish uchun saljuqiylar sultoni Alp Arslon harbiy yurish uyushtirishga majbur bo'ladi. Ibn al-Asir bergan ma'lumotlarga qaraganda, saljuqiylarga buysunishni istamagan Chag'oniyon hokimi

Muso saljuqiylar qo'shinining Chag'oniyon shahriga yaqinlashib kelayotganini bilgandan so'ng, oz sonli jasur kishilardan iborat kichik to'da bilan Sina qishlog'idagi baland tog'da joylashgan qizqo'rg'on qal'asiga o'rinish olib, qarshilik ko'rsata boshlaydi. Ammo katta qo'shinga ega bo'lgan Alp Arslon qal'ani qo'lga olib, Musoni qatl etadi va butun viloyatni o'z davlati tarkibiga qo'shib oladi.

Chag'oniyon va Termizni 1065-yili Alp Arslon ukasi Ilyosga iqto sifatida in'om etadi. Termizning harbiy jihatdan mavqei qoraxoniylarni mazkur shaharni egallash orzusidan bir kun ham voz kechtirmagan. 1072-yilda qoraxoniy Shams al-Muluk Termizni egallaydi va kelasi-yili saljuqiylarning shaharni egallash uchun qilgan harbiy harakatini qaytaradi. 1073–1074-yillarda shaharni saljuqiy Sulton Malikshoh qoraxoniylardan qaytarib oladi va shaharning mudofaa inshootlari mustahkamlanadi.

Tarixda saljuqiylarning Movarounnaxr yerlariga kirib kelishi X asr bilan bog'lanadi. O'sha kezlarda Balxash ko'lining janubidan Volgagacha bo'lgan keng hududda turkiy xalqlarning o'g'uz qavmi yashar edi. Ko'plab qabila va urug'larga ega bo'lgan o'g'uzlarning bir kichik urug'i orasidan chiqqan Saljuq ismli shaxs katta harbiy kuch boshlig'i darajasiga erishadi. Saljuq o'z tarafdorlari bilan X asrning o'rtalarida Sirdaryoning o'rta oqimlarini tark etib, daryoning quyi oqimi chap qirg'og'ida joylashgan Jand viloyatiga kirib keladi va shu yerda o'rinishadi. Albatta, ular o'sha davrning hukmron sulolasi bo'lmish somoniylarning tarafdori sifatida Movarounnahrning siyosiy hayotiga faol aralashib turadi, bu esa tabiiy hol edi.

Shunday qilib, Termiz tinch yo'l bilan saljuqiylar qo'lga o'tadi. Sulton Mas'udning o'g'li Mavdud 1048-yilda Termizni qaytarib olish uchun harbiy yurish qiladi, ammo yo'lda vafot etadi. Saljuqiy Chag'ribek Dovud ushbu mavzeldagi Balx, Termiz va atrofdagi mulklarni qo'lga kiritgach, ularga o'g'li Alp Arslonni hukmdor qilib tayinlaydi. Manbalarda raqam ta'kidlanishicha, Alp Arslonning vaziri Abu Ali ibn Shazak ko'plab obodonchilik va qurilish ishlarini amalga oshiradi.

Saljuqiylar saltanati ustuvorlik va ular yuritgan davlatchilik siyosati qanchalik barqaror bo'lmasin, ularda ham beqaror siyosiy vaziyatning kelib chiqishi uchun sharoit pishib yetilgan edi. Bu hol tabiiy ravishda Saljuqiylar davlatining tarkibiga daxldor sarzamin hamda hududlar taqsiriga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Saljuqiylar sulolasining asosiy g'animi qoraxoniylar uzluksiz ravishda Termiz shahriga tahdid

solib turadi. qoraxoniylar hukmdorlaridan Tabg'achxon Ibrohim ibn Nasr XI asr o'rtalarida qisqa muddat ichida Termizni o'z tasarrufiga oladi, ammo Alp Arslon tezlikda shaharni yana saljuqiylar ixtiyoriga qaytaradi.

Tug'rulbek 1063-yili olamdan o'tadi, natijada Alp Arslon Saljuqiylar saltanatining bosh hukmdoriga aylanadi va u ukasi Ilyosga Termiz shahrini topshiradi. Alp Arslon 1072-yilda vafot etadi va vaziyatdan foydalanishga harakat qilgan qoraxoniylar Shams ul-Muluk Termizni qaytarib oladi. Bu orada Alp Arslonning Ayozi ismli o'g'li Termizni qayta qo'lga kiritish uchun harbiy harakatlar olib boradi, biroq u 1073-yilning 1-fevralidagi ikki tomon to'qnashuvida mag'lub bo'ladi. Ayozi qo'l ostida bo'lgan o'n ming otliqning bir qismi qoraxoniylar tarafidan qirib tashlanadi va ularning katta qismi Amudaryoga cho'ktiriladi. Yuqoridagi voqealar davomida Shams ul-Muluk inisi Buga Tegin Xidirni Termizga jo'natib, o'zi esa saljuqiylarga qarshi urushga hozirlik ko'ra boshlaydi. Alp Arslon vafotidan so'ng saljuqiylarning yangi bosh hukmdori Sulton Malikshohga qoraxoniylarning bu qiliqlari yoqmasligi tabiiy edi. Bu ham yetmagandek, Shams ul-Muluk, ustiga ustak, Sulton Malikshoh nomiga xat yuboradi va xatda Termiz shahrining Movarounnahr sarzaminiga daxldorligi, shunga ko'ra shaharni qoraxoniylar vakili boshqarishi maqbulligi ta'kidlangan edi. Aftidan, Shams ul-Muluk maqsadiga erishadi, boisi xatdan murod Malikshohni ochiqchasiga jangga undash edi. Oqibatda Malikshoh mashhur vazir Nizom ul-Muluk hamrohligida 1074-yilning kuzida Termizni qamal qilib, shahar handaqlari (maxsus himoya chuqurlari)ni turlituman narsalar bilan to'ldirib, toshotar manjanaklarni shahar devorlariga yaqin keltirib to'g'rilab qo'yadi. Natijada ilojisiz qolgan shahar aholisi taslim bo'lib, rahm-shafqat so'raydi va Malikshoh aholiga omonlik beradi. Ammo jangdan keyin ikki g'ulom(qul)ning bahsi tufayli harbiy harakatlar yana avjiga chiqadi, qal'a aholisi asirga mahkum etiladi. Keyinroq Malikshohning amri bilan sipohsolor Sov Tegin rahbarligida qal'a ta'mirlanadi, qal'a devorlari pishiq g'ishtlar bilan qoplanib, mustahkamlanadi. Oradan bir-yil o'taro'tmas, Shams al-Muluk Termizni qisqa fursatda egallaydi, biroq o'zi jangda mag'lubiyat alamini tortadi.

Saljuqiylar va qoraxoniylarning birlashgan qo'shinlari 1141-yilning 9-sentabri kuni Samarqand yaqinidagi Katvon cho'lida Movarounnahr hududlariga sharq tomondan bostirib kirgan qoraxitoylar bilan to'qnashadi. Bu jang qoraxitoylar foydasiga hal bo'ladi, oqibatda

Markaziy Osiyodagi siyosiy kuchlarning muvozanatiga keskin ta'sir o'tkazadi. Mag'lub Sulton Sanjar Termizga chekinadi, uning birdan bir umidi Termiz ahlidan edi, ammo mag'lubiyat Sulton Sanjarning siyosiy-maydondagi obro'yiga shikast yetkazadi. Masalan, Alouddin Otsiz Xorazmshoh fursatni g'animat bilib, mustaqillikka intiladi, Sulton Sanjar baribir Xorazmni qaytadan buysundirishga erishadi. Sulton Sanjar markaziy hokimiyatga tahdid solib turuvchi Alouddin Otsizni jilovlash va uning bejo harakatlaridan voqif bo'lib turish maqsadida Xorazm mamlakatiga mashhur shoir Adib Sobir Termiziyning elchi sifatida jo'natadi. Markaziy hokimiyatga doimo adovatda bo'lgan Alouddin Otsiz Xorazmshoh xufiyona tarzda ikki qotilni Marvga yuboradi, qotillarning yagona vazifasi Sulton Sanjarni o'ldirish edi. Bundan tasodif xabar topib qolgan Adib Sobir Termiziy zudlik bilan chora ko'rib, voqeadan Sulton Sanjarni voqif etadi va uning hayotining saklab qolinishiga sababchi bo'ladi. Eng mudhish tomoni shundaki, buni sezib qolgan Alouddin Otsiz Xorazmshoh buyuk shoir Adib Sobir Termiziyning qo'l-oyoqlariga kishan solib, uni asov Amudaryoga cho'ktirtiradi. Bu voqealar 1147-yili sodir bo'ladi va 1148-yili Sulton Sanjar intiqom olmoq niyatida katga qo'shin bilan Xorazmshoh ustiga yurish qiladi.

Balx hududidagi o'g'iz qabilalari 1153-yili markaziy hokimiyatga qarshi g'alayon ko'taradilar, Sulton Sanjar ularning ustiga qo'shin tortadi. Ming afsuski, Sulton Sanjar qo'shini o'g'izlar tomonidan yengiladi, o'zi asirga olinadi va u uch-yil mobaynida o'g'iz amirlari tutqunligida yashaydi. Sulton Sanjar 1156-yilning kuz oyida asirlikdan qochadi va Termiz shahriga keladi. Tarixchi Ravandiyning hikoya qilishicha, bu voqealar Sulton Sanjarga sodiq qolgan termizlik mulozimlar tomonidan amalga oshirilgan ekan. Ayniqsa, o'sha paytdagi Termiz shohi Abulmuzaffar Imoduddin Feruzshoh Ahmad bin Abu Bakr ayni shu voqealar rivojida muhim maqomga ega bo'ladi. Goho manbalarda termizshoh Imoduddin Axmad ibn Bakr qumoch tarzida tilga olib o'tiladi. Umuman olganda bu davr voqealariga yanada ravshanliklar kiritish kerakdek ko'rinadi. Tarixchilardan Juvayniy, Ravandiy, Vatvot, Oqsaroyli raqam qilishlariga qaraganda, yuqoridagi voqealar davomida Termiz shahri Xuroson poytaxtiga aylanadi. Chunonchi, Sulton Sanjar Termiz shahridan turib, atrofdagi barcha xukmdorlarga unga kelib qo'shilishi haqida murojaat qiladi. Lekin Termiz shahrida jamlangan Sulton Sanjar mulozimlari o'rtasidagi mavjud keskin ziddiyatlar Sulton

Asosiy savollarlarining amalga oshishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Ana shu adovatlar tufayli Sulton Sanjar mulozimlari birbirlarini o'ldirish bilan mashg'ul bo'lib, asosiy Asosiy savollarlar ikkinchi o'ringa tushib ketadi. Tomonlar pirovard natijada ma'lum ma'noda bitimga kelishadilar, kelishilgan shartnomaga binoan garovga olingan Sanjar hibsdan ozod etiladi va u Marvga ravona bo'ladi. Sulton Sanjar ko'p o'tmay Marvda 1157-yilning-aprel oyida bandalikni bajo keltiradi.

Sulton Sanjar vafotidan keyin ham u bilan bog'liq ayrim mojarolar davom etadi. Shunday voqealardan biri 1158-yilning-avgust oyida ro'y beradi. Xuttalon hukmdori Abushujo' Farruxshoh go'yo Sulton Sanjar da'vatiga binoan Termizni qurshab olib, qamal e'lon qiladi. Termiz hukmdori Ahmad ibn Abu Bakr ibn qumoch o'z navbatida Farruxshohni jangda mag'lubiyatga uchratib, uni chekinishga majbur qiladi.

Termiz shahri XIXII asrlarda Saljuqiylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy markazlaridan biriga aylandi va har sohada taraqqiyotga erisha boshladi. Bu davrda shahar xududi kengaydi, bir qator yangi inshoot hamda serviqor bino va minoralar qad ko'tardi, shaharda savdosotiq rivoj topdi. Shaharda savdosotiqning rivoji qator omillar bilan izoxdanadi, avvalo shaharning jug'rofiy joylashuvi, Buyuk ipak yo'li chorrahasida ekanligi, ikkinchidan, mazkur shaharda hunarmandchilikning jadal o'sganligidandir. Shular bilan bir qatorda shaharning daryo sohilida va ayniqsa kechuv joyda joylashganligi, bandar (port) shaxri ekanligi ham uning yirik savdo markaziga aylanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Sulton Saodat 1029–1030-yilda Termizni g'aznaviy Baxromshohga topshiradi. XII asrning ikkinchi yarmida Saljuqiylar davlati qulagandan so'ng Termiz va Chag'oniyon qarluqlar qo'l ostiga o'tadi.

Xullas, XIII asr boshlariga qadar Termiz va Chag'oniyon navbatmanavbat qarluqlar, guriylar, qoraxoniylar qo'l ostida bo'ladi. 1206-yilda G'uriylar davlati tarkibida bo'lgan Termizni qoraxitoylar va qoraxoniylar bilan ixtilofda bo'lgan Muhammad Xorazmshoh egallaydi, Chag'oniyon ham uning ulkan davlati tarkibiga kiradi. Termiz va Chag'oniyon Xorazmshohlar davlatida muxim o'rin egallagan. Termizda oltin dinor, Chag'oniyonda kumush dirham pullarning zarb etilishi shundan dalolat beradi. Muhammad Xorazmshohning ulkan siyosiy hayotida Termiz sayyidlari katta ahamiyat kasb etadi, hatto ulardan biri A'lo al-Muluk musulmonlarnisg yangi xalifasi deb e'lon qilinadi.

Markaziy Osiyo sarhadlarida mo'g'ul qo'shinlarining paydo bo'lishi bilan vaziyat tubdan izdan chiqadi va 1220-yilning kuzida mo'g'ul qo'shinlari Termiz va Chag'oniyon yerlarini egallash uchun yurish boshlaydi. Termiz Balx va Hindiston yo'llaridagi kechuv joyi edi. Shahar ahli o'zining Amudaryo bilan chegaralangan qal'alariga tayanib, Chingizxonga qarshilik ko'rsatadi. Shahar mudofaasini o'sha paytdagi shahar noibi Faxriddin Habash boshqaradi, o'n bir kunlik jangu jadaldan so'ng Termiz mo'g'ullar tomonidan zabt etiladi, shahar aholisi qatl uchun mo'g'ul askarlarga taqsimlab beriladi. Juvayniy shunday deb yozadi: «Bir xotin o'lishi oldidan o'zining qotilidan shafqat so'rab, yalinib yodvorgan. O'zini fido qilib, yutgan qimmatli durini berishga va'da beradi. Mo'g'ul shu damda ayol qornini yorib uning ichidan dur topgan. Shundan so'ng hamma xotinlarning qorinlarini yorib qarashga farmon berildi». Chingizxonga qattiq qarshilik ko'rsatgan Termiz Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida «Madinat urrijol» («Marddar shahri») deb tilga olinadi. Mo'g'ul istilosi natijasida qadimiy Termiz shahri batamom vayronaga aylangan edi. Istilodan so'ng u o'zini qayta tiklay olmadi, uning o'rnini vayrona bo'lgan tashlandiq tepalar egalladi. Chunki, birinchidan, omon qolgan xalq mo'g'ul hukmi tufayli halok bo'lgan qarindoshlari ruhini bezovta qilgisi kelmaydi, ikkinchidan, uzoq davom etgan jang xalqning tinkamadorini quritgan edi. Yangidan bunyod bo'layotgan shahar esa janubiy yo'nalishda daryo bo'ylab joylashib, o'zining qaddini tez rostlay boshlaydi, lekin u yirik himoya devorlari bilan o'rab olinmaydi, qurilish ishlari sust olib boriladi. Termiz shahrini boshqarish, butun Chag'oniyon hududini nazorat qilish Chig'atoyning nevarasi Yesun Tuva ixtiyoriga beriladi.

Termiz tarixini tadqiq qilishda o'rta asr yozma yodgorliklarining ahamiyati kattadir. Hozirgi zamon tarixnavislari shahar tarixi va madaniy taraqqiyoti manzaralarini tiklashda, uning yanglish sahifalarini haqiqat qo'li bilan tuzatishda o'sha manbalarga tayanadilar. Buyuk arab sayyohi Ibn Battuta (1304–1372) hayotining 28-yilini safarga bag'ishlab Shimoliy va g'arbiy Afrika, Arabiston yarim oroli, Turkiya va Eron, Markaziy Osiyo va Hindiston, Sharqiy Yevropa va Ispaniya, Afg'oniston va Xitoyning ko'plab shaharlarini ziyorat qiladi, qolgan umrini o'z taassurotlarini batafsil bayon qilishga bag'ishlaydi. Sayyoh 1333-yilda Markaziy Osiyoga keladi, bu davrda Termiz Chig'atoy ulusi tasarrufida bo'lib, mamlakatda mo'g'ul xonlari orasida birinchi bo'lib islomni qabul qilgan Alovuddin Tarmashirin (1326–1334) hukmronlik

qilar edi. Xorazm, Buxoro, Samarqand shaharlarida va Tarmashirin qarorgohida mehmon bo'lgan Ibn Battuta Termizga taxminan-may oyining oxirida keladi. Oldinroq sayyoh shahar hukmdori A'lo al-Muluk Xudovandzoda bilan uchrashib, undan maxsus yo'llanma oladi. Ushbu ma'lumotning o'ziyiq shahar tarixidagi qorong'i sahifalarni yoritishda katta ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, Termizda ham Markaziy Osiyoning boshqa ko'plab shaharlari kabi, hokimiyat mo'g'ullar qo'lida bo'lsada, mahalliy xalq vakillari hukmronlik qilishgan. Ikkinchidan, A'lo al-Muluk Termiz sayyidlari xonadoni vakili bo'lib, bu boshqa manbalarda ham qayd qilingan. Bu ayrim tadqiqotchilarning, shubhasiz, Chingizxon Termiz aholisini butunlay qirib tashlagan, degan fikri haqiqatga zid ekanini tasdiqlaydi.

Shu davrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan Balx XIV asrning birinchi o'n-yilliklarigacha xaroba holida qolgan. Termiz shaxri tez orada boshqa bir joyda yangidan qad ko'taradi. XII-XIV asrlarga oid Xitoy manbalarida aytilishicha, Termiz eski va yangi shahardan iborat bo'lgan. Bir necha yuz oilani tashkil qiluvchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan, Amudaryoning sharqida joylashgan Tilsimi shahri baliqlari bilan mashhur bo'lgan, to'qay va qamishli chakalakzorlar g'arbga tomon cho'zilib ketgan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda, «xonaki kitobxon emas, balki o'rta asrlarning eng yirik, tajribali geograf sayyohi» bo'lgan Ibn Battuta (Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad Ibrohim ibn Yusuf alLavoti Tajniy) Termiz orqali o'tgan. U «Tuhorat annuzzar fi g'aroyib alamsar va ajoyib alafsar» nomli asarida yozishicha, Termiz «o'zining chiroyli imoratlari va bozorlari bilan mashhur bo'lgan katta shahardir. Shaharni ko'plab ariq va anhorlar kesib o'tadi, uning chiroyli bog'lari bor, juda shirin uzum va bexilar yetishtiriladi. Aholi go'sht va sutni ko'p iste'mol qiladi. Shaharliklar hammomga tushganlarida qatiq va tafla deb ataluvchi loy sovun bilan yuvinishgan. Bu narsalar har bir hammomchida bo'lgan. Hammomda ko'plab ko'zalar saqlanib, ular qatiq bilan to'ldirilgan, qatiq va taflada yuvinish sochni tozalaydi va yumshoq qiladi. Eski Termiz Jayhun bo'yida joylashgan edi. Chingizxon uni vayron etgandan so'ng, yangi shaharni daryodan 2 mil (4 km) uzoqlikda barpo etdilar».

Ibn Battuta Chingizxon bosqini natijasida Termiz vayron qilinganligini aytib, yangi shahar ikki arab milyasi uzoqlikda qurilganligini ma'lum qiladi. «Sayohatnoma»da yangi Termizning

tasviri shunday berilgan: «Bu chiroyli imoratlari va bozorlari ko'p bo'lgan yirik shahardir, uni boshdanoyoq anhorlar kesib o'tadi, bog'lari ham juda ko'p. Ayniqsa, uzum bilan behisi juda shirin, go'sht, sut juda serob». Sayyoh Xorazmda bo'lganida, u yerga daryo orqali o'n kun muddatda Termizdan bug'doy va so'li keltirilganiga guvoh bo'ladi. Demak, Termiz XIV asrning birinchi yarmida yirik iqtisodiy markaz bo'lgan.

Ibn Battuta sayohati davomida so'fiylarning xonaqohlaridan, ularning mehmondo'stligidan ko'p marta foydalangan. Xonaqohni sayyoh Mag'rib an'anasi bo'yicha zoviya deb atagan va u Termiz haqidagi taassurotlarida buni alohida ta'kidlaydi: «Biz bu yerda katta yer va bog'lar sohibi eng muhtaram va obro'yli shayxlardan biri shayx Azizon zoviyasiga qo'ndik. Shayx o'z boyliklarini ziyoratchilarni boqishga sarflar edi». Fikrimizcha, bu zoviya hozirgi Sulton Saodat maqbarasi bo'lishi kerak, chunki, birinchidan, taomilga ko'ra, xonaqoxlar maqbaralar qoshida bo'lgan, ikkinchidan, Sulton Saodat maqbarasining shayxlari asrlar davomida Azizon maqbaralariga ega bo'lganlar. Termiz shahrida buyuk sayyohni hayratda qoldirgan yangilik bu hamshaharlarimizning bosh yuvishda qatiqni ishlatishi bo'lgan. Chunki, boshqa mamlakatlarda bu davrda bosh yuvishda asosan loy yoki uning biror turdagi aralashmasi ishlatilar edi. Hokimning homiyligi tufayli shahar a'yonlari Ibn Battutani munosib kutib oladilar. «Termizda ekanligimizda bizga har kuni yeguliklar keltirib, mehmon qilib turishdi», deb yozadi u va shahar qozisi qavomiddin bilan tanishganligini eslatib o'tadi. Keltirilgan tafsilotlardan ma'lum bo'ladiki, qozi qavomiddin janoblarining laqabi ham Xudovandzoda, ya'ni sayyidlar xonadoniga mansub ekan. Keyinchalik ibn Battuta qozi bilan uning ukalari Ziyovuddin, Burhoniddin, Imomiddin va Sayfiddinlarni Hindistonda uchratganini yozadi. qozi qavomiddin janoblarining o'g'illari Hindiston podshosining vaziri Xoja Jahonning ikki qiziga uylanganligi ham «Sayohatnoma» orqali ma'lum bo'lsada, ular yuqorida ismlari keltirilgan sayyidlarning avlodlari shajarasida qayd qilinmagan, bu esa ularning Hindistonga ketib qolganligi bilan izohlanadi.

Mahmud ibn Vali o'zining «Bahr ularor fimanoqib alahyor» kitobida: «Garchi Termiz Movarounnahrta taalluqli hududlardan bo'lsada, biroq hozirda u Balx tarkibiga kiradi», deb bitadi. Asarning yana bir joyida esa «Balxdan Jayhungacha 20 farsax keladi, uning taniqli kechuv joylaridan biri Yorgohsir», deydi. Boshqa bir tarixchi Hofizi

Abro‘ning ta’kidlashicha, bu kechuv joyi Termiz yaqinida bo‘lgan. Rus olimi V. F. Minorskiy o‘zining «Yunon kechuvi» nomli asarida: «Yorgoh (Yerdagoh) kechuvi Termizning o‘ziga Aleksandr Makedonskiy tomonidan asos solinguniga qadar ham bor bo‘lib, Amudaryo orqali o‘tuvchi muhim guzargoh bo‘lgan», degan fikrni bayon qilgan. Mahmud ibn Vali asarining qimmatli tomoni shundaki, unda bir paytlari bo‘lgan va endilikda yo‘q joylar xususidagi ma’lumotlar ham saqlangan. Masalan, muallif «Ayn Ahmad» degan buloq xususida quyidagilarni bitgan: «Ayn Ahmad» Termizdagi buloq bo‘lib Jayhun yaqinidadir, u bilan Jayhun daryosi oralig‘i hammasi bo‘lib, o‘n qadam keladi. Buloq suvi Jayhunnikiga qaraganda shirinroq. U hayrat va shodlikka sabab bo‘lishi bilan tanilgan».

Muarrif o‘z asarida har xil munosabat bilan Termiz va Chag‘oniyondagi boshqa aholi istiqomat qiladigan shahar, qishloqlar xususida ham to‘xtaladi. Masalan, bir o‘rinda Jayhun bo‘yidagi shahar borasida qisqacha qilib: «Bu shaharning qishloqlari va aholi istiqomat qiladigan joylarida muqaddas joylar va sig‘iniladigan maqbaralar ko‘p» desa, yana bir o‘rinda Termiz xususida batafsil ma’lumot beradi: «Termiz Movarounnahr shaharlaridan bo‘lib, to‘rtinchi iqlimdadir. U Jayhun daryosi qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, mustahkam devorlar bilan o‘rab olingan, janubiy qismi Jayhun daryosi uzra yuksalib turadi, qishloqlari va aholi istiqomat joylari ko‘p, uning eng muhim qismlaridan biri Salavot bo‘lib, bu yerda hokim saroyi, bozor, madrasa va katta jome’ masjidi bor. Baland minorasi ham mavjud. Bu hududda bog‘u bo‘ston kamroq, u yer qumli joy bo‘lib, shu sababdan iqlimi issiq, g‘allasi va qovunlari yaxshi bo‘ladi. Shubhasiz, bu hudud odamlari jasur va dovyurak emaslar, ular orasida chiroyli chehrali va qaddi-qomati kelishgan kishilar kam».

Muallif asarida termizlik sayyidlar haqida iliq gaplarni aytadi. Ularning qadim-qadim davrlardan buyon hukmronlik qilib kelganligi, diniy mahkamalarga ham rahnamolik qilganliklari, ular orasidan ko‘plab shayxu ulamolar yetishib chiqqanligini ta’kidlab, shulardan Hakim Termiziy va Varroq Termiziylarni tilga oladi. Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror»ida Zulkifl payg‘ambar, Is’hoq Kunda Shikin qabrlari, bu yerdan yetishib chiqqan buyuk insonlar qatori esa Jaloliddin Rumiyning ustozlari Burhoniddin Sayyid haqidagi bitiklarni o‘qish maroqlidir. Mahmud ibn Valining: «Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi haqida eshitdimki, kimki bu tabarruk joyda ikki rakaat namoz o‘qisa,

bu boshqa joyda o‘qilgan yetti yuz rakat namoz o‘qish bilan tengdir», degan gaplari diqqatga sazovordir. Surxon vohasining rivojida Amir Temur shaxsining alohida o‘rni bor. Keyingi tarixiy izlanishlar shu narsani aniq ta’kidlamodaki, Amir Temurning davlat boshqaruv faoliyatida Surxon vohasining o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, uning janubiy mamlakatlar bilan olib borgan jamiki harakati Termiz bilan bog‘liq edi. Ayniqsa, Temur bilan amir Husaynning Arsifda turganlarida ularning ishonchli kishisi Tomuqaning Termizdagi savdosotiq ishlari bilan tanishuvi, Temur qopiqqa yetganda mo‘g‘ul jetelarining Movarounnaxrni talab chiqib ketganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni bunga misol qilib keltirish mumkin. Bu voqeadan Termiz Temur qopiq katta ahamiyatga ega bo‘lgan harbiy strategik markaz bo‘lganini, Amir Temur o‘z armiyasiga yangi kuch qo‘shib, uning iqtisodiy ta’minotini Termizda mustahkamlab olganini bilishimiz mumkin. Tarixchi olim B.Ahmedov o‘zining «Amir Temur» tarixiy romanida Surxon vohasidagi yirik iqtisodiy markaz Denov va Termizni tilga olib o‘tib, quyidagi manbani keltirib o‘tadi: «Ma’lum bo‘lishicha, mo‘g‘ullar bilan yovlashib, Samarqand tog‘lari va qoratog‘da yashirilib yurgan Chig‘atoy beklari: Sulaymon Barlos, Amit Muso, Joku Barlos, Jaloliddin Barlos va Hinduka Barloslar Termizga kelib tushibdilar».

Demak, Termiz o‘zining harbiy strategik ahamiyati bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, Jayhun kechuvining qulay joyida joylashuvi ko‘pincha urushlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Termiz o‘zining iqtisodiy, madaniy rivoji bilan alohida ajralib turgan shahar, uning atrofida qishloq xo‘jaligi ancha rivojlanib, bog‘dorchilik va sabzavotchilik keng ko‘lamda olib borilgan.

O‘z navbatida shahar qo‘shinlarni, lashkarlarni boqishga ham alohida xizmat ko‘rsatgan. Amir Temur Balx jilg‘asida og‘ir ahvolda qolganda Termizdagi beklarning yordami tufayli qurshovdan chiqib olib, katta hujumga tashlanganligini, shu jangdan keyin Amir Temur Jayhun daryosidan Termiz kechuvi orqali o‘tib, Movarounnahrqa qadam qo‘yganligini tarixiy manbalar orqali bilishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: Amir Temur Termiz atrofida lashkargoh qurib o‘tiradi, u o‘z ona zaminiga qadam qo‘yib endi erkin nafas olishga kirishadi. Temur o‘zining jangovar yurishlari davrida juda katta harbiy tajribani egallab, Termizda turgan vaqtida bu tajribalarini ancha mukammallashtirib oladi. Chunki Temur o‘zi amal qilgan to‘rt narsadan ikkitasini: ya’ni qat’iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlikni

hamda ehtiyotkorlikni aynan Termiz voqeasidan keyin bilib olgan bo‘lishi mumkin. Akademik Bo‘riboy Axmedov bu haqda quyidagicha yozadi: «Termiz yonida yuz bergan voqealar uni tinchitmadi. Kechayu kunduz shu haqida o‘yladi. Xo‘sh, nega bu voqea sodir bo‘ldi? Bunga nima sabab? O‘zining bir qadar beparvoligimi? Yo sotqinlik sodir bo‘ldimi? Bularning har ikkisi mavjud, lekin yana bittasi bor. Har kishining so‘ziga ishonavermaslik, uni qayta-qayta tekshiruvdan o‘tkazish zarur». Bu voqeadan keyin Amir Temur o‘z qo‘shinini harbiy jihatdan mustahkamlab, ishonchli, yaqin odamlarni o‘z atrofida to‘plab, har qanday sharoitda unga pand bermaslik uchun, ya‘ni Amir Husayn va uning Tomuqa xizmatkorlarining xoinligini inobatga olib, yagona qarorga keladi. Amir Temur o‘z tuzuklarining quyidagi bo‘limida, ya‘ni «lashkarini ittifoqqa keltirish uchun qilgan o‘n ikkinchi kengashida: unga Termizga kelib qo‘shilib, og‘ir vaziyatda yordam qilgan kishilar masalasida quyidagi fikrni qayd etadi: «Amir Joku, Amir Sulaymon va Amir Jaloliddinlarni xilvatroq yerga chorladim hamda ularni o‘zimga ittifoq qilmoqchi bo‘ldim. Xilvatda ular bilan suhbat qurib, «davlatimga sherik bo‘lasizlar», dedim. Bu bilan o‘zlariga ishonch va menga xizmat qilishda qat’iyat uyg‘otdim». Bu voqea harakat tufayli Amir Temur juda katta harbiy-siyosiy obro‘ga ega bo‘ladi.

«Temur tuzuklari»da ushbu tarixiy voqea yana bir bor eslatiladi: «Termiz kechuvidan narigi qirg‘oqqa o‘tgach, Kahalka qal’asi (Termizga yaqin qadimiy qal’a) tarafiga qorovullar yubordim. Jayhun bo‘yida bir necha kun turdim va qorovullar olib keladigan xabarni sabrsizlik bilan kutdim». Bundan shu narsa ma’lumki, Amir Temur siyosiy faoliyatining mustahkamlanishida Termiz va Chag‘oniyon viloyatining alohida o‘rni bor. Amir Husaynga nisbatan 1370-yili amalga oshirilgan harbiy yurish tarixda Termiz va Chag‘oniyon viloyatlari uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini yaxshi bilamiz. Amir Temur hamisha Termiz va uning atrofida bo‘lganida o‘zining keyingi jangida sodir etiladigan harakatini yana bir bor sinovdan o‘tkazish maqsadida qisqa muddat to‘xtaydi. Burong‘or bilan bo‘lgan janglarda ishonchli amirlar Joku barlos bilan amir Sayfiddinni qo‘yadi. Amir Temurning Termizga yaqin Biyo qishlog‘ida to‘xtab, «Temur tuzuklari»da qayd etilgan: «Birinchisi davlat va saltanatimga bog‘langan mening birinchi tuzugim Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim», degan fikriga e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Chunki, Biyo qishlog‘ida Amir

Temur Makkayu Mukarrama sayyidlarining boshlig‘i Sayyid Baraka bilan uchrashib, uning hamda sayyidlar, mashoyixlar, ulamolar, fozil kishilar duosini olib, otasining bergan, ya’ni «Alardin diniy, huquqiy, axloq masalalarini, harom bilan halolni ajratishni o‘rgangin. Shuning uchun ham majlislarini shular bezab tursin», degan maslahatiga amal qiladi. Xuddi shu uchrashuvda Sayyid Baraka hammaning ko‘z o‘ngida toju taxt va saltanat ramzi bo‘lmish nog‘ora bilan bayroqni Temurbekning qo‘liga tutqazadi. Bu Ollloh va Islom dinining Amir Temurga nisbatan bergan ulug‘ qudrati edi. Butun Termiz, Xuttalon, Chag‘oniyon, Balx, Hirot, Hisor, Kesh, Samarqand, Buxoro, Xorazm bo‘ylab Temur deya hayqirayotgan qalandarlar, darveshlar vajohatlaridan uning dushmanlarining dami ichiga tushib ketadi.

Kim islom g‘alabasini tilasa, o‘sha Temur uchun ovoz bersin! Bunday hayqiriqlar Termiz, Chag‘oniyon, Xuttalon, Balx shahrining har bir burchagida yangrardi. Munajjimlar esa atroflariga odamlarni to‘plab, tungi osmonda charaklab turgan yulduzlarni ko‘rsatib, Temur yulduzi porlayotganiga ishora qilishardi: Sohibulqiron! Sohibulqiron! Munajjimlar Temurga shunday unvonni, ya’ni yulduzlar sultoni unvonini taqdim qilishadi. Amir Temur Sohibqiron Biyo qishlog‘idagi marosimdan keyin bo‘lg‘usi jangga hozirlik ko‘rish maqsadida Chag‘oniyon viloyatining markazi Chag‘oniyonga borib tushadi. Chag‘oniyon, ibn Xurdodbekning ta’kidlashicha, daryo bo‘yida joylashgan. «Hudud alolam»da yozilishicha, uning atrofi keng dalali, dehqonchilik qilish, sug‘orish uchun juda qulay bo‘lib, Abu alHasan ibn Mahmudga qarashli katta bog‘ va qurg‘on mavjud. Chag‘oniyon axli va beklari Amir Temurga sidqidildan xizmat qilib, katta miqsorda askar, oziqovqat, ot va chorva mollari hamda urush anjomlari yetkazib beradi. Amir Temurning Chag‘oniyonda bo‘lgan vaqgida Kufton (Guftan, hozirgi Sherobod vohasi), Barmangan (ba’zi manbalarda Charmangan yoki Jarminkan, hozirgi Jarqo‘rg‘ondan 4 km janubi-g‘arbdagi Kultepa shahri markazi), Xuttalon, Hisor, Temur qopug‘idagi yerlarda katta miqsorda kuch to‘playdi. Ana shu Ollloh bergan kuchqudrat hamda Sayyid Baraka bergan qutlug‘ shoxiy duo kuchi bilan aql-zakovatli mashhur sarkarda Amir Temur Balxni egallab, anchadan buyon unga bo‘ysunishni istamayotgan Amir Husayn ustidan zafar g‘alabasini qo‘lga kiritadi.

Jahongir Amir Temurning aqlli, tadbirkor, kuchli harbiy sarkarda, sharoitni to‘g‘ri tushuna oladigan siyosatchi ekanligini u tomondan amalga oshirilgan har bir ish yakunidan bilish mumkin. Uning 1384-yil

bahori boshida Eron zaminini o'ziga bo'ysundirish maqsadida Termiz atrofini lashkargohga aylantirib, Termiz sayyidlari himmati bilan Forsga yurish qilganligi, bu yurish uchun mavjud xarajatlar shu o'lkada to'planganligi tarixiy manbalarda alohida ta'kidlanadi. B. Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida: «U yana Termiz va uning tevarakat-rofni lashkargoh deb e'lon qildi, viloyatlarga lashkar to'plash uchun tavochi va jarchilar yubordi. Movarounnahr viloyatlaridan chiqarilgan barcha lashkar o'n kun deganda shu yerga Termiz va uning tevarakat-rofiga yig'ildi. O'sha 1384-yil bahorining avvalida Amir Temurning cho'l qumlari va daraxt bargidan ham ko'p lashkari Jayhundan o'tib, qubbat ul islom Balxning jilg'asiga kelib qo'ndi», deb yozadi. Bu voqealarning tarixiy izohiga e'tibor bersak, Amir Temurga tobe bo'lgan Termiz va Chag'oniyon o'lkasi unga doimo iqtisodiy-siyosiy tayanch bo'lganligi, bu o'lkada hech qachon unga qarshi fitnafasod bo'lmagani aniq va ravshandir. Bu sadoqat evaziga Amir Temur mazkur yurtlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor berdi.

Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida ko'xna Termiz haqida ma'lumot berar ekan, 1399-yil 11-sentabrda Kesh (Shaxrisabz)dan Balxga borayotgan Amir Temur bir necha termizlik sayyidlarning qabrlarini, jumladan, Xoja Muhammad Ali Hakim Termiziy va Shayx Abu Bakr Varroqning mozorlarini ziyorat qilib o'tganligini eslatadi. Amir Temur 1404-yilning yozida Balxdan orqaga qaytayotganida ham Termiz sayyidlaridan Xudovandzoda A'lo al-Muluk xonadonida to'xtab o'tadi. Xuddi shu-yilning kuzida Ispaniya dnroli Genrix III ning elchisi Klavixo ham Termizda bo'lgan edi. Rui Gonsales de Klavixonning «Samarqandga, Temur huzuriga sayohat kundaligi» («Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura» (1403-1406 g.g.) asaridagi ma'lumotga ko'ra, Temur Xurosonga qilayotgan yurishida Amudaryoga qayiq ustida turuvchi yog'och ko'prik qurdiradi va qo'shinlar o'tib bo'lgach, uni buzdirib tashlaydi.

Kushon imperiyasi inqirozidan so'ng Termiz va Chag'oniyondagi madaniy hayotda ham inqiroz alomatlarini ko'zga tashlanadi. Eron sosoniylari qo'shinlarining IV asr oxirida Shimoliy Toxariston yerlariga yurishi oqibatida, dastavval markaziy shaharlar tanazzuli boshlanadi. Termizning qoratepa Fayoztepa o'rnidagi diniy markaziyar, Angordagi Zartepada hayot tushkunlikka yuz tutadi. Shimoli-g'arbiy Toxaristonning markaziy shaharlari VI asr boshlariga kelib qaddini qayta

rostlab, tiklana boshlaydi. Termiz shaxrida 630-yili bo'lgan chinlik sayyoh Xuan Chao shaharda o'nta budda ibodatxonasi mavjudligi haqida xabar berib o'tgan. Yana bir boshqa chinlik jahongashta Syuan szyan 639-645-yillarda bu zaminlarga tashrif buyurganida Dami (Termiz) haqida, mudofaa devorining uzunligi 10 kilometr (20 li), Chag'oniyonning markaziy shahri devori 5 kilometr (10 li)ga teng bo'lgani xususida diqqatga molik ma'lumotlar beradi.

Manbalarning guvohligicha, Toxaristonning V–VIII asrlardagi shaharlari to'g'ri to'rtburchakli ko'rinishga ega bo'lib, yagona mudofaa inshootlari bilan muhofaza etilgan arki a'lo va shaxristonning o'rtasida yoki bironbir burchagida joylashgan. Arki a'lo va shaxriston kushon davri shaharlari mustahkam mudofaa devori va xandaqlar bilan o'ralgan. Butun Movarounnahrda bo'lgani kabi, IX asrdan boshlab, Surxon vohasida ham shaharsozlik jadal rivojlandi, bu davrda o'lkada uch qisimli shaharlar batamom shakllandi. Arab tarixchisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Jayhaniy yozib qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, Termiz shaxriston (ichki shahar), ko'handiz hamda bora (mudofaa devori) va rabot (tashqi shahar)dan iborat bo'lgan. Chag'oniyonning markaziy shahri Chag'oniyonda, ibn Xavqalning ta'rificha, ark ko'handiz bo'lgan. Al-Muqaddasiy shaharda muhtasham bozorlar bo'lganligini qayd etadi.

Termiz va Chag'oniyonning o'rta asrlar davri shaharsozlik madaniyatini o'rganishda arxeologlar M. Masson, E. Rtveladze, Sh. Pidaevlar tomonidan o'tkazilgan qazishma ishlari juda muhimdir. Sh. Pidayevning fikriga ko'ra, XXII asrlar oralig'ida Termiz shahrining umumiy-maydoni 500 gektarni tashkil etgan. Chag'oniyonning markaziy shahri Chag'oniyon 6 kvadrat kilometr ga teng-maydonni egallagan. Shahar XXI asrning birinchi yarimida Sangardak (qizilsuv)ning har ikkala qirg'og'ini egallagan. Arab tarixchisi Istaxriyning ma'lumotiga ko'ra, «Sag'oniyon Chag'oniyon Termizdan-maydoni jihatidan katta, lekin Termiz aholisi soni va boyligi bilan Chag'oniyondan ustun».

Surxon vohasida V–VII asrlar badiiy san'atning, ayniqsa haykaltaroshlik va devor rang-tasvir san'atining yuksaklikka erishgan davridir. Bunga Kuyovqo'rg'on yodgorligi yorqin misol bo'ladi, undagi haykallar ko'shkning yuqori qavatidagi katta xonalardan birini bezab turgan. Bolaliktepa yodgorligi devoriy suratlari V–VI asrlarda yaratilgan bo'lib, ular 1,4 metrga yaqin devor yuzasiga husn berib turibdi, undagi suratlarda zamindor ko'shkidagi bazm marosimi aks ettirilgan.

Me'morchilikda IX asrdan e'tiboran murakkab qurilish uslublari, ya'ni qubbalar, yoysimon arklar, gumbazlar, peshtoqlar va kungurali ustunlar keng qo'llanila boshlaydi. Mazkur davrda yaratilgan qadimiy me'morchilik obidalaridan biri bu Chorustun masjididir, u Termiz ko'shkidan janubda qurilgan. Chorustun bu masjidga qo'yilgan mahalliy nom bo'lib, aslida masjidning 9 ustuni bo'lgan. Har bir ustunning diametri bir metr atrofida bo'lib, u pishiq g'isht va ganch qorishmasidan terilgan. Masjid unchalik katta bo'lmay, ichki o'rkachi 10x10 metr bo'lib, uning sathini to'qqizta gumbaz yopib turgan, ikki tomoni devor bilan yopilgan. Masjidning qolgan ikki tomoni ochiq turgan va nihoyat XI asrga kelib uning devorlari pishiq g'isht bilan qoplangan. Chorustun masjidida shahar va atrofdan to'plangan erkaklar namoz o'qishgan. 1032-yilda Chorustun masjidi shimolida qadimiy Termiz minorasi qurilgan. Minora kichik hajmdagi pishiq g'ishtdan terilgan bo'lib, asosan ko'p qirrali silindrga o'xshaydi.

Surxon vohasidagi qadimiy minoralardan yana biri bu Jarqo'rg'on minorasidir. Minor qishlog'idagi bu minora peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar inshootning 1108–1109-yillar oralig'ida qurilganligidan dalolat beradi. San'atshunos me'morlarning ta'kidlashicha, uning umumiy balandligi 50 metrga yaqin bo'lib, hozir minoraning omon qolgan qismi 21,6 metrni tashkil etadi. Jarqo'rg'on minorasi qurilishida oddiy g'isht, ravoqlar va epigrafik hoshiyalar juda ustalik bilan qo'llanishgan, minoraning asosi baland sakkiz qirrali kursiga o'rnatilgan. Har bir qirraning markazida ravoqli taxmonchalar ishlangan, ana shunday taxmonchalardan birida joylashgan eshik orqali minora ichki qismidagi aylanma zinaga chiqilgan. Barcha minoralar kabi Jarqo'rg'on minorasi ham gumbazsimon muazzinxona bilan yakunlangan. Minorada sakdanib qolgan yozuvlar bu inshoot Xuroson hokimi Sulton Sanjar buyrug'i bilan saraxslik usta Ali ibn Muhammad boshchiligida barpo etilganligidan dalolat beradi.

Termizning XXII asrlar me'morchilik turkumiga ZulKifl maqbarasi ham kiradi. Afsonaga ko'ra, ZulKifl maqbarasida dafn etilgan shaxs Kalifda Istiqomat qilgan. Mo'tabar yoshga yetib, o'z kunining oxirlashishini sezgan bu zot muridlariga uni sandiqqa solib, Jayhunga qo'yib yuborishini buyurgan. Shogirdlar ayni shu yo'sinda ish tutganlar, lekin sandiq daryo oqimiga teskari tomonga qarab suzib ketgan. Olomon sandiqni Kalifdan hozirgi «Payg'ambar oroli» joylashgan yergacha kuzatib keladi. Ayni shu yerda sandiqning

qopqog‘i ochilib, uvdan pir chiqib: «Ollloh taologa shu yer lozim ekan», deb jon beradi. Bir vaqtning o‘zida bu joyda orol paydo bo‘lib, pirni murvdlari shu yerda dafn etishib, uning xoki ustida maqbara bunyod etishadi. Payg‘ambar orolini hazrati Xizr bilan Xoja al-Hakim Termiziyning uchrashuv joyi ham deyishadi. Mavjud tarixiy dalillarga ko‘ra, bu maqbarada 992–993-yillarda vafot etgan mashhur arab lashkarboshisi Is‘hoq ibn Kuvdaj dafn etilgan. qabr atrofidagi imoratlarning qurilishi XI asrda amalga oshirilgan, dastavval qabr yonida peshtoqli gumbazsimon masjid qurilib, sog‘ona to‘g‘ri burchakli go‘rxonaga aylantirilgan. XII asrda go‘rxonaning g‘arbiy tomonidan gumbazsimon yopilgan yordamchi xonalar barpo etilgan.

XI-XII asrlar me‘morchiligida eng ko‘p tarqalgan inshootlardan biri markaziy xonasi gumbazsimon uslubda bunyod etilgan maqbaralardir. Ana shunday me‘morchilik inshootlaridan biri Ro‘shnoyi maqbarasidir, bu maqbara XI asrda bunyod etilgan. Yodgorlik Angor-Termiz yo‘lidan uncha uzoq bo‘lmagan yerda joylashgan, unda bir xonali maqbaradan iborat, binoning pastki qismi unchalik to‘g‘ri bo‘lmagan to‘rtburchak shaklda, eshigi sharqqa qaragan. Uncha katta bo‘lmagan, ammo chuqur peshtoq yarim gumbaz bilan yakunlanuvchi ark bilan berkitilgan, gumbaz esa sakkiz qirrali ark koshonalari uzra turibdi. Maqbara 26x25x5 sm li xom g‘ishtdan tiklangan, zalning kengligi tomonlari bilan qo‘shib hisoblaganda 6 m cha keladi. Mexrob uncha yomon saqlanmagan, ammo obidaning tashqi devorlari va gumbazi o‘tgan zamonlar mobaynida qattiq zararlangan. Maqbara markazi aholining mustaqil ravishda ta‘mirlashlari tufayli qoniqarli holatini saqlab turibdi. Ammo bunday ta‘mirlashlar oqibatida u avvalgi aniq shaklini yo‘qotib qo‘polroq ko‘rinishga ega bo‘lib qolgan. Yodgorlikning gumbaz qismi pishgan g‘ishtdan qayta tiklangan, 1960-yilda maqbarani o‘rgangan va o‘lchagan V. A. Nilson uning XI asrga oid yodgorlik ekanligini aniqlagan.

Sulton Saodat Termiz sayyidlarining dahma maqbarasi sifatida mashhurdir. Bu oilaviy majmua asrlar davomida tashkil topgan butun boshli mukammal bir inshootdir. Majmuaning eng qadimgi qismi uning janubi-g‘arbidagi XI asrda qurilgan baland gumbazli ayvon peshtoqi ostidagi go‘rlar bilan to‘la ikki maqbaradir. Ulardan birinchisining ichki o‘lchami 3x3, ikkinchisniki 9x9 m bo‘lib, ikkovini birlashtiruvchi gumbaz ostidagi keng-maydon masjid xizmatini bajargan. Unda shakli

turlituman o‘yima g‘ishtlar juda moqirona va turli uslubda terilgan. Birinchi maqbarada IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan shu atrofdagi yerlarning egasi, obro‘li oila boshlig‘i, Muhammad payg‘ambarning avlodidan hisoblangan Hasan al-Amir ismli sayyidning xoki yotibdi. Bu zal har xil shakldagi g‘ishtlar bilan turli-tuman uslubda terilgan.

Qadimiy Movarounnahr sarzaminida shuhrat tutib jahon bo‘ylab ilmu urfon taratgan Buxoro, Samarqand va Urganch kabi shaharlar sirasiga Termiz shaxri ham kiradi. Bunga, eng avvalo, Termiz shahrining qulay geografik joylashuvi ko‘p jihatdan omil bo‘lib xizmat qilgani sir emas. Boisi, mavj urib oqayotgan asov Oks daryosi sohilida qad ko‘targan ko‘xna Taramata shahri o‘zining mustahkam mudofaa devorlari bilan jahon fotixdari ahamoniy shoxdar Kir va Daroni qamda makedoniyalik Aleksandr Makedonskiylarni lol qoldirgan edi. Termiz shahri Balx shahri kabi zardushtiylik va buddaviylik dinlariga ham maskan, ham Vatan ekani fanda allaqachon o‘z isbotini topgandir. Bu ikki shahar mashhur Araks (Amudaryo)ning o‘ng va so‘l sohillarida joylashgan hamda doimiy ravishda bir-birining ijtimoiy-siyosiy hayotiga o‘zaro ta’sir ko‘rsatib turar edi. O‘ng sohil shaxri Termiz va chap sohil shahri Balx o‘z tarixi hamda osoriatiqalari jihatidan qimmatli qirralarni namoyon etadi.

IX–X asrlarda yashab din sohasida barakali asarlar yozgan zot Abu Abdulloh al-Hakim at-Termiziyning asarlarini tadqiq qilgan misrlik olim Abdul Fattoh Barakaning aytishicha, u 205 hijriy-yilda (820 milodiy-yil) tavallud topgan, 25 yoshga yetguncha Movarounnahr shaharlarida ta’lim olgan. Bu davrda uning diniy fanlardan asosan tafsir, hadis va fiqh ilmlarini katta g‘ayrat bilan o‘qigani rivoyat qilinadi. U 27 yoshga yetgach, hajga bora turib, Bag‘dodda to‘xtagan vaqtida ham ilmtahsilini davom ettirganini o‘zining tarjimaiholiga doir asari «Bad’u sha’ni Abu Abdulloh»da yozadi. Unda hali o‘zi olgan bilimlaridan qoniqa olmaganini ham aytadi va shu vaqtdan boshlab o‘z yo‘lini o‘zgartirib, tasavvuf sulukiga kiradi. AlHakim «Asror assalot» («Namoz sirlari»), «Asror assavm» («Ro‘za sirlari»), «Asror alhaj» («Haj sirlari») singari bir qancha muhim asarlar yozadi va namoz, ro‘za, haj kabi ibodatlarining insonga foydali bo‘lgan ichki hikmatlarini ochib beradi.

Hakim at-Termiziy o‘zining qur’onga ma’no aytish, hadisni sharhlash va fiqh masalalariga amal qilishi bilan tasavvuf yo‘lidan borganligini ham ta’kidlaydi. U zoti sharif tasavvuf yo‘lini kishi

vijdoniga, qalbiga orom beradigan yagona yo‘l deb tushunadi. Shu bilan barobar u musulmon olamiga IX va X asrlarning eng ko‘zga ko‘ringan diniy peshvosi va islom dini ta’limotini yanada chuqurroq talqin qiluvchi buyuk shariat arboblardan bo‘lib keladi. AlHakim o‘zining dadil fikrlarini murosasizlik bilan aytgani sababli qattiq qiynoq va azoblarga qoladi, hatto bir qancha vaqt o‘z elidan badarg‘a ham qilinadi.

Hakim at-Termiziyning buyuk mutasavvuf bo‘lib yetishishida uning ustozlari Abu Turob an-Naxshabiy, Ahmad ibn Xizraviya kabi shayxlar bilan qilgan suhbatlari muhim ahamiyatga ega. Shom, Bag‘dod va Misr mutasavvuf olimlari bilan ham muloqotlarda bo‘ladi va bu bilan Markaziy Osiyo tasavvuf ilmini boyitadi, kamolot darajasiga yetkazadi. Hakim at-Termiziy Nishopurdagi malomatiya tariqatidan ayniqsa kuchli darajada ta’sirlanadi. Shu boisdan bu tariqatning yo‘li Movarounnahrning keyingi asrlardagi mutasavvufi Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq g‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband suluklariga ta’sir qiladi. Doktor Usmon ibn Yahyoning Hakim at-Termiziyning «Xatm alavliyo» asariga yozgan muqaddimasida aytishicha, uning ko‘p umri xilvat va uzlatda o‘tgani sababli shogirdlari uncha ko‘p emas. Ular ichida mashhurlaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Umar al-Hakim al-Varroqdir.

Bu ulug‘ zotning ismi-sharifi qadimiy manbalarda quyidagicha bitiladi: Ashshayx Abu Bakr Muhammad binni Umar al-Hakim al-Varroq at-Termiziy. Ashshayx va al-Hakim unvon, Abu Bakr kunya, Muhammad ismi, Umar otalarining ismi, Varroq taxallusidir. At-Termiziy deyilishiga bois, uni boshqa Varroq taxallusli allomalardan farqlash uchun ishlatilgan va shu orqali ul zoti sharifning termizlik ekanligi ta’kidlangan. O‘tmishda qadimiy va ko‘hna kitoblarni qayta ko‘chirish va muqovalash bilan shug‘ullangan kishilarga «varroq» deyilgan. Keyinchalik bu istiloh shoir va adiblarga nisbatan ham qo‘llana boshlaydi. «Varroq» so‘zi arabcha «varoq» so‘zidan olingan. Abu.Bakrga bu taxallus nima uchun berilgani noaniq, ammo buyuk yurtdoshimizning she’riy devoni borligini mutafakkir Alisher Navoiy e’tirof etadi.

Varroq Termiziy asli Balxning Ayoq degan joyida dunyoga kelgan va xuddi shu Balxdagi Siyoxjurd (goho Siyohgurd) qishlog‘ida olamdan ko‘z yumadi, o‘z vasiyatiga ko‘ra Termizda dafn etiladi. Varroqning tavallud sanasi aniq emas, lekin allomaning vafoti-yili sifatida 907 (hijriy 294)-yil qabul qilingan, biroq bu sanani hali barqarorlashtirish lozim. Varroq umrining ma’lum qismini Balxda o‘tkazadi va mashhur

soʻfiy Ahmad Xizraviya (vafoti 855)ning yaqin doʻstlaridan biri boʻlgan. Varroqning otabobolari termizlik, Varroq zoti oliylari, buyuk ajdodimiz ulugʻ muhaddis Iso Termiziy (824-892)ning togʻalari hamdir. Varroq Termiziy muqaddas «qurʻoni Karim»dan tashqari yana osmoniy kitoblardan «Tavrot» va «Injil» larni ham oʻqigan boʻlib, oʻz davrining eng odobli avliyosi degan nom bilan shuhrat qozongan. «Tavrot» va «Injil»ni oʻqiy oladigan kishi, tabiiyki, yahudiy va yunon tillarini mukammal egallagan boʻlishi lozim edi, demak, Varroq bu tillarni bekamu koʻst bilgan.

Yusuf Hayyot Termiziy IX–X asrlar yetuk shayxi, islom dini donishmandlaridan biridir. U kishi soʻzda juda oʻtkir boʻlgan, uning ajoyib fazilatlarini Varroq Termiziy yuqori baholagan. Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat»da donishmandona taʼbirlardan, maʼno-mohiyati obdon sharhlanishi lozim hikmatlardan bittasini Yusuf Hayyot Termiziydan keltiradi: «Sen uyingdan qanchalar uzoqqa ketma, baribir, qayta uyingga qaytasan». Hayyot Termiziyning bu aytganlaridan murod-muddao shuki, inson nechogʻlik yuksak ufqlarga, faxru gʻururga intilmasin, u, albatta, uyiga tuproqqa qaytadi, u tuproqsan yaratilgan va tagʻin tuproqqa oʻzligiga qaytishi muqarrar. Varroq Termiziy aytar ekanki: «Hayyot Termiziyning bu soʻzlari yuz-yillik ibodatdan yaxshiroqdir».

### **Abu Iso Muhammad at-Termiziy**

Dunyo ilmu maʼrifatida alohida obroʻga ega boʻlgan Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso az-Zarir at-Termiziy al-Bugʻiy xijriy 209 (milodiy 824)-yili Sherobod tumanidagi Chuqurkoʻl qishlogʻida tavallud topgan. Nuriddin Atar «Al-Imom at-Termiziy val-Muvazanat bayna jomiʻixi va baynassahiyhayn» (Damashq, 1988) kitobida Al-Imom at-Termiziy Sherobodagi Bugʻ qishlogʻida oddiy kambagʻal bir oilada hijriy 209-yilda tavallud topganligini yozadi. Tarixchi olim Abu Saʼad Abulkarim as-Samʼoniy (1113–1167) oʻzining «Kitob alasnob» kitobida Imom at-Termiziy Bugʻ qishlogʻida vafot etganligi uchun al-Bugʻiy taxallusi bilan ham atalgani haqida yozishiga eʼtibor bersak, Bugʻ qishlogʻi Termizdan shimoli-sharqda, Sherobod tumanida joylashganligi, oʻsha davrda bu qishloqda taʼlim olish uchun imkoniyat yoʻqligi tufayli ilm istab madrasa bor joyga borib taʼlim olganligini bilish mumkin. Imom at-Termiziy yoshligidan oʻta ziyrak, tirishqoq, aklidroqli boʻlganligi uchun oʻz yurtini tashlab, dastlabki savod va bilimlarni egallash

maqsadida avval Termizga, keyinchalik Buxoro shahriga boradi. O'sha davrda yirik ilmiy markazlardan bo'lgan Hirot, Samarqand, Marv va Balhda ijod qilgan olimu fozillarning asarlarini qunt bilan o'rganib, aql-idrok va odob mahsulini mujassamlashtirib, hadis ilmini o'rganishga dadil kirishadi. Talabalik-yillarida u kishida islom ilohiyotiga, hadisnavislikka sidqidildan e'tiqod, samimiy sodiqlik (chunki ayrim musulmonlar, ruhoniylar xurofot, bid'at, joxillik doirasiga kirib ketgan edilar) sifatleri shakllanadi. Imom at-Termiziy islom ilmi, hadisnavislik bilan bir qatorda Hijoz, Makka, Madina, Iroq, Xuroson, Damashq kabi shaharlarda bo'lganida ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix, falakiyot kabi fanlarni muntazam o'rganib, yirik qomusiy olim sifatida mashhur bo'ladi. Hadis ilmini mukammallashtirish, bayon etish, qayta-qayta taxlil etish mobaynida to'plangan tajribasini umumlashtirib quyidagi uslubda ish yuritadi, ya'ni Sahiyh (to'g'ri, ishonchli), Hasan (yaxshi, ma'qul), Zaif (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati). Bo'lajak olim ustoz, butun islom Sharqida hadis ilmining asoschisi va bobokaloni Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ergashib Muhammad Payg'ambarning hayoti, ijtimoiy faoliyati, nutq va ko'rsatmalarini to'plab, o'rgana boshlaydi. Olim o'z ilmini yanada rivojlantirish maqsadida ko'plab olimu fozillar suhbatida bo'lib, aksar bahsli masalalarni hamkorlikda hal etib boradi. Shu tufayli Imom Muslim, Abu Dovud, qutayba ibn Sa'id, Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn g'iylon, So'fyon ibn Vaqiy va boshqalar Imom at-Termiziyning yaqin shogird va do'st tutganlar. Ilm axli va islom olamida keng tanilgan Iso at-Termiziy hadis ilmini xalq orasida targ'ib qilishda, uning haqqoniy ilmiy bayonini taxlil etishda Abu ibn Muhammad an-Nasafiy, Hamid ibn Shokir, Makxul ibn al-Fazl, Abu al-Abbos Muhammad ybn Mahbub al-Mahbubiy kabi o'nlab shogirdlarga ustozlik qilib, ularning xalq orasida tanilishiga hissa.qo'shadi.

Abulhasan Ali binni Muhammad Munjik Termiziy o'z davrining yirik shoiri, hajviyotda yalovbardor, beqiyos mashshoq, xushovoz hofiz bo'lib Chag'oniyon amirlari saroyida nash'u namo topadi. Munjik manbalarda Chag'oniyon amirlari Toxir ibn Fazl (hukmronligi 988–992) va Abul Muzaffar (hukmronligi 992–1010)larning maddohi sifatida tilga olinadi hamda qasidalarining benihoya badiiyligi maqtaladi. Shoir Termiz atrofida Munjik nomli qishlokda tug'ilgan va taxallusi bois uni Munjik Termiziy, Munjikiy Termiziy, ko'pincha Munjik, goho

Munjikiy deb atashadi, o‘zi esa she‘rlarida Munjik so‘zini qo‘llaydi. Munjikning hayot yo‘li haqida ko‘p narsa bilmaymiz, uning tavallud va vafoti sanasi, Chag‘oniyonga kelguncha maskani, tahsil-yillari qayerda kechgani, Chag‘oniyonda necha muddat turgani, so‘ngra qaysi tomonlarga ravona bo‘lgani aniq emas. Shoirning boy ijodiy merosidan bizgacha atigi 517 misra she‘r yetib kelgan va bular adib mahoratiga doir ayrim nuqtalarni anglashda qo‘l keladi.

### **Abul Muzaffar Termiziy**

U o‘z davrining mashhur shayxi va tasavvuf olimla RVDan biridir. Alisher Navoiyning yozishicha, Abul Muzaffar Termiziyning sevgan so‘zlari ushbu ekan: «Kimki senga yaxshilik qilsa, seni o‘ziga yaqinlashtiradi, demak, u seni ipsiz bog‘lab oladi, kimki yomonlik qilsa, seni o‘zidan uzoqlashtiradi, uzoqlashtirish ipsiz bog‘lashdan avloroqsir. Ozodlik yaxshimi, qullik?». Abul Muzaffarning ushbu so‘zlari zamirida g‘oyat ulkan ma‘no va moxiyat, mantiq va mazmun tajassum, tasavvuf ilmida xudo vasliga yetmoq uchun ranju alam chekish g‘oyalari ilgari suriladi. Sababi, maqsadga osongina yetishga intilmaslik maqbul, uning lazzati, uning mazasi qiynoqlarda namoyon bo‘ladi, qolaversa, bir inson boshqasiga mute bo‘lmasligi lozim.

Oллоh taoloning oliy ne‘mati inson, u hur va erkin, ozod va beg‘ubor mavjudotlar toifasiga mansub. Abul Muzaffar Termiziy mashhur shayx, tasavvuf ilmining taniqli peshvosi Hakim at Termiziy masjidi (maqbarasi)ning bosh shayxulislomi vazifasini bajargan.

**ADIB SOBIR TERMIZIY.** Sobir Termiziy Shahobiddin ibn Ismoil (1147-yili vafot etgan) mashhur shoir, fors tilida ijod etgan. U zolim amir deb nom chiqargan Termiz amiri Axtitni-mayparastlikda ayblab, hajviya yozgan. Sulton Sanjar (1118–1157) saroyida Marvda ham yashagan. Umrining oxirida Xorazmga boradi va Xorazm shohi Otsiz (1127–1156) uning oyoqqo‘lini bog‘lab, Amudaryoga cho‘ktirib

**JAVHARIY.** Zargar Termiziy, XI-XII asrlar shoiri, asli buxorolik, tahsilni Termizda oladi. Adib Sobirning shogirdi, qasidaları o‘zgacha uslubda bitilgan. «Mashshoq ayol va amir Ahmad» hikoyatining muallifi.

**JALOLIDDIN.** Jaloliddin Ja‘far ibn Husayn Termiziy, mashhur falakiyotchi olim.

ALOVUDDIN TERMIZIY. Sayyid laqabi bilan mashhur (XIII asrda yashagan). U ham zamonasining fiqh va hadis ilmi bilimdonlaridan biri.

AHMAD ATTERMIZIY. XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida yashab o'tgan. Davrining yirik hakimi, zargari, falakiyot ilmi va ilmi nujumda beqiyos bo'lgan. Ahmad at-Termiziy zabardast shoir, uning forsiy va turkiy tilda bitgan she'rlar devoni mavjud.

**Chag'oniyon tarixiga chizgilar.** Ko'hna Surxon vohasi Baqtriya davlati tarkibidagi viloyatlar sirasiga kirgan, bu mil. avv. IX–VIII asrlarga to'g'ri keladi. Keyingi asrlarda Baqtriya sarhadlarida yangi davlatlar barpo bo'lib, Baqtriya shu yangi davlatlarning tarkibiy qismlariga aylana boshlaydi.

Chag'oniyon atamasi yozma manbalarda VI asrdan boshlab uchraydi va solnomavis ad-Dinovariy (vafoti 952)ning «Kitob alaxbor»da bitishicha, sosoniy Xusrav I Anushervon (hukmronligi 531–579) qo'shinlari Eftaliylar davlatining Toxariston, Kobuliston va Chag'oniyon viloyatlarini bosib oladi. Tarixiy voqealarga murojaat qilsak, 563–567-yillarda eftaliylar bilan turkiy xoqonliklar o'rtasida Buxoro o'rtasida to'qnashuv ro'y beradi va ularning birinchisi qattiq shikast topadi. Shikast topgan eftaliylarning qolgan-qutgan qismi Chag'oniyonga chekinadi va asli eftaliylardan bo'lgan Chag'oniyon hokimi Fag'onishni o'zlariga yo'l boshchi qilib ko'taradilar. 571-yili Chag'oniyon Xusrav I Anushervon ixtiyoriga o'tadi. Bu hodisa ikki xil izoxdanadi: Fag'onish go'yo turkiy xoqonlarga qarshi kurashda Anushervonga tayanmoqchi bo'lgan yoki turk xoqoni Istamiy bilan Anushervon shartnomasiga binoan Chag'oniyon sosoniylarga tegadi. Chag'oniyon Eftaliylar davlati tarkibida yetmish-yil turdi, hatto, Chag'oniyon hokimi eftaliylar uyushmasining rahnamosiga aylandi, ko'rinadiki, Chag'oniyon Sosoniylar va Eftaliylar davlati tarkibida ko'p jihatdan mustaqil bo'lgan. Chag'oniyonda VII asrga kelib sulola almashuvi ro'y beradi eftaliylar o'rniga turk xoqonligi sulolasi ustuvorligi kuchaydi. Chag'oniyonni idora qilgan eski chag'onxudotlar sulolasi o'z mavqeini saqlab qolgan holda Turk xoqonlariga suyandilar, turkiy qabilalarning Chag'oniyonga kirib kelishi 589-yildan boshlanadi.

Turk xoqoni (qoon, qog'on, hoqon, xon) Tun Yabg'u (Yabu, jabu, hukmdor, bak, bek, biy, 618–680-yillar) davrida Toxaristonni boshqarish uning o'g'li Tardu Shodi zimmasiga yuklatiladi. Chag'oniyonda turkiy qabilalar sulolasi mustahkamlanib bordi.

Chagʻoniyon hukmroni Tish Uzoq Sharq manba (718–719)larida Toxariston yabgʻusi, yaʼni bosh hukmroni tarzida tilga olinishining oʻzi jiddiy voqeadir. Ana shu Tish Chagʻoniyonning chagʻonxudoti oʻz qoʻshnilari Shuman va Axarun hukmron (qoratogʻ daryosi va Hisor vohasi oʻlka)larini boʻysundirish uchun qutayba lashkarlarini madadga chaqiradi. Movarounnahr yerlariga ondasonda hujum qilib, talontorojlik yurishlarini amalga oshirib turgan arablar uchun bu qulay hodisa edi. Shu munosabat bilan arab qoʻshinlari Surxon vohasiga kirib keldi va Chagʻoniyonni egallab oladi. Arablarning Chagʻoniyonga ilk hujumi 667-yilda roʻy bergan edi, 651-yili arab qoʻshini boshligʻi bilan Chagʻoniyon shohi yakkama-yakka jang qilganini yaxshi bilamiz. Bu hodisa va voqealardan shu narsa aniqki, Chagʻoniyon shohi, demak, butun boshli arab bosqiniga qarshi harakatning rahnamosi boʻlgan. qolaversa, 650-yillarda Chagʻoniyon oʻlkasining hokimi Turontosh edi, uning ismi turkiy tilli aholi vakili ekanini aniq qoʻrsatib turibdi. Binobarin, ilk oʻrta asrlarda Toxaristonda turkiy xalqparning alohida siyosiy va ijtimoiy mavqeini ilmiy tadqiqotlar isbotlab turibdi. Qutaybaning Chagʻoniyonga kirib kelishi bilan Chagʻoniyon yangi islom dini taʼsiriga berilib ketdi deb boʻlmaydi, balki asl boshqaruv hali-hanuz chagʻonxudotlar ixtiyorida edi va ularning hukumati yuz-yilga yaqin turgan. gʻalati tomoni shundaki, Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga yurish qilgan arab qoʻshinlariga birinchi galda Chagʻoniyon xudotlari (Movarounnahr viloyatlarini arab istilosigacha boʻlgan davrda turli nomlarda ataluvchi mahalliy hukmronlar boshqarganlar, yaʼni Termizni shoh, Buxoro va Chagʻoniyonni xudot, Soʻgʻdni ishxid, Fargʻonani afshin, Xoʻjandni dehqon, Xorazmni podshoh) harbiy koʻmak berar edi. Chunonchi, 706-yilgi qutayba binni Muslimning Buxoro va Paykandga hamda 737-yilgi Asad binni Abdullohning Xuttal (Xaptal, Eftal) hamda turk hoqonligiga qarshi yurishlarida Chagʻonxudot shaxsan hamroh boʻlgan.

qolaversa, VII asrning 70-yillarida boshlangan Muqanna rahnamoligidagi oq kiyimlilar harakatiga chagʻonxudotlar roʻyxushlik bildirishmadi, balki ularga qarshi siyosat yuritishdi.

Chagʻoniyon mulki Toxariston tarkibidagi eng yirik va eng kuchli oʻlka edi, boisi bu oʻlkaning oʻziga xos anʼanalari hamda ajoyib sulolaviy tarixi mavjuddir. Bu hududda katta-katta qishloqlar va ulkan shaharlar qad koʻtara boshladi, bu yurt oʻzida zarb qilingan xususiy tangalariga ega edi. Chagʻoniyon hukmronlari boshqa uzoq va yaqin

hukumatlar bilan diniy, iqtisodiy hamda sulolaviy aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘ydi, oqibatda, savdo-sotiq ishlari ancha rivoj topdi. Ayniqsa, Afrosiyob saroyi xarobalari topilib ochilgandan keyin Samarqand shohi Varxuman saroyi devorlarida bitilgan bitiklar o‘qilgach, shu narsa aniqlandiki, VII asrning ikkinchi yarmida Samarqandga (650-670) Chag‘oniyon davlati elchilariga devonxona boshlig‘i, ya‘ni dapirat (dabir yozuvchi, kotib) rahbarlik qilgan ekan va Samarqand shohi Varxumanga sovg‘a-salomlar bilan birgalikda kelin ham olib kelgan ekan. Yana ham qizig‘i shundaki, chag‘onxudotlarning hukmronligi kezlarida 719-yilda chag‘onxudot Tish (Tishtriya Sirius, avestocha, eng ravshan yulduz) tarafidan Chin (Xitoy)ga Moniylik dini peshvosi MoJo boshchiligidagi elchilar jo‘natilganini qam bilamiz. qarang, Surxon vohasi Zardushtiylik va Buddaviylik dinlarining maskani bo‘lishi barobarida bu yerda, demak, Moniylik dini ham rivoj topgan va rasm bo‘lgan ekan.

Chag‘oniyon amirligi sarhadlari keng bo‘lib, uning hududlariga Boysunu Darband, shimoldan Hisoru Dushanbe, janubdan Jarqo‘rg‘ondan yuqori tumanlar, sharqdan Bobotog‘ etaklarigacha cho‘zilgan zaminlar kirgan. Umumvoha Chag‘oniyon nomi bilan yuritilgan, qadimda Surxon daryosi esa Chag‘onrud deyilgan, Chag‘oniyon va Chag‘onrud ko‘hna sak elati nomi ila hamohangliklar kasb etadi, ya‘ni daryo atamasi Sakonrud Shakonrudning talaffuzdagi o‘zgarishlari natijasidir. Bu esa Chag‘oniyon (Sakoniyon Shakoniyon yoxud Chag‘on, Sakon, Shakon, Chakon)ga ham to‘kis taalluqlidir. Zero, bu nom ayrimlar aytganidek, Chag‘ona so‘zi (qizil yoki musiqa asbobi)ga mutlaqo aloqador emas. Saklarning Baqgriya bilan aloqasi qadimdan mavjud ekanligi ma‘lum, chunonchi, ahamoniylar davridayoq, balkim undan ham ilgari sak va boxtarlarning qo‘shinlari yagona lashkarga birlashtirilib Eron-Yunon urushlarida qatnashganini yaxshi bilamiz. Chag‘oniyonning qadimgi markazi hozirgi qizilsuv (Sangardak)ning Surxonga quyiladigan chap sohilida xarobaga aylangan Budrachtepa o‘rnida bo‘lgan, keyinroq bu markaz hozirgi Denovga ko‘chgan. Voha ham, uning markazi ham Chag‘oniyon deyilgan. Arab manbalarida Chag‘oniyon Sag‘oniyon tarzida bitilgan. Bu esa arab tilida «ch» tovushining yo‘kligi tufayli ro‘y bergan hodisadir.

Chag‘oniyon ko‘hna zamin, u turli zamonlarda turfa nomlarda ataladi, chunonchi, Baqtriya, Yunon-Baqtriya, Kushon, Toxariston, Chag‘oniyon va nihoyat hozirgi atamasi Surxondaryo nomini olgan.

Baqtriya degan yurtda Bubaken, Gaboz, Pareytaken nomli viloyatlar borligi tarixda qayd etilgan va Rustam hamda Alpomish turkum dostonlarining yaratilishi, tarqalishi holatlari ham Surxon zamini bilan bog‘liq ekanligi juda muhimdir.

**Chag‘onrud pahlavonlar yurti.** «Alpomish» dostoni Surxon vohasi zamini ila bog‘liq va u shu o‘lka bag‘rida yo‘g‘rilgan, dostonda ta’riflangan Boysun qo‘ng‘irot eli va Boboxon tog‘i atamalarining o‘zi bunga aniq dalil. Yunon muarrixlaridan Aristobul, Klitarx, Ptolemey Lag va qisman Kallisfen solnomalarida (ularning barchasi Iskandar harbiy yurishlarining ishtirokchilari va lashkarboshilari) qadim Baqtriyaning saxovatli, serunum, go‘zal go‘shalaridan sanalmish Pareytaken singari viloyatlari haqida xabarlar beriladi. PareytakenSherobod vohasi, Gaboz, Boysun vohasi, Bubaken esa Bobotog‘ (Boboxon, Bobokon, Boboken) etaklarida joylashgan so‘lim voha ekanligi allaqachon o‘z isbotini topgan. Pareytaken tog‘li o‘lka ma’nosiga ega, boisi pourata, parvata ko‘hna sanskritchada tog‘ demakdir. Chunonchi, Ko‘hitang etaklaridagi qishloqlarning bir turkum nomda yaqin-yaqinlargacha Dahparkent (goho Dahparikent) deb atalishi buning jonli guvohidir. Zero, Pareytaken va Dahparkent tarkibida «par» birikmasi mavjudligi buning to‘kis isboti (Parkana, Farg‘ona va Parkent ham shundan)dir. «Bu yurtda mil. avv. VIII–VII asrlarda «qadimgi Baqtriya podsholigi» tashkil topdi. O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar shu yurtda shakllandi. Bu yurt zardushtiylik dinining ilk makonidir».

Boysun nomli maskan qoraqalpoq zaminida ham mavjud, boisi chorvador ellar tinim va qo‘nim bilmay ko‘chib yurishgan, zero, chorvador uchun yaylov yashash manbai, hayotiy zarurat. Ko‘chmanchi chorvadorlar qaysi maskanga kelib qo‘nmasinlar, odatan, o‘zlarining ilk maskanlari nomini tabiiy ravishda yangi maskanga olib kelishgan. Endi Boysun nomining shimoldan janubgami yoki janubdan shimolgami borib qolishiga kelsak, aynan shimoldan janubga ko‘chish bilan bog‘liq farazlarga yopishib olish masalaning tub mohiyati yechimini aks ettira olmaydi. Chunki ko‘chmanchi chorvador elat faqat janubga emas, balki janubdan shimolga ham siljib turgan va bu jarayon uzluksiz davom etgan, ya’ni aks ta’sirlar hodisasi ham zinhor e’tibordan soqit qilinmasligi lozim.

Bizning voha Surxondaryo deb ataladi, joy nomlarining aksari daryo nomi ila atalishi ko‘hna tarixdan ma’lum, chunonchi, Surxondaryo, qashqadaryo, Murg‘ob (Marg‘iyona) va hokazo. qadimgi

Surxondaryoni Chag'onrud, umumvohani esa Chag'oniyon deb yuritishgan. Ushbu atama, G.A Pugachenkovaning fikricha, ko'chmanchi saklar nomi ila chambarchaslik kasb etadi. Chag'onrud asli Sakonrud yoki Shakonrudning, Chag'oniyon bo'lsa, Sakoniyon va Shakoniyon atamalarining talaffuzdagi o'zgarishlari natijasidir. Ingliz olimi I.Markvart esa Chag'on so'zi mo'g'ulcha sagan (oq) so'zidan kelib chiqqan, degan farazni ilgari suradi. Chunonchi, vohamizning yurtsevar va elparvar shoiri Nizomjon Parva Amudaryoning Oqdaryo deb atalgan manbaga duch kelganini hikoya qiladi. Akademik E.V.Rtveladzening gumonicha, Chag'on so'ziga ko'plik «on» qo'shimchasi keyingi asrlarda ilova etilgan. Basharti Chag'on so'zining o'zagi Chag' bo'lsa, u holda Chag'oniyon atamasiga birato'la ikkita ko'plik «on» qo'shimchasi tirkalgan bo'lib chiqadi.

«Avesto»da ana shu saklar Turk deb bitiladi va ular ko'chmanchi bo'lgani aytiladi, Turning Turk so'ziga aloqasi boryo'kligi hozircha bahsli. Ayrim farazlarga ko'ra Turk so'zidagi «k» tovushi, ehtimol, avestocha yoki baqtarcha «lar» ko'plik qo'shimchasini ifoda etgan. Bu xil hodisani tojik (tazi, tozi, tozik) so'zidagi «k» tovushi misolida ham yaqqol ko'rsa bo'ladi. Eng qadimgi zamonlarda saklarni, tarixchi Polibiyning yozishicha, «Aspasiak» deyishgan. Ular Oks (Amudaryo) va Tanais (Don) daryolari oralig'ida yashagan, lekin ko'pchilik Tanaisni Iskandar yurishlarigacha Sirdaryo deb tushungan, Sirdaryo esa, Aristobul ta'kidlaganidek, Yaksart deb atalgan. Aspasiak tarkibidagi aspa, asp ot; saik, saak, sak chavandoz ma'nosini anglatadi, xuddi shu chavandoz turlarni, Geradotning xabaricha, eroniylar sak, yunonlar skif deb atashar ekan. Sak so'zi shu kabi qudratli, epchil, chaqqon, jasur, azamat, mard ma'nolariga ega ekanligi ko'plab manbalarda o'z ta'kidini topgan. Goho ularni Ispaka, Spaka, Sabaka, Sak tarzida sharhlab, nechundir o'ta g'ayriilmiy farazlar o'rta tashlanadi. Jumladan, «Avesto»da Spaa birikmasi uchraydi. Bu esa aspa otning buzilgan shakli, chunki keyingi so'zda old «a» unlisining tushishi (prokopa hodisasi) ro'y bergan.

**Chag'oniyon amirlari.** Chag'oniyonda X asr oxiri XI asrning birinchi choragida amirlar sulolasi hukmronlik qiladi hamda bu sulolaga Amir alMuhtoj degan shaxs asos solganligi bois sulola uning nomi bilan muhtojiylar sulolasi deb yuritiladi. AlMuhtojning ismi sharifini bilmaymiz, yozma manbalarda uning nomi nari borsa, Amir al-Muhtoj Chag'oniy shaklida bitilgani uchrab turadi, xolos. Aftidan, muhtojiylar

sulolasi somoniylarga oilaviy yaqin bo'lgan, Ismoil Somoniy (hukmronligi 892–907-yillar)ning o'zi ham muhtojlilar xonadonini qo'llabquvvatlagan. Chunki Ismoil Somoniy, manbalarning guvohlik berishicha, Termiz atrofidagi Somon qishlog'idan va hatto Termiz shaxri ma'lum muddat bekorga shaxri Somon deb nomlanmagan bo'lsa kerak. qolaversa, mamlakat hukmroni Ismoil Somoniy (tavalludi 849-yil) tez-tez Termiz va Chag'oniyonga tashrif buyurib turgan va uning Mahsuma (asli Mohisiymo) ismli qiziga Termiz sayyidlarining asoschisi Hasan al-Amir (865-yildan Termizda yashay boshlagan)ning o'g'li Sayyid Amir Abdulla uylanadi. Hasan al-Amir hazrat Ali va Bibi Fotima avlodlaridan bo'lib, uning otasi Amir Husayn, bobosi esa Jaf'ar al-Hujjat Madina hokimi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Jaf'ar al-Hujjatning otasi Amir Ubaydulla hatgo xalifa al-Mansur (754–755) davrida xalifa deb e'lon qilinadi. Amir Ubaydullaning otasi Husayn al-Asqar, bobosi esa Ali nomvda yuritilgan, Alining otasi hazrat Ali va Bibi Fotimalarning farzandi Husayndir. Husayn so'nggi sasoniy shohi Yazdigardning qiziga uylanadi va bosh farzandlariga hazrat Ali ibn Abu Tolib sharafiga Ali deb ism qo'yadilar. Termizlik sayyidlarning shajarasi Hasan al-Amirdan ibtido topadi va bu shajara avlodlari hazrat Ali hamda Bibi Fotimaning davomchilarvdir. Demak, Hasan al-Amir ibn Amir Husayn ibn Jaf'ar alHujjat ibn Amir Ubaydulla ibn Husayn al-Asqar ibn Ali ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib Termiz sayyidlari shajarasining bosh ajdodlari qatorida turadi. qisqasi, Ismoil ibn Ahmad ibn Asad ibn Somon (hukmronligi 892–907-yillar) va Hasan al-Amir quda-andachiligi hamda Sayyid Amir Abdulla va Mahsumadan tarqalgan avlodlar endilikda sayyid emas, balki xudovandzoda laqabi bilan atala boshlaydi.

Chag'oniyon amirligining Somoniylar saltanati (875–999)dagi nufuzi g'oyatda katta bo'lib, bu suloladan chiqqan amirlar aksar Xuroson noibligini bajargan. Chunonchi, chag'oniyalar sulolasining ajoyib bir vakili Abu Bakr 930–939-yillar Chag'oniyonni boshqargan va ayni zamonda u 933-yildan e'tiboran Xuroson noibi ham edi. Bu degani, Somoniylar saltanatining teng yarmi uning tasarrufida ekanini anglatadi va katta huquq, ulkan imtiyoz noib ixtiyorida bo'lgan. Chag'oniyalar sulolasining asoschisi Muhtoj Chag'oniy hisoblanadi, biroq u amirlik qilgan davr sanalari hozirga qadar noaniq qolib kelmoqda. Xuddi shu sulolaga mansub Tohir Chag'oniyning ismisharifi «Ash'ori hamasroni Rudaky»da to'liq keltiriladi: Amir Abu Yahyo Tohir ibn Abul Abbos

Fazl ibn Abu Bakr Muhammad ibn Abu Said Muzaffar ibn Muhtoj Chagʻoniy. Ana shu Abu Bakrning ismi Muhammad ekani va Abu Said Muzaffar uning padari buzrukvoru ekanini bilib olamiz. Ayni paytda sulola asoschisi Muhtoj Chagʻoniy biz soʻz yuritayotgan Amir Abu Bakr Muhammadning bobosidir. Abu Bakr Muhammad 930-yili Chagʻoniyonda hukmronlikni boshlagan boʻlsa, tabiiyki, ungacha Chagʻoniyonni uning otasi Abu Said Muzaffar hamda bobosi Muhtoj Chagʻoniy boshqargan va ular hukmronligi sanalarini 900 va 930-yillar orasidan izlagan maʼqul. Demak, sulolaning ibtidosi 900-yillar bilan bogʻliq va bu sulola hukmronligi XI asrning 30yillarigacha davom etgan. Zero, chagʻoniylar sulolasining biz bilgan oxirgʻi vakillaridan biri Faxr udDavla 1010–1018-yillarda Chagʻoniyonda amirlik qilgan.

Abu Bakr Muhammaddan soʻng Chagʻoniyon amirligi mashhur Abu Ali Chagʻoniyga tegadi, u Abul Abbos, yaʼni Toxir Chagʻoniyning otasi bilan akauka. Xulosa shuki, Abu Ali va Abul Abboslar Abu Bakrning oʻgʻlonlari va Chagʻoniyon amirligi Abu Aliga ota meros ekan. Abu Ali Chagʻoniyonni 939–952-yillar davomida boshqaradi va 945-yilgacha Xuroson noibligini bajaradi, boisi 945-yilga kelib Amir Nuh ibn Nasr (943-954) uni Xuroson noibligidan chetlatadi. Oqibatda 947-yilgi mashʼum voqea, yaʼni Nuh ibn Nasrning Buxorodan Samarqandga quvilishi sodir boʻladi, Abu Ali boʻlsa maʼlum muddat Buxoroning Nasrning amakisi Ibrohim ibn Ahmad qoʻlida saqlanishini taʼminlab turgan. Abu Alining Nuh ibn Nasrga qarshi isyon koʻtarishi koʻp jihatlari bilan uning Xuroson noibligidan chetlatilishiga borib taqaladi. Nuh ibn Nasr, nihoyat 952-yilga kelib Abu Ali Chagʻoniy qayta Xuroson noibligiga tayinlashga majbur boʻladi. Abu Ali oʻz navbatida Chagʻoniyon amirligini oʻgʻli Abu Mansur Nasrga topshiradi va oʻzi, asosan, Xuroson noibligi yumushlari bilan mashgʻul boʻladi, Abu Ali 955-yili Xurosonda tarqalgan vabo kasalidan vafot etadi.

Abu Ali Chagʻoniy va Nuh ibn Nasr mojarolariga mabodo yana qaytadigan boʻlsak, shu narsa oydinlashadiki, Nuh ibn Nasr davriga kelib mamlakatda algʻovdalgʻov hodisalar, ziddiyatli voqealar kuchayib ketadi. Nuh ibn Nasrdan norozi boʻlgan qoʻshin va lashkar, ayniqsa qoʻshin boshliqlari oʻrtasida palapartishlik sezilarli tus oladi, shu kezlarda Chagʻoniyon amiri va Xuroson noibi Abu Ali nechundir Amir Nuh ibn Nasrga qarshi isyon koʻtaradi. Ana shu isyondan foydalangan Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Buxoroni egallaydi va Abu Ali qoʻshinlari yordamida somoniylar taxtiga ega boʻladi. Ammo

Ibrohim ibn Ahmad taxtda uzoq turolmaydi, sababi Abu Ali qo‘shinlari shahar axlining ma’lum noroziliklari tufayli Buxoroni tashlab chiqib ketadilar. Shundan so‘ng Nuh ibn Nasr Buxoroga qaytadi (bungacha Nuh Samarqandda bir oz turgan edi), taxtni qayta qo‘lga kiritib, birinchi gadda isyonchi qarindoshurug‘larini jazolashga hukmi oliy beradi. Abu Ali Chag‘oniyning markaziy hokimiyat bilan kurashi va nizolari davom etaveradi, ikki o‘rtada tuzilgan bitim va shartnomalarda Nuh ibn Nasr hatto Chag‘oniyon hokimi Abu Aliga ko‘p masalalarda yon bosishga majbur bo‘lgan edi. Bu kelishmovchiliklar Nuh ibn Nasr vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Abdumalik (954–961) zamonida ham o‘z asoratini yo‘qotmagan.

Narshaxiy matnini sharhlashga o‘tsak, ma’lumotda g‘alizlik bor. Masalan, Abu Ali Isfaxoniy emas, balki Chag‘oniydir, uning Nishopur amiri bo‘lgani aniq emas, lekin u Xuroson noibi edi. To‘g‘ri, Xuroson noiblarining Nishopur amiri deyilishiga bois, o‘sha kezlarda Xuroson mintaqasining ma’muriy markazi Nishopur edi hamda Xuroson noibi va Nishopur amiri atamaları sinonim sifatida ishlatilgan. Abu Ali Chag‘oniy hatto Nasr ibn Ahmad hukmronligi (914–943)ning oxirgi-yillari ham Xuroson noibi bo‘lgan ko‘rinadi. Darhaqiqat, Abu Ali bilan Nuh ibn Nasr (943–954) yoki Abdumalik (954–961) o‘rtasidagi ziddiyatlar undan ham oldinroq boshlanganini taxmin etish mumkin. Chunki Abu Alining otasi Abu Bakr 939 *u. -yili* olamdan o‘tadi, u 930–939-yillar oralig‘ida Chag‘oniyon hokimi edi. Abu Bakr 933-yildan boshlab Nasr ibn Ahmad (914–943)ning xohishirodasi bilan Xuroson noibi vazifasini ham bajara boshlaydi. Abu Bakr vafoti (939)dan so‘ng Chag‘oniyon hokimligi va Xuroson noibliga uning o‘g‘li Abu Ali Chag‘oniy zimmasiga yuklandi. Xuddi shu voqealar Nasr ibn Ahmad (914–943) davrida ro‘y bergan va Abu Ali Chag‘oniy 945-yilga kelib, ya’ni Nuh ibn Nasr (943–954) zamonida Xuroson noiblig‘idan chetlatildi. Demak, Abu Alining isyoni, noroziliklari, asosan, Nuh ibn Nasr zamoniga to‘g‘ri kelar ekan. Ana shu o‘zaro kelishmovchiliklar 945-yildan 952-yilgacha va hatto undan keyin ham davom etganini gumon qilish mumkin. Abu Ali Chag‘oniy 952-yili qayta Xuroson noibligiga tayinlanadi, bu Abu Alining Somoniylar saltanati siyosiy-maydonida ustuvor maqomga egalig‘ini namoyish etadi. Bundan tashqari, Abu Alining siyosiy-maydondagi obro‘yi Abdumalik amirligi-yillari (954–961) ham davom etg‘anligi muqarrar haqiqatdir.

Abu Ali Chagʻoniy 945-yilda Xuroson noibligidan chetlatilgani haqida aytib oʻtdik, ana shu kezlar Abu Ali oʻz inisi Abul Abbos Fazlni Jabal viloyati (Tus, Ray, Shirvon tomonlar)ga hokim etib tayinlaydi. Jabal arabcha togʻ demakdir, bu mintaqalar hozirda Koʻh(togʻ)iston (Dogʻistonni eslang) deyiladi. Geradotning guvohligicha, qadimda bu zaminda paretaken qabilalari yashagan. Shunday qilib, yana Abul Abbosga qaytsak, u oʻz ogʻasi Abu Ali hukmiga teskari Jabalga bormay, Buxoroga borgani va Nuh ibn Nasr unga Shosh hokimligini berganidan xabardormiz. Aftidan, Nuh ibn Nasr ogʻainilarning oʻzaro ixtiloflardan oʻz manfaati yoʻlida foydalanishga harakat qilgan. Bu voqealardan soʻng Nuh ibn Nasr va Abu Ali ixtiloflari gʻoyat jiddiylashadi, Abu Ali 946-yili Nasrga qarshi jangga kiradi, birinchi galda Xuroson noibligiga yangi tayinlangan Nishopurdan Ibrohim binni Simjuriyni haydab yuboradi. Keyin katta qoʻshin bilan Amudaryodan oʻtib Buxoroni bosadi, Nasr Samarqandga qochadi, Abu Ali esa Amir Nasrning amakisi Ibrohim ibn Ahmad nomiga xutba oʻqitadi. Abu Ali 946-yilning dekabridan 947-yilning martigacha Buxoroda turadi, ammo Buxoro aholisining noroziligi sabab u Chagʻoniyonga qaytishga majbur boʻladi. Nihoyasi koʻrinmagan bu kurashlar 948 -yilning dekabr oyida sulh tuzish bilan toʻxtaydi, sulhga koʻra Chagʻoniyon hokimligi Abu Aliga qoladi. Buning evaziga Abu Ali Chagʻoniyning oʻgʻli Abul Muzaffar Abdulloh ibn Ahmad garovga olinadi, Buxoroda Abul Muzaffar hurmat bilan qarshilanadi. Bu orada Abu Ali va Amir Nuh ibn Nasr (943–954) munosabatlari ancha iliklashadi. Ana shu voqealar Gardiziyning «Zaynul axbor» asarida ham keltiriladi, aytilishicha, garovga olingan Abul Muzaffar Buxoroda baxtsiz tasodif tufayli otdan yiqilib oʻladi. Bu baxtsiz hodisa munosabatlarga sovuklik solmagan koʻrinadi. Abul Muzaffarning jasi Chagʻoniyonga olib kelinadi va dafn etiladi. Abul Muzaffar vafotidan ikki oy oʻtgach, Xuroson sipohsolorligi qayta Abu Aliga tegadi, Chagʻoniyon va Termiz amirligi Abu Alining oʻgʻli Abu Mansur Nasr ibn Axmadga beriladi. Ushbu hodisalar 952-yilda sodir boʻladi.

Voqealardan ayonki, Nuh ibn Nasr ilojsiz Abu Alini takror Xuroson noibligiga tiklaydi, Abu Ali Xuroson mulkida tartibintizom oʻrnatadi. Abu Ali tufayli Somoniylar davlatiga qarshi harakatlar qilayotgan buyvayhiylar bilan tinchlik bitimi amalga oshiriladi. Negadir

bitim yangi hukmron Abdumalikni (954–961) qoniqtirmaydi va u Abu Alini Xuroson noibligidan oladi. Natijada Abu Ali g‘azablanib buvayhiylar ko‘magida Abdumalikka qarshi g‘alayon ko‘taradi va o‘z nomini xutbaga qo‘shiradi. Abdumalik 954-yili Abu Aliga qarshi yirik qo‘shin yuboradi, lashkarga Xuroson noibligiga endi tayinlangan Bakr binni Malik bosh edi. Bu orada Abu Ali Xurosonda tarqalgan vabo kasalidan 955-yili o‘ladi, somoniylar va buvayxiylar o‘rtasida sulh tuzilgach, Abu Ali jasadi Chag‘oniyonga olib kelinadi hamda dafn etiladi. Buvayhiylar sulolasiga Eron shoxdari naslidan bo‘lgan Buvayh ismli kimsa asos solgan, u 930-yili somoniylarga bo‘ysunishdan bo‘yin tovlab, ularga qarshi janglar olib boradi.

Abu Ali Chag‘oniyning o‘g‘li Abu Mansur Nasr Chag‘oniyonni 952-yildan 976-yilgacha boshqaradi, keyin Chag‘oniyonda Abul qosim alHasan ibn Ahmad hukmronligi boshlanadi. Abul qosim alHasan asli Abu Mansur Nasrning inisidir, u taxminan 976-yildan 986-yilgacha Chag‘oniyonda amirlik qilgan. 986–987-yillarda Chag‘oniyonni Guzgon (hozirgi Juzjon) amiri Abul Xoris boshqaradi, shundan so‘ng Chag‘oniyon amirlari taxtiga Tohir Chag‘oniy keladi va u 987–992-yillarda hukmron bo‘ladi. Shu tariqa 992–1010-yillar Abul Muzaffar Chag‘oniy va 1010–1018-yillar Faxr ad-Davla Ahmad binni Muhammad hukmronligi yuz beradi.

**Adabiyot va she‘riyat.** Chag‘oniyonda XXI asrlarda ilm-fan ancha yuksaladi, bu davrda yetishib chiqqan olimu fozillar yurtimiz ilmi rivojiga hamda fan ravnaqiga cheksiz ulush qo‘shganlar. Ular nafaqat o‘z ona zaminida, balki dunyoning turli chekkalarida ham ilm rivoji yo‘lida xizmat qiladilar. Abu Bakr as-Sag‘oniy (IX asr), Ahmad as-Sag‘oniy (X asr), Abu Hamid as-Sag‘oniy (X asr) va boshqalar ayni Chag‘oniyon ilmiy muhitida nash‘u namo topgan olimlar sirasiga kiradi.

**Abu Bakr as-Sag‘oniy.** Bu allomai zamon haqida ma‘lumotlar juda kam, taxallusidan uning Chag‘oniyondan ekanini bilamiz, xolos. Manbalarda Abu Bakr as-Sag‘oniy xususida bildirilgan fikrlar ko‘proq buyuk muhadsis Abu Dovud Sulaymon (817–888) bilan bog‘liq holda bayon etiladi. Chunki Abu Bakr as-Sag‘oniy buyuk muhaddis Abu Dovud Sulaymonning «Sunan» kitobi haqida so‘z yuritib, ushbularni naql qilgan ekan: «Dovud alayhissalom uchun temir Olloh taolo tomonidan mumday yumshatilgan bo‘lsa, hadis ham Abu Dovud Sulaymon uchun xuddi shu xilda qulay holga keltirilgan emish». Afsuski, bu fikrlar as-Sag‘oniyning qaysi asaridan olingani noaniq, ammo

shuning o‘zi allomaning IXX asrlarda yashab o‘tgani va yetuk olim, ayniqsa, muhaddisshunos ekanini anglashga kifoya qiladi.

**Ahmad ibn Muhammad as-Sag‘oniy** asli chag‘oniyonlik, shu yerda tavallud topib, ilk bilimini o‘z ona yurti Chag‘oniyonda oladi. So‘ngra u o‘qishini o‘sha davrning ulkan maskanlari hisoblanmish yirik shaharlar Buxoro va Samarqandda davom ettiradi. Ahmad as-Sag‘oniy 998-yildan boshlab o‘z ilmiy faoliyatini Abu Saxl Kuhiy rahbarligidagi Bag‘dod observatoriyasi bilan bog‘laydi. U yirik munajjim va jo‘g‘rofiy olim bo‘lishi barobarida, Beruniyning aytishicha, o‘z ustozlari Abu Saxldan keyin buyuk yulduzshunos sifatida e’tirof topgan ekan.

**Abu Hamid Usturlobiy as-Sag‘oniy** yetuk munajjim, falakiyot ilmida betaqqos olim, usturlob (osmonni kuzatadigan) asbobi ixtirochisi. Abu Hamid as-Sag‘oniy 980–990-yillarda olamdan o‘tgan, demak, allomaning tug‘ilgan zamonlari X asr boshlari bilan belgilanadi. Beruniy o‘zining «Al osor al-boqiya» asarida Ahmad Sag‘oniy va Hamid Sag‘oniylar haqida iliq fikrlar izhor etadi.

**Sag‘oniy (Chag‘oniy)** lug‘atshunos olim, tarjimai holi aniq emas, ismisharifi Raziuddin (ba‘zan Raziyyiddin) Abul Fazl al-Hasan ibn Muhammad ibn al-Hasan al-Chag‘oniy ekanligi ma‘lum. Manbalarda olimning 1181-yili Lohurda tug‘ilgani va 1252-yili Makkada vafot etganligi qayd etilgan. U ko‘p-yillar Lohurda Bag‘dod xalifalarining yalovochi sifatida faoliyat yuritadi, umrining oxirgi-yillari Bag‘dodga qaytadi, nihoyat Makkada haj safarida bo‘ladi va o‘sha yerda olamdan o‘tadi. Taxallusidan ota-bobolari asli chag‘oniyonlik ekani muqarrar bo‘lgan bu olim forstojik lug‘atshunosligining asoschilaridan, u arab leksikogorafiyasi rivojiga munosib xissa qo‘shgan olimlardan. Keyingi asr fors-tojik lug‘atshunosligidagi yangi yo‘nalishlar ko‘p jihatlari bilan Sag‘oniy ilmiy faoliyati an‘nalariga borib taqaladi. Sag‘oniyning o‘n ikki jildlik «Majma’ al-bahrayn» («Ikki dengiz majmui») va yigirma jildlik «Alubob uzzohir val lubob ul foxir» («Yuksak to‘lqin va ochiq o‘zaklar») xamda bir necha jildni o‘z ichiga oluvchi «Attakmila vaz zayl va ssila» («To‘ldiruvchi, qo‘shimcha va izohlar») nomli lug‘atga doir ilmiy kitoblari mavjud. Sag‘oniy asarlaridan Firozobodiy (XIV asr) o‘zining «Alqomus» lug‘atini yaratishda samarali istifoda etgan bo‘lsa, Yusuf Mag‘ribiy va boshqa qator merosi ta‘sirining natijasi o‘laroq rivoj topdi.

**Abu Ali Husayn ibn Ahmad as-Sallomiy.** U taxminan X asrda yashab ijod etgan, umuman, X asr allomasi. Chag‘oniyon amirlari

saroyida mulozimlik qilgan shoirlardan biri, u yirik olim hamdir. AsSallomiy dastlab faoliyatini Abu Bakr Muhammad Chagʻoniy (930-939)ga xizmat qilishdan boshlaydi, soʻngra xizmatni Abu Ali Ahmad Chagʻoniy (939–952) qoshida davom ettiradi. Ham shoir, ham olim Sallomiy haqida manbalarda bitilgan mavjud xabar va maʼlumotlar ancha uzuqyuluq va ziddiyatli jihatlarga ega. AsSaolibiy (961–1038)ning axboroticha, asSallomiy Nishopurdan bir oz narida joylashgan Bayhaq viloyatidan. AsSallomiy mashhur olim va isteʼdodli shoirgina boʻlib qolmay, balki oʻz davrining yetuk kotibi ham edi. Oʻtmishda kotiblik sanʼati keng rivoj topgan boʻlib, kotiblik juda ulkan qadrlanardi. Ayni zamonda kotib va xattot davrining soʻz sanʼatkori ham hisoblangan, chunki shohlarning shohlarga maktublarini ular amalga oshirganlar. Bu oʻta masʼuliyatli ish boʻlib, maktubda eʼtiborsizlik bilan ishlatilgʻan har qanday soʻz yomon oqibatlariga olib kelishi muqarrar boʻlganidek, har qanday yaxshi soʻz, yaxshi ibora, yaxshi ifoda munosabatlardagi gʻuborlarni tarqatishga yordam ham berar edi.

AsSallomiy Chagʻoniyon amirlari Abu Bakr (930–939) va Abu Ali (939–952) saroyida maktublar devonini boshqargan. Abu Ali uning tarixdan yaxshigina xabardorligini sezgach, unga Xuroson tarixini raqam qilishni topshiradi. Bu asar «Kitob attarix fi axbor vulot Xuroson» («Xuroson hukmronlari tarixi haqida kitob») deb atalib, 955-yilda yozib tugallangan, taassufki, asar bizning zamongacha yetib kelmagan. Ammo asSallomiyning zikr etilgan asari keyingi asr tarixchilarining koʻplari uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan. Bular ichida asSaolibiyning «Yatimat addaxr» («Zamona yagonalari», 1017), Gardiziyning «Zaynul axbor» («Xabarlar ziynati», 1050), Ibn Asirning (1160–1234) «Alkomil fit tarix» («Mukammal tarix») va yana koʻplab boshqa tarixiy asarlar asSallomiy asaridan foydalanib yaratilgan.

Yetuk bilim sohibi asSallomiy yana qator ajoyib asarlarning muallifidir, jumladan, «Kitob va natf va azzarf» («Hikmatli soʻzlardan namunalar»), «Kitob almisboh» («Chiroq haqida kitob») va «Kitob assor» («Tasdiq haqida kitob») shular jumlasidandir, lekin bu asarlar ham bizning zamongacha yetib kelmagan. AsSallomiydek davrining yetuk tarixchisi, mashhur xushnavisi, iqtidorli shoiri Chagʻoniyon amirlari saroyida tarbiya topganligi muhim jihatlarga ega.

**Abul qosim Ali ibn Muhammad allskofiy.** Yetuk xatgot, yirik xuishavis va tengi yoʻq soʻz ustasi allskofiy aslida Nishopur shahridan. U ijodiy faoliyatini Abu Ali Chagʻoniy xizmatida boshlaydi. Allskofiy

shoir va o'z davrining fozil kishisi edi, uning haqida tarix kitoblari sahifasida ko'plab latifanamo voqealar hikoya qilinadi. Allskofiy chiroyli yozish san'atini mukammal egallagani sababli Abu Ali Chag'oniyning maktublar devonida rahbarlik qiladi. O'zaro munosabatlardagi ma'lum beqarorliklar tufayli Abu Ali Chag'oniyy va Buxoro amiri Nuh ibn Nasr Somoniy qo'shinlari 947-yili Jurjon (asli Gurgon)da to'qnashadilar. Jangda Abu Ali Chag'oniyy yengiladi, bunga sabab Abu Ali tomonida turgan ayrim lashkarboshilarning sotqinligi va beqarorligi oqibatida bu mash'um voqea ro'y beradi. Abu Alining ko'p odamlari asirga olinadi, shular orasida allskofiy ham bor edi. Shundan e'tiboran buyuk xattot Iskofiy faoliyati Nuh ibn Nasr (943-954) va Abdumalik (954-961) bilan bog'lanadi va u Buxoroda yashay boshlaydi. Iste'dodli shoir va bemonand so'z san'atkori allskofiy 955-956-yillarda vafot etadi.

**Toxariy.** Shoir X asr boshlarida yashagan, u Chag'oniyyon shoirlarining sardaftari hisoblanadi, uning taxallusi qadimgi Toxariston (hozirgi Surxon va Hisor vohalari) nomidan olingan. Ammo ayrim manbalarda shoir taxallusi Taxoviy shaklida ham uchraydi. Aksar olimlar shoir taxallusining Toxariy shaklini to'g'ri deyishib, ayni shu shaklni maqbul bilishadi, «Farhang'i Surury»da ham shu xildadir.

Fotimiylar ijtimoiy tenglik g'oyalarini ilgari surgan bir oqim va ularning tarafdorlari ko'p bo'lgan. Ammo ular qattiq jazolarga mustahiq etilgan, shu harakatning vakili sifatida Rudakiyning ko'zlariga mil tortilgan. Shundan Ma'rufiyning Buxoroga tashrifini 935-940-yillar oralig'idan izlash lozim, zero, Rudakiy va Ma'rufiy uchrashuvi ayni Rudakiyning alamli-yillariga to'g'ri kelishi haqiqatga yaqin turadi. Ma'rufiy amir Nuh ibn Nasr (943-954) davrida va hatto Abdumalik (954-961) zamonida ham Buxoroda bo'lgan ko'rinadi. Ma'rufiy ma'lum fursat Seyistonda ham bo'lgan, uning Chag'oniyyondalik kezlari, albatta, Buxoroga tashrifidan oldin ro'y bergan. Uning Chag'oniyyonda bo'lishi 925-935-yillarga to'g'ri kelishini taxmin etish mumkin. Ana shu 925-935-yillar Chag'oniyyon taxtida Abu Said Muzaffar ibn Muhtoj Chag'oniyy (farazan 920-930) va Abu Bakr Muhammad ibn Abu Said Muzaffar (930-939)lar hukmron edilar. Ma'rufiyning tavallud va vafoti sanalari noaniq, undan 92 misra she'r saqlanib qolgan. Shoir she'rlaridan ayrim parchalar Umar arRoduyoniyy (XI asr)ning «Tarjimonul balog'a», Shamsi qaysning «AlMo'jam» (1233) asarlaridan va boshqa tazkira hamda bayozlardan joy olgan. Xulosa shuki, Ma'rufiy keyingi umri va

ijodini batamom Buxoro bilan bog‘laganligi ayon bo‘ladi. U X asr boshlarida tug‘ilib, shu asrning 70-yillari olamdan o‘tg‘an bo‘lishi ehtimol.

Ma‘rufiyning ayrim she‘rlari o‘z vaqgida arab tiliga ham tarjima qilingan. Bu birinchi gadda Ma‘rufiyning shoir sifatidagi e‘tirofini isbotlasa, boshqa bir tomondan uning Buxoro adabiy muhitidagi nufuzini tayin etishda qo‘l keladi. Ma‘rufiydan arabchaga tarjima qilingan she‘rlar Saolibiyning «Yatimat addaxr» asariga kiritilishining o‘zi katta gapdir, chunki har qanday shoirning she‘ri ham tarjima qilinavermaganidek, «Yatimat addahr» singari to‘plamlarga ham kiritilavermagan. Shunday tarjimalardan biri Ibn alMuammal degan shoir tomonidan amalga oshirilgan. Uning mazmuni quyidagicha:

*Bo‘lmasa menga sendan saxovat,  
Tuhfang umidi qalbda qabohash.  
Sen ham menga o‘xshash odamsan,  
Bil: Odam zogpiga bosh egmasman.*

Shoir va ijodkorlar zikrida gap ketar ekan, shuni taassuf ila aytish joizki, biz shu kungacha Muhtoj Chag‘oniy (farazan 900920), Abu Said Muzaffar (taxminan 920–930), Abu Bakr Muhammad (930939) hukmronligi kezlari Chag‘oniyonda yashab ijod etgan shoirlardan kimlar borligini bilmaymiz, buning uchun esa ko‘plab qadimiy manba va sarchashmalarni erinmay o‘rganib chiqish zarur. Ammo Abu Ali Chag‘oniy davrida Chag‘oniyonda yashab ijod etgan shoirlardan ayrimlarini bilamiz. quyida shunday shoirlardan bir nechtasining hayot yo‘li haqida fikr yuritiladi.

**Abul Husayn Muhammad binni Muhammad al Murodiy Buxoriy.** «Yatimat addahr» muallifi asSaolibiyning yozishicha, Murodiyning Abu Aliga bag‘ishlab yozgan qasidaları bor ekan. Abu Ali Chag‘oniy 947-yili Buxoroni zabt etganda ko‘plab shoirlar unga bag‘ishlab qasidalar bitgan, shular qatorida Murodiy qasidaları ham mavjud. Biroq Murodiyning vafoti taxminan 940-yillarda ro‘y bergan va u Rudakiyning eng sevimli shogirdlaridan biri edi.

Murodiy arab va forstojik tilida ijod etgan, shoirning she‘rlar devoni elaro mashhuru manzur bo‘lgan. Murodiy ijod bisotiga taallukli forstojik tilidagi she‘rlardan bizning davrimizgacha ayrim namunalargina yetib kelgan. Shoir o‘z she‘rlarida axloqiyta‘limiy, ma‘rifiyma‘naviy g‘oyalarni tajao , sum etadi.

**Daqiqiy (930–977).** Abu Mansur Muhammad ibni Ahmad Daqiqiy nufuzi jihatidan forstojik adabiyotida buyuk Rudakiydan keyin ikkinchi o‘rinda turadi va bu fanda allaqachon o‘z isbotini topgan. Daqiqiy haqida Beruniy (973–1048) «Alosor alboqiya» (1000), Muhammad Avfiy (1170–1233) «Lubob ulalbob» (1221), Abdurahmon Jomiy (1414–1492) «Bahoriston», Lutf Alibek Ozar «Otashkada» (XVIII asr) asarlarida va boshqalarning kitoblarida ma’lumotlar bitib qoldirilgan. Beruniy shoirni balxlik, Avfiy tuslik, Lutf Alibek samarqandlik deydi va bu bahslar keyingi asrlarda ham davom etadi hamda shoir goh Buxorodan, goh Marvdan, goh Hirotidan deyiladi. Beruniy boshqalarga nisbatan Daqiqiy zamoniga yaqin yashagan, shuning uchun shoirning asli balxlik ekaniga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Avfiyning «Lubob ulalbob» tazkisasi Daqiqiy davridan 250-yil keyin yaratilganiga e’tiborni jalb etmoq lozim.

Beruniy shoirni Abu Ali Muhammad ibn Axmad Balxiy tarzida, Avfiy esa Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad Daqiqiy shaklida tilga olib o‘tadi. Har ikki holatda ham Muhammad ibn Ahmad, ya’ni ismisharif bir xil, faqat kunya (Abu Ali va Abu Mansur)lar va taxallus (Balxiy va Daqiqiy)lar turlicha. Beruniy tilga olgan shoir Daqiqiy ekani V. V. Bartold, N. O. Osmonov, I. V. Braginskiy, B. F. Livshis, E. V. Rtveladzlar tarafidan tasdiqlangan. Zero, «Shohnoma»ni ilk bor nazm injusiga aylantirgan shoir Daqiqiyliigi hammaga ma’lum, demak, Beruniy eslatgan shoir Daqiqiydan bo‘lak hech kim emas.

Endi Daqiqiyning Abu Ali va Abu Mansur kunyalariga kelsak. Shoir taxminan 950-yillarda Chag‘oniyonga keladi va Abu Ali vafotidan so‘ng ham shu yerda bo‘lib xizmatni davom ettiradi. Agar Daqiqiyning 970-yilgacha Chag‘oniyonda bo‘lgani taxmin etilsa, u holda shoir qariyb 20-yil chag‘oniylar xizmatida bo‘lgan. Ana shu uzoq-yillik qadrdonlik evaziga Daqiqiy o‘z homiylari Abu Ali Ahmad Chag‘oniy va Abu Mansur Nasr Chag‘oniy (otabola)larning kunyasini o‘ziga kunya tariqasida qabul qiladi.

Daqiqiy uzoq-yillar Chag‘oniyondek go‘zal voha bag‘rida yashadi, shu zaminda ijodi kamol topdi, dovrug‘i elga yoyildi, muxlislari ko‘paydi. Shoir Tus, Hirot, Samarqand kabi shaharlarda bo‘ladi, ajdodlar tarixini o‘rgandi, tasavvurini boyitadi, katta taassurotlar oladi. Nihoyat, Buxoroga boradi, bu taxminan 970-yilga mos tushadi, o‘lkada bu paytlar somoniy Mansur ibn Nuh (962–976) hukmron edi.

**Tohir Chag‘oniy (vafoti 992-yil).** Chag‘oniyon amiri va o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi, iste’dodli shoir Tohir

Chagʻoniy hayotini, ijodini oʻrganish, avvalo, Chagʻoniyon adabiy muhiti bilan bogʻliq X asr oxirlariga oid koʻplab jumboqlarni hal etishda qoʻl kelishi bilan gʻoyat muhim. Tohir Chagʻoniyning tavallud-yili aniq emas, vafot-yili bir qadar aniqlangan, ammo bu borada ayrim bahsu munozaralar mavjud. Chunonchi, Muhammad qazviniiy (1877–1949) aniq sanani aytmay, manbaga ishora qilmay, Tohir oʻz amakivachchasi Abu Mansur Nasr (952–976) oʻrniga amir boʻlganini taʼkidlaydi va Tohirning vafoti sanasini 987–988-yillar deydi. Ye. E. Bertels ham aynan shu fikrda, faqat uning aytishicha, Tohirdan soʻng Chagʻoniyon taxtiga Faxr adDavla Muzaffar Ahmad binni Muhammad chiqqan. Afgʻon olimi Muhammad Muhsin boʻlsa Tohirni 992-yilda halok boʻlgan va bu halokat amakivachchasi Abul Muzaffar binni Muhammad bilan Chagʻoniyon taxti uchun jangda sodir etilgan degan aqidani ilgari suradi. Tohir Chagʻoniy hukmronligi davrida Chagʻoniyonda adabiy muhit uchun maʼlum imkoniyatlar yaratilgani tarixiy manbalarda eʼtirof etiladi. Misol uchun «Ashʻori hamasroni Roʻdaky»da Tohir zamon adabiy muhiti doirasi namoyandalari sifatida Maʼrufiy, Daqiqiy, Munjik, Labibiy singarilar eslatiladi. Yuqorida eslatilgani kabi Maʼrufiy va Daqiqiy Tohir Chagʻoniy davridan ancha ilgari Chagʻoniyonda boʻlgan, chunonchi, Maʼrufiy 925–935-yillari, Daqiqiy 950–970-yillari Chagʻoniyonda edilar. Bu Tohir davridan qariyb 4060-yil ilgari sodir boʻlgan voqealardir. Endi Munjik va Labibiyga kelsak, Munjik, darhaqiqat, Tohir zamonida Chagʻoniyonda edi va u bilan Badeʼiy birga boʻlgan hamda har ikkisining Tohirga bagʻishlangan qasidalari bor, Labibiy boʻlsa Abul Muzaffar davrida Chagʻoniyonda boʻlgan.

Koʻhna shahrimizdan yetishib chiqqan koʻplab buyuk tarixiy siymolarning hayoti va faoliyati Termizning insoniyat tarixida oʻchmas iz qoldirishida asosiy sabab boʻlgan. Ana shunday buyuk tarixiy insonlar orasida Termiz sayyidlari xonadonining namoyandalari ham bor. «Sayyid» soʻzi lugʻatan arabchada «janob» maʼnosini anglatib, paygʻambarimiz Muhammad alayhissalom avlodlarining faxriy unvonidir. Musulmon dunyosida sharif, xoja (xoʻja), toʻra soʻzlari sayyid atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Ayrim hollarda Muhammad alayhissalomning nevaralari Hasan avlodi sharif va Husayn avlodi sayyid unvonlari bilan alohida ajratiladi. Termiz sayyidlari xonadoniga doir maʼlumotlar sharq yozma merosining mashhur namunalari orqali yetib kelgan. Jumladan, Termiz sayyidlari xususida Ota Malik Juvayniy, Hamidullo qazviniiy, Ibn Battuta, gʻiyosiddin Ali, Sharafiddin Ali

Yazdiy, Ibn Arabshoh, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hofiz Tanish alBuxoriy va boshqa allomalarning durdona asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Termiz sayyidlari xonadoni tarixini o'rganishdagi asosiy manba ularning oilaviy shajarasidir, unda musulmon dunyosining tarixiga doir ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ana shu shajara asosida 1914-yili akademik A. A. Semyonov «Termiz sayyidlarining kelib chiqishi va ularning qadimiy maqbarasi Sulton Saodat» maqolasini e'lon qiladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus sharqshunoslari V. V. Bartold, A. Kun, M. S. Andreev va boshqalar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida Termiz sayyidlari xonadoni to'g'risida to'xtalib o'tadilar. Nakl qilinishicha, Ali ibn Abu Tolibning Fotimadan tug'ilgan o'g'li Husayn so'nggi sosoniylar shohi Yazdigirdning qiziga uylanadi. Ularning o'g'illari Alidan Husayn alAsqar, undan esa Ubaydullo dunyoga keladi. Xalifa alMansur davrida (754–755) Amir Ubaydullo xalifa deb e'lon qilinadi. Uning o'g'li Ja'far alHujjat Madina hokimi edi. Termiz sayyidlari xonadonining asoschisi Hasan alAmir Ja'far alHujjatning o'g'li Amir Husaynning farzandidir. Keltirilgan shajara musulmon dunyosida keng tarqalgan bo'lib, ko'p manbalarda uchraydi.

Hasan alAmir o'zining yaqinlari bilan 850 yidsa Samarqandga keladi va u yerda 11-yil yashab, 861-yilda Balxga ko'chadi. Taxminan 865-yildan Hasan alAmir Termizga keladi va shu yerda butunlay o'rinish qoladi. Hasan alAmir va uning yaqinlari Movarounnahrda kelgan paytda somoniylar sulolasining yuksalishi boshlangan edi. Somoniylarning kelib chiqishi masalasida hozirgacha ilmiy doiralarda yagona fikrga kelinmagan. Ba'zi manbalar somoniylarni Termiz bilan bog'laydilar, ularga ko'ra, Somon qishlog'i hozirgi «Namuna» jamoa xo'jaligi hududida joylashgan. Termiz sayyidlarining shajarasini ham shular jumlasiga kirib, Ismoil Somoniyni har-yili Termizga kelishi to'g'risida manbalar aniq xabar beradi. Sayyid Amir Abdullo mamlakat hukmdori Ismoil Somoniyni Mahsuma (yoki Mohisiymo) ismli qiziga uylanadi, ularning farzandlaridan boshlab Termiz sayyidlari Xudovandzoda laqabini oladi.

Termiz sayyidlarining Sulton Saodat nomli maqbara majmuasining ilk poydevori somoniylar davrida qurila boshlagan edi. Sayyidlar jamoasi o'zining alohida boshlig'iga naqibiga ham ega bo'lganlar. Muhammad avlodlari yashagan har bir hududda ularni boshqarib turadigan alohida naqib bo'lgan. X asrgacha barcha naqiblar

abbosiylardan bo‘lib, Alining avlodlari ham ularga bo‘ysunishgan, keyinchalik ular o‘rtasida bo‘linish yuz beradi. Termizda ham sayyidlarning naqibi bo‘lgan, uning vazifasiga huquqiy masalalarni hal qilish va nafaqalarni tarqatish kirgan. Termiz naqiblari orasida eng mashhuri Ali ibn Ja‘far alMusaviydir. Musulmon dunyosining mashhur olimi Abul Fath Muhammad ashShahristoniy asarlari Termiz naqiblariga bag‘ishlangandir.

Muhammad Xorazmshoh davrida (1200–1220) Xorazm davlati Kaspiy dengizining shimoliy sohillaridan Fors qo‘ltig‘igacha, Kavkazdan Hindiqush tog‘larigacha bo‘lgan mintaqani birlashtirib, qudratli davlatga aylanadi. Muhammad o‘zining xalifa tomonidan islom va musulmonlarning sultoni sifatida tan olinishini talab qiladi. Xalifa anNosir (1180–1225) esa Muhammad Xorazmshoh nomini xutbaga qo‘shib o‘qitishdan, ya‘ni bo‘ysunishdan bosh tortadi. Xorazmshoh ham o‘z navbatida anNosirni, umuman abbosiylarni xalifalik hokimiyatining noqonuniy vorislari deb e‘lon qiladi. 1212-yilda Muhammad Xorazmshoh ulamo va imomlarni yig‘ib, abbosiylarni xalifaliqudan mahrum qiladi va Termiz sayyidlaridan bo‘lmish A‘lo ulMulukni xalifa deb e‘lon qiladi.

Termiz sayyidlari xonadoni tarixidagi eng yorqin sahifalar Amir Temur va uning avlodlari bilan bog‘liqdir. Buning sababi, fikrimizcha, sohibqironning piri Shamsiddin Sayyid Amir Kulol ayni A‘lo ulMuluk Xudovandzodaning o‘g‘li bo‘lishi kerak. Piring barcha nomlari sayyidlar xonadoniga mansubligidan dalolat beradi. Shuningdek, uning maqbarasi Termiz sayyidlarining Shahrizabzdagi maqbarasi Gumbazi Sayyidon bilan qo‘shilib ketgan. Amir Temur butun umri davomida sayyidlar xonadonining vakillari bilan chambarchas aloqada bo‘lgan. Sohibqiron hokimiyat uchun kurash boshlaganda ham, eng zafarli kunlarida ham Termiz sayyidlari jahongirning hamrohlari bo‘lgan. «Temur tuzuklari»da A‘lo ulMulukning jiyanlari akauka Hasan va Ziyoviddinlar bir necha bor tilga olinadi. 1370-yilda Amir Temur Balxga ketayotib, Termizda Sayyid Baraka qo‘lidan hokimiyat ramzi nog‘ora va bayroqni olishga muyassar bo‘ladi. Shayxning duosini olib, Amir Temur Balxni o‘z tasarrufiga oladi va Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Amir Temurning taxtga chiqish marosimida A‘lo ulMulukning yettinchi va sakkizinchi o‘g‘illari Abul Ma‘oli va Ali Akbar ishtirok etganlar. 1371-yilda Temurga qarshi uyushtirilgan fitnada Abul Ma‘oli ham ishtirok etadi. Fitna mag‘lubiyatga uchragach, uning

qatnashchilari qatl qilinadi, Abul Ma'oli esa davlat ishlaridan chetlashtirilib, Shahrisabzga ko'chiriladi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida ko'rsatilishicha, Sohibqiron Abul Ma'oliga quyidagicha murojaat qilgan: «Nasabing silsilasi payg'ambar ahli baytiga, unga va ularning barchasiga Ollohning rahmatlari va salomlari bo'lsin, ulanganligi uchun hech qachon biror zahmat g'ubori sening hayoting etagiga qo'nishini ravo ko'rmasin. Lekin sen noloyiq ishlarni tark etmayapsan, maslahatim shu tururki, bu viloyatdan chiqib ketsang». Lekin sayyid tezda kechirilgan bo'lishi kerak, chunki bir-yildan so'ng u Amir Temurning Xorazmga yurishida qatnashadi. Shundan so'ng Termiz sayyidlari avlodlarining qashqadaryodagi xonadoni vujudga keladi, yuqorida eslatilgan Gumbazi Sayyidon ularning oilaviy maqbarasiga aylanadi. Ba'zi manbalarga ko'ra Amir Temurning qizi Sulton Baxtbegim Termiz sayyidlaridan bo'lmish Hasanga nikohlangan hamda qashqadaryo vohasidagi ma'lum bir qism yerlarini kuyoviga vaqf qilib beradi. Abul Hasan bu joyda o'z langariga asos soladi. Langar so'filar makoni bo'lib, Termiz sayyidlari nafaqat Movarounnahrda, balki boshqa joylarda ham langarlar tashkil qilishgan. Masalan, Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' ussa'dayn va majmai bahrayn» asarida yozilishicha, Sayyid Tojiddin o'z langarini Kumulda qurgan ekan. Shuningdek, afg'on qabilalarining diniy rahnamosi Pir boboning asli "ismi Sayyid Ali Shoh atTermiziydir. Umuman, XIV asrda Termiz sayyidlari Movarounnahrning turli joylarida faoliyat ko'rsata boshlaganlar.

1359-yilda Toshkentda mo'tabar shayx Xovand Tohur vafot etadi. Muhammad qozining Xo'ja Ahror hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarida ta'kidlanishicha, shayx Termiz sayyidlaridan bo'lib, Xovand so'zi Xudovandzodaning qisqargani ekan. Bu borada musulmon dunyosida mashhur Xo'ja Ahrori Vali ayni shu Shayxontohurning jiyani ekanligini aloxida ta'kidlash lozim. Amir Temur Termiz orqali o'tganida sayyidlarning uyida mehmon bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, 1399-yil 11-sentabrda va 1404-yil yozida Temur A'lo ulMulukning uyida mehmon bo'ladi. g'iyosiddin Ali tomonidan yozilgan Temurning Hindistonga yurishiga bag'ishlangan asarida A'lo ulMulukning oltinchi o'g'li Alouddin ham tilga olib o'tiladi. Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyida saklanayotgan bu kitobning 1915-yildagi forsha nashrida Termiz Xudovandzodalari Amir Temur va uning qo'shiniga ikki kun to'y berdi, deb ta'kidlanadi.

## Axborot-uslubiy ta'minot

Ushbu mavzuni o'tishda ta'limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda "Aqliy hujum" hamda "SINKVEYN" pedagogik metodlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko'zda tutilgan.

### "AQLIY HUJUM" metodi

**"Aqliy hujum"** metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

**"Aqliy hujum"** metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

"Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

### **“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

- Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
- Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.

*Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.*



### **“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta‘lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta‘lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta‘lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

### **“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:**

- natijalar baholanmasligi ta‘lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta‘lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
  - ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.
- “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:
- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
  - ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

### **Ma'ruza mashg'ulotlarida «Klassik juftliklar» ( «Klassik uchliklar») metodidan foydalanish bo'yicha asosiy o'riqnoma**

#### Ta'rif

Ishtirokchilarga ustiga o'zaro klassik yoki barchaga ma'lum bog'liqlikka ega bo'lgan tushunchalar, odamlar familiyalari, ertak va folklor qahramonlarining nomlari yozilgan (bosib chiqarilgan) kichik kartochkalar tarqatiladi.

Masalan, klassik juftliklar:

Funksiya- jadval

Parabola- giperbola

Elektron – proton

Kenglik- uzunlik

Bissektrisa – burchak

Nyuton- olma

Geyl- Lyusak

Boyl- Mariotta

Klassik uchliklar:

Quyosh-havo-suv

Minus-plyus-modul

Mediana- balandlik- bissektrisa

So'zlar tartibsiz ahvolda bir varaq qog'ozga yozilgan, masalan, plyus, parabola i sh.o'. O'quvchilar shu so'zlar orasida klassik juftlik yoki uchlikni topib, tuzishlari va ana shu bog'liqlikni asoslab berishlari kerak. Mashq ham individual tartibda, ham kichik guruhlarda o'tkazilishi mumkin.

#### Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda.

### Afzalliklari

Ushbu mashq o'quvchilarga maktabda o'rganiladigan fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi, o'quvchilar birmuncha dastlabki ishni bajarishga ulgurgan mavzular o'rtasidagi aloqani o'rganish uchun juda qulay imkon yaratadi.

### Qiyinchiliklar

Tayyorgarlik darajasi kam bo'lsa dars sifatiga ta'sir qiladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimiy tariximizni.
2. Surxon vohasi hudidida oila institutiningtarixan shakllanish evolyutsiyasi.
3. Kushon podshjligi davrida vohada pul munosabatlari.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q., T. «Sharq», 1998.
2. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar., Meros, 1997.
3. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zglasida. T., 2001.
4. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
5. Annaev T. «AlHakim atTermiziy». Toshkent , 1998.
6. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi., Toshkent, «Sharq» 2001.
7. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Hakimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari. T., Leturatura i iskusstvo. 1982.
8. Ibrahimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. T, 1993.
9. Ma'naviyat yulduzlari. T., Xalq merosi, 2001.
10. Murtozaev B, Qodirov B. Chag'oniyon adabiyoti. Yangi asr avlodi, T., 2003.
11. Mualliflar jamoasi. Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni. T. Fan, 2001.
12. Omonturdiev J., Al Hakim at Termiziy ta'limoti. T., Universitet, 2000.
13. Tursunov S.N. Buyuk siymolar. T., Sharq, 2002.

## 6 - MAVZU: XVIXIX ASRLARDA SURXON VOXASI

### Asosiy savollar:

1. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davri.
2. Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida.
3. XIX asr oxirida Surxon vohasi.

### Tayanch soʻzlar:

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida vohaning gi aholining ijtimoiy siyosiy holati va Termiz va Chagʻoniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov bekliklarini qoʻshilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

Amir Temur vorislari oʻrtasidagi oʻzaro toju taxt kurashi, ichki nizolarning jidsiy keskinlashuvi Temuriylar saltanatining inqiroziga sabab boʻladi. Bu esa temuriylarga qarashli yerlarning birinketin dashtiqipchoqlik Shayboniyxon tomonidan istilo qilinishiga olib keladi. Muhammad Shayboniyxon 1499-yildan boshlab Movarounnahr tomon jiddiy harakat qila boshlaydi. U dastlab Movarounnahrning markaziy shaharlari Samarqand, Buxoro va boshqalarni istilo qilgach, harakatini temuriylarning janubiy yerlari tomon davom ettiradi. Temuriylar davlatining boshqa hududlarida boʻlgani singari, bu yerlarda ham mahalliy hokimlarning oʻzaro birbirlarini qoʻllabquvvatlamasligi, ishonchsizliklari shayboniylarga qoʻl keladi.

Shayboniylar istilosi arafasida Termiz va Chagʻoniyonga qoʻshni boʻlgan Balxda Sulton Husayn oʻgʻli Badiuzzamon hokimlik qilar edi. U Termiz shahrini shayboniylarga topshirmaslikka urinib koʻradi. Xuddi shu davrda Hisor va Badaxshon viloyati hokimi Xusravshoh juda kuchli va boy boʻlgan oʻz viloyatining kuchiga yetarli baho bera olmaydi. U temuriy shahzodalarga yordam berish oʻrniga, ulardan qoʻrqadi. 20 ming askar bilan Badiuzzamon Xusravshohni Termizda uzoq kutadi. Xusravshoh bu paytda shayboniylar kelayotganini eshitishi bilan oʻz mulkini tashlab qochadi va oqibatda undan madad kutib turgan Badiuzzamon Termiz shaxrini tark etib, Balxga qaytishga majbur boʻladi.

Shayboniyxon 1504-yili Termiz va Jayhun yoqasidagi yerlarni oʻz qoʻl ostiga oladi va shaharga shayboniylardan Said Muhammad Sulton hokim etib tayinlanadi. Muhim strategik ahamiyatga ega boʻlgan

Termizning qo‘ldan ketishi kelajakda Amudaryoning narigi qirg‘og‘idagi temuriylarga qarashli yerlarning istilo qilinishiga yo‘l ochar edi. Ana shu tariqa bu orada 1505-yili Hisor hech qanday qarshiliksiz Shayboniyxon tomonidan egallab olinadi va shundan so‘ng Bag‘lon, qunduz, Badaxshonlar Mahmud Sulton hamda Mu~ hammad Temur sultonlar tomonidan istilo qilinadi. Xusravshohga tobe bo‘lgan mulklar Shayboniyxon qarindoshlariga taqsimlanadi va Chag‘oniyon esa Maxdiy Sultonga beriladi.

Shayboniyxon vafotidan so‘ng, 1511-yilning-yanvar 1512-yilning-fevral oylarida shayboniy sultonlar Vaxshdagi Puli Sanginda boburiylar tomonidan mag‘lubiyatga uchraydi. Buning natijasida Chag‘oniyon, Hisor Shodmon va qabodiyon boburiylar qo‘l ostiga o‘tadi. Ammo oradan ko‘p vaqt o‘tmay, 1513-yilda boburiylar lashkari shayboniylar sulolasidan bo‘lmish Ubaydulloxon tomonidan quvib chiqariladi.

Balx va Jayhun daryosining o‘ng sohilidagi yerlarga XVI asrning 20yillarida boburiylar tomonidan doimiy ravishda xavf solib turilgan. Pirmuhammadning amalga oshirgan ichki hamda tashqi siyosati tufayli XVI asrning 4060-yillarida Termiz va Chag‘oniyonda ma‘lum bir davr osoyishtalikka erishilgan edi. Ammo Buxoro va Balx o‘rtasidagi muhim harbiy istehkom bo‘lgan Termiz shayboniylar va ularning Balxdagi gumashtalari o‘rtasida teztez yuz beradigan janjallar tufayli o‘zaro kurash-maydoniga aylangan edi. Shayboniylar saltanatining yirik arboblaridan biri sanalgan Abdullaxon ham hokimiyatni mustahkamlashda Termizning strategik mavqeiga alohida e‘tibor qaratadi. Uning 1572-yil-mayiyun oylarida Termizni egallash uchun olib borgan kurashi bunga misol bo‘ladi. Hofiz Tanishning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, Termiz hokimi etib Abdullaxonning amakivachchasi Maxmud Sulton tayinlangan edi.

Daryo qirg‘og‘idagi ko‘hna Termiz qal‘asi o‘zbeklar Hukmronligi davrida ham mavjud edi. Bu davr haqida Hofiz Tanish Buxoriyning 1572-yili yozilgan ySharafnomai shohiy» («Podshohni sharaflovchi kitob») asarida Termizning topografik o‘rni, shahardagi binolar, osoriatiqalari, xalqning etnik tarkibi xususida ma‘lumotlar beriladi. O‘sha paytda Termiz Abdullaning dushmani Balx hukmdori Dinmuhammadga bo‘ysunardi. Abdullaxon Termizni qamal qilishdan oldin Hakim atTermiziy va Abu Bakr Varroq mozorlarining shayxlarini yoniga chorlab, ularni maxsus sovg‘alar bilan siylaydi.

Termiz va uning atrofidagi yerlar XVII asrda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i qo'liga o'tadi. Bu davr haqida balxlik yirik tarixchi Maxmud ibn Vali o'zining «Baxr ularsor fi manoqib alahyor» («Olijanob kishilar haqida sirlar dengizi») asarida Termiz to'rtinchi iqlimdan va Movarounnahrning yirik shaharlaridan biri ekanligini, uning mustahkam devorlari Jayhun qirg'og'ida qad ko'targanligini, darvozasi ham daryo tomonda ekanligini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, shaharda qishloq va mahallalar qo'p bo'lgan. Surxondaryoning shimoliy qirg'og'ida joylashgan, asli nomi Solihobod bo'lib, mahalliy xalq tilida Salavot deb yuritilgan mavze shaharning eng muxim manzillaridan hisoblangan. Salavot XVII asr boshlarida ham mavjud bo'lgan Chingil ariq (Jingil ariq) qishlog'i bilan yonmayon joylashgan. Salavot hukmdorning qarorgohi bo'lgan, unda bozor, madrasa va juma masjidi hamda baland minoralari alohida holda ajralib turgan. Yana Mahmud ibn Valining ta'kidicha, viloyatda bog' va ekinzorlar kam uchraydi, yeri qumloq bo'lganligidan iqlimi issiqdir, bu yerda g'alla va qovun yaxshi yetiladi.

O'z davri siyosiy-maydonida yirik mavqe va maqomga ega bo'lgan Abdullaxon 1584-yili Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarni, jumladan, Termiz shahrini o'g'li Abdulmo'minga in'om etadi. Buxoro taxtini 1601-yili egallagan joniy (ashtarxoniy)lar Chag'oniyon yurtida o'z hukmronligini o'rnatib, unga shayboniy Jonibek Sulton avlodi Muhammad Salim Sulton hokim etib tayinlanadi. Termiz hokimi va qal'a kutvoli amir Odilbiy joniylarga bo'ysunmaslikka harakat qilib, qarshilik qo'rsatadi. Boqi Muhammad 1602-yilning bahorida Termiz va Chag'oniyondagi qarshiliklarni bostirib, bu yerlarni Joniylar davlatiga tobe qiladi. Xullas, XVII asrdagi o'zaro urushjanjallar Termizning qadimiy rivoji va mashhurligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Shahar 1646-1647-yillarda hatto boburiylar sulolasidan bo'lmish hind shahzodasi Avrangzeb tomonidan istilo qilinadi va boshqariladi. Keyinchalik musulmon hind sarkardasi Saodatxon tomonidan Termiz qayta istilo qilinib, talanib, vayron etiladi.

Ashtarxoniyalar davrida o'zbek urug'larining o'zaro raqobati natijasida markazning ta'siri pasayib boradi, alalxusus, 1702-yili Ubaydulloxon hukmronligi davrida markaz bilan mahalliy hukmdorlar kurashida Termiz hokimi katta mavqega ega edi. qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan Sheralixon o'zining ittifoqchilariga tayanib Ubaydulloxonga bo'ysunmay qo'yadi. Sheralixonning niyati shayboniylar va

ashtarxoniyalar davridagi o'zaro kurash iskanjasida tanazzulga yuz tutgan Termizni qayta tiklashga urinib ko'rish edi. Ammo bu urinishlar natija bermagach, SHERALIXON o'z mulki doirasida qal'a qurdiradi va unga Sherobod nomini beradi. Ashtarxoniy Ubaydulloxon bo'lsa, Muhammad Rahimbiyning maslahati bilan Termiz hokimligiga nayman urug'idan bo'lgan Ne'matullo to'qsaboni tayinlaydi. SHERALIXON bu orada Ne'matulloning Termizga kelishini kutmasdan Sherobod qal'asiga ketib qoladi. Ana shu qo'ng'iroq urug'ining umumiy yig'ilishida aniq bir fikrga kelisha olmaslik tufayli, bu qavm axdi ikkiga bo'linadi: ularning bir qismi SHERALIXONNI yoqlab Sherobodga ketishadi, qolganlari o'z joylari Termizda qolishadi.

Termiz shahri o'z tarixining eng qora kunlarini boshidan kechirayotganda vohada yangi markaz shakllana boshlaydi. Keyinchalik Buxoro amirligining yangi hududiy birligi Sherobod bekligi tashkil qilinadi. Xudsi shu davrda Chag'oniyon (Budrach)ning batamom tushkunlikka yuz tutishi oqibatida qizilsuvning yuqori Havzasida yangi shahar Dexi nav (Denov yangi qishloq) shakllanadi.

Surxon vohasidagi siyosiy hayot XVIII asrning birinchi yarmidan boshlab mang'itlar sulolasi bilan bog'liq holda kechadi. Bu davr tarixchisi Muhammad Vafo ma'lumotlariga qaraganda, mang'itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahimxon vohaga uch marta yurish qilgan. Birinchi jang Pashxurd qishlog'i atrofida yuz beradi, ikkinchi yurishda Muhammad Rahimxon Sherobod qal'asini egallab, 3 ming ot, 500 tuyaga ortilgan qimmatbaho mollar va 20 ming tillo tangani Buxoroga olib ketadi. Surxon sarhadlariga qilingan qurolli harakatlar bu bilan to'xtab qolmaydi, balki Rahimxon boshchiligidagi qo'shin 1757-yilning ramazon oyida uchinchi marotaba bu yurtga yurish qiladi. Bu yurish Denov aholisining xon zulmiga qarshi ko'tarilgan isyoni tufayli sodir bo'lgan edi. qo'zg'olon Rahimxon boshchiligidagi 40 ming kishilik qo'shin bilan shafqatsizlarcha bostiriladi.

Mang'itlar sulolasi hukmronligi-yillarida Surxon vohasi to'liq Buxoro amirligi tarkibiga kiradi. Ma'lumki, Buxoro amirligi tarkibiga Sharqiy Buxoro va g'arbiy Pomir tumanlari kirib, qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar mamlakat edi. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lgan ulkan hududga ega amirlikning ishlovga yaroqli yerlari kam edi.

Buxoro amirligida qishloq xo'jaligi va chorvachilikning rivojlanishi natijasida chorva mahsulotlarining narxi ham unchalik yuqori bo'lmagan.

Masalan, chorva mollari sotiladigan eng katta bozor Mirshodiga Buxoro amirligining turli joylaridan va JanubiSharqiy Tojikistondan mollar keltirilgan. Mirshodi mol bozorida Markaziy Osiyoning barcha taraflaridan kelgan savdogarlarni uchratish mumkin edi. Mirshodi bozorida chorva mollari quyidagi narxda sotilgan: qo'y 20, 30 tanga, echki 15, 20 tanga, yirik shoxli mol (qoramol) 40, 100 tanga, ot 120G 150 tanga, yaxshi boqilgan sog'lom tuya 250, 300 tanga.

Buxoro amirligidagi arzon narx tufayli Buxoro, qarshi, g'uzor, Yurchi, Denov, Sherobod savdo yo'llarida 8 ming tuyagacha bo'lgan karvon bilan savdogarlar yurishgan. Buxoro qayiqlarining Amudaryoda yurish qatnovi XIX asrning 80yillaridan boshlanadi, bunda Termizning aloxdda o'rni bor. Har bir qayiqsa 120 pudgacha bug'doy ortib tashilgan. Bug'doy narxi ham uncha yuqori bo'lmagan, masalan, 1 botmon bug'doy 15 tanga; guruch 22 tanga; arpa 8 tanga atrofida baholangan.

Buxoro xonligi davrida Termiz va Chag'oniyonning shahar va qishloqpari hayotida ma'lum ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Surxon vohasining markaziy shahri XVI asrda ham Termiz hisoblanar edi. Mahmud ibn Vali «Bahr ulasror» asarida Termiz shahri haqida shunday yozadi: «U Jayhun daryosi yoqasida joylashgan va mustahkam devor bilan aylantirilgan. Janubiy tomoni Jayhundan yuqori ko'tarilgan, darvoza ham shu tomonda, shahar atrofida qishloqlar juda qo'p. Ulardan eng kattasi Salavotdir, u yerda hokimlar qarorgohi bor, bozor, madrasa, katta Jome' masjidi va baland minora bor».

So'nggi o'rta asrlarda ham Termiz va Chag'oniyonda me'morchilik qurilishlari davom etadi. Bu davr me'morchiligida mahobatli inshootlar qurishga intilish g'oyasi ko'zga tashlanadi. Kokiddor ota xonaqosi va Sayyvd otaliq madrasasining baland peshtoqli ko'rinishga ega ekanligi, Bandixonsoyda qurilgan Iskandar ko'prigi shayboniylar davri Zarafshon vohasida qurilgan suv ayirgichga aynan o'xshashligi, Sulton Saodat maqbarasi majmuasining g'arbiy tarafdagi maqbara peshtoqida yulduzsimon tillakor qoshik va islamiy yozuvlarning qo'llanilishi bundan dalolat beradi.

Bu davr me'morchilik yodgorliklari sirasiga bekliliklar qo'rg'oni ham kiradi. Beklik qarorgohlari hisoblangan qo'rg'onlar tabiiy tepaliklar, xushmanzara va suv manbalariga serob joylarda qurilgan. Bunga Sherobod bekligi qo'rg'oni yorqin misoldir. Baland tabiiy tepalik ustida bunyod etilgan ichki qism inshootlari tashqi tarafdin uch qator devor bilan muhofazalangan. qo'rg'on markaziy qismida bek xonadoni, uning

eng baland joyida mexmonxona joylashgan, qo'rg'onga pillapoya orqali yon tomoni kungurali ustun bilan muhofazalangan darvozadan kirilgan.

Shuningdek, ko'plab karvonsaroylar ham o'lkaning tog' hududlarida va voha qismlarida qurilgan. Bunga Ko'hitangdagi g'uzor Kalif savdo yo'lidagi rabot, Termiz Ayvanch karvon yo'lidagi Xotinrabot karvonsaroylari misol bo'la oladi. So'nggi o'rta asrlarda Termiz va Chag'oniyonning chekka o'lkalarga aylanib qolishi nafaqat iqtisodiy hayot, balki ilmfan va adabiyotning rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

**Denov bekligi.** Arxeologik topilmalar Dexnav (xalq tilida Denov goho Deynov) qal'asining XVI asrga oidligini, uning mustahkam qo'rg'ondan iborat bo'lganini tasdiqlaydi. Dehnav (Yangi qishloq) qal'asi qurilishi jihatidan murakkab me'morlik obidasi hisoblanadi, uning chor atrofida himoya inshooti sifatida maxsus chuqur xandaklar qazilgan. qal'aning diametri (umumiy aylanasi) 110 m bo'lib, u qalin devorlar bilan o'ralgan, bularning barchasini qal'a qoldiklari o'rnida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Dehnav XVII–XVIII asrlarda Buxoro amirligi tarkibidagi rivojlangan shaharlar ichida karvon savdosining markazlaridan biri bo'lgan. Shaharda hunarmandchilikning yuzdan ortiq turi, ayniqsa ko'ncham tayyorlash, etikdo'zlik, to'quvchilik, zardo'zlik, qandolatchilik, o'yinchoqsozlik va boshqalar yaxshi rivojlangan edi. Denov Surxondaryo vohasidagi eng qulay geografik hududda joylashgan bo'lib, aholisi o'ta mehnatkash, tuprog'i hosildor, iqlimi dehqonchilik qilish uchun qulay, buloqlari va daryolari suvlarga serob bu mintaqa sarhadlari Hisor tog' qo'ltiklarigacha cho'zilgan iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan maskan edi.

Denov XVI–XVII asr o'rtalarida Buxoro amirligining Hisor hokimligi mulki hisoblangan. Denov Buxoro amirligining eng chekka o'lkasi va bekligi edi. D.N. Logofetning yana yozishicha: «Denov Hisor o'lkasidagi eng yirik shahar bo'lib, u astasekin o'z qaddini tiklab borgan. Denov qal'asi qayta tiklanmay, baland devorlar bilan to'silgan shahar aholisi daryo bo'ylab, qizilsuv yoqalab, Surxondaryo tomonga qarab siljib borgan». Sharqshunos B.N.Litvinovning yozishicha, «Denov aholi ko'p yashaydigan yirik shahar bo'lib, unda katta madrasa va masjid faoliyat ko'rsatgan, bu madrasalarda Samarqanddan kelib ta'lim olishgan».

**Boysun bekligi.** Boysun bekligi tog‘ mintaqasidan iborat bo‘lib, uning markaziy shahri Boysun tog‘ etagida joylashgan va ikki tomoni baland tog‘lar bilan o‘rab olingan. Boysun shahri so‘lim go‘sha va u shimolisharqiy tomondan janubig‘arbga qarab yo‘nalgan quyi tog‘ tekisligidagi maskandir. Agar ko‘hna tarixga nazar tashlasak, mil. avv. I asr va milodiy I asrlar oralig‘ida hozirgi Boysun shahri o‘rnida Poikalon (Poyi kalon) nomli mustahkam qal‘ashahar bo‘lganligi e‘tirofini topgan. **VIXIII** asr boshlarida Boysun o‘rnida Chag‘oniyon shaharlaridan biri Basand mavjud edi. Abu Is‘hoq Istaxriyning «Kitob masolik va almamolik» («Mamlakatlar yo‘llari to‘g‘risida kitob»)ida ham ushbu maskan atamasi Basand deb ta‘riflanadi. «Hudud alolam»da «Basand ko‘p sonli va jangovar aholi yashaydigan mustahkam joydir», deb qayd etilgan. Basand Chag‘oniyon markazidan Temir qopuq orqali Samarqandga boradigan savdo yo‘li ustida bo‘lib, arxeologik manbalarga ko‘ra, Basandda hayot ilk o‘rta asrlardan mo‘g‘ullar istilosigacha davom etgan. Mo‘g‘ullar bosqinidan vayron bo‘lgan shahar keyinroq qayta tiklanadi va Chig‘atoy ulusi tarkibiga mansub ko‘chmanchi turkiy qavmlar unga «Boysun» deb nom beradilar.

«Boysun» atamasi tarkibida «boy» va «sin» birikmalari bo‘lib, ular manbalarda «ulug‘ tog‘» yoki «katta tog‘» ma‘nolarini anglatishi gapiriladi. qadimiy turkiy qavmlarda turli tabiiy narsalarga sig‘inish bilan birga toqqa sig‘inish ham mavjud bo‘lib, tog‘lar muqaddas sanalgan. Mahalliy rivoyatlarga ko‘ra, bu yerda qadimdan turkiy qavmlarning davlat kishilari yashagan bo‘yaib, «Boysun» atamasi boylar qishlog‘i ma‘nosini anglatgan. Boysun haqida «Zafarnoma» asarida to‘xtalib o‘tilgan. XIX asrda Boysun Surxondaryodagi 3 ta beklikdan biri bo‘lib, unda badavlat o‘zbek aholisi yashagan. Katta tarixga ega bo‘lishiga qaramasdan Boysunning o‘rta asrlardagi tarixi, XVII, XVIII, XIX asrlardagi faoliyati biz uchun noma‘lum bo‘lib qolgan edi. Sharqshunos N.A. Maevning yozishicha: «Boysun eng qadimgi shaharlardan biri bo‘lib, qadimgi shahar qoddiqpari, modsiy madaniyat manbalari vayron qilib tashlangan, qimmatbaho tarixiy ashyolar bunga misol bo‘ladi».

**Denov va Sherobod bekliklaridagi xalq g‘alayonlari.** XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining Denov va Sherobod beklik (1885-1886)larida yirik dehqonlar qo‘zg‘oloni bo‘ladi. Dehqonlar zakot va chorvadan olinadigan soliqqa norozilik bildiradilar. 1868-yili Buxoro amiri Muzaffarxonga (1855–1885) qarshi Denovda yirik xalq harakati bo‘lib o‘tadi, natijada qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostiriladi.

Turli xil soliqlar haddan ziyod kuchayib, mahalliy amaldorlarning xalqqa jabrzulm qilishi kuchayib boradi. Sherobod begi Sodiqbekbiy va qozi mulla Abdurahimning tan „, olishicha, narxnavo nihoyat darajada yuqori edi. 1 mann bug‘doy 18 tanga, 1 qo‘y 12 tanga baholangani, oradan bir hafta o‘tib 1 mann bug‘doy 26 tangaga, 1 qo‘y 21 tangaga narxi ko‘tarilganligi tan olingan. Buxoro amirligi qushbegi maxkamasi hujjatlarida Denov bekligi soliq xarajatlari hosil yig‘imiga nisbatan 15 foiz yuqori belgilanganligi, Sherobod bekligida 5 mann bug‘doydan 1 mann beklilik foydasiga olinib, hosilning 5 dan 1 qismi beklilik xazinasiga topshirilgani, umumiy xarajatning 10 foizi beklilik manfaatlariga yo‘naltirilgani natijasida xalqning ahvoli nihoyatda qashshoklashib qolgani ta‘kidlangan.

Denov va Sherobod bekliliklarida XIX asrning 80yillaridagi soliq turlari qushbegi hujjatlarida alohida belgilangan bo‘lsada, soliqqa bexlar tomonidan ma‘lum o‘zgartishlar kiritilgan. Bular bog‘ solig‘i, meva solig‘i bo‘lib, 1 tanob yer 18 tanga miqdorida belgilab qo‘yilgan. Sherobod tumanida bog‘ va chorbog‘lardan olinadigan soliq 1 tanob yer uchun 13 tanga, 1 tanob beda uchun 6 tanga, 1 tanob poliz mahsulotlari uchun 12 tanga qilib belgilangan. Biroq amlakdorlar o‘z huquqlaridan foydalanib, qushbegi hujjatlariga amal qilmasdan 1 tanob bog‘dan 26 tanga, 1 tanob bedadan esa 12 tanga soliq olganlar. Soliklarning turi XIX asrning 5080-yillarida haddan ziyod ko‘payib, qo‘sh puli, kapsan solig‘i kabi soliqlar amadda bo‘lgan. Har bir botmon hosil uchun 1 ming pud (32 funt) va chorak hisobidan soliq olingan. XIX asrning 80-yillarida Sherobod bekligida har 10 botmon hosildan 5 grabl bug‘doy (yer solig‘ining bir turi ekin ekilishdan oldin olingan) solig‘i olingan. 5 grabl bug‘doy (5 pud bug‘doy) har 10 botmon bug‘doy hosilidan olingan. Eng achinarlisi shuki, belgilangan soliqsan 10 barobar ko‘p soliq olinganligi o‘sha davr hujjat va manbalarida tasdiqlangan. Buxoro amirligining sharqiy bekliliklarida va qishloklarida XIX asr oxirida darug‘ona, ya‘ni mahalliy beklilik va uning atrofidagi amaldorlar uchun yig‘ib olinadigan soliqlar xisobidan zakot olingan. Bu soliq Sherobod bekligida 100 ming tanga, Denov bekligida 75 ming tanga, Sho‘rchida 50 ming tanga hisobidan yig‘ib olingan. Sherobod, Boysun va Denov bekliliklarida XIX asrning ikkinchi yarmida o‘tin puli, qamish puli, suv puli, cho‘p puli, to‘y puli, dallol puli, murob puli, amina puli kabi turli xilda soliq turlari bo‘lgan. Bundan tashqari so‘yish puli, ya‘ni 1 qo‘y 20 tanga, 2 echki 28 tanga hajmida belgilangan.

Shuningdek, mahalliy boy oqsoqollar mehmon ramzi uchun mushtak solig'i har bir dehqon olgan hosildan 1 chora (2 kg) hosil solig'i berganlar.

Sharqiy Buxoro bekliliklarida maktab puli alohida ajratilib, otaonalar farzandlarining o'qishi uchun o'qituvchilarga qushbegi hujjatlari asosida 1520 tanga to'lashi qayd etilgan. Sherobod begining maktablar bo'yicha boshlig'i mulla Mansur maktab pulini har oyga 20 tanga hisobiga belgilagan. Bu esa o'sha davrda faqatgina amaldor boy yoki faqat oqsoqollarning bolalarini o'qitish uchun imkoniyat yaratgan edi. O'z navbatida bekliliklarning ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy mudofaa qobiliyatlarini mustahkamlash uchun turli xil soliklar yig'ib olingan. Masalan, ariq puli, tegirmon puli, -maysa puli, andoz puli va hashar yig'imi bularga misol bo'la oladi. Sherobod bekligi mullasi Imomiddin amirga yozgan arznomasida Sherobod begi va amlakdorlar xalqqa haddan tashqari zulm o'tkazayotganligi va hashar nihoyat darajada ko'payib ketganligini qayd etadi. Soliqlar ichida xarajat puli amirlik va beklilik ishlariga jalb qilingan, ya'ni sug'orish inshootlarini qayta ta'mirlash ishiga 12 tanga hisobida soliq to'langan. Yo'llarni ta'mirlash, suv qirg'oklarini ta'mirlash uchun 11 tanga hisobida soliq olingan. Bekliklar har bir hovli yo'ldan foydalanganligi, yuk tashiganligi, ko'mir yoqqanligi, un tashiganligi va boshqa xil ishlar uchun belgilangan soliklar to'lab borgan. 1885–1886-yillarda Sherobod begining qozisi mulla Imomiddin Buxoro amiriga yozgan xisobotida Sherobod begi Sodiqbek o'zining o'g'illari va akaukalariga amlakdorlik mansablarini bo'lib berib, bog'larni va ekin-maydonlarini o'z ixtiyorlariga olib qolayotganligini yozgan edi. Soliqlar hisobidan yig'ilgan molmulkni Sodiqbek o'z ixtiyoriga o'tkazganligi hodisalari ham hisobotda qayd etilgan. Shuningdek, qozi mulla Imomiddin axborotida 4 mann bug'doy solig'i o'rniga Sherobod begi Sodiqbek mutlaqo tap tortmasdan o'zboshimchalarcha 8 mann bug'doy soliq olishni qo'llayotganligi ham o'z aksini topgan. Bundan tashqari qushbegi hujjatlarida qayd etilgan boshqa soliq turlari ham belgilanganidan ko'p olinishi axborotda aytib o'tilgan edi. Ushbu arznomani tasdiqlaydiganlar: Do'styor hoji, Ne'mat oqsoqol, Muhammadqul, Began oqsoqol, Abdurahmon, Said Muhammadboy va boshqalar. Axborotnomaning natijalari qushbegi nazorattekshiruv davrida soliq olish va yuritish ishlari buzilganligi, belgilangan har bir tanob yerdan olinadigan soliq yuqori bo'lganligi, amlakdorliklar tomonidan xalqni talash kuchayganligi tasdiqlangan. .

Ijtimoiysiyosiy va iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar adabiyotda ham o‘z aksini topa bordi. Bu davrda ham boshqa davrlarda bo‘lgani kabi Termiziy taxallusi bilan ko‘plab shoirlar samarali ijod qildilar. quyida ulardan ayrimlarining ijodi bilan tanishamiz.

**Umar atTermiziy asSo‘fiy** (1454-yilda vafot etgan) yirik tasavvufchi olimlardan.

**Mavlono qudsiy Termiziy Mahjub** darveshlik tariqati yo‘lini tutib, tanholikda umr kechirgan, she‘riy devoni bor. XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab ijod etgan. Hasanxoja Nisoriy «Muzakkiri ahbob»da shoirdan bir qsh’a keltiradi.

**Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo Termiziy.** XVII asrning 30yillarida tug‘ilib, XVIII asrning 30yillarigacha yashab, 100-yildan ortiqroq umr ko‘rgan. Zamondoshlari Mirzo Yusuf va Maleho Samarqandiy tomonidan olovqalb, o‘tkir tilli adib deb ta’riflangan Xoja Samandar Termiziy o‘z zamonasida ma’naviyat dasturini targ‘ib etgan taniqli allomalardan biri bo‘lgan. Zotan, taxallusi Samandar bo‘lgan, taxallusining tushunchasi esa uning ruxiyatiga monand ekanligidan dalolat beradi. Uning zamondoshlari adibni afsonalarda olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashagan Samandarga o‘xshatadilar. Haqiqatda adibning «Dastur ulmuluk» («Podshoxlarga qo‘llanma») asarini o‘qir ekanmiz, uning olimona ruhiyat sohibi, ma’naviyat targ‘ibotchisi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U 1695-yilda yozilgan «Dastur ulmuluk» asarining xotimasida shunday deb yozgan edi: «Iltimosim shuki, agar o‘zining go‘zal, dilbar mazmuni bilan hammaning nazarida jilva qila olsa, buning shoxidi bo‘lgan odam butun jonidili bilan uni ko‘rishga va o‘qishga havas qilsa, unda o‘qishga rag‘bat uyg‘ota olsa, asar muallifini «qur‘on»ning onasi yoqimli «Fotiha» surasini o‘qib yod etinglar».

Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo Termiziy o‘zining jo‘shqin ruhiyat soxibi ekanligini uzoq-yillar darvish sifatida mashriqu mag‘ribni kezib chiqib, juda katta tajriba hosil qilganidan keyin, nihoyat «Dastur ulmuluk» asarini yozib, quyidagicha ifodalaydi: «Mening ruxiyatimda o‘ziga xos, xuddi oshiqma’shuqlar olovli ehtiros ila birbirlarini sevganlaridek, jo‘shqinlikni, serg‘ayratlikni sevish, unga intilish odati bor edi». Olloh Xoja Samandarga nasib etgan bunday mujdalardan biri «Dastur ulmuluk» asari bo‘lib, u 22 fasldan (fasllarning nomlanishi nisbiy bo‘lib, bir faslning ichida ikkinchi bir faslning nomi bilan

bog‘liq bo‘lgan xikmatlar ham bor) iborat. Shuningdek, u axloqiyta’limiy va jangnoma janrida yozilgan badiiytarixiy an’anaviy asardir.

**Abdulloh Termiziy** (1627-yili vafot etgan) shoir va xattot, Vasfiy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Asli termizlik, Hindistonga ketib Jahongir (1605–1627) saroyida yashagan. Bir qancha nazmiy asarlari mavjud. Hindistonda vafot etib, Agra shahrida dafn etilgan.

**Mir Muhammad Taqiy Termiziy** 1746-yilda tug‘ilgan, otasini Mirali Rizo Balgiromiy<sup>^</sup>deyishgan, demak, shoir Xurosonning Balgirom shahridan ekan. Bo‘lajak shoir o‘z otasqsan tahsil oladi, u Taqiy taxallusida she’rlar bitgan, davrining bilimlaridan boxabar shaxs hisoblanadi. Shoir otasining naslnasabi termizlik sayyidlar avlodidan bo‘lgani bois taxallusi yoniga Termiziy nisbasini qo‘shib ishlatgan. Mir Muhammad shoirning ismi, Taqiy adabiy taxallusi, Termiziy deyilishi shoir ajdodlarining kelib chiqishi termuzlik sayyidlarga borib taqalishi bilan izohlanadi. Mir Muhammad she’riyatni, nazmni jonidan ortiq sevadi, kitob mutolaasiga ko‘p vaqtini sarfladi. Oqibatda o‘zi ham ko‘zga ko‘ringan shoir bo‘lib yetishadi va she’rlarini jamlab she’riy devon tuzadi. Shoir Tak<sup>^</sup>sh haqidagi ma’lumotlar Husaynqulixon Azimobodiyning «Tazkirayi nashtari ishq» asarida uchraydi. Tazkirada Taqiy she’rlaridan bitta ruboiy va bitta fard misol tariqasida berilgan.

**So‘fi Olloyor** XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asrning birinchi choragida yashab ijod qilgan. So‘fi Olloyor umrining bir qismi Chag‘oniyon mavzellaridan biri Vaxshivor bilan bog‘liq bo‘lib, shoirning «Sabot ulojizin» asari shu joyda yaratilgan.

**Masiho ibn qozi Mullo Muntahoyi Boysuniy** XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, davrining yetuk xattotlaridan, san’atkor shoirlar toifasiga mansub. Shoirning «Ra’no va Zebo» dostoni bor, ismi Masiho va taxallusi ham Masihodir, o‘z ismini adabiy taxallus sifatida qo‘llagan. U haqda qori Rahmatullo Vozeh (1817–1894) «Tuhfatul ahbob fi tazkirat ul as’hob» («Do‘stlar tuhfasini va suhbatdoshlar zikri») tazkirasida ma’lumot berib o‘tadi: «Masiho, qozi Mullo Muntahoyi Boysuniyning farzandi, ismini taxallus qilib oldi, Buxoroning mashhur xattotlaridan, nasta’liq xatini yaxshi yozar edi. Boysun shahri qozilari avlodiga mansub». Vozeh yana davom etib yozadi: «Mahfiloro» kitobidan «Ra’no va Zebo» hikoyatini masnaviy tarzida nazmda yozdi».

«Mahfiloro» turkman adibi Barxurdor Faroxiy (XVII asr)ning qalamiga tegishli nasriy asar, uning tarkibida Sharq xalqlarining ko‘plab

hikoyatlari jamlangan, Mirzo Masiho ana shu asardan «Ra'no va Zebo» hikoyatini nazmga soladi. «Ra'no va Zebo» katta hajmdagi doston, u to'rt yarim ming baytdan iborat va 1882-yili shoirning o'zi tomonidan ko'chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Mirzo Masihoga «Mahfiloro» tarkibidagi «Ra'no va Zebo» hikoyati yoqib qoladi.

Shoir Masiho Buxoro amirlari Nasrullo (1826–1860) va Muzaffar (1860-1885)lar hukmronligi davrida yashab ijod egan. U otasi Muntaho vafotidan so'ng Boysun qoziligi vazifasini bajarishga kirishadi, albatta, bu vazifa yuksak mas'uliyatni taqozo etar edi. Boisi ish yuzasidan shoir turli tabaqa vakillari bilan uchrashar, u xoh kambag'al, xoh boy bo'lsin, hukmning adolatli bo'lishi shart edi. Chunki, qozining ishi doimo kishilarning yumushini to'g'ri hal etib berishga qaratilmog'i lozim.

XVIII asrning birinchi yarmida davom etgan o'zaro urushlar va qo'zg'olonlar Buxoro amirligini talontoraj qilib qolmasdan, balki mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratini ham pasaytiradi. XIX asr boshlariga kelib yagona xonlik o'rnida Buxoro, Xiva, qo'qon xonliklari tashkil topadi. Mamlakatning parchalanishi O'rta Osiyoga chor Rossiyasi mustamlakachilarining kirib kelishini ancha osonlashtiradi. Chor hukumati O'rta Osiyoga inglizlarning kirib kelishining oldini olish uchun dadil harakatlar boshlaydi. Ayniqsa, Buxoro amirligining janubiy sarhadlari, xusu % san, Termizni egallashga alohida e'tibor beradi.

Rossiyaning Turkistonga istilosi arafasida Surxon vohasi Boysun, Sherobod va Yurchi bekliklaridan iborat bo'lib, bu zamin Buxoro amirligining «Sharqiy yerlari» yoki Sharqiy Buxoro deb atalgan. Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1873-yil 28-sentabrda shartnoma tuziladi. Shartnoma 17 moddadan iborat bo'lib, uning 3moddasida: «Buxoro amirligiga qarashli Amudaryo qismida Buxoro kemalari va rus paroxodlari, shuningdek, boshqa flot kemalari qatorida hukumat hamda shaxsiy kemalarga erkin suzishga ruxsat beriladi» deyilsa, 4moddasida: «Kerak va qulay bo'lgan Amudaryoning Buxoro qirg'oqlarida ruslar o'zining to'xtash joyi va tovar omborlari qurishga haqlidir», deb yozilgan edy.

1888-yil 23-iyunda imzolangan qo'shimcha shartnomaga binoan uning moddalari qayta ko'rib chiqiladi va rus fuqarolari Yangi Buxoro (hozirgi Kogon), Chorjo'y, Karki shaharlarida yashashlari mumkin, deb topiladi. Buvdan tashqari mazkur protokolga ko'ra, asosan Amudaryo qirg'okdari bo'ylab rus manzilgoxdari barpo etish ko'zda tutiladi. Xuddi shu vaqtda Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashib ketadigan

Pattakesar qishlog'i yonida ruslar istiqomat qilishi uchun yashash joylarini barpo etish boshlangan edi.

Bu davrda qadimgi Termiz atrofida uncha katta bo'lmagan, ya'ni taxminan 1257 kishilik aholiga ega Pattakesar va Solihobod qishloqlari borligi qayd etiladi. 1893-yil 15-yanvardagi RusBuxoro shartnomasiga binoan Termiz shahri Rus podshosiga «sovg'a sifatida in'om etiladi». Shundan keyin bu yerga 7 chegara okrugiga kiruvchi rus harbiy qismlarini joylashtirish ishlari boshlab yuboriladi. 1894-yilda Termiz qal'asi qurilishi va unda rus qo'shinlarining joylashtirilishi tufayli Termizda telegraf liniyalari tortiladi. Chor Rossiyasi Chorjo'y, Buxoro, qarshi, Termiz, Kalif garnizonlari bilan aloqa yo'llarini tiklaganlari holda uning Buxoro amirligi uchun zarurligi bilan mutlaqo qiziqmaydilar. Natijada Buxoro amirligining savdosotiq yo'llari astasekinlik bilan bo'lsada, izdan chiqa boshlaydi. Amudaryo soxilida rus harbiylari qal'asining qurilishi munosabati bilan chor hukumati 1900-yilda Termiz Samarqand yo'lini ta'mirlaydi.

1894-yil 24-iyulda chor Rossiyasining siquvi hamda Buxoro amirligining Bojxona ittifoqiga qo'shilishi, bilan Termizni rus harbiy manzilgoxlaridan biriga aylantirish ishlari yanada tezlashib ketadi. 1894-yil : dekabr oyi boshlarida Amudaryo chegara qorovulligi G' brigadasi tuzilib, u Karkidan Iola qishlog'igacha . bo'lgan joylarni nazorat qilishi belgilab qo'yiladi. Shu vaqtning o'zida Karki, Kalif, Pattakesar, Ayvonch, Saroy bojxona punktlari va Chubek hamda Bog'ariq o'tish chegara joylari ham tashkil etiladi. 1894-yil 12-dekabrda Termiz xarobalaridan 8 km narida Surxondaryoning Amudaryoga quyilish irmog'ida kema to'xtashi uchun qulay bo'lgan Pattakesarga 31Amudaryo chor harbiy chegara qo'shinlari kelib joylashadi. Chor qo'shinlari Pattakesar qishlog'iga kelib tushib daryodan 2 km yuqorida qal'a quradi, tub yerlik aholi unga «Tuproqqo'rg'on» deb nom beradi. Pattakesarga kelgan chor qo'shinlari besh yo'nalish bo'yicha kuzatuv nazoratini o'rnatishadi, ya'ni: 1) Sho'rob kuzatuv punktiga 10 otliq, 10 piyoda, 2 erkin yollangan harbiy; 2)-maymunto'qay kuzatuv punktiga 9 otliq, 10 piyoda va 2 yollangan harbiy; 3) Orol (Payg'ambar oroli) kuzatuv punktiga 6 otliq, 2 ta piyoda va 1 ta erkin yollangan harbiy; 4) Patgakesar kuzatuv punktiga 9 ta otliq, 11 ta piyoda va 3 ta yollangan harbiy; 5) Ayritom kuzatuv punktiga 8 ta otliq, 8 ta piyoda harbiy joylashtiriladi.

Amudaryo brigadasi qarorgohi Pattakesarda joylashgan bo'lib, unda 2 shtatofitseri, 5 ta oberofitser, 1 otliq, 7 piyoda, 22 safda turmaydigan va 2 erkin yollangan askarlar xizmat qilgan. Bundan tashqari shtab huzurida o'quv bo'limi bo'lib, unda oberofitser, 24 otliq va 2 ta safda turmaydigan askarlar bor edi. Harbiy nazorat, qurolyaroq ustaxonasi va omborxonasi ham shtab huzurida joylashgan. Akademik V.V. Bartoldning qayd etishicha, 1900-yilda ruslar joylashib olgan Pattakesar shaharcha aholisi 8.052 nafar erkak va 2.069 nafar ayoldan tashkil topgan. Ya'ni aholining asosiy qismi rus harbiy kishilaridan iborat bo'lib, ruslar yangi Termiz shahrida o'rnatilib olib, uni Rossiya manfaatlariga mos keluvchi siyosiy va harbiy markazga aylantirishga harakat qila boshlaganlar.

Termizda qurilish ishlari 1895-yilda boshlanadi va shaharni o'z qo'lida saklab qolish uchun mustamlakachilar zudlik bilan 1897-yil-iyunida salavotlik akauka Sayid Olim va Sayid Ali xo'jalardan 43 desyatina (1 desyatina 1,09 ga teng) yer sotib oladi. Bundan tashqari Pattakesar shimolidan 1200 desyatina yer sotib olinadi. Sotib olingan yerlarda harbiylar uchun turar joylar, «Ofitserlar uyi», kasalxonasi, otxona, qurolyaroq, oziqovqat omborxonalari quriladi. Termizda rus istehkomlari Amudaryo sohili bo'ylab quriladi.

Rus chorizmi harbiy ishlarni kuchaytirish maqsadida 1895–1900-yillarda harbiy qal'a va shahar mudofaa devorlari qurilishiga 57 ming rubl pul sarflaydi. Surxon vohasini kelajakda to'liq istilo qilish maqsadini hisobga olib, mustamlakachi hukumat 1897-yil bahorida PetroAleksandrovskdagi 4Orenburg kazak polkini va 13Turkiston batalonini, 9Turkiston polkini, 6Sibir o'qchi polkini va Tobin artilleriya rotasini, Toshkent drujinalarini, 546kazak drujinasini Termiz shahriga olib kelib joylashtiradi. Buxoro amiri 1900-yil 22-yanvarda chorizmning siquvi bilan shimolda qoraqum cho'li, shimolisharqda Surxondaryo, janubig'arbda Amudaryo bilan chegaralangan va umumiy-maydoni 10.514 desyatindan iborat yerlarning hammasini bepul foydalanish uchun chor hukumatiga berish to'g'risidagi aktni imzolaydi. Buxoro amiri pulsiz foydalanishga berilgan yerlar evaziga unga rus generali chini, ya'ni unvonini berishni yoxud «AndreyPervozvannsh» oliy belgisi bilan mukofotlashni talab etadi. Amir talabi qondirilib, unga rus generali chini beriladi. Shunday qilib, «rus generali» unvoni evaziga Termiz shahri va uning atrofida yerlar mustamlakachilar ixtiyoriga beriladi.

Chor hukumati Termizga harbiy qal'a sifatida katta e'tibor bersada, tub yerlik aholining ijtimoiy ahvoli mutlaqo e'tibordan chetda qolgan edi. Termiz garnizoni boshlig'i generalmayor Baronovskiyning 1902-yil 29-avgustda Buxorodagi siyosiy agentlik nomiga yozgan raporti bunga yaqqol dalil bo'la oladi. To'g'ri, bu raport tanqidiy tarzda yozilgan. quyida mazkur raportdan bir parcha keltiramiz: «O'zi qo'rg'on deb, nomi shahar deb atalgan Termizimizni uquvsiz shahar soveti va qo'shin safida xizmat etuvchi, teztez almashinib turadigan past chinli harbiylardan iborat tajribasiz politsiya boshqarmoqda, sanitariya nazorati yo'q, davolash muassasalari yo'q, yaqinda qoramollar o'rtasida o'lat kasalligi tarqaldi. Harbiy meditsina inspektori 1902-yil 13-iyundayoq uch veterinar vrachning Termizga safarga jo'natilishini xabar qilgan edi. Lekin-avgust oyi oxirlab qolishiga qaramay, veterinarlardan birontasi Termizga yetib kelmadi. O'lat kasali bo'lsa, ularning kelishini kutmasdan, o'ladigan mollar qirilib bo'lgach, o'zidano'zi tugab qoldi, grajdanlar bekordanbekorga kasal bo'lib qirilib ketayotirlar. Tub yerlik aholi uchun xususiy ambulatoriya bor, amir bu ambulatoriya uchun uch yuz so'm ajratish haqida farmon bergan. Ammo, Buxoro hukumati, Siz janobi oliylari talab qilishingizga qaramay, o'z amirining farmonini bajarishni istamaydi. Bezorilik va aroqxo'rlik avj olgan, unga qarshi kurash olib borish uchun mablag' yo'q, politsiya boshqarmasi ham yo'q. Uquvsiz polismeyster qo'shin safida xizmat qiluvchi ofitser, quolsiz quyi chindagi harbiy xizmatchilardir. Shunday hollar ham bo'ldiki, hatto grajdanlar politsiyachilarni tutib urishadi, politsiya uyi qulab, buzilib ketayotgan imoratda joylashgan, politsiyadan qochish hech gap emas. Politsiyada qamoqqa olinganlarni ovqatlantirish uchun hech narsa yo'q, sud ham, jazo berish ham yo'q. Da'vogarlar menga murojaat qiladilar. Da'volarni tekshiraman, yarashtiraman, lekin nojo'ya ishlar, jinoyatlar uchun jazo berishga huquqim yo'q. O'g'irlik va firibgarlik avjiga chiqmoqsa, ba'zi o'g'irliklar shunday ustalik bilan qilinadiki, bu kasbning tilini bilgan ustalar borligidan shubha qilmasa ham bo'ladi. Bu yerda suv yo'qsek, ammo barcha o'g'irliklarning izi suvga cho'nganday g'oyib bo'lib ketaveradi. Javobgarlikka tortilgan jinoyatchilar sudga faqat istehzo bilan kulib qaraydilar, xolos, shunday tushgan ofat edi va har-yili bu kasalliklardan nobud bo'lganlar soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lardi. Bu tasodifiy hol emas edi, chunki Buxoro amirini turlituman soliq va

to'lovlar yig'ib olish qiziqtirar, chor hukumati esa Termizga harbiy jihatdangina ahamiyat berib, tub yerlik aholiga mutlaqo e'tibor bermas edi. Termizda rus bojxona vakilining davlat hisobiga epidemiyaga qarshi kurash choralari ko'rishni so'rab yozgan maktubiga amir «Ajali yetganlar o'lar, xudo umrini berganlar sog'ayib ketar. Buni oldindan bilish ham, biron chora bilan yordam berish ham hech kimning qo'lidan kelmaydi», deb javob bergan. Shu javobning o'zi Buxoro amirining o'z tasarrufidagi xalqiga qanday qaraganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Nihoyat, chor hukumati 1904-yilda sog'liqni saqlash ishlariga Termizning mahalliy budjetidan 210 rubl ajratadi.

Sherobod vohasi yerlarini egallab olish, katta paxta monopoliyasini vujudga keltirish maqsadida ko'plab mutaxassislar jalb etiladi. Ayniqsa, harbiy muhandis A. G. Ananev bu borada bir qator ishlar qiladi. U o'zining «Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvlari yordamida sug'orish» asarida minglab odamlarning yashashi uchun qulay sharoitlar mavjudligini madaniy ahamiyatdan tashqari, Sherobod dashtlarini sug'orish Rossiya davlati uchun muhim iqtisodiy qimmatga ega ekanini ham ta'kidlaydi. U, jumladan, quyidagilarni yozadi:

1) Harbiy nuqqai nazardan, Termizda joylashgan otryadlarning strategik holatini yaxshilaydi, zero, ular gullayotgan hududda joylashib olib, o'zlarini oziqovqat va ishchi kuchlari bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar va safar uchun zarur vositalarni ham topadilar;

2) Iqtisodiy tomondan, Rossiyaga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish uchun muhim bozor yaratiladi, rus bozori esa bir million pudsan ziyod paxta tolasiga ega bo'ladi. Bu esa bizni Amerikaga qaramliqdan ozod qiladi, paxtadan tashqari muhim strategik ahamiyatga ega temir yo'l qurilishini mablag' bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi;

3) Tabiiy sharoitga ta'siri nuqtai nazaridan, tropik iqlimi, shubhasiz, yaxshilanadi, bu esa o'z navbatida hududdagi sanitariya holatining yaxshilanishiga olib keladi;

4) Mahalliy ahamiyati: Termiz sug'orish tizimining zaif tomonlarini mustaxkamlash mumkin bo'ladi, zero, bu tizim Surxon suvi zarbalariga bardosh bera olmaydi, ko'plab qo'shimcha suv havzasi qurishni talab qiladi. Bundan tashqari davlat tasarrufidagi sug'oriladigan yerlarni 400 desyatinadan to 10000 desyatinagacha yetkazish mumkinki, bu ham chor Rossiyasi xazinasini boyitishga xizmat qiladi».

Chor hukumati tumanlashtirish va hududiy bo‘linishlarda quyidagi holatlarga o‘z e’tiborini qaratdi: 1) Iqlim va tuproq hosildorligi; 2) Yerni o‘zlashtirish manbalari; 3) Yer yuza qismining joylashishi; 4)

Ishchi kuchlari; 5) Suv ta’minoti. Mashhur Zang kanalini qazish 1908-yili boshlanib, bu mashaqqatli ish 1914-yilga kelib tugallanadi. Bu ariqning chizmasi tub yerlik Eshonbek nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u ot ustida yurib, 55–60 kilometrlik qaziladigan ariqning yo‘lini ko‘rsatib bergan. Umuman, chor hukumati Surxon vohasiga nafaqat harbiy, balki iqqisodiy manfaat nuqqai nazari bilan ham qaraydi. Paxta masalasida Amerika tobeligidan chiqish hamda tub yerlik aholi mehnatkashligini suiiste’mol qilib, chor hukumati ko‘zga ko‘ringan yetuk melioratorlar, irrigatorlarni bu yerga keltiradi. qisqa vaqt ichida sug‘orish shahobchalari tizimini yaratish tufayli chor Rossiyasi xazinasiga foyda olib kelayotgan ekin-maydonlarini 4000 desyatinadan 10000 desyatinaga yetkazish Asosiy savollarlashtiriladi.

Buxoro amirligining ruxsati bilan 1912-yil 23-fevradada rus muhandisi A. G. Ananevga Sherobod vodiysidagi 72000 desyatina yer foydalanish uchun shartnoma asosida beriladi. Shartnomani Buxoro amirining Yer ishlari bo‘yicha vaziri Mirza Nasrulloboy qushbegi imzolaydi. Shartnomaga muvofiq, Buxoro amiri Sherobod va Boysun bekligiga qarashli quyidaga yerlarni A. G. Ananevga bepul foydalanishga taqdim etadi. Ushbu mulklar 12000 desyatinadan iborat qorakamar hududini, 23000 desyatinadan iborat Beshqo‘ton hududini, 30000 desyatinadan iborat Angor hududini, 6000 desyatinadan iborat Yangiariq hududini, Amudaryo va Kattaqum mavzesi hududlarini o‘z ichiga oladi.

Chor amadsori R.Yu.Rojevisning Janubiy Buxoroga qilgan safariga doir yozgan kundaliklarida Sherobod bekligining geografik joylashuvi xususida quyidagi fikrlar bayon qilingan. Sherobod bekligi hududi Sherobod tog‘larining tugashi qismida joylashgan bo‘lib, Termiz tomonga cho‘zilib, loy, qum va tuproqdan iborat. Angorning janubiy qismi hamda Amudaryo tomon cho‘zilgan yo‘lning 1015 vyorstda, asosan, tuya O‘rkachlari kabi qumliklar yastanib yotibdi. «Yangi Termiz bilan Eski Termiz oralig‘i 6 vyorst bo‘lib, eng qadimgi Termizning xarobalari bilan ulashib ketgan juda ko‘p qabr qoldiqlarini oralab Termiz shahriga kirib keldik». Doktor Lilendera Buxoro mulklarining boshqa hududlarini ko‘rishdan oldin Termizda bir necha kun dam oladi. U tomondan Pattakesardagi mavjud bozorlarda mahalliy boylar rus, arman,

yaxudiy va forsiylarning savdo do'konlari bilan birgalikda ish olib borgan hamda shahar aholisi asosan soldat va ofitserlar oilasidan iborat ekanligi yozib qoldirilgan.

Podsho Rossiyasi Markaziy Osiyo hududidagi vaziyatni xisobga olib, asosan Termiz orqali yuk tashish va xom ashyo olib ketishni ko'paytirish maqsadida Buxorodan Termizgacha, Termizdan Hisorgacha hamda Termizdan Ko'lobgacha temir yo'l qurishni tezlashtirishga e'tiborini qaratadi. qurilajak temir yo'l amirlik markazini Sharqiy Buxoro hududidagi beklilik bilan yaqindan bog'lar edi. Mazkur 9 ta bekliliklarda 470 ming kishi istiqomat qilib, ular tomonidan-yiliga 528 ming botmon bug'doy, 272 ming botmon arpa, 113 ming botmon tariq, makkajo'xori va boshqa ekinlar hamda 152 ming botmon sholi yetishtirilgan. Sharqiy Buxoro bekliliklarida ichki bozor kam taraqqiy etgan bo'lib, tashqi bozorga chiqish ko'plab muammolar mavjuddigi tufayli ancha sust rivojlangan. Bekliklarni qiynab kelayotgan muammolardan biri bu transport qatnovining yaxshi yo'lga qo'yilmagani edi.

Buxoro amiri qorategin hukmdori Ne'matullabekka qorateginliklarni temir yo'l qurilishiga safarbar etish to'g'risida farmon beradi. Temir yo'l qurilishida ishtirok etayotgan har bir ishchi uchun ish haqi temir yo'l qurilishi boshqarmasi tomonidan ajratiladi va mablag' Ne'matullabek ixtiyoriga o'tkaziladi. Ne'matullabek temir yo'l qurilishida ishtirok etayotganlarga ish haqi to'lamasdan, ularni harbiy tayyorgarlik ko'rish uchun qilinayotgan ish sifatida qurilishga safarbar etadi. qurilishda 23 martadan navbat bilan ishtirok etgan dehqonlar ishning og'irligi, ish haqining to'lanmasligidan azob ko'radilar, ko'plari vafot etadilar va Ne'matullabek ustidan gubernatorga shikoyat qiladilar.

O'rta Osiyo xalqlarining boshqa davlatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalari bundan keyingi asrlarda ham jadal olib borilgan. Pyotr I davrida, uning ko'rsatmasiga binoan, 1717-yilda knyaz BekovichCherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya Astraxandan Xivagacha borib Amudaryoning Orolgacha quyiladigan suv yo'lini ham o'rganishi kerak edi. Biroq BekovichCherkasskiy ekspeditsiyasining Xiva xoni Sherg'ozixon tomonidan qirib tashlanishi natijasida Pyotr I ning bu ko'rsatmasi bajarilmay qoladi. Bosqinchilar tomonidan O'rta Osiyo XIX asrning ikkinchi yarmida istilo qilingach, 1873-yil 27-aprel kuni Flotiliya boshlig'i, 1rang kapitani Sitnikov boshchiligidagi 2 ta paroxod tarkibida 3 ta barja bilan Amudaryoga kirib keladi. Paroxod

Ulkun daryosi bo‘ylari bilan qo‘ng‘irotga qarab jo‘naydi. Biroq Amudaryoning deltalari o‘rganib chiqilmaganligi natijasida ekspeditsiyaning oldinga siljishiga yo‘l qo‘yilmaydi. 1873-yil 1-avgustga kelib general shtab polkovnigi N.V.Kaulbars Amudaryoning quyilish joylarini tekshirib, kema qatnamaydigan yo‘lning Orol dengiziga chiqiladigan joylarini izlaydi va Amudaryoning quvanJarma, Dauqara ko‘li va Yalisuv daryosining quyilishi orqali chiqsa bo‘lishini aniqyaaydi. Bu yo‘l bilan Kozalinskdan (Sirdaryodagi flot bazasidan) Orol dengizi orqali Amudaryoda doimiy ravishda yuk tashila boshlanadi. Keyinroq esa Amudaryo qirg‘og‘ida qabaqli qo‘rg‘oni va mudofaa inshooti qurilib ishga tushiriladi.

Chorjo‘y shahrida 1888-yili Amudaryo harbiy flotiliyasining birinchi «Podsho» va «Saritsa» nomli kemalari, paroxodlari tashkil etiladi. O‘sha vaqtda bu kemalar, paroxodlar daryo transportidagi yangi kemalar va paroxodlar edi. Bu kemalar 520 ot kuchiga ega bo‘lib, ular temir yo‘l orqali tashib keltiriladigan Boku neftining mazutlari bilan yuritilardi. Amudaryo bo‘yiga Amudaryo harbiy flotiliyasi kemalaridan tashqari «Xiva» nomli aksionerlik jamiyati va-mayda qayiq egalari ham faoliyat ko‘rsatardi. Amudaryo yo‘nalishi bo‘ylab shunday qiyinchiliklarga qaramasdan XIX asr oxirida o‘n bitta kema va o‘n to‘qqiz dona barja suzib turadi. Barjalar (shatakka olib yuriladigan yuk kemasi) faqat daryoning yuqorisiga qarab shatakka olinar, quyi tomonga qarab esa bu barjalar o‘zlari suzar edi. Harbiy flotiliya kemalari bilan-yil davomida 15 ming tonna har xil yuklar va 2025 ming yo‘lovchi (asosan harbiylar) tashiladi. Chorjo‘ydan Termizga va pastga qarab To‘rtko‘lgacha kdlinadigan reys bir oyga yaqin vaqtni olar edi. Kam yuk ko‘taradigan flotni Amudaryoda asosan qayiklar tashkil qilardi, ularning soni 1500 dona bo‘lib, bu qayiqlar mahalliy o‘rmonlarda yetishtirilgan tollardan yasalgan edi. Tollar asosan ho‘l tomirlari bilan olinar va yog‘och shirasi bilan bo‘yalar, bu esa yog‘ochni chirib ketishidan asragan. Mahalliy toldan yasalgan, palubasi bo‘lmagan yog‘och kemalar 2040 tonnagacha yuk ko‘targan.

Bu kemalarning tashqi korpusi qattiq chorqirra (ustun)lar bilan o‘zaro biriktirilgan. Bunday qayiqlarning unchalik quvvati bo‘lmay, vazni ham og‘ir bo‘lib, boshqarishda katta qiyinchiliklar tug‘dirar edi. Markaziy Osiyoga Sibirning nina bargli o‘rmonlaridan kesib kelingan yog‘ochlarning keltirilishi natijasida rus hunarmandlari bu yog‘ochdan yengil qayiqlar yasay boshladilar. Bu kemalar keyinchalik o‘ris

kemalari deb atala boshladi. Bu yengil qayiklarning ko‘payishi natijasida mahalliy tol qayiklar iste‘moldan siqib chiqarildi. Termiz shahriga barcha yuklar Samarqanddan quruqlikdan va Amudaryo orqali olib kelinar edi.

Chorjo‘idan Termizga 1894-yilning-avgust oyida birinchi katerlar guruhi pochta va yuklarni qo‘riqlash maqsadida keltiriladi. Shunda ular Surxondaryoning ichkarisiga ikki kilometr yuradilar va bu yerda o‘zlarining qarorgoxlarini tashkil qilmoqchi bo‘ladilar. Kech kuzda Surxon daryosida suv kamayganligi sababli qarorgoh qurukliqsa qolib ketadi. qarorgoh 1896-yilga kelib Amudaryo bo‘yiga ko‘chiriladi.

Shunday qilib, Surxon vohasida daryo portining ilk manzilgohi vujudga keladi. Umuman olganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida vohaning ijtimoiysiyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ancha orqaga ketishni quzatish mumkin.

### **Axborot-uslubiy ta‘minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta‘limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda “Zakovat” o‘yinlari hamda “So‘zli tasavvurlar” pedagogik metodlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, ilmiy salohiyatni yuksaltrish maqsadida mavzuga oid qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

### **"ZAKOVAT" o‘yini ko‘rinishidagi darslarni ma‘ruza mashg‘ulotlarida qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatma**

Bu mashg‘ulotni bob yakunida takrorlash darsi sifatida tahlil qilish mumkin. Sinf 6ta guruhga bo‘linadi va oldindan tayyorlab qo‘ygan topshiriqli konvertlarni (yoki kartochkalarni) guruh a'zolari navbat bilan olishadi. Shundan so‘ng guruhlar 10min davomida o‘zlarigatushgan topshiriqlarni bajarishadi va guruh javoblarini e‘lon qilish uchun bir o‘quvchini tanlashadi (yoki guruh sardori javob beradi). Har bir guruhda bir nechta savoldan iborat topshiriq bariladi. O‘qituvchi har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto‘g‘ri javob bo‘lsa, boshqa guruhlar to‘g‘ri javobni berishlari mumkin, bu holda, javob bergan guruhga ball qo‘yiladi. Shu tariqa har bir guruh o‘ziga berilgan topshiriq bo‘yicha taqdimotini o‘tkazadi, boshqa guruhlar esa ularni

to'ldirishlari va noto'g'ri javoblarni to'g'rilab ball olishlari mumkin. Natijada Isoatlik darsda katta bir bo'lim, bob bo'yicha o'tilgan o'quv materialini takrorlab, o'rgangan bilimlarini mustahkamlab olish va hamma o'quvchilarni mashg'ulotga jalb qilib ularning darsda faol bo'lishlariga erishish mumkin. O'quvchi soni oz bo'lgan sinflarda esa sinfni guruhlarga bo'lmasdan balki 3ta qator o'rtasida musobaqa tarzida ham o'tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga 2 martadan topshiriqli kartochka berish mumkin (6ta kartochka tayyorlanadi va har bir qatorga navbat bilan 2 martadan beriladi). Bu mashg'ulotni boshqa fanlarga ham moslashtirib o'tkazish mumkin.

### **“Surxondaryo tarixi” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarini tashkil So‘zli tasavvurlar metodidan foydalanish**

#### Ta’rifi

- O'rganilayotgan masala bilan bog'liq bo'lgan eng asosiy so'zni oling.
- O'quvchilardan ular bu so'zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so'zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.
- Bironta so'zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o'quvchilar dastlabki so'z bilan tasavvur qiladigan turli so'zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo'ladi.
- Mavzu o'rganib bo'lingandan so'ng har bir o'quvchidan ular ushbu mavzu bo'yicha nima deb o'ylashi yoki his qilishini bir so'z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo'lgan so'zni misol keltirishni so'rang. Sinf aylanib, bunday so'zlarni yig'ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o'quvchilardan ushbu so'zlarning ro'yxatini tuzishni iltimos qiling.

#### Foydalanish doiralari

Ushbu usul mavzuni o'rganish jarayonining boshida o'quvchilar mavzu bo'yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o'quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo'llanilishi mumkin.

#### Afzalliklari

Bunday usul o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy rivojini ko'rishga, sizga esa – siz berayotgan ta'lim sifatini baholashga yordam beradi.

## Qiyinchiliklari

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat'iyon amal qilish lozim. Jarayonning cho'zilishi mashq mohiyatini o'zgartirishi mumkin.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davri madaniy hayotning shakllanish dinamikasini izohlang.*
2. *Vohaning tarixiy ahamiyatini belgilashda Buxoro amrligining siyosiy islohatlarini o'rni.*
3. *Inson resurslarining vohada shakllanishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarning gumanistik roli ahamiyati nimada.*

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zgasida. T., 2001.
3. Jaloliddin Mirzo Termiz tarixi Toshkent, «Sharq» 2001
4. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: Meros, 1997.
5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi. 1994.
6. Ananov A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi. T.: Sharq, 2002.
7. Jaloliddin Mirza. Termiz tarixi. T.: Sharq, 2001.
8. Xo'jasamandar Termiziy. Dastur ulmuluk. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
9. Chag'oniyon tarixi. To'plab nashrga tayyorlovchi A.Xidirov. T.: Islom universiteti, 2002.
10. Qodirov B., Murtozaev B. Chag'oniyon adabiyoti, T.: Yangi asr avlodi, 2002.

## **7- MA'RUZA. SURXON VOHASI. 1917–1941-YILLARDA BXS RNING TASHKIL TOPISHI VA SURXON VOQASIDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI**

### **ASOSIY SAVOLLAR:**

1. Surxon vohasida mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning oqibatlarini.
2. Surxon vohasida milliy ozodlik harakatlari.
3. Qatag'onlik-yillarida Surxon vohasi.
4. XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

### **Tayanch so'zlar**

Termizda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Buxoro amirligining ag'darilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Surxondaryo okrugining tashkil topishi. XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xo'jaligi. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. Qatag'onlik-yillarida Surxondaryo. XX asrning 20–30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

Bolsheviklar-oktabr to'ntarishidan so'ng hokimiyatni qo'lga kiritgach, haqiqiy xalq hokimiyati va chinakam demokratiya hukmronlik qiladigan jamiyatni barpo etishni va'da qilgan edilar. Bu jamiyat keng xalq ommasining ehtiyojlarini qondirishi, uning manfaatlarini himoya qilishi lozim edi. Tarix tajribasining dalolat berishicha, xalq hokimiyati g'oyasi bir guruh inqilobiy xayolparastlarning o'ylab chiqargan narsasi emas, balki mazlum «quyi» tabaqalarning odamni odam eksgaguatatsiya qilmaydigan, insonning erkin kamol topishi uchun ijtimoiy adolat tantana qiladigan va teng imkoniyatlar mavjud bo'ladigan ijtimoiy tuzumni ko'p asrlardan buyon orzu qilib kelgan intilishining yakunidir. Xalq hokimiyati bu o'zini o'zi idora qiladigan davlat bo'lib, unda har bir kishining erkinlik darajasi boshqaruvda bevosita yoki vakillik yo'li bilan ishtirok etishi bilan belgilanadi. Xalq hokimiyati bu madaniyatli demokratiyaning bazali negizini tashkil etadi, afsuski, bolsheviklar markscha nazariy qoidalarga amal qilib, ilg'or xalq hokimiyati g'oyalarini halokatli, mustabid tuzumni barpo etishning mafkuraviy quroliga aylantirdilar. Fevral inqilobining g'alabasi Rossiyada «burjua demokratik» davlati tizimining amaliy muammosini kun tartibiga qo'yadi va davlatchilik nazariyasiga katta qiziqish uyg'otadi. Rus chorizmining tarkibiy qismi

bo'lgan Termiz shaxrida ham inqilobiy o'zgarishlar bo'lib, harbiylar boshqaruv qo'mitasi tuziladi va Termiz garnizonining barcha harbiy qismlarida 1917-yilning 10 martida mitinglar bo'lib o'tadi. Askar qo'mitasi Termiz paxta tozalash zavodi ishchilarining TermizPattakesar «Ishchi ittifoqi» bilan aloqa bog'laydi. Natijada 1917-yilning 19 martida Termiz garnizoni askarlari va zobitlari noiblarining birlashgan yig'ilishida Termiz-Paggakesar harbiy qo'mitasi tuziladi, uning huquq va vazifalari belgilanadi hamda 6 kishidan iborat hay'at saylanadi. 1917-yilning 21-aprelida Termizda ishchi va askarlarning birlashgan mitingi bo'lib o'tadm va 22-aprelda zobitlar uyida Ishchiaskar deputatlari soveti tuzilganligi e'lon qilinadi. Sovet raisligiga Preobrajenskiy (Toshkentda o'ddirilgan 14 komissarning biri), kotibligiga esa Krulikovskiy saylanadi (u keyinchalik Termizda yashab vafot etgan). 30-aprelda Pattakesar dehqon noiblari soveti tuziladi, unga 546 kazak drujinasining sobiq askarlari, ya'ni harbiy xizmat muddatini o'tab, zaxiraga chiqqan dehqonlar a'zo bo'ladilar. Pattakesar dehqon noiblari soveti Termiz askarishchi noiblari soveti bilan qo'yashlib, 1917-yilning 7-mayida Termiz-Pattakesar askarishchi va dehqon noiblari soveti tashkil topadi. 1917-yilning I-iyulida o'z ishini boshlagan Termiz-Pattakesar askarishchi va dehqon noiblari soveti kengashida mahalliy millat vakillari yo'q edi.

Sovetlar siyosatining Surxon vohasiga kirib kelishi keskin kurash sharoitida amalga oshdi, mahalliy xalqning asosiy qismi bu yangi hokimiyashi norozilik bilan kutib oladi. Buxoro amirligi davrida katta harbiy, iqtisodiy, siyosiy mavqega ega bo'lgan Surxon vohasini sovetlar hukumati o'z qulida mahkam saqlab qolishga jiddiy kirishadi. U oddiy mehnatkash xalqni zudlik bilan o'z tomoniga ag'darib olish maqsadida xalqqa bepul, o'ylaganidan ortiqcha mulk va'da qilib, ishlab chiqarish quroliga ega bo'lmagan, huquqiy gushunchasi yo'q, siyosiy bilimlarni yetarli egallab olmagan xalqni o'z siyosati chegarasiga kiritib oladi. Natijada sovet hukumati milliy xususiyatlarni chuqur o'rganib, ichki ziddiyatlardan foydalanishga, qarinyushurug'larni, milliy etnik guruhlarini birbiriga qaramaqarshi qo'iishga harakat qiladi. Bundan siyosiy manfaatlar yo'lida ustalik bilan foydalanadi. Millatning faxri bo'lgan olimu fozillar, yirik mahalliy boylar, o'tkir zehnlilik vakillari, mahalliy xalq o'rtasida ishbilarmon, ish boshqaruvchilikda katta obro'ga ega bo'lgan nufuzli odamlarni

siyosiy hayot yo‘nalishidan olib tashlash va yo‘qotishga jiddiy kirishadi. Bu siyosat tufayli 20-yillarda vohaning minglab aholisi qattiq siquv ostiga olinib, bir qismi qatag‘onlik siyosati bilan surgun qilinib, ikkinchi qismi esa qirib tashlanadk. Xalqning asosiy qismi esa quruq va‘dalar ta‘siri ostida sovetlarning noto‘g‘ri siyosatiga ergashib ketadi. Amirlikning qulatilishi arafasida Boysunda yirik yer egasi Suyun Pinxos o‘g‘li ixtiyorida 600 gektar ekin-maydoni bo‘lib, uning yerlari zo‘rluk bilan tortib olinib, 13 ta do‘koni ham yangi hukumat tomonidan qabul qilingan qaror asosida davlat ixtiyoriga o‘tkazib yuboriladi. Ilm-ma‘rifat va madaniy poklikka da‘vat etuvchi islom diniga ham keskin zarba beriladi. Jumladan, Boysundagi 2 ta kichik madrasa, Sherobodagi o‘rta ta‘lim madrasasi, Denovdagi 2 ta o‘rta ta‘lim madrasalari yopib tashlanadi va talabalar qattiq siquvga olinadi. Uzoq asrlar davomida yaratilgan qimmatbaho va nodir kitoblar, qo‘lyozmalar, noyob milliy san‘at obidalari yo‘q qilinadi. Boysun, Sherobod, Denovdagi beklik saroylari, masjidlar, madrasalar «xurofot belgisi» sifatida buzib tashlanadi. Surxon vohasi ahli «Said Olimxon hazratlariga yordam bergan» degan siyosat ta‘siri qurboni bo‘ladi. 1920-yil 10-sentabrda Amir Said Olimxon Darbandga kelib, Boysun begi hamroxligida 11-sentabrda Yolg‘izbog‘ va To‘da qishloqlari orqali Boysunga jo‘nab, Chorchinorda to‘xtaydi. Inqirozga uchragan amir o‘z davlatida mafkuraviy birlikni, o‘zaro hamfikrlilikni vujudga keltirolmaydi hamda qizil hokimiyatga qarshilik qo‘rsata olmaydi. O‘sha davrda mahalliy xalqni chalg‘ituvchi mansab uchun o‘z xalqini sotish evaziga obro‘ orttirishga urinuvchilar ham ko‘p bo‘ladi, chunki Darband, Boysun, qo‘rg‘on voqealari buning isbotidir. Ba‘zi bir kimsalar arzimagan va‘dalar hisobiga milliy g‘ururni, ornomusni, vijdonni sotish yo‘liga o‘tadilar. 1941-yili Sherobod tumani Istara qishloq kengashida Sagizov Rahmonga 75 gektar yerga bug‘doy, 40 gektar yerga arpa ekinini ekmasdan davlat Asosiy savollarsini buzdi, deb ayb qo‘yilgan bo‘lsa, Norboev Eshquvvat inqilobga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borib, teskari munosabatda bo‘lishga chorlamoqda, Tallashqon qishloq kengashidan 27 yoshli Himmatov Xurram dehqonchilik Asosiy savollarsini barbod etuvchi, deb jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mustabid tuzum siyosiy mafkurasining asl qiyofasini turli yo‘nalishlar, xiyla-nayranglar bilan yashirishga urinib, o‘zbek millatining ko‘zga ko‘ringan fidoyilarini yo‘q qilish, qirib tashlash

bilan qattiq shug‘ullanib, qatag‘onlik usulini keng qo‘lladi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlaganidek, «Mash‘um 1937–1953-yillarda sodir etilgan bedodlikni tasavvur etish uchun Uzbekiston bo‘yicha qariyb 100 ming kishi qatag‘onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida yurtimizda istiqomat qilgan deyarli barcha millat va elatlarnishg vakillari bor edi». Ushbu davr voqeyiligi viloyat tarixiy hayotidan bir lavha misolida aks ettirilsa-da, qatag‘onlik-yillari xalqimizga o‘tmishning 6u achchiq qismatini doimo xotira sifatida eslashga davat etadi.

## **MUSTABID TUZUM DAVRIDA SURXONDARYO SANOATI**

O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi qarori bilan Surxondaryo okrugi 1925-yilning 18-yanvar kush Boysun, Sariosiyo, Sherobod uездlariga bo‘lindi. Boysun uezdi markazi Boysun shahri bo‘lib, uezd uchta tarmoqqa Boysun, Darband va qumqo‘rg‘onga bo‘lingan. 1926-yil 31-avgustdagi qaror bilan esa qumqo‘rg‘o! tarmog‘i Jarqo‘rg‘on tarmog‘i deb yuritila boshlandi.

Surxondaryoda ma’muriyhududiy o‘zgarishlar turli davrlarda amalga oshirib borildi. Sariosiyo tumani O‘zbekiston MIq sessiyasining 1926-yil 29-sentabrdagi qarori bilan Surxondaryo mintaqasi tarkibida tashkil etilib, u 20 ta qishloq kengashi, 124 ta aholi markazi, 376 ta xo‘jalikni o‘z hududiga olgan edi. Ularda 20213 nafar aholi istiqomat qilardi.

Viloyatda paxta yetishtirishning o‘sib borishi uni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qayta qurishni taqozo etdi. 1918-yili Termiz paxta tozalash zavodi Davlat ixtiyoriga o‘tkazildi va ish kuni 8 soat qilib belgilandi. Yuqorida ta’kidlanganidek, viloyatda paxta Hosildorligining o‘sib borishi yangi paxta tozalash zavodi qurishni taqozo etdi. Yangi korxonani viloyatda paxta yetishtiradigan rayonlarga yaqinlashtirish uchun Sherobodda qurish mo‘ljallandi va 1926-yilda Sherobod jingauzi foydalanishga topshirildi.

### **Axborot-uslubiy ta’minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta’limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib

berishda “Skarabey” texnologiyasi hamda “So‘zli tasavvurlar” pedagogik metodlaridan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, ilmiy salohiyatni yuksaltrish maqsadida mavzuga oid qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

### **Ma’ruza mashg‘ulotida «Skarabey» texnologiyasidan foydalanish uchun yo‘riqnoma**

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo‘lib, u o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g‘oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog‘liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo‘lib, undan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalaniladi:

-boshida – o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

-mavzuni o‘rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish, yangi jihatlarini ko‘rsatish;

-oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

o‘zgalar fikriga hurmat;

jamo bilan ishlash mahorati;

faollik;

xushmuomalalik;  
ishga ijodiy yondashish;  
imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;  
o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;  
«men»ligini ifodalashga imkon beradi;  
o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

### **Ma'ruza mashg'ulotini olib borishda Namoyish (demonstratsiya) metodidan foydalanish hamda talabalarni ushbu metod orqali kreativligini oshirish bo'yicha ko'rsatma**

Har qanday ish o'quvchilar turlariga mos holda va tez o'zlashtirish mumkin bo'lgan topshiriq sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Agar topshiriq sifatida berilayotgan ish ko'proq qo'l mehnatini talab etsa, uni o'rgatish va egallash mumkin bo'lgan kichik elementlarga ajratish lozim. Ayrim o'quvchilar ishni ehtiyotkorlik va mufassal ko'rsatib berishni talab qilishlari mumkin.

O'quvchi duch kelayotgan qiyinchiliklarini topa olish va bu qiyinchiliklarni yengishning turlicha yo'llarini topish orqali o'quvchining topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga erishish bu o'qituvchining san'ati hisoblanadi. O'z navbatida bu san'at o'quvchining duch kelayotgan qiyinchiliklari orqali o'rganishni ham o'z ichiga oladi, qaysiki, o'qituvchi tomonidan namoyish etish jarayonida tushunishga qiyin bo'lgan nuqtalar o'quvchi tomonidan topshiriqni bajara ololmaslik ehtimolini keltirib chiqaradi.

Boshqa so'z bilan aytganda, o'qituvchi o'quvchilarda to'g'ri taassurotni keltirib chikarish uchun topshiriqqa mos bo'lgan so'zlarni va tayanch nuqtalarni topa olishi kerak. Odatda asosiy nuqtalar sezish, ko'rish yoki eshitish qobiliyatlariga aloqador bo'lsa ularni so'z bilan ifodalash qiyin bo'ladi. SHu sababdan namoyish etish jarayonida ta'riflar keltirilganda ehtiyotkor bo'lish zarur.

Namoyish etish usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar:

Ma'lum bir topshiriqni qanday bajarish kerakligini namoyish etish san'atiga quyidagi bosqichlarni amalga oshirmasdan turib erishish ehtimoldan yiroq.

- Namoyish etish uchun o'z materiallaringizni tayyorlang.

Siz uchun kerak bo'lgan barcha jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa narsalar avvaldan tayyor holga keltirilishi lozim.

- O'quvchilarni namoyish etish jarayoni bilan tanishtiring.

O'quvchilarga topshiriq nimadan iborat ekanini ayting va ularning qiziqishlarini e'tiborga olishga harakat qiling. Ularni mashg'ulot boshlashga va tinglashga tayyor ekanliklariga amin bo'lish maqsadida ularning onglariga kirib borishga harakat qiling. O'qituvchi uchun sodda bo'lgan narsa o'quvchi uchun o'ta murakkab bo'lishi mumkin.

- O'quvchilarni sizning namoyishingizni oson ko'ra olishlari uchun ularni to'g'ri joylashtiring.

Umuman olganda, o'quvchilar murabbiyning orqasidan kuzatishlari maqsadga muvofiq, bu o'z navbatida ular topshiriqni o'zlari bajarayotgan vaqtlarida qanday holatda bo'lishlarini kuzatishga sharoit yaratadi.

- Toshirikni bajarishni muvofiq tezlikda namoyish eting.

O'quvchilarga topshiriq nimalardan iborat ekanini ko'rsatish maqsadida uni normal tezlikda o'rgatishga harakat qiling. Bu kabi namoyish etish jarayoni bir daqiqadan oshmasligi lozim, agar topshiriq uzoqroq cho'ziladigan bo'lsa, uni to'xtatib va bosqichma-bosqich namoyish etish kerak.

- Topshiriqni sekinlik bilan takroran ko'rsating va har bir bosqichda nimalar sodir bo'lishi haqida aniq qilib ehtiyotkorlik bilan tasvirlab bering. Tayanch nuqtalarga alohida e'tibor qarating.

Sekin bajarish imkoni bo'lmagan topshiriqlar normal tezlikda lekin alohida-alohida bajarilishi lozim. Bu bilan asosiy nuqtalarga e'tibor berib o'tish imkoni yaratiladi.

- Har bir o'quvchini o'qituvchi bilan birgalikda o'sha topshiriqni bajarishga majbur qiling.

Har bir o'quvchini topshiriqni bajarayotganda o'qituvchi yordami bilan o'zini «ish» jarayonidagidek his qilishlariga erishing. Har qanday savolga javob bering va har qanday xatoni o'sha zaxotiy oq to'g'irlang. O'quvchi egallashi qiyin bo'lgan har qanday nuqtalarni qaytadan ko'rsatib bering, bu jarayon qachonki o'quvchi uni to'g'ri bajarmaguncha davom etadi.

- Har bir o'quvchini topshiriqni amalda bajarishiga erishing.

Har bir o'quvchini topshiriqni amalda normal tezlikda bajara olgunlariga qadar davom ettirishlariga erishing. SHu bilan bir qatorda, amaliy faoliyat davomida

o'quvchilarni to'g'ri usuldan foydalanayotganlariga amin bo'lishingiz muhimdir. Noto'g'ri uslubdan foydalanish oqibatida to'g'ri uslubdan foydalanish orqali o'rganish qiyinchiliklar bilan kechadi.

- Har bir o'quvchining topshiriqni bajarish qobiliyatini tekshiring. Har bir o'quvchi topshiriqni, uning asosiy nuqtalarini to'la tushunganiga va bajara olish qobiliyati borligiga amin bo'ling.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

*1. Surxon vohasida mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi va uning tamaddunga ta'siri.*

*2. Qatag'onlik siyosati ma'naviyatga zarba berish texnologiyasi sifatida.*

*3. Surxondaryo okrugining tashkil etilishi agrar islohatlarga nisbatan keng yo'l sifatida.*

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sharq, 1998.
2. Tursunov S.N., Kichkilov H. Termiz-yilnomasi. T.: Sharq, 2001.
3. Berdiev H., Ermatov H. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: 1991.
4. Azimov M. Termiz tarixi. Termiz, Jayhun, 2001.
5. Istoriya Uzbekistan v istochnikov. T.: Fan,
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tom 111. T.: 20002006.
7. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar. T.: Ma'naviyat, 2000.
8. Rajabov Q. Buxoroga Qizil armiya bosqini va unga qarshi ukurash. T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2002.
9. Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T.: Nur, 1996.
10. Ro'ziev A.N. Surxondaryo viloyati. Termiz, Jayhun, 1996.
11. Tursunov S.N. va boshk. Surxondaryo tarixi. T.: Sharq, 2004.

## 8-MA'RUZA. SURXONDARYO VILOYOTI IKKINCHI JAHON URUSHI-YILLARIDA

### *Asosiy savollar:*

1. Fashizm agressiyasining boshlanishi va viloyatda frontga safarbarlik.
2. Urush-yillarida viloyat qishloq xo'jaligidagi ahvol.
3. Surxondaryoliklarning frontdagi qahramonliklari.
4. Surxondaryoliklarning frontga yordami.

### **Tayanch so'zlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofoa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

Urushning boshlanishi Surxon vohasida yashayotgan tinchlikparvar kishilarning ham qalblarini larzaga soldi, ularda fashizmga nisbatan qahr-g'azab va nafrat hissi uyg'ondi. Urushning sovuq xabari eshitilgan damlardanoq voha mehnatkashlari ham ushbu boshlangan urushni qoralovchi, fashizm bilan bo'ladigan jangga doimo tayyor ekanligini bildiruvchi va ayni vaqtda ishlab chiqarishda yangi g'alabalarga erishib fashizm ustidan qozonilgan g'alabani yaqinlashtirishga undovchi mitinglar o'tkaza boshladilar.

1941-yilning 22-iyun kuni, ya'ni sovuq urush xabari tarqalgan quniyoq Termiz tumani «Pattakesar» qishloq kengashi a'zolarining ko'p ming kishilik mitinggi bo'lib o'tdi. Unda «Kerak bo'lsa ketmonlarimizni miltiqqa aylantiramiz, biroq qora kuchlarning go'zal polizlarimizga cho'chqa tumshuqparini tiqishiga yo'l qo'ymaymiz», degan murojaat qabul qilingan bo'lsa, 23-iyun kuni «Hovdak» neft koni ishchilari esa fashizmga qarshi bo'lib o'tgan mitingda: «Biz shu kundan boshlab o'zimizni safarbar qilingan deb hisoblaymiz», degan xitobnomani qabul qildilar. Denov tumani «Hazarbog'» davlat xo'jaligi 4-bo'lim traktorchi Otay Raxmonov o'zini frontga jo'natishlarini so'rab harbiy komissariatga yozgan arizasida: «Men texnikani boshqarishni bilaman, avtomashinada ishlashim mumkin. Uyda otaonam va xotinim bor. Ularning hammasi mehnatga layoqatli, meni frontga jo'natishlaringizni so'rayman. qasamyod qilib aytamanki, ishonchni oklayman, fashistlarni beomon savalayman», deb yozgan edi.

Termiz shahar «Pravda gazetasi» nomli maktab o‘qituvchisi F.Hakimova shahar harbiy komissariatiga o‘zini harakatdagi armiyaning sanitariya drujinasiga qabul qilishlarini so‘rab ariza beradi. Shuningdek, sherobodlik Tillo Fayzieva, termizlik Vera Vyalochkina, Anna Shumixina, A.I.Fomina kabi o‘nlab ayollarning nomlari yurt ozodligi uchun janggohlarda jon olib, jon bergan jasur xotin-qizlar qatorida harbiy-tarixiy solnomalarda qayd etilgan.

Umuman, urush boshlangan davrda harbiy komissariatlarga o‘zlarini frontga safarbar qilishlarini so‘rab viloyat miqyosida ikki mingdan ortiq ariza tushadi. 1941-yilning-iyuniyul oylarida esa 20 ming kishi ko‘ngilli bo‘lib frontga jo‘naydi. Fashizm balosini yo‘qotish uchun o‘zining turmush o‘rtog‘ini jangga kuzatayotgan ayollar ularga dushmanga ayovsiz qirg‘in solish topshirig‘ini bera boshladilar. Termiz tumani «qizil chegara» jamoa xo‘jaligi a‘zosi Shomirbobo Mirzaev o‘z o‘g‘lini askarlikka kuzatib bunday degan edi: «O‘g‘lim, mard bo‘l, botirlik bilan kurash. Men ham shu yerda sening o‘rningni bosib, yurtimizni yov kira olmas qo‘rg‘onga aylantirish uchun bor kuchimni sarf qilaman».

1941-yilning 15-oktabriga qadar bo‘lgan vaqt mobaynida viloyat bo‘yicha 800 nafar xotin-qiz «frontga ketgan yigitlarning o‘rnini olish kerak», degan chaqiriq bilan chikdi. Hayot harbiy izga solingan mamlakatda urush bo‘layotgan ekan, harbiy tayyorgarlikka beparvo qarab bo‘lmaydi. Fuqarolar qanchalik harbiy texnikani kuchli o‘rgansa, g‘alaba daqiqalari shunchalik yaqinlashadi. Zero, qo‘lida qurol ko‘tarib, o‘z ozodligini himoya qilishga o‘rganmagan xalq ozod qolishi mumkin emas. Shu munosabat bilan sobiq SSSR Mudofaa qo‘mitasining 1941-yil 23-iyuldagi «Fuqarolarni umumharbiy tayyorgarlikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq urushning dastlabki oylarida viloyatda 21494 kishi harbiycha yurish, granata irg‘itish va boshqa turli harbiy mashg‘ulotlarni o‘rgandi. Shuningdek, 1941-yilning-iyulavgust oylarida 1800 kishi ishtirokida piyodalarning 1025 km masofaga harbiy yurishi o‘tkaziddi.

Usha jangovar-yillarda Surxondaryo viloyatiga ham O‘nga yaqin sanoat korxonalari evakuatsiya qilindi. Ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalari asosan viloyatning Termiz shaxri va Denov tumanlarida joylashtiriddi. Jumladan, Pavlograd, Chertkov, Prikolotensk yog‘ zavodlari Denov tumanida, Chernyanskiy, Stavropolskiy yog‘ korxonalari esa Termiz shahriga joylashtirildi. Biroq, shu narsani alohida

qayd etish lozimki, sanoat korxonalarining viloyatga ko'chirib keltirilishi va ishga tushirilishida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelindi. Bu qiyinchiliklar birinchi navbatda malakali texnik xodimlarning va moddiy resurslarning yetishmasligi natijasida yuzaga keldi. Jumladan, Ukrainaning Pavlograd viloyatidan keltirilgan o'simlik moyi ishlab chiqarishga moslashgan asbobuskunalar Denov paxta tozalash zavodi sushilkasi binosida joylashtirildi. Shu bilan Denov yog'ekstraksiya zavodi qurilishiga poydevor qo'yiddi. Zavod respublika Mudofaa qo'mitasi Asosiy savollarsiga binoan 1944-yilda ishga tushirilishi va 60 ming tonna chigitni qayta ishlashi lozim edi. Lekin mavjud vaziyatdan to'g'ri va unumli foydalangan zavod ahli qurilishmontaj ishlarini jadal sur'atlarda boshlab yubordi. Ayniqsa, P. Morozova va I. Vasilenko brigadasi ishchilari kechanikecha, kunduznikunduz demasdan mehnat qiddilar. Natija kutilgandan ham ziyoda bo'ldi va zavod 1943-yil-yanvar oyiga kelib o'zining birinchi mahsulotini bera boshladi. 1943-yilning IV choragida zavod ishga tushdi, mazut bo'lmaganligi sababli u sheluxa yoqilib isitilar edi. Zavod har bir smenada uch yuz, to'rt yuz kilogrammgacha moy ishlab chiqara boshladi. Shu-yillar mobaynida-yiliga 979 tonna o'simlik moyi ishlab chiqardi, chigitni ishlash 10769 tonnaga, chigitdan olinadigan moy esa 11 foizga yetdi.

1942-yilning mart oyigacha bo'lgan vaqt mobaynida Surxondaryo viloyatiga 719 oila yoki 1862 kishi evakuatsiya qilindi. Evakuatsiya qilingan aholining 480 nafari erkak, 1059 nafari ayol, 323 nafari bolalar, yoki ko'chib keltirilgan aholining 1480 nafari ishga yaroqqi edi. Viloyatga ko'chirilgan ishga yaroqli aholi tezda ishlab chiqarishga jalb qilindi. Jumladan, ishga yarakli ana shu aholining 1209 nafari jamoa va davlat xo'jaliklarida ishga joylashtirilgan bo'lsa, 271 kishi esa turli tashkilot va muassasalarga ishga jalb qilindi. 1942-yilda toshkentlik ayollar respublikaning barcha ayollariga murojaat qabul qildi. Unda «O'zbekistonga evakuatsiya qilingan va boqimsiz qolgan bolalarga jamoat yordami ko'rsatish umumxalq harakatini avj oldiraylik. Har bir ishchining, har bir kolxozchining, xizmatchining, ziyolining oilasi, har bir korxonasi, jamoa xo'jaligi va davlat xo'jaligi shu bolalarni joylashtirish va tarbiyalashda faol qatnashsin», deyilgan edi. Toshkentlik ayollarning murojaatidan ruhlangan Surxon vohasi mehnatkashlari ham otaonasiz qolgan bolalarga astoydil g'amxo'rlik ko'rsata boshladi. Viloyat mehnatkashlari otaonasiz qolgan bolalarga yordam sifatida 18800 so'm pul to'pladilar va otaonasiz qolgan bolalar fondiga topshirdilar.

Mexridaryo surxondaryoliklar otaonasisiz qolgan bolalarga g'amxo'rliliklar qilish bilan birga ularni o'z xonadonlariga olib kelib tarbiyalab, voyaga yetkazish ishida ham faol ishtirok etdilar, norasidalarga otalik va onalik mehrini ko'rsatib, yetimlik alami bilan jarohatlangan dillarga malham bo'ldilar. Jumladan, ana shunday mehribon insonlardan Sherobod tumani g'urjak qishlog'ida yashovchi Egamberdi quvvatov 5 yoshli o'g'il bolani, viloyat xalq ta'limi xodimi Lesenkin 5 yoshli qiz bolani va uy bekasi K. I. Kolesova 2 yoshli qiz bolani o'z tarbiyasiga oldilar.

1942-yilning ikkinchi yarmiga kelib viloyatga ko'chib keltirilayotgan aholining soni ortib bordi, masalan, 1943-yilda viloyatga yana 966 kishi ko'chirib keltirildi. Ko'chib keltirilgan aholining 121 nafari erkaklar, 437 nafari xotinqizlar, 208 nafari 1 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar, 200 nafari esa 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan O'spirinlar edi. Jumladan, 1283 Polsha fuqarosi Sariosiyo tumanida o'rnashgan bo'lsa, 575 kishi esa Denov tumaniga qo'chirib keltirildi, 548 kishi esa Sho'rchi tumanidan boshpana topdi. Mehridaryo sho'rchiliklar ko'chirib keltirilgan ushbu jabrdiydalarga yordam tariqasida 2615 sum pul ajratdi, 59 kishiga esa moddiy yordam uyushtirdi. Shuningdek, 81 ta turli xil uyro'zg'or buyumlari, j u m l , 23 ta ko'rpa, 20 dona ko'ylak, 18 dona shim, 2 etik, 1 juft tufli va boshqa turli mahsulotlar insonparvarlik yordami ko'rsatdilar. Boshlanib ketgan urush viloyat sanoatchilarining oldiga ham bir qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'ygan edi. Bu muammolar avvalo ishchi mutaxassislar yetishmasligi, harbiycha ishlash usullariga o'tishdagi ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarda namoyon bo'ldi. Lekin shunday bo'lsada, ishchilar urush davri talablarini inobatga olib, stanoklar oddvda 16–18 soatlab mehnat qildilar. Albatga, ko'tshab ishchilarning frontga safarbar qilinishi ma'lum ma'noda sanoatni mutaxassislar bilan ta'minlash ishini qiyinlashtirdi. Misol uchun 1941-yilda viloyat sanoat korxonalarida 3766 kishi ishlagan bo'lsa, 1942-yilga kelib ishchilar soni 3316 kishiga tushib qoldi. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarida: «Urushga ketgan safdoshlarimiz o'rniga ham ishlayman», degan chaqiriqlar avj oldi. Ko'plab ayollar va bolalar sanoat korxonalarida ishlash istagini bildirib sanoat korxonalariga ishga joylasha boshladilar. Shu bilan birga har bir sanoat korxonasi qoshida ishga yangidan kelganlar malakasini oshirish va yangi ishchi mutaxassislar tayyorlovchi qisqa muddatli kurslar tashkil qilina boshladi. Jumladan,

ilgari ro‘zg‘or ishi bilan band bo‘lgan 595 xotinqiz urush boshlanishi munosabati bilan turli korxonalariga ishga jalb etildi yoki ana shu ayollardan 322 tasi sex, smena va brigada rahbarliga lavozimlarida faoliyat yurita boshladi. Uyro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lgan termizlik-mayorova urush boshlanishi bilan Termiz paxta tozalash zavodiga ishga kirib, birdaniga ikki ixtisoslikni egalladi va kundalik Asosiy savollarni 160200 foizga bajarib, hukumatning medalini olishga musharraf bo‘ddi. Shu bilan bir qatorda har bir tuman va viloyat markazida yoki sanoat korxonalarini qoshida qisqa muddatli kurslar tashkil etilgan edi. Ushbu kurslar yangi ishchi mutaxassislar tayyorlash, ishchilarning texnik malakalarini oshirish ishi bilan shug‘ullandi.

Barcha sanoat korxonalarida «ikkiyuzchilar», «uchyuzchilar» va «to‘rtiyuzchilar» harakatlari nihoyatda avj oddi. Jumladan, Voroshilov neft tresti ishchilari Rujin, Husainov va Aganovlar-iyun oyi Asosiy savollarsini 250 foizga bajargan bo‘lsa, iyul oyida esa Asosiy savollarni 280 foizga uddaladilar. Neftchilarning mehnat zafarlaridan ilxomlangan Termiz shahridagi «Zolotoprommat» arteli ishchilari ham kunlik Asosiy savollarlarini 200–250 foizga bajarishga erishdilar. 1941-yilda asosiy sanoat ishlab chiqarish hajmi 48,9 mln. so‘mga yetdi, vaholanki 1913-yilda bu raqam atigi 0,2 mln. so‘mni tashkil etar edi.

Viloyat sanoatchilari 1942-yilda ham juda katta kuchg‘ayrat bilan ishladilar, viloyat miqyosida staxanovchilik harakati nihoyatda avj oldi. Sanoatchilar fashizm bilan bo‘layotgan janglarda jon olib, jon berayotgan jangchilarning jasoratlarini qalban xis etib, ularga ko‘plab sanoat mahsulotlari yetkazib berish ishini avj oldirib yubordilar. «O‘sha og‘ir-yillarda «Progress», «Rodina», «Zolotoprommat» kabi tikuvchilik korxonalarini ko‘plab kiyimkechaklar tikib, oylik va-yillik Asosiy savollarlarini 150–160 foiz qilib bajardilar.

Bo‘layotgan urushda jangchilarni oziqovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash va ularning sog‘liklari haqida qayg‘urish ham front ortidagi barcha mehnatkashlarning bosh vazifalaridan biri edi. Shu munosabat bilan Termiz yog‘ zavodi jamoasi viloyatning barcha erkak va ayol ishchixizmatchilariga ochiq xat bilan murojaat qildi. Ochiq xatda «qadrli o‘rtoklar!!! Fashist gazandalarini qirayotgan himoyachilarimizning sog‘lig‘ini saklash uchun qo‘limizdan kelgan yordamimizni beraylik. Termiz va Denovdagi moy zavodlariga moy, sut va brinza topshiringiz. Sizning o‘z ehtiyojingizdan orttirib beradigan mahsulotlaringiz jangchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlasin. Ularning g‘alaba qozonish

soatlarini yanada yaqinlashtirsin», deyilgan edi. Termiz yog‘ zavodi ishchilari chaqirig‘idan ruxlangan jamoa va davlat xo‘jaliklari chorvadorlari: «Front Uchun yanada ko‘proq sut va yog‘ beramiz» shiori ostida ko‘plab sut va chorva mahsulotlarini Denov va Termizdagi yog‘ zavodlariga topshira boshladilar. Natijada yermiz yog‘ zavodi sutni va sut mahsulotlarini kunlik qayta ishlash Asosiy savollarsini 200–250 foiz bajarib, front ehtiyojlari va harbiy gospitalar uchun ko‘plab sut mahsulotlari jo‘nata boshladi. ta‘limtarbiya berdi. 1943-yilda viloyat kutubxonasida jangchilarning jasoratiga bag‘ishlab ko‘rgazmalar tashkil etildi. Birgina 1941-yilda viloyatning Termiz shaxri va 6 ta tumanida 19 ta aloqa bo‘limi tashkil etilgan bo‘lsa, 1941-yilning o‘zida 190 nafar xat tashuvchi viloyat aholisiga 10 mln. nusxaga yaqin gazeta va jurnal yetkazib berdi. O‘sha-yillarda elektrlashtirish va radiolashtirishni rivojlantirish yuzasidan ham katta ishlar amalga oshirildi va viloyat bo‘yicha 660 ta telefon apparati, 766 ta radio nuqtasi o‘rnatildi.

Urush-yillarida viloyat musiqali drama teatri san‘atkorlari ham samarali mehnat qildilar. Teatr jamoasi mehnatkashlarga Uyg‘unning «Ona», S. Abdulla va Chustiyning «qurbon Umarov», shuningdek, M. S. Urdoboduning «Besh so‘mlik kelin», U, Gajibekovning «Orshin mol olon», S. Abdulla va T. Jalilovning «Tohir va Zuhra», Komil Yashinning «Nurxon», «Oftobxon» va «Yoriltosh», «qaltis hazil» p‘esalarini namoyish etishdi. Bu-yillari viloyat teatrida 3. Olimov, A. Olimova, X. Boboxonova, Po‘latova, Yo‘ldosheva, H. Muhiddinov, Shukurov, Ro‘ziev va Odilova kabi san‘atkorlar samarali mehnat qildilar. Teatrning ijodiybadiiy ishlariga esa Mirobid Musaev rahbarlik qildi. Viloyatga evakuatsiya qilingan Xarkov operetga teatri ijodiy ahdi bilan bo‘lgan o‘zaro tajriba va fikr almashuvlar, ijodiy safar bilan kelgan mashhur san‘atkorlar Arkadiy Raykin, Maksim Shtraux, Mariya Babanovalar ishtirokidagi uchrashuvlar teatr hayotida katta taassurot qoldirdi.

Viloyat aholisining sog‘lig‘ini saqqash ishlarida A.S.Pushkin, ertotin Tuminovlar, S.M.Salmin, A.G.Nejegorodova, D.S.Sergeev, M.K.Musaboev, A.Z.Zohidova, Ya.K.Mo‘minov, K.S.Zoirov va D.S.Dodimov kabi shifokorlar alohida jonbozlik ko‘rsatdilar.

Umuman, Surxondaryo ahdi Ikkinchi jahon urushi-yillarida ham frontda, ham front ortida alohida jonbozlik ko‘rsatib, mashaqqatli azobuqubatlar va yo‘qotishlarga bardosh berdi. Yer yuzini fashizm

balosidan asrab qolishdek muqaddas ishda ishtirok etib, o‘ziga xos qahramonlik namunasini namoyish etdi.

### **Axborot-uslubiy ta’minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta’limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Ushbu mavzuni nazariy ochib berishda “So‘zli tasavvurlar” pedagogik metodidan hamda mavzu bo‘yicha vizual materiallar texnologiyasidan keng foydalanish mumkin. Shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

### **So‘zli tasavvurlar**

#### **Ta’rifi**

- O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.
- O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.
- Bironta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi.
- Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

#### **Foydalanish doiralari**

Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

#### **Afzalliklari**

Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta’lim sifatini baholashga yordam beradi.

### Qiyinchiliklari

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilish lozim. Jarayonning cho'zilishi mashq mohiyatini o'zgartirishi mumkin.

## **“Surxondaryo tarixi” fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil So‘zli tasavvurlar metodidan foydalanish**

### Ta’rifi

▪ O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.

▪ O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq.

▪ Bironta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi.

▪ Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

### Foydalanish doiralari

Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

### Afzalliklari

Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta’lim sifatini baholashga yordam beradi.

### Qiyinchiliklari

Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilish lozim. Jarayonning cho'zilishi mashq mohiyatini o'zgartirishi mumkin.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Front safarbarligi sharoitida Surxondaryolik faollarning qahramonliklarini izohlang.*
2. *Urush davrida vohada qishloq xo'jaligini rivojlantrishga qaratilgan islohatlar.*
3. *Fashizm agressiyasi voha aholisining demografiyasiga ta'siri.*

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k. T.: «Sharq», 1998.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'z'gusida.T., 2001.
3. Tursunov S.N., Pardaev T. Unutilmas jasorat. T., «Ma'naviyat», 1995.
4. Avliyoqulov Q, Ergashev R., Ismoilov R, Surxon yulduzlari, T., 1995.
5. Kozlovskiy V.N. Termiz shahrining tarixi, T., 1959.
6. Tarix, mustaqillik, milliy g'oya, T., «Akademiya»,2001.
7. Tursunov S.N. Denov yog'-ekstratsiya zavodi tarixidan lavhalar., Denov, 1992.
8. Qobilov E.O. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari, Termiz «Jayxun», 1993.

## 9- MA'RUZA. SURXONDARYODA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT (1946–1990-YILLAR)

### *Asosiy savollar:*

1. Urushdan keyingi-yillarda viloyat sanoati
2. Viloyat qishloq xo'jaligidagi ahvol
3. Maorif, madaniyat va adabiy harakatchilik

### **Tayanch so'zlar**

Mustabid tuzim sharoitida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi: yangi yerlarni o'zlashtirish, yutuqlar va muammolar. Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari. Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar. Voha adabiy harakatchiligi.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng O'zbekistonda tinch davr talabiga binoan xalq xo'jaligini tiklash ishlari boshlandi. Butun iqtisodiyotni, shu jumladan, sanoatni qisqa vaqt ichida davr ehtiyojlarini qoniqtiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tkazish uchun avvalo bir qator yetakchi tarmoqlarning bir tomonlamaligini bartaraf etish zarur edi. O'zbekiston mexnatkashlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq sanoat tarmoqparini rivojlantirishdan iborat edi. Urush bevosita respublika hududida bo'lib o'tmagan bo'lsada, lekin juda katga zarar keltirdi, ayniqsa, paxtachilikka katta ziyon yetdi. Urush-yillarida, xususan, 1942-1943-yillarda respublika jamoa xo'jaliklarida paxta-maydoni 212 ming gektar yerga yoki 24 foizga, davlat xo'jaliklarida 15,1 ming gektar yerga yoki 33 foizga qisqarib ketdi. Buning asosiy sababi paxta ekin-maydonlari o'rnida don ekinlari, qand lavlagi, kanop ekish bir necha barobar ortganligi edi.

Xuddi shu manzarani Surxondaryo viloyati misolida ham ko'rishimiz mumkin. Agar 1941-yilda viloyat bo'yicha 104 ming gektar yerga don ekilgan bo'lsa, 1943-yilda bu raqam 165 ming gektar yerni tashkil etdi. Viloyatda 1941-yilda 70000 tonna paxta hosili olinib, gektariga 17,1 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, 1945-yilda 43 ming tonna paxta yetishtirilib, gektariga boryo'g'i 10 sentnerni tashkil etdi, xolos. Paxta hosilining kamayishi paxta xom ashyosi hisobiga ishlaydigan paxta tozalash, yog'moy, to'qimachilik korxonalarini ishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublika qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikni qayta tiklash va yanada kjsaltirish O'zbekiston

mehnatkashlarining eng muhim vazifasi bo‘lib qoldi. Paxta ekiladigan maydonlarni to‘la ravishda qayta tiklash, paxta hosildorligini keskin ravishda ko‘tarish, seleksiya va urug‘chilikni yaxshilash zarur edi.

Shu maqsadda 1945-yil 14-iyunda sobiq VKP (b) Markaziy Komiteti va SSSR Xalq Komissarlari Soveti «O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risida», 1946-yil 2-fevralda esa «1946-1953-yillar davrida O‘zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish Asosiy savollari va tadbirlari tug‘risida» maxsus qarorlar qabul qildi. Paxtachilikka alohida e‘tibor berilishi uni qayta ishlovchi sanoat tarmokdagi rivojida keng imkoniyatlar ochdi. 1946-yil-oktabr oyida viloyat partiya komiteti plenumida 1946-1950-yillarda Surxondaryo viloyati xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishning besh-yillik Asosiy savollari qabul qilindi. Besh-yillik Asosiy savollarda paxtachilik sanoatini rivojlantirishga alohida e‘tibor berildi, ya‘ni 1950-yilda viloyatda paxta yetishtirishni 34,7 ming tonnaga, urushdan oldingi davrga nisbatan 54,2 foizga o‘stirish ko‘zda tutildi. Shu sababli viloyatda paxta zavodlari va yog‘ zavodi ishini qayta qurish, ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash Asosiy savollarlashtirildi.

Urushdan keyingi-yillarda paxta sanoatining eng muhim komponentlaridan biri sanalgan paxta tozalash zavodlarining texnik quvvatini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Paxtachilikka e‘tiborning kuchaytirilishi tufayli Surxondaryo paxta tozalash trestiga qarashli 3paxta tozalash zavodiga quyqdagi miqdorda kapital mablag‘ sarflandi:

Mana shu ajratilgan mablag‘lar xisobiga yangi paxta tozalash zavoddari qurish ishlari ham boshlandi. Xususan, 1947-yildan boshlab Sho‘rchi paxta tozalash zavodi qurilishi boshlandi, bu korxonaning qurilishiga 5 mln so‘m miqsorida kapital mablag‘ ajratildi. Ammo viloyat iqtisodiyoti uchun katta foyda beruvchi bu korxonaning qurilishiga yaxshi e‘tibor berilmadi, ajratilgan mablag‘lar yetarli darajada o‘zlashtirilmadi, buning natijasida katta miqsordagi mablag‘ behuda sarflandi. Buning sababi viloyatdagi ko‘plab paxta tozalash zavodlarining xom ashyo yetkazib beruvchi tumanlardan uzoqsa joylashganligi edi. Masalan, Termiz paxta tozalash zavodi Termiz va Sho‘rchi tumanlarida yetishtirilgan paxtani qayta ishlaydi. Korxonaning Jarqo‘rg‘on paxta tozalash punkti 65 km, Surxon 80 km, qumqo‘rg‘on 110 km uzokdikda joylashgan. Paxtani keltirish asosan temir yo‘l transporti orqali amalga oshirildi, buning uchun 5718

temir yo‘l vagoni jalb qilindi. Sho‘rchi paxta tozalash zavodi qurilishi esa 1961-yilga kelib nihoyasiga yetdi. Bu davrgacha qanchadanqancha mablag‘ behuda sarflangani yuqorida keltirilgan misolimizdan ayon.

Urushdan keyingi-yillarda viloyatning shimoliy tumanlarida paxta yetishtirishning ko‘payib borishi yangi paxta tozalash zavodi qurilishini taqozo qildi. Shu sababli 50yillarda Uzunda paxta tozalash zavodi qurilishi Asosiy savollarlashtirildi. 1950-yilda bu korxonada 197 ming so‘mlik qurilishmontaj ishlari bajarilishi kerak edi, ammo bu mablag‘ning 4 foizigina o‘zlashtirildi, xolos. Xuddi shu davrda Sho‘rchi va Jarqo‘rg‘on paxta tayyorlash punktlari qurilishi ham jadal usulda olib borildi. 50yillarning ikkinchi yarmida viloyatning shimoliy tumanlarida paxta yetishtirish-yildanyilga oshib borishi sababli bu tumanlarning paxtasini qayta ishlayotgan Denov va Xayrobod paxta tozalash zavodlarining quvvati yetishmayotganligi ochiq sezila boshlandi. Shu sababli viloyatdagi beshinchi Uzun paxta tozalash zavodini qurib foydalanishga topshirish birinchi darajali vazifa sifatida qaraldi, 1957-yilda bu zavod foydalanishga topshirildi. 1960-yilda viloyatning shimoliy tumanlarida 148,3 ming tonna paxta yetishtirildi. Denov, Xayrobod, Uzun paxta tozalash zavodlari yetishtirilgan paxtaning 134,7 ming tonnasini qayta ishladi.

Umuman, aytish mumkinki, 1946-1960-yillarda Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari bunyod etildi. Lekin 1960-yilga kelib viloyatda 5 ta paxta tozalash zavodi faoliyat yuritib, ular tomonidan 135,6 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqarilgan bo‘lsada, viloyat iqtisodiyotini, aholining turmush darajasini yaxshilashga unchalik ham ko‘p ijobiy ta‘sir ko‘rsata olmadi, chunki yetishtirilgan paxta tolasi, lint, momiq tayyor mahsulot holatiga keltirilishi uchun Rossiyaning markaziy shaharlaridagi to‘qimachilik fabrikalariga, shuningdek, Germaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Fransiya kabi davlatlarga yuborilgan. Yangi paxta tozalash zavodlarining ishga tushishi, albatta, viloyat iqqisodiyoti rivojida o‘ziga xos ijobiy rol o‘ynagan, bu shubhasiz.

Yuqorvda ta‘kidlaganimizdek, ajratilgan mablag‘lar faqat yangi paxta zavodlari qurshshshiga emas, balki mavjud paxta tozalash zavodlarini rekonstruksiya qilishga ham qaratilgan. Viloyatning eng keksa sanoat korxonasi sanalgan Termiz paxta tozalash zavodi 1946-yilda yana yangi jihozlar bilan qurollana boshladi. Korxonani yangi texnika bilan jihozlash davom ettirilib, 1948-yilda bahosi 13345,20

soʻmlik ventilator, 19535 soʻmlik hovuz, 18665 soʻmlik «Lenines» nomli lentali transportyor ishga tushirildi. Zavodda amalga oshirilgan ishlar, albatta, oʻz natijasini berdi va 1949-yilda zavod jamoasi Asosiy savollardagi 8820 tonna tola oʻrniga 9675,7 tonna tola ishlab chiqarib, Asosiy savollarni 103,7 foizga uddaladi, Asosiy savollardan tashqari 855,7 tonna tola ishlab chiqardi. 1946–1950-yillar ichida Denov, Sherobod, Hazarbogʻ paxta tozalash zavodlari ham qayta taʼmirlanib, yangi zamonaviy jihozlar bilan qurollantiriddi. Denov paxta tozalash zavodiga 590 ot kuchiga teng boʻlgan «Bolduin» markali dizel, generator, elektromotorlar, eski «TEM» markali linterlar oʻrniga yangi «XLM» markali linterlar, besh barabanli tozalagich va chigitni uzatuvchi transportyorlar oʻrnatildi. Urushdan keyingi-yillarda Sherobod paxta tozalash zavodining quvvatini oshirish viloyat xoʻjalik rahbarlarining diqqat markazida boʻldi. Korxonani zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlash ishlariga birgina 1949-yilda 18 ming soʻm mablagʻ ajratildi. Mana shu mablagʻlar hisobiga korxonada chigitni uzatish mexanizatsiyalashtirildi, gidravlik press, besh barabanli tozalashch oʻrnatildi. Lekin shuni ham taʼkidlash kerakki, Asosiy savollarda koʻzda tutilgan barcha ishlar turli sabablarga koʻra amalga oshmadi. Masalan, Termiz paxta tozalash zavodida «Meteor75» markali dvigatel, 2 dona «XLM» markali momiq ajratgich, 1000 tonna paxta hosili sigʻadigan ombor, presslar uchun elektromotorlar, Denov paxta tozalash zavodida laboratoriya, estakado, tosh ushlovchi, tok beruvchi dvigatellar, Sherobod paxta tozalash zavodida energiya beruvchi dvigatel, momiq tozalagich uskunalari oʻrnatilmadi. Albatga, bu ishlarning bajarilmaganligi korxonalarining normal surʼatda ishlashiga salbiy taʼsir qoʻrsatdi. Shu-yillar davomida Denov paxta tozalash zavodining elektr tokiga boʻlgan talabi, Sherobod paxta tozalash zavodining esa mexanizatsiyalash talabi qondirilmadi.

Maʼlum bir kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan boʻlishiga qaramasdan, 1946-1950-yillarda Surxondaryo paxta tozalash trestida baʼzi bir ishlar amalga oshirildiki, buni biz inkor eta olmaymiz. Birinchi navbatda paxta tozalash zavodlarining texnik jihozlanish darajasi yaxshilanib bordi: Paxta tozalash korxonalarining zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlanishi koʻproq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi: boʻlib, har ming kishi hisobiga tugʻilish 43,1% dan 41,5% ga tushib qoldi. Viloyatda ishga qobiliyatli yoshlar-yil hisobiga 18 ming kishiga koʻpayib bordi. Aholining 58 ming kishisi ishlab chiqarishdan

ajralgan holda turli sohalarda ta'lim oldi. 1989-yilda viloyatda 127 ming kishi mehnatga qobiliyatli holda ish yo'qligidan ishlamadi. Sobiq SSSR hukmronligi-yillarida viloyat sanoati asosan bir tomonlama rivojlandi. Viloyatda sanoat korxonalarini qurish nihoyatda sust amalga oshirildi. qurilgan sanoat korxonalari ham asosan xom ashyoga dastlabki ishlov berishga ixtisoslashgan edi. qolaversa mustabid tuzumning noto'g'ri iqtisodiy siyosati oqibatida butun respublikada paxta yakkahokimligining o'rnatilishi viloyat xalq xo'jaligini ham chetlab o'tmadi. Natijada Surxondaryo viloyati ham agrar tizimga ixtisoslashtiriddi. Aholini qo'shimcha ishchi o'rinlari bilan ta'minlash, sanoat korxonalari barpo etish borasida bildirilgan taklif va mulohazalar e'tiborsiz qoldirildi. Shunga qaramasdan vohaning fidoyi insonlari viloyat sanoat korxonalari sonini ko'paytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida tinimsiz harakat qilib, viloyat sanoati yuksalishiga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shdilar.

Urushdan keyingi dastlabki-yillarda viloyatda qishloq xo'jaligini har tomonlama taraqqiy ettirish, mavjud muammolarni tezroq tugatish, moddiytexnikaviy ahvolni yaxshilash kabi vazifalar turgan edi. Ishchi kuchining yetishmasligi, malakali mutaxassislar ko'pchiligining urushda halok bo'lganligi, davlat tomonidan yetarli darajada yordamning yo'kligi natijasida jamoa xo'jaliklarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish imkoniyati ancha chegaralangan edi. Achinarlisi shundaki, og'ir ahvolga qaramay, Markazdan berilayotgan ketmaket ko'rsatmalar, imkoniyatni hisobga olmay Asosiy savollarlashtirish, qo'shimcha mahsulotlarni yetkazib berish to'g'risidagi buyruqlar xalqning turmush darajasini qiyinlashtirib qo'ydi. Shunday sharoitda ham viloyat mehnatkashlari o'z zimmasidagi Asosiy savollar va topshiriklarni bajarishga ishonch bilan kirishdilar. Uzun tumanidagi mavjud 32 ta xo'jalikdan 28 tasi Asosiy savollarni oshig'i bilan bajarib, shundan 11 tasi har gekardan 1520 sentnerdan hosil oldi. O'rinboy Yo'ldoshev yetakchiligidagi «Yangi kuch» jamoa xo'jaligi a'zolari har gektar yerdan 21 sentnerdan, shu jamoa xo'jaligidagi Yoqubjon Hojimatov boshliq zveno a'zolari 35 sentnerdan hosil oldi. Tumandagi Samad qurbonov yetakchilik qilayotgan Voroshilov jamoa xo'jaligi a'zolari 1945-yil dehqonchiligidan 475,000 so'm, chorvachilikdan 1 mln. 500 so'm daromad oldi. Jamoa dehqonlarining-yillik mehnatiga 664 ming so'm pul, 650 sentner g'alla va 481 sentner go'sht taqsim qilindi. Shu tariqa o'rtacha har bir mehnat kuniga 5 so'mdan pul, 200 grammdan g'alla va 36 gramdan go'sht to'g'ri keldi.

Urushdan keyingi-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish nihoyatda og'ir kechdi, chunki texnika ta'minotining tangligi, mavjud texnikaning urushga safarbar etilganligi, ishchi kuchining yetishmasligi, qishloq xo'jaligini biladigan malakali mutaxassislarning yo'qligi bunga sabab bo'ldi. Dehqonchilik uchun urug'likning kamligi, jamoa xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan zaifligi qishloq xo'jaligini tezda o'nqlab olishga imkon bermadi. O'z navbatida dehqonlar barcha qiyinchiliklarni bartaraf etishga kirishib, 1946-yili 3700 gektar yerga chigit ekib, 63800 tonna paxta, shundan 2763 tonnasi ingichka tolali paxta yetishtirib, hosildorlikni 14,8 sentnerga ko'tardilar.

Paxta yetishtirishning urushdan avvalgi darajasini jadal tiklash va uni yanada ko'paytirish vazifasiga katta e'tibor berildi hamda paxtachilikka viloyat qishloq xo'jaligining hal qiluvchi tarmog'i deb qaraldi. Sho'rchi tumanida 1945-yili qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni Asosiy savollar asosida olib borish, mehnatga haq to'lashni to'g'ri tashkil etish, hosildorlikni oshirish, yangi navlar yaratish sohasida sezilarli tadbirlar amalga oshirildi. Jamoa xo'jaliklariga jamoat yordamini kuchaytirish tufayli 49 ta xo'jalikdan 33 tasi paxta tayyorlash Asosiy savollarsini oshirib bajardi. Tuman paxtakorlari 6330 gektar paxta-maydonining har gektaridan 11,1 o'rniga 12,95 sentnerdan hosil olib, paxta tayyorlash-yillik Asosiy savollarsini muddatidan ilgari 122,4 foiz qilib bajardi. Tilovov yetakchiligidagi «1-may» jamoa xo'jaligi, Elmurodov yetakchiligidagi «Leninobod» jamoa xo'jaligi va «Yosh g'ayrat» jamoa xo'jaligidan Jo'raev yetakchiligidagi zveno a'zolari har gektardan 109 sentnerdan, Zubborov boshliq brigada 45 gektar yerning har gektaridan 31 sentnerdan hosil olib, katta mehnat zafariga erishdilar.

O'zbekistonda paxta yakkahokimligining kuchayishi ko'plab salbiy oqibatlariga ham olib keldi. Ammo o'sha-yillarda respublikada «odil» hokimlarning kuchg'ayrati bilan xalq ongiga paxtachilikni jadal rivojlantirish O'zbekiston mehnatkashlarining moddiy farovonligini oshirishning ob'ektiv asosi ekanligi, bu o'zbek xalqining sobiq Sovet Ittifoqidagi barcha xalqlar bilan «mustahkam aloqa» va «buzilmas do'stligi» ifodasi ekanligi singdirildi. qishloq xo'jaligining texnika taraqqiyoti yo'lidan borishini ta'minlashda respublikadagi qishloq xo'jalik mashinasozligiga korxonalar va ilmiy salohiyat katga rol o'ynashi lozim edi. Urushdan keyingi-yillarda viloyat qishloq xo'jaligi zo'r berib, ziddiyatli tarzda rivojlanib bordi. qishloq xo'jalik

mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish darajasi keskin ravishda pasayib ketdi, paxtachshshkka jiddiy ziyon yetkaziddi, chorva to'yog'i kamaydi, uning mahsuldorligi pasayib ketdi.

Mashinatraktor parklarining texnikaviy holati nihoyatda tashvishlantirarli holda edi. Bu parklar 8-10-yillar mobaynida yangilanmagan, obdon ishdan chiqqan, eskirib qolgan mashinalardan iborat bo'lib, traktorlarning 33%i kapital ta'mirlashni, 11%i qayta tiklashni talab qilardi. Zarur texnikaning yo'qpigi dala ishlarining sifatiga noqulay ta'sir o'tkazar edi va oqibatda mehnat chiqimlari ko'paydi, mehnatni tashkil qilishning qadimiy qoloq shakllari avj olib ketdi. Chunonchi, urushdan keyingi-yillarda ham viloyatning ko'pgina g'allakor xo'jaliklarida ekin o'roq bilan o'rilib olinar edi, o'rilgan g'alla chorva mollarining to'yog'i bilan, bir qancha tumanlarda esa toshlar yordami bilan yanchilardi. Urushdan keyingi hayotning murakkab shartsharoitlari Ittifoq rahbariyati oldiga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishi va yo'lyo'rig'ini yangilash, boshqaruv tizimini zamon talabiga muvofiq takomillashtirish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'ydi. Zamonning o'zi katta o'zgarishlar yasashni talab qilardi, zotan xalq xo'jaligini tinch davr ehtiyojlariga moslab qayta qurishning manbalarigina emas, balki o'sha-yillardagi jamiyatning ma'naviy holati ayni shundan iborat edi. O'sha davrni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning eslashicha, odamlar istiqbolga katta umid bilan qarardilar, tub o'zgarishlarni kutardilar. Afsuski, bu orzuumidlar amalga oshmadi. Shundan keyingi voqealar ko'rsatganidek, liberallashtirish o'rniga, ko'p o'tmay mustabid tartibqoidalari yanada mustahkamlanib bordi. Urush jamiyatda jiddiy yo'qotishlarga olib keldi, tinch bunyodkorlik ishlarida o'z iste'dodi va qobiliyatlarini namoyon qilishga ulgura olmay, jangoxdarda halok bo'lgan millionmillion yoshlarning o'rnini hech narsa bilan to'ldirib bo'lmadi. Buyruqbozlikma'muriyatchilik tizimi xodimlarni tanlashning nomenklatura tamoyili hukmron bo'lgan bir sharoitda esa, bu hol manfaatlari mansabparastlikka, shuhratga, shaxsiy qulaylik va farog'atga erishishga qaratilgan shaxslarning xizmat zinalaridan ko'pincha yuqori ko'tarilishiga olib keldi. Bu davrda Stalin va Beriya nazorat qilgan zulmkor vosita mustabid tartibini mustahkamlashda aloxdsa o'rin egallar edi. Odil fikrlovchi xodimlarni ta'qiblash, ular ustidan chaqimchilik qilish va ularni nazorat ostiga olish bilan shug'ullanuvchi tizim puxta ishlardi. qishloq xo'jaligini tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy

yoʻnalishlari uchun turli kasbdagi malakali kadrlarni tayyorlash va agrar korxonalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan taʼminlashdan iborat keng qoʻlamdagi dasturni amalga oshirish zarur edi.

Viloyat rahbariyati qishloqqa ommaviy kasbdagi mexanizator va texnik kadrlarni, qishloq xoʻjalik mehnati uchun malakali xodimlarni koʻpaytirishga asosiy eʼtiborini qaratdi. Bu vazifaning muximligiga sabab shu ediki, urush natijasida kolxozchilar va agrar ishchilarning kadrlar tarkibi ancha yangilangan edi. Kadrlar tarkibi asosan mexnat stajiga, zarur kasbiy bilimlarga ega boʻlmagan xotinqizlar, oʻsmirlar bilan toʻldirildi. Chunonchi, 1947-yilda oʻtkazilgan tadqiqotga muvofiq viloyat davlat xoʻjaliklarida xodimlarning 50% ga yaqini 3-yildan kamroq stajga ega edi. Tinch qurilishga oʻtish paytiga kelib mexanizatorlar soni biroz koʻpaydi, lekin ularning soni mutlaqo yetarli emas edi. Holbuki, urushdan keyingi davrda qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishining barcha jarayonlarini yaxlit mexanizatsiyalash yuzasidan ilgari surilgan yoʻl dehqonchilikda va chorvachilikda texnika taraqqiyotining asosiy sohalari sifatida ish koʻruvchi juda qoʻplab yangi mexanizator va texnik kadrlarni oʻqitishda yetakchi ahamiyat oʻynadi. Biroq shuni ham uqgirib oʻtish kerakki, urushdan keyingi dastlabki-yillarda mexanizatorlarni kasbga oʻrgatish amaliyotida jiddiy qiyinchiliklar mavjud edi. Jumladan, malakali mexanizatorlarni va ishchilarni tayyorlash uchun zarur moddiy baza yoʻq edi, mexanizatorlar tayyorlovchi koʻpchilik maktablar eski binolarda joylashtirilgan edi. Turli ashyolar, koʻrgazmali qoʻllanmalar, zarur oʻquv asbobuskunolari, maxsus adabiyotlar yetishmasdi. Aslida barcha oʻquv yurtlarida oʻqituvchilar tarkibi toʻldirilmagan edi, shtatda turgan xodimlarning kasbiy darajasi esa koʻpincha past boʻlardi. Masalan, Hazarbogʻ (Denov), Kommunizm (Sherobod), Surxon (Jarqoʻrgʻon) maktablari pedagoglarining 60% maxsus maʼlumotga va pedagogik malakaga ega emas edi. Viloyat rahbariyati esa stalincha rahbariyat manfaatlarini taʼminlashga intilib, oʻzbek xalqining ehtiyoj va talablarini mutlaqo eʼtiborga olmadi. Buning natijasida paxta milliy boylikdan koʻra koʻproq minglab dehqonlar uchun katta kulfatga aylandi. 1946–1948-yillarda viloyat dexdonlari davlatdan 80 ta zanjirli NATI, 157 ta universal traktorlari va boshqa texnika jihozlari sotib oldi. Viloyatning Sherobod tumanida qishloq xoʻjalik mashinalari yetkazib berish oshib borib, «NATM75», «XATZ», «STZ» reaktorlari yetkazib berish 25 foizga, traktorlar 35

foizga va kombaynlar 15 foizga o'sdi. Urushdan keyingi-yillarda xo'jaliklarni yiriklashtirish amalga oshirildi. Jarqo'rg'on tumanidagi Oxunboboev, Telman, Paxtaobod nomli-mayda xo'jaliklar 1948-1950-yillarda Norali Boymurodov xo'jaligiga birlashtirildi. Natijada qudratli, iqtisodiy jihatdan baquvvat xo'jalik vujudga keldi. Uning ixtiyorida 26328 gektar yer bor edi.

To'rtinchi besh-yillik mobaynida irrigatsiya qurilishi avj oldirilganligi natijasida Surxondaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning kattakatta massivlari o'zlashtirildi. O'zbekiston Kompartiyasining X qurultoyi qishloq xo'jaligiga rahbarlikni yaxshilash, paxta-maydonlarini kengaytirish va uning hosildorligini gektar boshiga 25 sentnerga yetkazish vazifasini o'rtaga qo'ydi. Shu munosabat bilan irrigatsiya qurilishi va irrigatsiyamelioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ishlari jadallashtirildi. 1946-1948-yillarda viloyatda irrigatsiyamelioratsiya ishlariga katta e'tibor berilib, Denov-Yurchi botqoqligida melioratsiya ishlarining olib borilishi, Dushanbeqoratog', Hazarbog' va Zang kanallarini qayta ta'mirlash 40 ming gektarga yaqin yerlarning suv ta'minotini yaxshilash va 7 ming gektarga yaqin yangi yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Natijada 1948-yilning o'zida paxtadan 185 mln. so'm daromad olindi. To'rtinchi besh-yillik davri kolxoz tizimini mustahkamlashga urinishlar bilan tarixda o'rin oldi.

Bunday urinishlar mamlakat qishloq xo'jaligini yuksaltirish vazifalariga muvofiq tarzda xo'jaliklarning ishlab chiqarish imkoniyatini faollashtirish zaruriyatini taqozo etgan edi. Xo'jaliklarni boshqarish tizimini birmuncha takomillashtirish va uning a'zolari mehnatini tashkil etishni yanada yaxshilash, qishloq xo'jalik arteli ustaviga rioya qilish ustidan nazoratni kuchaytirish, haddan tashqari kengayib ketgan ma'muriy apparatni qisqartirish, kolxoz ishlab chiqarishini Asosiy savollarlashtirishni yaxshilashga intilish kolxoz tuzumini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning asosiy mazmuni bo'ldi. Stalincha zulmkorlik tartibi hukm surgan, kolxoz tizimi tabiatining o'zi chuqur o'zgarib, izdan chiqqan, dehqonlar esa yerdan va pasportdan mahrum bo'lishiga qaramasdan, SurxondaryoDa qishloq xo'jaligi o'sib bordi.

Xo'jalikni boshqarishning buyurokratik va valyuntaristik tartiblari shaxsiy tashabbusni bo'g'ib qo'ydi. Oqibatda viloyat qishloq xo'jaligi sohasida ham qator nuqson va kamchiliklar yuzaga keldi.

Jahonni o'z girdobiga tortgan urush g'alaba bilan tugallandi, hayot astasekinlik bilan izga tusha boshladi. Surxon vohasida urush davrida izdan chiqqan xalq xo'jaligi qatorida maorif va madaniyat ham qayta izga tusha boshladi. Urush viloyat aholisi uchun nihoyatda katta sinov bo'ldi, xususan, maorif va madaniyat dargoxdarining xodimlari urush davrining og'ir va mashaqqatli sinovlariga mardonavor bardosh berdi. Kdrg'inbarot urush jangoxlarida vohadan ketgan ko'plab o'qituvchilar shahid bo'ldilar, bu esa maktablarda o'qituvchilar sonining kamayishiga olib keldi. Ammo shunga qaramasdan tiklash davrining barcha qiyinchiliklarini bo'yniga olgan xalq har bir sinovga mardonavor tarzda javob berdi. Urushdan keyingi-yillarda yangi maktab binolarini qurishga hamda mavjud o'quv binolarini kengaytirishga va ta'mirlashga imkon bo'lmadi, qolaversa, maktablarda darsliklar va boshqa o'quv qurollari yetishmas edi. Shunga qaramasdan, o'z kasbiga fidoyi bo'lgan o'qituvchilar yoshlarga bilim berishda namuna ko'rsatib tinmay mehnat qildilar. Ana shunday o'qituvchilardan sariosiyolik Narzulla Norov, Termiz shaxridan V. A. Shevarnadze, Boysun tumanidan Bayna Chingizboeva, Sherobod tumanidan Suvon Eshboev kabi o'nlab o'qituvchilarning nomlari viloyat maorifi solnomalaridan abadiy joy oldi. Urush-yillaridagi samarali mehnatlari uchun mohir pedagog Saodat Nazarova 1946-yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi» unvoniga sazovor bo'ldi.

Viloyatda 1946–47 o'quv-yilida 280 ta maktab faoliyat ko'rsatdi, shuningdek, urush davrida otaonasiz qolgan 2000 nafar bola mavjud 15 ta bolalar uyida tarbiyalana boshladi. Bu davrda viloyat maktablarining malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanish darajasi nihoyatda og'ir ahvolda edi. Agar 1947–48 o'quv-yilida viloyat maktablarida 1890 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, ulardan qariyb 1000 nafari hatto o'rta ma'lumotga ham ega emas edi. Bu davrda viloyat maktablariga mutaxassislar tayyorlab berishda Termiz pedagogika bilim yurti alohida o'rin tutdi. 1949-50 o'quv-yilidan boshlab yetti-yillik majburiy ta'lim joriy etiddi, bu esa ayni vaqtda maktablar sonini ko'paytirish, mavjud maktablarning moddiytexnik ta'minotini yaxshilashni talab qilardi. Ushbu o'quv-yilida viloyatda 5 ta boshlang'ich maktab yetgi-yillik maktabga aylantirildi va qishloq joylaridagi boshlang'ich maktablar imkon qadar kengaytirildi. Agar 1947-yilda viloyatda 270 ta boshlang'ich va to'liqsiz o'rta, 10 ta o'rta maktab bo'lgan bo'lsa, 1949-50 o'quv-yiliga kelib viloyatdagi maktablar soni 285 taga yetdi,

shundan 11 tasi o'rtta, 136 tasi yetti-yillik va 138 tasi esa boshlang'ich maktablar edi. O'sha davrda qishloqlardagi maktab yoshidagi aholini maktabga jalb qilishda ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Ko'plab yoshlar boshlang'ich bilim bilan cheklanib qolayotgan edi, ayniqsa qiz bolalarni o'qishga tortish past darajada edi. Agar 1949-50 o'quv-yilida viloyatdagi mavjud 11 ta o'rtta maktabni 150 nafar o'quvchi bitirib chiqqan bo'lsa, shulardan 13 nafarigina qizlar edi. Bu holat vohadagi maktab yoshidagi qizlarni o'rtta umumiy ta'limga tortishni keskin kupaytirish lozimligini bildirardi.

1950-51 o'quv-yilida qo'shimcha 16 ta boshlang'ich maktab ochildi, mavjud 43 ta boshlang'ich maktab esa yetti-yillik maktablarga aylantirildi. Shuningdek, 32 ta maktabda qo'shimcha yangi o'quv binolari qurildi. Bu maktablar asosan otaliq tashkilotlari hamda jamoa va boshqa xo'jaliklarning kuchi bilan qurilgan bo'lib, ularning moddiytexnik ta'minoti o'ta past darajada edi. Ko'pgina maktablar moslashmagan binolarda joylashgan edi, qolaversa, maktablarda isitish tizimlari, zarur asbobuskunalar va mebellar yetishmasdi. Bu holat nafaqat viloyatda, balki butun mamlakatda ko'zga tashlanar edi. Buni keltirib chiqaruvchi sabab shu ediki, mustabid tuzum hukmronligi davrida xalq ta'limi tizimi «qoldiq prinsipi»ga asosan mablag' bilan ta'minlanardi. Maorif va madaniyatga qilinadigan sarfxarajatlar umumiy budjet mablag'larining 23 foizidan oshmas edi. Maktab o'quvchilarini darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlash darajasi ham o'ta nochor holatda edi. Bunday salbiy hollar o'quvchi yoshlarning maktablarni bitirmasdan tashlab ketish holatlariga olib kelardi.

Maktab ta'limi bilimlarni mukammal egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shib keta oladigan, turli o'quv muassasalariga kirib o'qiy oladigan, savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotlarga muhtoj edi. qishloq joylarda yoshlarning to'liq o'rtta ma'lumot olishi uchun yetarli shartsharoitlar mavjud emas edi, bu esa qishloqda bilimdon yoshlarning o'qish va bilim olishga bo'lgan qiziqishini ma'lum darajada so'ndirardi. qishloq joylarda yashovchi yoshlarning to'liq o'rtta ma'lumot olishiga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1950-yil 22-sentabrda «Yoshlarga o'rtta ma'lumot olishlari uchun zarur bo'lgan choratadbirlarni kuchaytirish» yuzasidan qaror qabul qildi. Ushbu qarorga binoan uzoq joylarda yashovchi yoshlarning to'liq o'rtta ma'lumot olishlari uchun shahar va posyolkalardagi ayrim maktablar

qoshida internatlar tashkil etildi. Ana shunday masgablilar Sho'rchil tumanidagi 1o'rta maktabda, Denov shahridagi 2o'rta maktabda, Boysun tumanidagi 1o'rta maktabda ish boshladi. Shuningdek, ishchi yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qitishni tashkil qilish borasida ma'lum ishlar amalga oshirildi, masalan, viloyatda 4500 nafar ishchi yoshlar kechki maktablarda ta'lim ola boshladi.

50-yillarning o'rtalaridan boshlab viloyatda maktablar va ularda ta'lim oluvchi o'quvchilar soni ortib bordi. Agar 1950-51 o'quv-yilida viloyat bo'yicha 15 ta o'rta maktab faoliyat yuritgan bo'lsa, 1954-55 o'quv-yiliga kelib o'rta maktablar soni 34 taga yetdi, 1959-60 o'quv-yilida esa bu ko'rsatkich 85 taga yetdi. Bu davrda viloyatdagi maktablarni malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash darajasi deyarli qoniqarli holatda emas edi. Barcha maktablarda 3144 nafar o'qituvchi ishlagan bo'lsa, shundan 322 o'qituvchi oliy ma'lumotli mutaxassis edi, xolos. Shuningdek, 544 nafar o'qituvchi umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lib, kasbiy pedagogik mahoratga ega emas edi. Bu holat viloyatda o'qituvchilar tayyorlash masalasi dolzarb muammoga aylanganligidan darak berar edi. 1953-yilga kelib Surxon vohasida ham viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish instituti tashkil topdi va joylardagi maktab o'qituvchilariga uslubiy yordam ko'rsatishda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini ommalashtirish hamda viloyatdagi maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashda katta ishlarni amalga oshira boshladi. Viloyat maktablarining o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1955-yilda Termizda ikki-yillik o'qituvchilar instituti bazasida Termiz Davlat pedagogika instituti tashkil etildi. Ushbu ilm dargohi qisqa vaqg ichida viloyat maktablariga 353 nafar o'qituvchi yetishtirib berdi. Ammo Surxondaryo va qashqadaryo viloyatlarining 1961-yilda birlashtirilishi natijasida, xalq xo'jaliganing barcha tarmoklarida bo'lganidek, boshqaruv ishlarida ham jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shu sababli ham Termiz Davlat pedagogika instituti qarshi Davlat pedagogika institutiga qo'shib yuboriddi. 1964-yilda ushbu ikki viloyat qayta bo'linganidan so'ng, 1965-yilda Termiz Davlat pedagogika instituti yana qayta tashkil etildi va institutga 1968-yili atokli adib Oybek nomi berildi.

Dastlabki davrda instituda 3 nafar fan nomzodi, 24 ta o'qituvchi 250 nafar talabaga ta'lim berdi.-yillar o'tishi bilan institut viloyatdagi yirik ilmiy va madaniy markazga aylanib bordi. Uning tashkil etilishi va

rivojlanishiga, o‘quvslubiy ishlarning takomillashib borishiga, yetuk malakali kadrlar tayyorlanishiga ko‘plab qobiliyatli va ishchan rahbarlar, olimlar salmoqli hissa qo‘shdilar. Jumladan, rektorlardan: geografiya fanlari nomzodi O‘lmas Abduqayumov (1954–1956), filologiya fanlari nomzodi M. Samatov (1956–1960), filologiya fanlari nomzodi Sobir Soliev (1965–1967), tarix fanlari nomzodi Vladimir qodirov (1967–1968), filologiya fanlari nomzodi X. Xoliyorov (1968–1970), biologiya fanlari nomzodi Abduraxmon qulmamatov (1971–1974), pedagogika fanlari doktori Oltiboy Haitov (1974–1983), akademik N. To‘raev (1983–2000), professor S. Tursunov (2000–2001), fizikamatematika fanlari doktori Ch. Saidov (2001–2002), professor X. Allaqulov (2002)lar institutning har jihatdan kengayishida, yangi o‘quv binolarining qurilishida, ilmiypedagogik kadrlarning tayyorlanishida, modsiytexnik bazaning mustahkamlanishida samarali mehnat qilishdi.

Viloyat xalq maorifi tarmoklari 1959–1965-yillarda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi va xalq maorifining moddiytexnik ta‘minoti birmuncha mustahkamlandi, ayni chokda maktablar malakali mutaxassislar bilan to‘ldirildi. 1965-yilga kelib sakkiz-yillik vag o‘rta politexnika ta‘limi maktablari 397 taga yetdi, ularda 130764 o‘quvchi ta‘lim ola boshladi, ularga 4117 nafar o‘qituvchi ta‘limtarbiya bergan bo‘lsa, shulardan 1473 nafari oliy ma‘lumotli edi. Bu davrda o‘quvchilarning turli kasbhunarlarini egallab olishlari borasida ham muxim ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan 1959-yil martida «Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta‘limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida» qabul qilingan qonun o‘qitishni yanada rivojlantirish, ta‘limni hayotga, ishlab chiqarishga yaqinlashtirish, yosh mutaxassislar yetishtirib chiqarish sifatini oshirish maqsadlarida butun o‘quvtarbiyaviy ishni takomillashtirishni ko‘zda tutardi. Ana shu maqsadda viloyatdagi maktablar ishini qayta qurish va ta‘limni ijtimoiyfoydali mehnat hamda ishlab chiqarish bilan bog‘lash sohasida anchagina ishlar amalga oshirildi. O‘quvchilarni kasbhunarga tayyorlashni kengaytirish borasida talay ishlar qilindi. O‘n bir-yillikka aylantirilgan 60 ta o‘rta maktabda ishlab chiqarish ta‘limi joriy etilib, ularning 49 tasi qishloq joylarida, 11 tasi esa shahar joylarida tashkil etildi. 1961–1962 o‘quv-yilida boshlang‘ich maktablarning bir qismi va barcha yetgi-yillik maktablar sakkiz-yillik maktablarga aylantirildi. Umumiy majburiy ta‘limga o‘tish yaxshi samaralar berdi, buni o‘quvchilarning turli sabablar bilan di

tarixi» (Termiz, 1996), dotsent A. qulmamatovning «Umurtqasizlar zoologiyasi» (Toshkent, 1987), dotsent T. Annaevning «Rannesrednevekovme poseleniya Severnogo Toxaristana» (Toshkent, 1988), professor U. Umarovning «Xalq maorifi iqtisodiyoti» (Toshkent, 1981) va boshqa qator olimlarning darslik hamda qo‘llanmalari chop etilib, fan ravnaqiga katta ulush qo‘shiddi. Surxondaryoda iqtisodiy, madaniy hayotni targ‘ib etishda «Surxon tongi» gazetasining o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Gazeta 1935-yilda tashkil topib, dastlab «qizil chegara», 1956-yil 21-maydan «Lenin bayroga», 1991-yildan «Surxon tongi» nomi bilan nashr etildi.

Surxon vohasi adabiy harakatchiligi sarchashmalari ulug‘ adiblar Daqiqiy shohnomanavisligi, Munjik hajvnavisligi, Adib Sobir Termiziy g‘azalnavisligi bilan yo‘g‘rilgan. qalblari faxru g‘ururga limmolim, ijodi ko‘ngillar sururiga to‘la bu alloma shoirlar Termiz va Chag‘oniyon adabiy muhitida nash‘u namo topgan edilar. Ko‘hna Termiz va Chag‘oniyon o‘z rizqini Chag‘onrud (Surxon) va Turkondaryo (Sherobodaryo) hamda Okus (Og‘uzAmudaryo)dan olgani kabi vohaning she‘riyat an‘analari tub ma‘noda baxshichilikdan ibtido topgani yanada maroqlidir. Darhaqiqat, baxshichilik Surxon she‘riyatining ilk manshasi sifatida o‘ziga xos jihatlarni namoyon etadi. Do‘mbira jarangi, baxshi ohangi, qaxramonlar tasviri, el taqdiri birbiriga qorishib, omuxtalashib ketadi. Sherobod baxshichilik va dostonchilik maktabi sarhadlari juda keng bo‘lib, uning o‘z tarixi, o‘z taqsiri, o‘z tadriji, o‘z yo‘nalishi bor, uning hududiga Janubiy Tojikiston, qashqa vohasi, Turkmanistonning ayrim tumanlari va Shimoliy Afg‘oniston daxddor.

Sherobod dostonchilik va baxshichilik maktabining dongdor namoyandalari va qator asoschilari mavjud hamda ular vujudga keltirgan o‘ziga xos ajoyib an‘analar hanuz davom etib kelmoqsa. Sherobod baxshichilik maktabining yirik vakillaridan biri **Shernazar baxshi Berdinazar** (ayrim manbalarda Beknazar, tavallud va vafoti sanalari 1855–1915) o‘g‘li (1866–1920) dir. U Sherobod tumaniga tobin Ozon qishlog‘ida tug‘ilgan, aytishlaricha, 78 yoshlaridan do‘mbira chertib, doston ayta boshlagan ekan. Uning ustoz qosim yuzboshi bo‘lib, u 20 yasharligida Buxoro amirligi hamda Xorazm xonligining ko‘zga ko‘ringan baxshilari bilan aytishib, ularni qoyil qoldirgan. Sherobod baxshilarining ushbu silsilasi va sulolasi aslida Bobo shoirdan ibtido topadi, tub sherobodlik bo‘lgan bu shoir XIX asrning boshlarida o‘tgan.

qosim yuzboshi ana shu Vobo shoiring shogirdi bo'lgan, o'z navbatida qosim yuzboshi Xolmurod qosim o'g'li, Alim yuzboshi va Shernazar Berdinazar o'g'li singari baxshilarni tarbiyalab voyaga yetkazishda xizmati ulug'dir. Sherna baxshi ham ustoz qosim yuzboshi izidan borib, ayni balog'atga yetgan 17 yoshida Sherobod bekligining nomdor baxshisi Niyozali jebachi bilan aytishadi va bu aytishuvda g'olib chiqadi. Sherna baxshi g'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Hisor va boshqa beklarning baxshilari bilan bellashadi, bellashuv g'olibi sifatida baxshilar sardoriga aylanadi.

Sherna baxshi nomi bilan bog'liq ellikdan ziyod dostonlar mavjudligini bilamiz va undan 20 dan ortiq doston yozib olingan. U o'zidan keyingi avlodga mansub ko'plab baxshilarning ustoz hisoblanadi, chunonchi, Mardonaqul baxshi Avliyoqul o'g'li, Mamarayim baxshi Safar o'g'li, Bo'riboy baxshi Ahmad o'g'li uning shogirdlaridir. Shuningdek, ozonlik Normurod baxshi Sherna o'g'li, gilamboplik Ahmad baxshi, Nurali baxshi Boymat o'g'li, oqqo'rg'onlik Yusuf baxshi O'tagan o'g'li, g'o'rinlik Jo'ra Eshmirza o'g'li kabi ilg'or baxshilar ham Sherna baxshining sevimli shogirdlari qatoriga kiradi.

Sherobod dostonchilik maktabining vakillaridan yana biri mashhur baxshi **Shoto'ra yuzboshi Boyqul o'g'li** (1887-1947)dir. Shoto'ra yuzboshi Sherobod tumani, Kallamozor qishlog'ida tavallud topadi, otasi Boyqul shoirdan baxshichilik sirlarini o'rganadi. Boyqul baxshi bir necha marta Buxoro amiri Muzaffarxon huzurida doston aytib baxshichilik vasiqasiga sohib bo'ladi. Shoto'ra baxshi ota izidan borib elu ulusga taniladi, xalqning to'yu shodiyonalarida xizmat qiladi, o'z dostonlari bilan kishilarni xushnud aylaydi. Shoto'ra baxshi «Alpomish» va «Go'ro'g'li» turkumiga oid qirqqa yaqin dostonlarni yuksak mahorat bilan kuylagan. Bundan tashqari «Yodgor», «Shodmonbek», «Savdogar» nomli boshqa qator dostonlar ham uning ijod bisotidan hisoblanadi.

O'zining betakror ovozi, o'ziga xos sozi bilan Sherobod baxshichilik maktabida unutilmas iz qoldirgan va yangi o'zanini yarata olgan baxshilardan sanalmish **Mardonaqul baxshi Avliyoqul o'g'li** (1889–1975, Sherobod, Ozon qishlog'i) ikki yoshida onadan yetim qoladi va tog'asi Sherna baxshi qo'lida tarbiya topib, voyaga yetadi. Mardonaqul baxshi Sherna baxshiga ham jiyan, ham farzand, ham kuyov, ham shogird bo'lib, u Sherna baxshidan dostonchilik sirlaridan, baxshichilik sehrlaridan ta'lim oladi. Mardonaqul baxshi

dostonchilikda o'z usulini ixtiro qila olgan yetuk san'atkorlar safida turadi. Undan yozib olingan «Alpomish» dostoni namunasi shu mavzudagi boshqa dostonlar ichida yetakchi o'rindadir. Mardonaqul baxshining dostonchilikdagi an'alarini denovlik baxshilardan Toshmurod To'ra o'g'li (tavshshudi 1897), Eshmurod Sherdon o'g'li (tavalludi 1904), angorlik Rahim baxshi (tavalludi 1899), qiyom baxshi Chori o'g'li (tavalludi 1907), boysunlik Ulash baxshi g'ozi o'g'li (1892–1969), sherobodlik Ali Said Hayitnazar o'g'li (1902–1953), tojikistonlik Bo'ri baxshi Ahmad o'g'li (tavalludi 1914) va boshqalar yuksak mahorat bilan davom ettirdilar. Aslida Shoto'ra yuzboshi, Mardonaqul baxshi, Mamarayim baxshi, Umir baxshi, Bo'ri baxshi ijodi bilan alpomishgo'ylikning yangi bosqichi boshlandi. «Alpomish» dostoni mavzuining chinakam qirralarini namoyish etish hozirda Surxon vohasi baxshilari tomonidan o'sha qadim va ustuvor an'ana asosida davom ettirilmoqda. Darhaqiqat, Chorsha baxshi, qora baxshi, Boborayim baxshi, Chori baxshi, Xushboq baxshi, Shoberdi baxshi, Jumanazar baxshi, Abdunazar baxshi, Shodmon baxshi, Zulxumor baxshilar tilida «Alpomish» dostoni jaranglab ikkinchi umrini boshladi. Bular orasida Chorsha baxshi, Xushboq baxshi, Boborayim baxshi, Shoberdi baxshi va Jumanazar baxshi singarilar o'ziga xoslik jihatidan ayricha tabiatli ijodkorlar sirasiga taalluklilik kasb etadi.

**Chorsha baxshi** (1932-yil, Sherobod, Kattatut qishlog'i) ijodi oldingi ajdod baxshilari bilan keyingi avlod baxshilarini bog'lab turuvchi zanjir. U bolalikdan qo'shiq va ashula aytishga qiziqqan, qishlog'idagi Nazar baxshi, Eson baxshi, ozonlik Mardonaqul baxshi, takiyalik Jo'ra baxshilar davrasida ko'p bo'lgan, ulardan duoi fotiha olib, terma va dostonlar aytishni boshlag'an. Chorsha baxshining yuzdan ortiq termalari bor va u ellikdan oshiq dostonni yoddan biladi. Chorsha baxshi ijodiga tegishli «Toshbosar» (1998), «Hurso'na» (1999), «Yodgor» (2000) dostonlari nashr etilgan, shundan ikkinchi va uchinchi dostonlar Alpomishning qizi va o'g'li taqdiri haqida hikoya qiladi. Baxshining hali nashr yuzini ko'rmagan va elga yetib bormagan «Ko'ng'iriyot» dostoni esa g'oya e'tibori ila turfa mazmunga boydir, doston qahramoni qo'ng'iriyot asli Boysarining o'g'li. Shohimardon pining aytishlaricha, Boysari yot elda o'g'il ko'rishi mumkin edi, shundan Boysari qalmoq elidan qaytmay, u yerda uzoq muddat qolib ketadi. qalbi ummon qadar cheksiz Chorsha baxshining «Olponbek» (Alpomishning o'g'li), «Shoh Shayx Mardon

bobo» nomli ajoyib asarlari nashr egalish arafasida turibdi. Shafqatsiz o‘lim shoirni 2002-yili 20-fevralda bizning oramizdan olib ketdi. **Boborayim baxshi Mamatmurod o‘g‘li** (1936-yil, Uzun, Tomchi) o‘z uslubi jihatidan, o‘z ijodiy faoliyati bilan boshqa baxshilardan tubdan farq qiladi. U xonish qilganda eshituvchini lol qoddiradi, o‘ziga rom etadi, uning ovozi tinglovchining qalbini sururga to‘ldiradi, diliga xushnudlik soladi, uning qo‘shiklari kishini hududsiz olamga yetaklaydi. Boborayim baxshining otasi Mamatmurod bobo do‘mbirani tilga kirita oladigan yetuk san’atkorlar safida turgan, u soz chalganda eshituvchining qalbini tiralagan. Shundan bo‘lsa kerak, Mamatmurod bobo xonadonida baxshilar jam bo‘lishib dostonlar kuylashgan, termalar aytishgan. Ularning xonadonida Mirzoqul baxshi, Chori baxshi, Abdullaxon eshon kabi mashhur baxshilar tez-tez mehmon bo‘lib turishar edilar.

Ana shularning barchasi Boborayimning kelgusida iste’dodli baxshi bo‘lib yetishuvida zamin hozirladi. Unga ustozlari Mirzoqul baxshi va Chori baxshilar baxshichilik sirlaridan saboq berishdi. Boborayim yoshligidan do‘mbirani xonishga keltira olar edi, bu unga otasi Mamatmurod bobodan o‘tgan bo‘lsa ajab emas. U do‘mbirada «Sarvinoz», «g‘aribnoma» kuylarini qiyomiga yetkazib chaladi va atrofda gilarni doimo qoyil qiladi. Boborayim baxshi Mamatmurodov 1991-yili Respublikamizda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va qozog‘iston baxshishoirlari ishtirokidagi nufuzli tanlovning bosh sovrindori bo‘ldi. Yaqinda baxshining «Sarvigul. Avazxon ota yurtida» nomli dostonlari nashr etildi. «Avazxon ota yurtida» dostoni «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlariga qo‘shilgan yangi bir asar sifatida o‘z ardog‘iga ega, zero, ushbu doston an’anaviy «Go‘ro‘g‘li» turkumi dostonlari orasida yangi mavzu, yangi mazmun talqinlari e’tibori bilan ham ajralib turadi.

Boborayim baxshining farzandi **Ravshan Mamatmurodov** (1969) ham do‘mbirani xonishga keltirishda otasidan qolishmaydi, terma aytishda va doston kuylashda ancha tajriba to‘plashga ulgurgan, ko‘plab dostonlarni yoddan biladi. U 1987-1992-yillarda Termiz Davlat Universitetining o‘zbek tili va adabiyoti kuvduzgi bo‘limida ta’lim oldi, maktabda ishladi, baxshilarning jami ko‘riktanlovlarida hamisha ishtirok etishni kanda qilmaydi.

**Xushboq baxshi** (1942-yil, Sherobod, Ozon qishlog‘i) mashhur Mardonaqul baxshining farzandi, unga baxshichilik ona suti bilan kirgan, u talay baxshilar tanlovining g‘olibi. Xushboq baxshi «Soqi bulbul»,

«Malla savdogar», «Suv pari», «Zarnigor», «Balogardon» dostonlarining yangi ko‘rinishlarini yaratdi. Xushboq baxshi ijrosidagi «Alpomish» o‘ziga xos qirralarga ega va «Alpomish» dostoni ayni shu ijro tufayli o‘zining ikkinchi umrini boshladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. «Alpomish» kinossenariyasi ham Xushboq baxshi tomonidan yoziddi, ayni paytda u qator shogirdlarning ustozidir. Elga tanilgan atoqli kuychi, respublikada birinchi «O‘zbekiston xalq baxshisi» nomli yuksak unvon sohibi Shoberdi baxshi Bolta o‘g‘li ham xuddi shu Xushboq baxshi Mardonaqul o‘g‘lidan baxshichilikning ilk saboqlarini olgan edi.

Endilikda Sherobod baxshichilik maktabining yangiyangi vakillari va avlodlari paydo bo‘la boshladi, ushbu maktab namoyandalarining ijodiyotiga aloxdda diqqat e‘tibor kuchaydi. Ana shu tariqa bu maktab ijodkorlarining dovrug‘i oshib, elning ixlosu e‘tiqodiga sazovor bo‘lmokda. Baxshichilik, dostonchilik bilan she‘r va pyuirlik an‘analari rivojlana boshladi, baxshi va shoir, terma va she‘r tushunchalari yagona bir narsaning ikki teng pallasi bo‘lgani singari, ular birbirining tajribasidan ilhom oldi hamda ijodiy ta‘sirlandi. XX asrning 30yillarida ana shu ajoyib an‘ana yangi ko‘rinishda jilolana boshladi. Adabiyot o‘zi yashagan har bir zamonga, har bir zamanga hamnafasdir, u qaysi davrda paydo bo‘lsa, o‘sha davrning xususiyatlarini o‘zida tajassum etadi. Zero, yozuvchi ijodida u yashagan muhit, uni yetishtirgan xalq turmushi, tili, orzuarmonlari, istakniyatlarini ifoda etiladi. Surxon vohasida baxshi va shoir atamalari bir so‘zdek jarangdorlik hamda ohangdorlik kashf etadi. O‘zbek she‘riyati bo‘stoniga kirib kelgan Ra‘no Uzoqova shu o‘lka quchog‘ida unibo‘sdi, Tesha Saydaliev el olqishiga sazovor bo‘ldi, Nizomjon Parada she‘rlaridagi falsafiy tasvir va ta‘rif kitobxonlar diqqatini o‘ziga tortdi.

O‘zbek nasrida takrorlanmas maqomga ega Shukur Xolmirzaev Surxon vohasining so‘lim tabiati lavhalarini, zahmatkash insonlarining tarixini, taqdirini o‘zbek adabiyotiga olib kirdi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzaev o‘zbek xikoyanavisligida yangi o‘zan ixtiro qilish barobarida Toshkentdek shahri azim bag‘rida Surxon adabiy harakatchiligini vujudga keltirdi. Erkin A‘zam, Usmon Azim, Nodir Normat, Mirza Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, qo‘chqor Norqobil, Salim Ashur, miy nomidagi Toshkent Davlat pedagogiga instituti(1963–1967)da ta‘lim oldi, falsafa fanlari nomzodi, zullisonayn ijodkorlardan. Uning «Hofiz dallol» (1991), «Esiz «Napoleon» (1996), «Uzoq yashash siri» (2000), «Az yangaam narajed»

(«Yangamdan ranjimang», 2000), «Elim, yurtim deb yashasa odam» (B.Yoriev bilan hammualliflikda, 2001) kabi turli xil to‘plamlari kitobsevar do‘stlarga taqdim etilgan. Shu kabi ijodkorning bolalarga atab yozgan ayrim she’rlari «qirq oyoq va qirq paypoq» (1990) to‘plamidan ham joy olgan. U kelajagimiz bo‘lmish bolalarimiz dunyosini chuqur mulohaza etadi, shoirning «Uzoq yashash siri» she’riy to‘plami ayni ularga bag‘ishlangan. Ayniqsa, to‘plamdagi topishmokdar, bosh qotirmalar bolalarni o‘ylashga undaydi.

Orifiyning «Hofiz dallol» hikoyalar to‘plamida qam bolalarbop hajviyalar mavjud, shulardan biri «Bolaga sir bermang» deb ataladi va unda bola tabiatiga xos shumlik aks ettiriladi. Uning hikoyalarida va she’rlarida yetakchi mavzu halollik, poklik, komillik bo‘lib, yaxshilik, ezgulik g‘oyalari ilgari suriladi. U o‘z she’rlarida kishilarni kamtarlikka chorlaydi, xudsi shu xislatlar ko‘proq rahbarlarga tegishli ekaniga ham ochiq ishora qiladi.

Voha adabiy harakatchiligiga oid chizgilar bu boradagi barcha jabhalarni qamrab olgan, deb bo‘lmaydi. Bu mavzu hali ko‘plab yangi nomlar bilan boyitilishi lozim, ushbu sohada izlanishlar tinmay davom ettirilishi ayni muddaodir.

### **Axborot-uslubiy ta’minot**

Ushbu mavzuni o‘tishda ta’limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu boradagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Ma’ruza usuli” hamda “Namoyish (demonstratsiya)” texnologiyasi kabi interaktiv metodlaridan, shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan.

## Ma'ruza usuli

Bu uslub butunlay «so'zlash» orqali amalaga oshiriladigan o'qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o'quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi.



### Ma'ruza metodining qulayliklari:

- Ma'lumotlar, tushuntirishlar (izohlar) va faktlar rasional ravishda taqdim etiladi
- Mazmun va vaqt jihatidan oson rejalashtiriladi
- Emosional jihatdan kuchli imkoniyatlar ishlatilishi mumkin

### Ma'ruza metodining kamchiliklari:

- O'quvchining faolligi nihoyatda cheklangan
- O'quvchi materialni o'zlashtirganligini deyarli aniqlab bo'lmaydi

### Ma'ruzani tushunarligini oshiruvchi jihatlar:

- Fikrni sodda tilda bayon etish
- Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'g'ri tuzilganligi
- Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash
- Rag'batlantirish (stimullar)
- Notiqlik, ravon tilda gapirish va talaffus

**Fikrni sodda tilda bayon etish:** O'z fikrini sodda ifodalash – yaxshi o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'z fikrini murakkab tilda ifodalash - ziyolilik va professionalizm belgisi hisoblanmaydi. O'z fikrini sodda tilda ifodalash – tinglovchibop gapirish demakdir.

Soda tilda gapirishga quyidagilar vositasida erishiladi:

- Aytilgan fikrni ko'rgazmali qilib yetkazish
- Fikrni qisqa gaplar vositasida ifodalash
- Oddiy so'zlarni ishlatish
- Atamalar ma'nosini tushuntirib ketish
- CHet tili kirib kelgan so'zlarni iloji boricha ishlatilmaslik, ishlatilgan taqdirda tushuntirish berish
- Sodda tuzilishsha ega bo'lgan gaplarni ishlatish
- Aktiv fe'llarni ishlatish

**Ma'ruza tuzilmasining (strukturasining) mantiqan to'g'ri tuzilganligi**

Ma'ruzaning ushbu belgisi ma'ruzaning tashqi tuzilishi va ichki tartibini to'g'ri tuzilganligini bildiradi. Ma'ruzaning tashqi tuzilishi - uni o'qishda qilinadigan quyidagi hatti-harakatlarini bildiradi:

- ◆ Ma'ruza mavzusi bilan tanishtirish
- ◆ Mavzuni asoslash
- ◆ Mantiqiy tuzilma asosida ma'ruzani olib borish
- ◆ Ma'ruzani yakunlash

Ma'ruzaning ichki tartibi uni o'qishda rioya qilinadigan mantiqiy ketma-ketlikni bildiradi:

- ◆ Ma'lumotlar mantiqiy to'g'ri ketma-ketlikda berilishi
- ◆ Ma'ruzaning alohida qismlari o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish
- ◆ Mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish
- ◆ Bir fikrdan boshqa fikrga sakrab o'tishiga yo'l qo'ymaslik
- ◆ Muhim va uncha muhim bo'lmagan narsalarni farqlash
- ◆ «Fikrlar kalavasi» aniq bilinib turishi

**Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash.** Fikrlarni qisqa va lo'nda ifodalash deganda, ma'ruza mazmunining ortiqcha vaqt ketmasdan, lo'nda, aniq va to'g'ri ifodalanishi tushuniladi:

- ◆ butunlay o'quv maqsadga qaratilgan
- ◆ asosiy mazmunga qaratilgan
- ◆ to'g'ri (bexato) ifodalardan iborat
- ◆ muhim va kerakli izohlar bilan cheklangan

**Rag'batlantirish (stimullar).** Rag'batlantirish (stimullar) deb ma'ruza tarkibidagi shunday qo'shimchalar tushuniladiki, ular ma'ruza mazmunini tinglovchilarga jonliroq qilib beradi va shu orqali ularning e'tibori va qiziqishini ta'minlaydi. Stimulyasiyaga quyidagilar yordamida erishiladi:

- ◆ Ma'ruza mazmunlarini turli qiziqarli faktlar, masalan urf-odat, hikoya yoki misollar yordamida aniqlashtirish
- ◆ Taassurotli gapirish
- ◆ Aytilayotgan fikrlarni ko'rgamali tarzda yetkazish (vizuallashtirish)
- ◆ qiyoslarda raqamlar va faktlarni ishlatish
- ◆ Tinglovchilarbop qiziqarli ifodalarni tanlash
- ◆ SHaxsiy fikrni bildirish
- ◆ Tinglovchilarning fikr-mulohazalaridan foydalanish

**Ma'ruzaning tuzilishi (strukturasi).** Ma'ruza odatda uch qismdan: kirish, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'ladi.

Kirish qismi:

- qutlash
- Mavzu
- Maqsad
- Tashkiliy savollar
- Motivasiya, qiziqishni o'yg'otish

Asosiy qism:

- Asosiy fikr 1
- Asosiy fikr 2
- Asosiy fikr 3 va hokazo.

Yakuniy qism

- Natija va xulosa
- Umumlashtirish
- Umumiy lashtirish
- Keyingi mavzuga nazar tashlash

**Ma'ruzachiga qo'yilgan talablar**

**Gavdani tutish:** Tik, tinglovchilarga qaratilgan, erkin, ikki oyoqqa mahkam tayangan, boshi ko'tarilgan, ammo burun ko'tarilmagan holatda.

**qo'llar:** Bo'sh holatda, ikki yonda osilib turgan yoki kamardan yuqorida ikki qul bir biriga ulangan; kamardan yuqoridagi harakatlar, tasavvurli (ifodali) hatti-harakatlar– gapirish tezligida emas balki, sokin, asta-sekin va xotirjam.

**Yuz:** Tinglovchilarga qaratilgan, xotirjam.

**Ko'z qarashlari:** Hadeb bir kishiga tikilmasdan, auditoriyadagi har bir kishiga 3-5 sekund davomida qarash, samimiy

**Harakatlar:** Maqsadga muvofiq tarzda bir joydan boshqa joyga o'tish, «o'tirib-turishlar» emas, xotirjamlik bilan yordamchi vositalarni qo'lga olish va ishlatish, xotirjam harakatlar, onda-sonda tinglovchilar tomoniga o'tish.

**Ovoz:** Tanaffuslar bilan (ayniqsa harakatlar paytida), sekin tezlikda va baland ovozda gapirish.

## **Ma'ruza mashg'ulotini olib borishda Namoyish (demonstratsiya) metodidan foydalanish hamda talabalarni ushbu metod orqali kreativligini oshirish bo'yicha ko'rsatma**

Har qanday ish o'quvchilar turlariga mos holda va tez o'zlashtirish mumkin bo'lgan topshiriq sifatida berilishi maqsadga muvofiq. Agar topshiriq sifatida berilayotgan ish ko'proq qo'l mehnatini talab etsa, uni o'rgatish va egallash mumkin bo'lgan kichik elementlarga ajratish lozim. Ayrim o'quvchilar ishni ehtiyotkorlik va mufassal ko'rsatib berishni talab qilishlari mumkin.

O'quvchi duch kelayotgan qiyinchiliklarini topa olish va bu qiyinchiliklarni yengishning turlicha yo'llarini topish orqali o'quvchining topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga erishish bu o'qituvchining san'ati hisoblanadi. O'z navbatida bu san'at o'quvchining duch kelayotgan qiyinchiliklari orqali o'rganishni ham o'z ichiga oladi, qaysiki, o'qituvchi tomonidan namoyish etish jarayonida tushunishga qiyin bo'lgan nuqtalar o'quvchi tomonidan topshiriqni bajara ololmaslik ehtimolini keltirib chiqaradi.

Boshqa so'z bilan aytganda, o'qituvchi o'quvchilarda to'g'ri taassurotni keltirib chikarish uchun topshiriqqa mos bo'lgan so'zlarni va tayanch nuqtalarni topa olishi kerak. Odatda asosiy nuqtalar sezish, ko'rish yoki eshitish qobiliyatlariga aloqador bo'lsa ularni so'z bilan ifodalash qiyin bo'ladi. SHu sababdan namoyish etish jarayonida ta'riflar keltirilganda ehtiyotkor bo'lish zarur.

Namoyish etish usulini qo'llashga doir ko'rsatmalar:

Ma'lum bir topshiriqni qanday bajarish kerakligini namoyish etish san'atiga quyidagi bosqichlarni amalga oshirmasdan turib erishish ehtimoldan yiroq.

- Namoyish etish uchun o'z materiallaringizni tayyorlang. Siz uchun kerak bo'lgan barcha jihozlar, asbob-uskunalar va boshqa narsalar avvaldan tayyor holga keltirilishi lozim.
- O'quvchilarni namoyish etish jarayoni bilan tanishtiring. O'quvchilarga topshiriq nimadan iborat ekanini ayting va ularning qiziqishlarini e'tiborga olishga harakat qiling. Ularni mashg'ulot boshlashga va tinglashga tayyor ekanliklariga amin bo'lish maqsadida ularning onglariga kirib borishga harakat qiling. O'qituvchi uchun sodda bo'lgan narsa o'quvchi uchun o'ta murakkab bo'lishi mumkin.

- O‘quvchilarni sizning namoyishingizni oson ko‘ra olishlari uchun ularni to‘g‘ri joylashtiring.

Umuman olganda, o‘quvchilar murabbiyning orqasidan kuzatishlari maqsadga muvofiq, bu o‘z navbatida ular topshiriqni o‘zlari bajarayotgan vaqtlarida qanday holatda bo‘lishlarini kuzatishga sharoit yaratadi.

- Toshirikni bajarishni muvofiq tezlikda namoyish eting.

O‘quvchilarga topshiriq nimalardan iborat ekanini ko‘rsatish maqsadida uni normal tezlikda o‘rgatishga harakat qiling. Bu kabi namoyish etish jarayoni bir daqiqadan oshmasligi lozim, agar topshiriq uzoqroq cho‘ziladigan bo‘lsa, uni to‘xtatib va bosqichma-bosqich namoyish etish kerak.

- Topshiriqni sekinlik bilan takroran ko‘rsating va har bir bosqichda nimalar sodir bo‘lishi haqida aniq qilib ehtiyotkorlik bilan tasvirlab bering. Tayanch nuqtalarga alohida e‘tibor qarating.

Sekin bajarish imkoni bo‘lmagan topshiriqlar normal tezlikda lekin alohida-alohida bajarilishi lozim. Bu bilan asosiy nuqtalarga e‘tibor berib o‘tish imkoni yaratiladi.

- Har bir o‘quvchini o‘qituvchi bilan birgalikda o‘sha topshiriqni bajarishga majbur qiling.

Har bir o‘quvchini topshiriqni bajarayotganda o‘qituvchi yordami bilan o‘zini «ish» jarayonidagidek his qilishlariga erishing. Har qanday savolga javob bering va har qanday xatoni o‘sha zaxotiy oq to‘g‘irlang. O‘quvchi egallashi qiyin bo‘lgan har qanday nuqtalarni qaytadan ko‘rsatib bering, bu jarayon qachonki o‘quvchi uni to‘g‘ri bajarmaguncha davom etadi.

- Har bir o‘quvchini topshiriqni amalda bajarishiga erishing.

Har bir o‘quvchini topshiriqni amalda normal tezlikda bajara olgunlariga qadar davom ettirishlariga erishing. SHu bilan bir qatorda, amaliy faoliyat davomida o‘quvchilarni to‘g‘ri usuldan foydalanayotganlariga amin bo‘lishingiz muhimdir. Noto‘g‘ri uslubdan foydalanish oqibatida to‘g‘ri uslubdan foydalanish orqali o‘rganish qiyinchiliklar bilan kechadi.

- Har bir o‘quvchining topshiriqni bajarish qobiliyatini tekshiring.

Har bir o‘quvchi topshiriqni, uning asosiy nuqtalarini to‘la tushunganiga va bajara olish qobiliyati borligiga amin bo‘ling.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. *Urush va uning iqtisodiy oqibatlarini boshdan kechirgan vohaning sanoati.*
2. *Qishloq xo‘jaligida xalq bandligini ta‘minlash.*
3. *Fan va madaniyat Surxon vohasini rivojlantiruvchi muhim olimi sifatida.*

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston Milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura. 1jild, T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Tursunov va boshq. Surxondaryo tarixi. T.: Sharq, 2004.
4. Avliyoqulov Q. Va boshq. Surxon yulduzlari. T.: 1995.
5. Berdiev H., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: 1991.
6. Mirzaev Z., Qobilov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi. Termiz. Jayhun, 1996.
7. Mustaqillik ma’naviyat va tarbiya. TerDU ilmiy to‘plami. T.: 2000.
8. Ro‘ziev A.N. Surxondaryo viloyati. Termiz. Jayhun, 1996.
9. Termiz-yilnomasi. Tuzuvchilar: S.Tursunov, H.Kichkilov T.: Sharq, 2001.
10. Tursunov S.N, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirish shartlari va pasayish omillari. T.: 1996.

## 10-MA'RUZA: SURXONDARYO MUSTAQILLIK-YILLARIDA

### Asosiy savollar:

1. Viloyat sanoati
2. Qishloq xo'jaligi
3. Xalq ta'limi va madaniyat.
4. Adabiy hayot.
5. Sog'liqni saqlash tizimi.

### Tayanch so'zlar:

**Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xo'jaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat o'zgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.**

Milliy istiqloqlarning qo'lga kiritilishi bilan butun mamlakatda bo'lganidek, Surxon vohasida ham har tomonlama rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi. Mustabid sovet tuzumi davrida viloyat sanoati o'ta bmqiq tarzda ma'lum bir yo'nalishlar asosida rivojlangan bo'lib, asosan yarim tayyor mahsulotlar, ya'ni xom ashyoga birinchi ishlov berishga ixtisoslashgan edi. Sanoat korxonalarining kam miqdorda bunyod etilishi oqibatida viloyat asosan agrar ishlab chiqarishga moslashib qolgan edi. Shu sababli ham viloyatda paxtachilik sanoati, oziqovqat sanoati va qurilish sanoatiga ixtisoslashgan ba'zi bir korxonalar bunyod etila boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikka xos ko'p ukladli tizimning shakllanishi, qolaversa Respublika hukumatining va viloyat hokimiyatining tashabbusi bilan viloyatda sanoat korxonalarini keng miqyosda barpo qilish, viloyat sanoatiga chet el investitsiyalarini kiritish va bu orqali qo'shma korxonalar, o'rta va kichik korxonalarni shakllantirish borasida samarali siljishlar amalga oshirildi. Mulchilik yangi shakllarining vujudga kelishi, kishilarda haqiqiy mulqdorlik tuyg'usining qaror topishi, ishlab chiqarish jarayonining tamomila yangi tartibda tashkil etilishi viloyat sanoatida ham ulkan o'zgarishlar yasalishiga olib keddi. Natijada o'tgan davr oralig'ida viloyat sanoati ham miqdor jihatidan, ham sifat jihatidan yangi pallaga qadam qo'ydi. Natijada ilgari faqat agrar sohaga ixtisoslashgan viloyat xo'jaligi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat korxonalariga ega boy hududga aylandi. Natijada

vohada yoqilg'i energetika sanoati, mashinasozlik sanoati, qurilish materiallari sanoati, paxta tozalash sanoatidan iborat industrial majmua tarkib topdi. Shuni aloxida ta'kidlash joizki, sovetlar davrida O'zbekistonning sanoat taraqqiyoti jihatidan eng kam rivojlangan viloyati bu Surxondaryodir. Surxondaryo viloyati o'z sanoatining rivojlanishi jihatidan 1990-yilda respublikada o'ninchi o'rinda turardi. Sanoat qoloqligini bartaraf etish uchun butun respublikada bo'lgani singari Surxondaryoda ham aniq choratadbirlar amalga oshirila boshladi. Yengil sanoat korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlash ishlari olib borildi. Ayniqsa, paxta tozalash sanoati sohasida ma'lum bir ijobiy o'zgarishlar amalga oshirila boshladi.

Mustaqillikning ilk bosqichlarida ma'lum bir qiyinchiliklar bo'ldi, xususan, sobiq Ittifoq davridagi aloqalar uzilgach, ta'minot izdan chiqdi. Ko'pgina paxta tozalash zavodlarida ehtiyot qismlar, asbobuskunalar, jihozlar yetishmasligvdan ancha qiyinchiliklar yuz berdi. Yuqoridagi muammolarni ijobiy hal etish uchun korxonalarining mavjud ichki imkoniyatlaridan foydalanishga to'g'ri keldi, bu esa albatta, o'zining ijobiy natijalarini berdi. Agarda 1990-yili viloyatda mavjud 11 ta paxta tozalash zavodi 143,5 ming tonna tola ishlab chiqargan bo'lsa, 1991-yilda bu raqam 145,4 ming tonnani tashkil etdi. Viloyat yengil sanoat korxonalari 1992-yili 1 247 000 pogon metr shoyigazlama, 99,5 mln. so'mliqdan ko'proq tikuvchilik buyumlari, 20,1 ming juft poyafzal, 19,2 ming dona trikotaj buyumlari, 5,2 ming dona paypoq, 2,3 tonna yigirilgan ip tayyorladi.

Surxondaryo yengil sanoatining yetakchi tarmoklaridan biri bo'lgan paxta tozalash zavodlarida yangi texnologiya bilan qurollantirish ishlari olib borildi. Agarda 80yillarda mavjud paxta tozalash zavodlarida «Mehnat» agregatlari faoliyat yuritgan bo'lsa, endi ularning o'rnini UXK mashinalari egalladi. Buning natijasida avvalo ish unumdorligi oshdi, sexlardagi chang miqdori yarmiga kamaydi. «VS12» va «UVS12» rusumli ventilatorlar o'rnatildi va «OVM» o'rnini «VTM» mexanizmlari egalladi. Tukli chigitni ushlab qolish maqsadida «RX» mexanizmi, arrali sehda esa yangi «5LGT» shiterlari ishlay boshladi. Albatta, bajarilgan ishlar o'z natijalarini bera boshladi, xususan, paxta tozalash sanoati birlashmasi 1994-yilni muvaffaqiyatli yakunladi. Paxta tozalash zavodlari 131,6 ming tonnadan ko'proq tola ishlab chiqardi, Asosiy savollar 102,2 foizga bajarildi. Tola ishlab chiqarish hajmi 1993-yilga nisbatan 3,7 foizga

qo'paydi, momiq tayyorlash hajmi salkam 108 foizga uddalandi, 237 ming tonna chigit tayyorlandi.

Mustaqillikka erishgach, paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tola sifatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Chunki Ittifoq davrida tola qaerga, qanchadan sotilishini faqat Moskva hal qilardi, endi bu masalani har bir korxonaning o'zi hal qila boshladi. Mahsulotning jahon bozorida xaridorgir va sifatli bo'lishi uchun harakat boshlandi. Masalan, 1993-yilda ishlab chiqarilgan tolaning 82,5 foizi sifat belgisi talabiga javob bergan bo'lsa, 1994-yilda bu ko'rsatkich 94,2 foizni tashkil etdi. Momiqning 98,6 foizi Davlat standarti talablariga javob berdi va-yil mobaynida 10,9 mln. so'm foyda olindi. Bu ko'rsatkich natijasida 1993-yilga nisbatan qariyb 11 barobar o'sishga erishildi. Shu-yili Xayrobod, Muzrabod, Sho'rchi, qiziriq paxta tozalash zavodlari jamoalari yaxshi natijalarga erishdilar. Uzun paxta tozalash zavodida noto'qima material ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, yangi sex 1993-yilda 90,3 ming pogon metr mato ishlab chiqadi. Bu esa zavodlarga ishlab chiqarilayotgan paxta toylarini o'rovchi materiallarga bo'lgan talabning bir qismini qondirish imkonini berdi.

Bugungi kundagi vazifa son emas, balki sifatdir. Shu sababli Surxondaryo «Paxtasanoatsotish» hissadorlik birlashmasi korxonalari jamoalari iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga yondashgan holda jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishga alohida e'tibor bermoqsalar. Ular 1994-yilda 131,6 ming tonna tola va 6723 ming tonna momiq ishlab chiqardilar, natijada salkam 11 mln. so'm foyda olinib, bu sohada 1993-yilga nisbatan 11 barobar o'sishga erishildi. Viloyat paxta tozalash zavodi sanoati birlashmasi rahbar va mutaxassisleri tayyorlanayotgan tola sifatini yanada oshirish maqsadida tumanlardagi paxta tozalash zavodlarini yangi asbobuskunalar bilan jihozlashni yo'lga quydilar. Denov, Sho'rchi, Xayrobod va Jarqo'rg'on paxta tozalash zavodlarida tolaning pishiqligini va uning uzilish kuchini yaxshilash maqsadida tolni ho'llaydigan maxsus uskunalarni o'rnatdilar. Natijada zavodlarda tayyorlangan tolaning pishikdigi oshirilib, uning uzilishi 20 foizga kamaydi.

Viloyat paxta tozalash zavodlarida yangi zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish dadil joriy etila boshlandi. Angor paxta tozalash zavodida noto'qima materiallar ishlab chiqaradigan sex o'rnatildi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning eni 90 santimetr, bo'yi 180 santimetr uzunlikda chiqariladigan bo'ldi. Zavodda 2,5 ming o'rniga 6 ming metr

noto'qima materiallar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotildi, hatto chiqindilar qayta ishlanib, mahsulot olina boshladi. Bu tadbirkorlik natijasida har oyda Asosiy savollardagidan 50 60 tonna ko'p momiq ishlab chiqaridsi, chunki 1 tonna momiq jahon bozorida 500 dollarga baholandi.

Surxondaryo viloyati asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashganligi sababli ham vohada paxta tozalash sanoatining alohida o'rni mavjud. Agar 1910-yilda vohada dastlabki paxta tozalash zavodi qurilgan bo'lsa, o'tgan davr mobaynida bir butun paxta tozalash sanoati tarkib topdi. 1995-yilga kelib, ushbu sanoat tarkibida 11 ta qudratli 12 batareyalik paxta tozalash zavodlari va 45 ta paxta punkti mujassamlashdi. Viloyat paxta tozalash sanoati korxonalarining tola ishlab chiqarish quvvati esa 132 ming tonnani tashkil qildi. Mustaqillik davrida Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari qurilib ishga tushirila boshlandi. Jarqo'rg'ondagi «Bunyodkor2» hissadorlik jamiyati jamoasining ishlari olqishga loyiq. Ular qumqo'rg'on paxta tozalash sexlarini zamonaviy serunum mashinalar bilan jihozlashdi va-yiliga 30 ming tonna paxtani qayta ishlaydigan korxonani foydalanishga topshirdilar. S Xuddi shunday korxonalar To'palangda ham bunyod etiddi. Umuman, vohada paxta tozalash sanoati borasida jiddiy yutuqlar va o'zgarishlar bo'lmoqsa. Viloyatning yagona ipyigiruv fabrikasi bo'lgan Jarqo'rg'ondagi korxonalar 1994-yilda hissadorlik jamiyatiga aylandi, kishilarning mehnatga, mulkka munosabatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz bera boshladi. Buni quyidagi raqamlardan ham bilish mumkin: hissadorlar 1996-yil davomida amaldagi narxlarda 190,1 mln. o'rniga 236,6 mln. so'mlikdan ziyodroq mahsulot ishlab chiqardi, mahsulot sotish esa salkam 2,8 barobar ko'paydi. Hissadorlar o'tgan-yilni 1309 tonna kalava ishlab chiqarish va salkam 6,9 mln. kvadrat metr mato to'qish bilan yakunladilar, mehnat unumdorligi 113 foizga o'sdi. Bunday yutuqlarga mavjud to'quv va yigiruv dastgohlaridan unumli foydalanish tufayli erishiddi. O'tgan-yili to'quv ishlab chiqarishida korxonalarni yangi texnika bilan qayta qurollantirish Asosiy savollarsining birinchi navbati amalga oshirildi. Rossiyaning Cheboksari shahridan shartnomaga binoan keltirilgan «Agu1005m» rusumli to'quv dastgohlari o'rnatildi. Natijada eni 90 santimer bo'lgan «Mintokol32» o'rniga jahon andozalariga mos keladigan, eni 164 santimetrli «BYaZ4794» artikulli mato to'qish imkoniyati tug'ildi. Bu stanoklar yordamida o'tgan-yili 1 mln. 395 ming kvadrat metr mato to'qididdi. Yangi dastgohlarning xosiyati shundaki, ular serunum, sifatli

mahsulot tayyorlaydi va shovqinsiz ishlaydi, ishchi kuchini kam talab qiladi.

Yangi dastgohlar tufayli 1996-yili to'quv ishlab chiqarishida quvvatlardan foydalanish darajasi 1995-yilga nisbatan 24 foizga, yigiruv bo'yicha 9 foizga oshdi. Korxonada to'qima mahsulotining 70 foizi, yigirilayotgan ipning 65 foizi sifat belgisi talablariga to'liq javob beradi. Korxonada yutug'ini quyidagi raqamlardan ham bilishimiz mumkin: u-yil davomida 257,2 mln. so'mdan ko'proq yalpi daromad olgan. Olingan sof foyda 7 mln. 862 ming so'mni tashkil etadi, shundan 5 mln. 584 ming so'm hissadorlik jamiyati ixtiyorida qolgan, 376 ming so'm mablag' moddiy rag'batlantirish va xayriya jamg'armasiga, 837,6 ming so'm esa ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan.

Bunday yutuqlarni Boysun shoyi to'qish fabrikasida ham ko'rish mumkin. Agar fabrika tarixiga nazar solib, ijtimoiy dinamikaga nazar qilar ekanmiz, bunga ishonch hosil qilamiz (mahsulot ishlab chiqarish ming so'm hisobida):

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy tadbirlarning hal qiluvchi bo'g'inida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni turadi. Buning bosh sababi shuki, O'zbekiston aholisining 64% dan ko'prog'i qishloqqa yashaydi, qolaversa sanoatga xom ashyo yetkazib beradigan, odamlarni kiyintiradigan hamda to'ydiradigan soha ham qishloq xo'jaligidir. Viloyat qishloq xo'jaligi istiqbol-yillarida juda katta o'zgarishlar jarayonini o'z boshidan kechirdi. Ushbu sohani tubdan isloh qilish, aholining mulkka bo'lgan yangicha munosabatini qaror toptirish oson kechmadi. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni Surxon dehqoni faoliyatida ulkan o'zgarishlar yasadi. Yer o'zining haqiqiy egasini topdi, mulkchilikning shirkat, ijara, oilaviy pudrat va fermerlik shakllari qaror topdi, xullas, deqqon yerning haqiqiy xo'jayiniga aylandi. Sovet mustabid tuzumidan meros bo'lib qolgan eskicha ishlash tartiblari hayotning shiddatli oqimlariga bardosh bera olmay qoldi. O'tgan davr mobaynida viloyat mehnat ahli qishloq xo'jaligi sohasida ulkan sinovlardan o'tib, boy tajriba to'pladi. Barcha sinov va mavjud qiyinchiliklardan muvaffaqiyat bilan o'tishda soha vakillarining mulkka bo'lgan munosabati o'zgardi. Mehnat ahli o'zini yerning haqiqiy egasi deb bilganligi va qilingan zahmatning manfaatlaridan bahramand bo'layotganligi asosiy belgilovchi omil bo'lib xizmat qildi. Istiqbol-yillarida qishloq xo'jaligida mulkchilikning tamomila yangi shakli

fermer xo‘jaliklarining tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etdi. Viloyat qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklarining soni-yildanyilga oshib bordi, buni quyidagi misoddan ham bilib olsa bo‘ladi. Agar 1992-yilda viloyatda jami 261 ta fermer xo‘jaligi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1995-yilda mazkur xo‘jaliklar soni 2003 taga, 1999-yilda esa 2814 taga yetdi. Agar 1992-yilda viloyatdagi fermer xo‘jaliklari 2272 gektar yerda dehqonchilik qilgan bo‘lsa, 1999-yilga kelib fermer xo‘jaliklari dehqonchilik qilayotgan yer-maydonining sathi 14155 gektarni tashkil etdi. Mulkchilik shakllarining o‘zgarishi dehqon va chorvadorning mexnatga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirdi. Mustaqillik-yillarida viloyat qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida juda katta tajriba qo‘lga kiritildi. Oqibatda Surxondaryo dehqonchilik maktabining azaliy an‘analari qayta tiklandi, respublika hukumatining bevosita yordami, viloyat hokimiyatining tashabbuskorligi va voha dehqonlarining tadbirkorligi va fidoiyligi evaziga dehqonchilikda «Surxondaryo tajribasi» qaror topdi. Zero, mustaqillik-yillari Surxon dehqoni uchun ulkan sinovlar, o‘nglanishlar va tajriba to‘plash davri bo‘ldi.

Mustaqillik davrida qishloq xo‘jaligi mukammal rivojlanish yo‘liga tushib olishi uchun birmuncha qiyin holatni o‘z boshidan kechirdi. Chunki Asosiy savollarlashtirish, ishlab chiqarishni aniq bir tizimga solish, iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olish, davlat tomonidan berilayotgan mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanish, texnika ta‘minoti sohasida mavjud bo‘lgan beboshlikka chek qo‘yish muhim masala edi. Istiqlol-yillarida qishloq xo‘jalik sohasida amalga oshirilgan katta ishlardan biri mulkka bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish, xususiy va shaxsiy mulkka haqqoniy munosabatni shakllantirish bo‘ldi.

Dastlabki davrda qishloq xo‘jaligi moddiy-texnik ta‘minotining og‘irligi, mablag‘ning yo‘qligi qator muammolarni yuzaga keltirdi. Mahsulot yetkazib beradigan ekin-maydonlari meliorativ holatining yomonligi, ko‘plab ekin-maydonlarini sho‘r bosib, yerning zaxlashi haddan ziyod kuchayganligi, ariqzovurlarning ko‘milib ketishi tufayli tuproqning afar holati jiddiy buziddi. Sobiq sovet davrida hukm surgan paxta yakkahokishshgidan voz kechish, ekin-maydonlarining asosiy qismini donli ekinlar ekadigan-maydonga aylantirish, xalqning‘ oziqovqat mahsulotiga bo‘lgan talab-ehtiyojini qondirish muhim masala bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonni iqtisodiy jihatdan yuksaltirishda uning agrar sohadagi yutug‘i nihoyatda muhimdir. Buning katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etib, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov shunday degan edi: «Bugun jamiyatimiz shuni anglab oldiki, hayotimizni yaxshilash, aholi turmush darajasini ko‘tarish, iqtisodiyotimizning samaradorligini oshirish, xalqimizni boqish, istiqbolimizni Asosiy savollarlash, xullas, qanday muammo, qanday masalani ko‘rmaylik, ularning aksariyati birinchi navbatda qishloq xo‘jaligiga borib taqaladi. Hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha qishloq xo‘jaligi tarmoklaridir».

Shu ko‘rsatmalar asosida mustaqil O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi hozirgi bosqichda tubdan qayta o‘zgarishlarni o‘z boshidan kechirmoqda. Dexdon mehnatini qadrlash, uning mehnatiga haqqoniy haq to‘lash, sovet tuzumi davrida yo‘l qo‘yilgan xatokamchiliklarni bartaraf etish, agrar siyosat sohasida to‘g‘ridanto‘g‘ri beriladigan ko‘rsatmalardan ehtiyot bo‘lish, xo‘jaliklar iqqisodiy mustaqilligini o‘z ixtiyoriga berish dolzarb masala bo‘lib turdi. Sobiq sovet tuzumi davrida cheksiz yangi yerlar o‘zlashtirilib, katta ekin-maydonlari vujudga keltirilib, yuzlab sug‘orish shoxobchalari, o‘nlab suv omborlari qurilsada, dehqon turmushida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lmadi, qishloq xo‘jaligining iqtisodiy qudratini ko‘tarish borasida amaliy ishlar qilinmadi. Paxta hosildorligini oshirish, bu soha uchun zarur bo‘lgan moddiytexnik ta‘minotni yaxshilash borasidagi ishlar tufayli O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy qudratini saqlab qoldi. Surxondaryo vohasida 320 ming gektar sug‘oriladigan yer bo‘lib, har gektar yerga 12,5 ming kubmetr suv berildi.

Mustaqillikning dastlabki davridayoq O‘zbekiston hukumati mamlakatning oziqovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida donli ekinlarga alohida e‘tibor berib, don mustaqilligini ta‘minlash borasida keskin choralar ko‘rdi. Donli ekin-maydonlarini kengaytirish bilan birga, uning hosildorligini oshirish borasida ham bir qator muhim ishlar qilindi. Mamlakatda 1992-yili 56,20 ming gektar-maydonga bug‘doy ekilib, o‘rtacha 19,6 sentnerdan hosil olinib, jami 110105 ming tonna bug‘doy davlatga sotildi. Ayniqsa, sug‘oriladigan ekin-maydonlari 34,13 ming gektarga yetkazilib, o‘rtacha 28,2 sentner hosil olinib, davlatga 96,419 ming tonna bug‘doy sotildi. Bu ko‘rsatkichlarga paxta ekin-maydonlarini kamaytirish hamda yangi

o‘zlashtirilgan yerlarning asosiy qismiga donli ekinlarni ekish hisobiga erishildi.

Viloyat dexdonchiligi og‘ir iqtisodiy sharoitni bartaraf etib, 1994-yili 327 ming gektar sug‘oriladigan yerga ekin ekilib, shundan 219,3 ming gektari nasoslar yordamida sug‘orildi. Yerlarning meliorativ holati yaxshilanib, Bandixon, Jarqo‘rg‘on, Oltinsoy, Sariosiyo va boshqa tumanlarda 2025 gektar yangi yer o‘zlashtirildi. Shuningdek, 41,5 km masofadagi magistral va xo‘jaliklararo kanallar, 23,5 km masofadagi ochiq kollektorlar tozalandi. 1994-yil noyabrdekabr oylarida sekundiga 912 kubmetr suv chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan 105 ta nasos stansiyalari, jumladan, 533 ta nasos agregatlari sifatli qilib ta‘mirlandi.

Viloyatda sabzavot, poliz va kartoshka yetishtirishning ko‘payishi quyidagi misollarda o‘z aksini topgan: 1994-yili sabzavot ekinlari 10,4 ming gekgar-maydonga ekildi, o‘rtacha hosildorlik 170,0 sentnerni tashkil etdi, davlatga 177,60 ming tonna sabzavot sotildi. Shuningdek, kartoshka 2,9 ming gektarga ekilib, o‘rtacha hosildorlik 84,4 sentnerni tashkil etdi, davlatga 24,45 ming tonna sotildi. Poliz 2,5 ming gekgar-maydonga ekilib, o‘rtacha hosildorlik 141,8 sentnerni tashkil etdi, davlatga 35,62 ming tonna sotildi.

Surxondaryo viloyatida iqqisodiy islohotlarning amalga oshirilishi asosida xalq xo‘jaligi tarmoqlarida ijobiy siljishlar o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. 1995-yilga kelib qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ancha sezilarli o‘sdi paxta 370,6 ming tonna, don 269,0 ming tonna, jumladan, bug‘doy 200,8 ming tonna, sabzavot 120,0 ming tonna, kartoshka 18,4 ming tonna, poliz 32,4 ming tonna, ho‘l meva .25,1 ming tonna, uzum 75,1 ming tonnani tashkil etdi. qishloq xo‘jaligida (barcha toifadagi xo‘jaliklar va aholi bilan birgalikda) mahsulot ishlab chiqarish 990,8 mln. so‘mga yetkazildi. Dastlabki-yillarda chorvachilik sohasidagi qiyinchiliklar, e‘tiborsizlik, ayniqsa chorva mollarini talontoroj qilish, yemxashak ta‘minotini izdan chiqarishga doir odatlarga chek qo‘yilib, yangi chorvafermer xo‘jaliklari, davlat bo‘rdoqichilik majmualarining tashkil topishi mavjud muammolarni bartaraf etishga yo‘l ochdi. Ayniqsa, bu borada qabul qilingan qonun va qarorlar o‘z samarasini berdi. 1995-yili davlat xisobiga 73,4 ming tonna mol va parranda go‘shiti (tirik vaznda), 307,5 ming tonna sut, 68,2 mln. dona tuxum, 1515,8 tonna jun, 1023 ming tonna pilla topshirildi. O‘z navbatida viloyatda qoramollar soni 44,3 ming boshga, qo‘y va echkilar soni 906,3 ming boshga, parrandalar soni 692,0 mingtaga

yetkazildi. Davlat xususiy va shaxsiy chorvachilikni rivojlantirishga aloxida e'tibor berib, moddiy ma'naviy yordamni hamda huquqiy himoyani kuchaytirdi. texnika va texnologiyalarni jalb etish, gi agrotexnika qoidalarini ishlab chiqish, odamlarda mehnatdan manfaatdorlik hissini shakllantirishga o'xshash jarayonlarning o'zaro mujassamlashuvi va natijasi sifatida Surxon dehqonining azalgi shuxrati yana qayta tiklandi. 2003-yilda voha dehqonlari oradagi 8-yillik tanaffusdan so'ng respublikada birinchi bo'lib paxta tayyorlash Asosiy savollarsini bajarib, muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimovning tabrigini olishga musharraf bo'ldilar. Mazkur tabrik xatida, jumladan, quyidagi satrlarni o'qish mumkin: Viloyat qishloq xo'jaligi taraqqiyotida 2003-yil tub burilish-yili bo'ldi, chunki bu davrda soha mehnat ahli davlatga g'alla, pilla va paxta sotish Asosiy savollarlarini ortig'i bilan uddalab, respublikada karvonboshilik qildilar. Viloyat qishloq xo'jaligi sohasida 2003-yili mo'lko'l hosil yetishtirildi, jumladan, 345 ming tonna paxta, 61268 tonna kartoshka, 152410 tonna sabzavot, 36188 tonna poliz mahsulotlari, 17505 tonna ho'l meva, 56425 tonna go'sht, 242374 tonna sut, 77969,0 ming dona tuxum, 8971 dona qorako'l teri yetishtirilib, barcha sohada-yillik Asosiy savollar ortig'i bilan ado etildi.

Albatta, Surxon dehqonining g'alabasi o'zo'zidan kelgani yo'q, uning zamirida halol mehnat va yerga chinakam egalik hissi mujassam. Viloyat paxtakorlari 2003-yilda faqatgina paxtaning o'zidan 75 mlrd. 300 mln. so'mdan oshiqroq daromad olishdi. Shundan sof foyda 15 mlrd. 600 mln. so'mni tashkil etdi, rentabellik darajasi esa 26,1 foiz. Bu raqamlarni 2002-yil hosili bilan taqqoslaganda voha paxtachiligida o'tgan bir-yil mobaynida juda katta burilish yasalganligini ko'rish mumkin.

Vaholanki, 2002-yilda viloyat bo'yicha paxta hosili jami 46 mlrd. 800 mln. so'm daromad bergandi. Sof foyda esa bor yo'g'i 2 mlrd. 400 mln. so'm bo'lib, rentabellik darajasi esa, 5,4 foizni tashkil etardi. Vohada qishloq axlining shijoatkorona va fidokorona mehnati hamda viloyat hokimligining talabchanligi 2003-yilda erishilgan yutuklarning bosh omili bo'ldi. Umuman, viloyatda agrar sohani isloh qilishda o'tgan davr mobaynida ulkan tajriba to'plandi, mehnat axdining mehnatga va mulkchilik sohalariga bo'lgan munosabatining o'zgarishi barcha yutuqlarning poydevori sanaladi. Albatta, viloyat qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamining kengayishida, mazkur sohada mo'lko'l hosil yetishtirib olishda fidoiy insonlarning alohida o'rni

mavjud. qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan ana shunday fidoiy insonlarni nihoyatda ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, Denov tumani S.Rahimov jamoa xo'jaligi boshqaruvi raisi Uzbekiston qahramoni Ibroxim Fayzullaev, Denov tumani «Lochin» fermer xo'jaligi raisi O'zbekiston qahramoni Ahmad Narzullaev, Sariosiyo tumani hokimi Parida Madiev kabi fidokor insonlarning ro'yxatini yanada ko'plab keltirib o'tish mumkin.

**Surxondaryo viloyatida ichki iste'mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mollari bilan to'ldirish va ularning hajmini ko'paytirish bo'yicha 2009-2013-yillarga mo'ljallangan maxsus hududiy Dasturi ishlab chiqildi.**

Mazkur dasturga 95 ta loyiha kiritilgan bo'lib, umumiy qiymati 33,7 mln.AQSh dollarini tashkil etadi va ushbu loyihalarni amalga oshirilishi natijasida qo'shimcha ravishda 2263 ta ishchi o'rinlari yaratilishi Asosiy savollarlashtirilgan.

Shundan,

-oziq-ovqat mollari ishlab chiqarish uchun 55 ta loyiha kiritilgan va 2,9 mln.AQSh dollarini tashkil etadi hamda ushbu loyihalarni amalga oshirilishi bo'yicha qo'shimcha 497 ta yangi ishchi o'rinlari;


-nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 40 ta loyiha kiritilgan va qiymati 30,8 mln.AQSh dollarni tashkil etadi va 1766 ta yangi ishchi o'rinlari yaratilishi Asosiy savollarlashtirilgan.

**Qishloq xo'jaligi bo'yicha:**


Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan-yilga nisbatan 105,9 foizga bajarilgan.

**Meva-sabzavotchilik.** Viloyatda jami 143,1 ming tonna sabzavot, 81,6 ming tonna kartoshka, 15,2 ming tonna poliz, 27 ming tonna ho'l meva va 5,3 ming tonna uzum mahsulotlari yetishtirildi.

Сабзавот маҳсулотларини етиштириш  
(%да)



Ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотлари



**Chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha.** Viloyatda joriy-yilning 1-yarim-yilligida yalpi ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi harakatdagi narxlarda 179,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Jumladan, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan 2,5 mlrd.so'm, fermer xo'jaliklari tomonidan 7,4 mlrd.so'm va dehqon xo'jaliklari tomonidan 169,1 mlrd.so'm mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda chorva mol bosh sonlari joriy-yilning 1-yarim-yilligida o'tgan-yilning mos davriga nisbatan qoramollar 635,6 ming bosh (108,9%)ga, shu jumladan, sigirlar 283,3 ming bosh (108,1%)ga, qo'y va echkilar 1656,8 ming bosh (106,0%)ga, parrandalar bosh soni 1735,7 ming bosh (107,4%)ga hamda otlar bosh soni 14,2 ming bosh (101,6%)ga ko'paygan.

**Veterinariya xizmati.** Viloyatda 2009-yilning-yanvar-iyun oylari davomida tashkil etilgan 262 ta zooveterinariya punktlarida 521,8 mln.so‘mlik shartnomalar imzolaniib, unga asosan 262,2 mln.so‘mlik pullik xizmat ko‘rsatilgan. Shartli ravishda 1 ta qoramolga xizmat ko‘rsatish 408 so‘mga to‘g‘ri kelmoqda.

Viloyat bo‘yicha joriy-yil davomida aholi, fermer va dehqon xo‘jaliklari qaramog‘idagi jami 82,3 ming bosh sigirlarni sun‘iy qochirish Asosiy savollarlashtirilgan bo‘lib, viloyat “Chorvanaslxizmat” korxonasi orqali 39129 doza naslli buqa urug‘i olib kelinib, 38376 bosh sigirlar su‘niy qochirildi.

**Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash.** Viloyatda hozirgi vaqtda jami sug‘oriladigan-maydon 325690 gektarni tashkil qilib, shundan sho‘rlanmagan-maydon 211662 gektar va sho‘rlangan-maydonlar 113651 gektarni tashkil etadi. Shundan kuchli sho‘rlangan-maydonlar 1417 gektar.

Dasturga asosan joriy-yilda meliorativ tizimlarni tozalash va yaxshilash uchun 3250 mln.so‘m ajratilishi va 656 km. zovurlar ta‘mirlanishi belgilangan.

2009-yilning-yanvar-iyun oylari davomida 1544 mln.so‘mlik ishlar ya‘ni 446,68 km. zovurlarda tozalash va tiklash ishlari amalga oshirilishi hamda 148,36 km. yopiq-yotiq drenajlar ta‘mirlanishi belgilangan.

2009-yilda 22 ta ob‘ektda ta‘mirlash va tiklash ishlari Asosiy savollarlishtirilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda 18 ta ob‘ektda ishlar bajarilmoqda.

Viloyat bo‘yicha zovurlarni tozalash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun 8 ta pudratchi tashkilotlar jalb qilingan bo‘lib, ular texnik jihozlar bilan ta‘minlangan. Hozirgi vaqtda zovurlarni tozalash va tiklash ishlarini amalga oshirish uchun 50 ta ekskavatorlar, 16 ta buldozerlar jalb qilingan bo‘lib, kunlik 130–140 metrgacha zovurlarni tozalash va tiklash ishlarini olib borilmokda.

Umuman, o‘tgan-yillar mobaynida viloyat qishloq xo‘jaligi tub o‘zgarishlar, islohotlar jarayonini boshdan kechirdi. Natijada mazkur sohada mulkchilikning qator yangi tartiblari, dehqonning yerga va mulkka bo‘lgan haqiqiy mulqsorlik munosabati qaror topdi. qishloq xo‘jaligiga zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb etildi, yerga ishlov berish agrotexnikasi, sara urug‘ tayyorlash va ekish borasida ulkan tajriba to‘plandi. Surxon dehqonining mashaqqatli mehnati evaziga yetishtirilgan mo‘lko‘l hosil Respublikamiz iqtisodiyotiga munosib xissa

bo'lib qo'shildi. Mustaqillik-yillarida viloyat qishloq xo'jaligi tub sifat o'zgarishlar va yuksalish davrini boshdan kechirdi. Natijada agrar sohada ham mulkchilikning yangi shakllari, yerga egalik qilishning yangi turlari vujudga keldi. Xullas, viloyat qishloq xo'jaligi yangilanish va taraqqiyot pallasiga qadam qo'ydi.

Respublikamizning milliy mustaqillikni qo'lga kiritishi natijasida xalqimiz ma'naviy va ma'rifiy hayotida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Chunonchi, ana shu davrdan e'tiboran yosh avlodni tarbiyalash usullari va yo'nalishlarida milliy ruhiyatimizga mos tomonlar ishlab chiqildi, yosh avlodni tarbiyalashning yangi tizimi qaror topa boshladi. Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqolol hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning ko'plab ijobiy usullari, milliy dunyoqarashimizga hamohang bo'lgan tizimi qaror topa boshladi.

Jamiyatning qanchalik darajada rivojlanganligi shu jamiyatda istiqomat qilayotgan yoshlarga berilayotgan ta'lim va tarbiyaning qay ahvolda ekanligi bilan belgilanadi. Chunki har tomonlama rivojlangan yoki rivojlanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan davlat, avvalo bo'lg'usi avlodning yuksak darajada malakaga ega bo'lishi uchun har tomonlama g'amxo'rlik qilmog'i lozim. Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqyaol sharofati bilan respublikamiz xalq ta'limi tizimi ham har tomonlama yangilanish jarayonini o'z boshidan kechirmoqsa. Chunonchi, o'tgan o'n ikki-yil davomida xalq ta'limi va tarbiya berishning yangiyangi usullari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etildi. Yosh avlodni jahon jamoatchiligi talablariga javob beradigan darajada qilib tarbiyalash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Ta'limtarbiya maskanlarining miqsor va sifati o'zgardi, umumiy maktablar bilan bir qatorda maxsus ixtisoslashgan maktablar, litsey va gimnaziyalar tashkil etildi. Shuni qayd qilib o'tish joizki, viloyatda faoliyat ko'rsatib, yoshlarga ta'lim va tarbiya berayotgan ziyo maskanlari xisoblangan umumiy ta'lim maktablarining miqdori-yildanyilga ortib bormoqsa. Chunonchi, 1990o'91 o'quv-yilida viloyatda 652 ta umumiy ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatdi, 1991–92 o'quv-yilida esa ularning soni 685 taga yetdi.

Filoyat xalq deputatlari kengashining navbatdan tashqari 1993-yil-aprel oyida chaqirilgan sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov viloyatda yig'ilib qolgan ko'plab ijtimoiyiqgisodiy muammolar qatorida ta'lim tizimidagi jumboqlarni ham ro'yrost ko'rsatib

bergan edi. Mamlakatimiz rahbari viloyat faollarining yig'ilishida viloyatdagi 43 ta maktabning ahvoli xarob ekanligini, 483 ta maktabda esa o'qish ikki smenada olib borilayotganligini qattiq tanqid ostiga olgan edi. 1993-yildan 1994-yilga qadar o'tgan bir-yil mobaynida viloyat miqyosida 1700 o'rinli 38 ta yangi maktab qad rostladi, bu maktablarning 10 tasi ilgari xarob holatda bo'lgan maktablar o'rnida qurildi, 43 ta maktab qoshida esa 820 o'rinli qo'shimcha sinf xonalari quriddi, shuningdek, yaroqsiz holga kelib qolgan 14 ta makgab yalpi ta'mirlandi. 1993-1994-yillar oralig'ida viloyatda qurilgan maktablar butun respublikada bunyod etilgan maktablarning to'rtidan bir qismini tashkil qilishi ham ushbu bir-yil mobaynida viloyat xalq ta'limi tizimiga katga e'tibor berilganidan dalolat beradi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov yangi davr sharoitida ta'lim tizimida islohotlarning zarurligi haqida to'xtalib, «Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib borishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muxim vazifalaridan biri bo'lib qoladi», deb bejiz ta'kidlamagan edi. Zero, ta'lim tizimida tub islohotlar o'tkazmasdan, uni eski tuzum qoddiqlaridan tozalamasdan, jahon ta'lim andozalariga ko'tarmasdan turib, O'zbekistonning mavqeini oshiradigan, har tomonlama bilimdon va barkamol insonlarni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Respublikamiz xalq ta'limi sohasida bo'lgani singari viloyatimiz xalq ta'limi tizimida ham keyingi-yillarda sifat va miqsor o'zgarishlarga erishildi. Buni quyidagi misol orqali bilib olish mumkin: agar 1991-yilda viloyatda faoliyat ko'rsatgan 714 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 335658 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1997-yilda 772 ta maktabda 411686 nafar o'quvchi ta'lim oldi, yoxud 2000o'01 o'quv-yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining soni 780 taga, ushbu maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni esa 466772 nafarga yetdi. Oraliqsagi o'n-yil mobaynida maktablar soni 66 taga, o'quvchilar soni esa 131144 taga ortdi.

Yangi turdagi ta'lim muassasalarini ochishga ham alohida e'tibor berildi. 1993-94 o'quv-yili mobaynida viloyatda tashkil etilgan 6 ta litseyda 1000 nafar o'quvchi, maktablar qoshidagi litsey sinflarda 541 nafar o'quvchi, 443 ta maktabda esa chuqurlashtirilgan Asosiy savollar

asosida 1696 nafar o'quvchi tahsil ola boshladi. Bu davrda viloyat maktablarida yosh avlodga ta'limtarbiya berib kelayotgan o'qituvchilar soni ham-yildanyilga ortib bordi. Buni quyidagi misol orqali ham bilib olish mumkin. Agar 1990o'91 o'quv-yilida viloyatdagi jami umumiy ta'lim maktablarida 25200 nafar o'qituvchi mehnat qilgan bo'lsa, 1992o'93 o'quv-yilida bu ko'rsatkich 27700 nafarni, 1993o'94 o'quv-yilida esa 29100 kishini tashkil qildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida viloyat maktablarvda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning ma'lumot darajasi ham anchagina yuksalib bordi. »

Uzbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»ga qonunini hayotga izchil jalb etayotgan viloyat xalq ta'limi xodimlari ham keyingi-yillarda qator yutuqlarga erishdilar. Xususan, ana shu davr oralig'ida yangi, zamonaviy hamda jahon talablariga mos tarzda yoshlarga ta'lim beradigan o'quv dargohlari bunyod etildi. Ana shunday o'quv dargohlaridan litseygimnaziya va chuqurlashtirilgan maktabinternatlarning ochilishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Mana, bir necha-yildirki, AlHakim atTermiziy nomidagi viloyat yosh matematiklar va fiziklar maktabinternati murabbiylari yoshlarga aniq fanlarni samarali usullar asosida o'rgatayotgan bo'lsalar, Termiz iqtidorli bolalar litseyi murabbiylari esa viloyatning yuzlab ilmga chanqoq bolalariga jahon tili hisoblangan ingliz tilini, informatika asoslarini hamda iqtisodiy bilimlarni o'rgatishda qator yutuklarni qo'lga kiritdilar.

Denov shahridagi M. Lomonosov nomli 1-o'rta maktabda 1995-yili viloyatda birinchi marta o'quv markazi bog'cha, maktabgamnaziya sinfi tashkil etiddi. Gimnaziya sinfi o'qituvchilari bilim saviyalari va iqtidorlari bo'yicha, ayniqsa badiiy, tasviriy san'at, informatika va hisoblash texnikasi hamda ingliz tili bo'yicha bolalarga chuqurlashtirilgan bilim bera boshladi. Ta'lim berishning yangi shakli hisoblangan litseylar tashkil qilish borasida ham anchagina ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1995-yilda Termiz shahridagi Navoiy nomli 11-o'rta umumiy ta'lim maktabida kimyobiologiya fanlariga ixtisoslashgan maxsus litseysinf tashkil qilindi. Istiqlol bergan yana bir ulug' imkoniyatlardan biri sifatida iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan uslublari orqali o'qitishga e'tibor kuchaydi. Agar 1991-yilda viloyatda 100 nafar o'quvchi jalb qilingan bitta fizikamatematikaga ixtisoslashgan maktabinternat faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 20002001 o'quv-yilida 3497 nafar iqtidorli yoshlar 19 ta ixtisoslashgan maktabinternatlarda ta'lim ola boshladi. Noyob

iste'dodga ega bo'lgan iqtidorli yoshlarning qobiliyatini oshirish boraeida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda viloyatda 3 ta iste'doli bolalar maktabinternati tashkil etilib, ularga 932 nafar o'quvchi jalb etildi. Shuningdek, 1266 nafar ta'lim majmuasi, 466 nafar qobiliyatli bolalarga futbol sirlarini o'rgatadigan 3 ta futbol maktabinternati tashkil etilib, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar mezoni ancha yuksaldi. Oltinsoy va Bandixon tumanlarida 1999-2000 o'quv-yillari mobaynida iqtidorli bolalarga mo'ljallangan bittadan ixtisoslashtirilgan maktabinternatlar tashkil qilindi.

**Shoberdi baxshi Bolta o'g'li.** Bo'lajak baxshi 1963-1965-yillarda harbiy xizmatda bo'ldi, harbiy xizmatdan qaytgach, o'zining jonajon Munchoq qishlog'idagi Nodira nomli maktabda o'qituvchilik qila boshladi. Shoberdi 1968-yili Termiz Davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim uslubiyoti fakultetining sirtqi bo'limiga o'qishga kirdi va uni 1972-yilda tamomladi. Shoberdining baxshichilik faoliyati ayri-ayri jihatlarga ega. Uning ijodiga taalluqi terma va dostonlarning mavzui va mazmuni falsafiy mushohadalarga boy hamda dolzarb muammolarni qamrab olishi bilan o'ta muhimdir. Uning ijod bisotiga tegishli «Alpomish», «Oltin qovoq», «Kuntug'mish», «Malla savdogar», «Suluvxon», «Sanamgavhar», «Oyparchi» dostonlarini el sevib tinglaydi va bu dostonlarni baxshi maroq bilan kuylaydi. Baxshining «Mehmondur», «Tilar», «Nima yomon», «Kunlarim», «Do'mbira», «Oypari» va boshqa talay termalari allaqachon el olqishiga sazovor bo'lgan asarlar qatoriga kiradi.

Shoberdi terma aytadimi, doston kuylaydimi, hammasini yurakdan kuylaydi, kuylaganda ham sel bo'lib kuylaydi va barchani o'ziga maxliyo etib do'mbirasini sayratadi.

**Abdunazar baxshi Poyon o'gli** (1952) keyingi-yillarda Surxondaryo dostonchilik maktabining zabardast vakillaridan biri sifatida o'zining xush ovozi, serjilo sozi bilan elyurt orasida obro' topdi. U 2003-yili «O'zbekiston xalq baxshisi» unvoniga musharraf bo'ldi, bu esa uning kuchigakuch, g'ayratigag'ayrat qo'shdi. Abdunazar baxshining «Tursun mergan va Ramazon chobog'on» dostonlari 2000-yili «Mehnat» nashriyotida chop etildi, uni Axmad Eshqurbon oqqa ko'chirgan. Bundan tashqari shu dostonlardan ayrim parchalar olimlardan Malik Murodov va Abduolim Ergashevlar tayyorlagan «Alpomishnoma» (1999) to'plamidan ham o'rin olgan. Yaqinda baxshining «Davronqul polvon» (2003) nomli dostoni bosmadan chiqdi. Doston «Alpomish avlodlari» turkumi sirasiga

tegishli va unda tog‘li Xomkonda tug‘ilib voyaga yetgan Davrqul, uning polvonlik va chobog‘onlikdagi (chavandoz) dovrug‘i, bu borada uning butun boshli Janubiy O‘zbekistonda mashhurligi hikoya qilinadi. Mazkur doston, bir so‘z bilan aytganda, baxshining mustaqillik-yillaridagi ijodiy izlanishlarining samarasi deyish mumkin. U kuylagan «Alpomish» dostoni o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, zero, har bir baxshining o‘z «uslubini, o‘z usuli bo‘lganidek, bu hodisadan Abdunazar baxshi ham chetda turmaydi.

Yana shunday ijodkorlardan biri **Jumanazar Ulug‘ov** (1947) bo‘ladi. U mohir muallim, usta tadbirkor, shoir va baxshi, ajoyib oila boshlig‘i, boringki, jami yaxshi sifatu fazilatlar unda jamuljam. Baxshi xalqning dilidagini kuylaydi, zotan, baxshilar o‘z xalqining fidoyisi, ornomusi va halollik namunasidir. Baxshi xalqning diligina emas, balki tili hamdir, baxshi do‘mbirani bulbulday sayratadi, do‘mbira o‘z ohanglari orqali xalq tarixini xonish qiladi. Jumanazar baxshi ustod baxshilarning an‘analariga sodiq, ularning sabog‘iga qat‘iy amal qiladi, u doston kuylaganda el to‘yini obod, ulus ko‘nglini shod qiladi. U doston aytish bilan birga badiiy ijodga ham moyil, kundalik matbuotda uning termalaridan tashqari, she‘rlari va hajviyalari e‘lon qilib turilibdi. Uning «Avaxxon va Sayonxon» (1991) dostoni nashr etilgan. Bu doston «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlar sirasiga taalluqli bo‘lib, unda Go‘ro‘g‘lining farzandi Avaxxon va uning qadrdon do‘sti Sayonxon voqealari naql qilinadi.

Surxon vohasi baxshilar, chopog‘onlar va polvonlar yurti, shundan bo‘lsa kerak, bu elning to‘yu tomoshasi baxshisiz, ko‘pkarisiz, uloqsiz va kurashsiz o‘tmaydi. Elimiz to‘yiga, yurtimiz tantanasiga o‘z kuyqo‘shiqlari bilan zeb berib kelayotgan, voha baxshilar an‘anasini yangi usullarda jilokor qilayotgan, Sherobod dostonchilik maktabining yangi avlod vakili **Shodmon baxshi Xo‘jamberdi o‘g‘li** (1967)dir. Shodmon yoshligidan qo‘liga do‘mbira ushladi, termalar ayta boshladi, iste‘dodi va iqtidori tufayli el og‘ziga tushdi, to‘yhashamlarda sidqidildan xizmat qildi. 2003-yilning-may oyida o‘tkazilgan «Boysun bahori» xalqaro festivali doirasida «Baxshishoir va oqinlar»ning xalqaro III festivali ish boshladi. Ana shu anjumanda qo‘lida soz, ming turfa ovoz, xonishlarida yuksak parvoz bilan Shodmon baxshi ham ishtirok etdi va nufuzli hakamlar hay‘ati, ayni Shodmon baxshini festival g‘olibi deb e‘lon qildi.

Ha, Surxon vohasida qizayollar ham doston kuylaydi, do‘mbira chaladi. O‘zbekistonda hozircha yagona ana shunday ayol baxshilarimizdan biri bu **Zulxumor Shernazarovadir**. U 1971-yili Jarqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan, 1988-yili o‘rta maktabni tamomlagan, shu kunlarda maktabda muallimalik qilmoqda. Zulxumorda baxshi shoir bo‘lishga ichki bir intilish yoshlikdan bor edi, bu uning bexos qo‘liga do‘mbira olishiga turtki bo‘ldi. qarasa, qo‘li do‘mbiraga kelishib borayapti, ovozi ham yomon emas, o‘ziga yarasha jozibaga ega. U ilk saboqni akasi Omon baxshidan oldi, keyinroq Shoberdi baxshi, qora baxshi va marhum qodir baxshilardan dostonchilikbaxshichilikdan ta‘lim o‘rgandi. Zulxumor ustozlari qora baxshi o‘rgatgan «Alpomish»ni ichki bir epkinli va nozik tuyg‘ular bilan kuylaydi.

Vohaning yana bir yosh iqtidorli baxshisi **Ro‘ziboy Tursunov** (1964). Sherobodning Kampirtepa qishlog‘ida tug‘ilib voyaga yetgan Ro‘ziboy dostonchilik sirasrorlarini otasi Jahongir Tursunovdan o‘rgangan, otasi do‘mbirani turli usullarda sayratar ekan. Baxshi tomonidan «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Avazxon», «Suluvxon», «Kelinoy», «g‘ubonak», «Oypari», «Malla savdogar» kabi dostonlar sevib kuylab kelinmoqsa. Shuningdek, «Surxondaryom», «Mustaqil O‘zbekiston», «Ustozim haqida», «Do‘mbira maqtovi», «Sherobod haqida», «Gullayashna O‘zbekiston» nomli termalari tinglovchilarga ancha manzur bo‘ldi.

Viloyatda ko‘p-yillardan buyon voha xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarini to‘plash, ularni nashr ettirish bilan shug‘ullanib kelinmoqda. Bu sohada folklorshunos olimlar qishloq va ovullarni kezib yodkash, zukko qariyalar bilan uchrashib, ulardan xalqimiz o‘tmishini, ruxiyatini, kayfiyatini, marosimlarini, udumlarini, har xil qiziqarli o‘yinlarini aks ettiruvchi terma, qo‘shiq, maqolmatallarni yozib olib, to‘pladilar. Olimlardan H. S. Oqbo‘taev, q. U. Mamashukurov (marhum), R. B. Mustafiqulov, jurnalist N. To‘raevlar samarali ishlarni amalga oshirdilar. Ayniqsa folklorshunos olim R. Mustafiqulov (1946) xalq og‘zaki ijodining o‘lmas namunalarini jamlashda barakali mehnat qilmokda. Uning sa‘y-harakati samarasi o‘laroq, Chorsha baxshi Rahmatulla o‘g‘lidan «Toshbosar», (1998), «Hurso‘na» (1999), Xushboq baxshi Mardonaqul o‘g‘lidan «Soqibulbul» (2002) dostonlari yozib olinib, nashr ishlari amalga oshirildi va kitobxonlarga taqsim etildi. Olimning xalq og‘zaki ijodi sohasidagi izlanishlari ham tahsinga loyiq. Bu yo‘nalishda u qator risolalar yaratdi, chunonchi, «Xalq pedagogikasi

sarchashmasi» (1995), «Alpomish» talqinlari» (B. Yoriev bilan hamkorlikda, 2000) shular jumlasidandir.

### **Sog‘liqni saqlash tizimi**

Viloyatda asosan tibbiyot mutaxassislariga bo‘lgan e‘tibor mustaqillik-yillarida birmuncha usdi. Ularning tajribalari umumlashtirilib, respublika ilmiyuslubiy markazlari bilan aloqasi mustahkamlandi. Dalillarga e‘tibor bersak, viloyat sog‘liqni saqlash tizimida 1990-yili 3399 nafar oliy ma‘lumotli shifokor ishlagan bo‘lsa, 1991-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3549 taga yetdi. Jumladan, Oltinsoy tumanida 1990-yili 157 ta oliy ma‘lumotli vrach ishlagan bulsa, 1991-yilga kelib ularning soni 170 taga yetdi. Tibbiyot xodimlarining soni oshib borishi aholiga bulgan xizmatni yaxshilash bilan birga yangi davolash bo‘limlarining tashkil topishiga, tibbiyot xizmati sifatini oshirishga ham imkoniyat yaratdi.

Yuqorida qayd etilgan raqamli ko‘rsatkichlar viloyatning qolgan tumanlarida quyidagi holatda joylashgan. 1990-yilda oliy ma‘lumotli vrachlar Angorda 128 ta, Boysunda 131 ta, Muzrabodda 131 ta, Denovda 357 ta, Jarqo‘rg‘onda 230 ta, qumqo‘rg‘onda 208 ta, qiziriqsa 104 ta, Sariosiyoda 331 ta, Sherobodda 146 ta, Sho‘rchida 248 ta, Termiz shahrida 885 ta, Denov shaxrida 179 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1991-yilga kelib Angorda 128 ta, Boysunda 144 ta, Muzrabodda 110 ta, Denovda 365 ta, Jarqo‘rg‘onda 221 ta, qumqo‘rg‘onda 213 ta, qizirikda 105 ta, Sariosiyoda 271 ta, Termizda 152 ta, Uzunda 165 ta, Sherobodda 171 tani tashkil etdi.

Inson uchun avvalambor sog‘liq kerak, donishmandlar aytganlaridek, «Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi esa go‘zalligi». Shu tufayli viloyat aholisining sog‘lig‘ini saqlash maqsadida tibbiyot xodimlari sidqidildan mehnat qilmoqsalar. 1990-yilda kasalxonalar soni 107 ta bo‘lib, ulardagi o‘rinlar soni 16185 tani tashkil etdi. 1997-yilga kelib kasalxonalar soni 110 tani, o‘rindiqlar soni esa 16835 tani tashkil etdi. Kasalxonalar soni tumanlarda ham-yildanyilga oshib bordi, masalan, 1990-yili Oltinsoyda 670 o‘rinli 6 ta kasalxona, Angorda 3 ta kasalxona, Muzrabodda 626 o‘rinli 7 ta kasalxona, Denovda 1545 o‘rinli 12 ta kasalxona, Jarqo‘rg‘onda 1340 o‘rinli 7 ta kasalxona, qumqo‘rg‘onda 940 o‘rinli 7 ta kasalxona, qiziriqsa 615 o‘rinli 5 ta kasalxona, Sariosiyoda 1985 o‘rinli 16 ta kasalxona, Termizda 1190 o‘rinli 5 ta kasalxona, Sherobodda 1150 o‘rinli 6 ta

kasalxona, Sho‘rchida 990 o‘rinli 5 ta kasalxona, Termiz shahrida 3315 o‘rinli 18 ta kasalxona, Denov shahrida 630 o‘rinli 4 ta kasalxona bo‘lgan.

Mustaqillik sharofati bilan 1992-yilga kelib tibbiyot sohasiga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi, viloyatdagi ko‘pgina kasalxonalar qayta ta‘mirdan chiqariddi. Aholiga bo‘lgan tibbiy xizmatni yaxshilash maqsadida xorijiy mamlakatlardan zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalarini keltirildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash borasida tibbiyot xodimlari ham chetda qolmadilar. O‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakalarini oshirish masalalariga katta e‘tibor berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda Termiz, Sherobod tibbiyot bilim yurtlarining hissasi katta bo‘ldi. O‘z navbatida Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari malaka oshirish va uslubiy ishlari bilan yordam berib kelmoqda.

Viloyatda o‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimlari 1992-yili 13283 tani tashkil etdi. Tumanlarda esa bu holat quyidagicha bo‘ldi: Oltinsoyda 678 tani, Angorda 876 tani, Boysunda 514 tani, Bandixonda 47 tani, Muzrabodda 597 tani, Denovda 1530 tani, Jarqo‘rg‘onda 787 tani, qumqo‘rg‘onda 625 tani, Kdziriqsa 443 tani, Sariosiyoda 107 tani, Termizda 923 tani, Uzunda 602 tani, Sherobodda 852 tani, Sho‘rchida 826 tani, Termiz shahrida 2456 tani, Denov shahrida 421 tani tashkil etdi.

Viloyat sog‘liqni saqlash tizimi ishlarini rivojlantirish va yaxshilash uchun 1989-1990-yillarda 1 mln. 220 ming so‘mdan ziyod pul ajratildi, natijada shifoxonalarning moddiy texnik ahvoli ancha yaxshilanishiga erishildi. Yaponiya firmalarida ishlab chiqarilgan 5 ta ultratovushli, 85 ta endoskopik apparat, «MT322» markali avtokardistograf, chaqaloqlar uchun intensiv terapiya bloki, «VX5» markali aksimetrlar o‘rnatildi. Dastlabki-yillardan boshlab tibbiyot xizmatini yaxshilash maqsadida pullik xizmat joriy etildi. 1990-yili mehnat axdiga **2.086.100** so‘mlik pullik xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, 1991-yili bu ko‘rsatkich 1,7 martaga oshdi. Eng muhimi, Sharq tabobatining qadimgi tajribalari asosida davolash maqsadida 1990-yildan «Sharq tabobati» markazi tashkil etildi.

Albatta, mustabid jamiyat davrida sobiq Ittifoqning chekka o‘lkalariga boshqa sohalarda bo‘lgani kabi tibbiyotda ham kam e‘tibor berilib, tibbiy muassasalar moddiy texnik bazasining yetarli rivojlanmaganligi, doridarmonlar va tibbiy asbob-uskunalar, qattiq va

yumshoq jihozlar bilan yetarli ta'minlanmaganligi natijasida joylarda profilaktikadavolash ishlarini ko'ngildagidek tashkil etishning imkoniyati bo'lmadi. Natijada aholi o'rtasvda yuqumli sariq kasalligi 1990-yilga nisbatan 1991-yil-iyun oyida 78 foizga ko'payib, 4372 nafar kishi kasallandi. Og'ir ekologik sharoit, turli xil kimyoviy dorilardan ko'p foydalanish tufayli jigar, buyrak, o'pka, raxit, ko'z kasalliklari ko'p tarqaldi. Viloyatning Termiz, Denov, Sherobod va Sho'rchi tumanlarida bu holat ommaviylashdi. Masalan, 1991-yil-iyuniga kelib viloyatda virusli gepatit 32, sil kasalligi 31 foizga o'sdi, bundan tashqari pedikulez, bruselyoz kasalliklari kuchaydi.

Mustaqillikning dastlabki oylaridan bularning oldini olish sohasida katta amaliy tadbirlar o'tkazildi. Nafaqat sog'liqni saklash xodimlari, balki barcha ziyolilar oldiga ushbu xastaliklarni keltirib chiqaruvchi manbani aniqlash va unga qarshi aniq choralar ko'rishdek muhim masala kun tartibiga qo'yilgan edi. Joylardagi mahalla qo'mitalari, davlat tashkilotlari tibbiy muassasalarning moddiytexnik bazasini rivojlantirish, maxsus muassasalarni malakali xodimlar bilan ta'minlashga e'tiborni kuchaytirishga kirishdi. 1991-yil oxirida viloyatda har 10 ming aholiga 90 nafar tibbiy xodim to'g'ri keddi yoki me'yorga nisbatan 29,5 foizni tashkil etdi, xolos. Boysun, Muzrabod, qiziriq, Oltinsoy tumanlarida axvolachinarli bo'lib, aholiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar yetishmas, tajribali mutaxassislar kam edi. Viloyat aholisining o'sishi va aholining sog'lig'i masalasida 1992-1993-yillarda ko'pgina ishlar amalga oshirildi, chunonchi, o'rindiqlarning sifat darajasiga e'tibor berildi, bemorlar uchun qulay shartsharoitlar yaratila borildi.

Viloyat aholisining har 10 ming kishisiga 1992-yilda 81,5% o'rindiqlar to'g'ri kelgan bo'lsa, 1993-yilga kelib 79,3% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni viloyat tumanlari misolida ko'rsak, 1992-yilda Oltinsoy tumanida 56,6%, Angor tumanida 61,3% bo'lgan bo'lsa, 1993-yilda Oltinsoy tumanida 65,5%, Angor tumanida 58,6% ni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda aholining o'sib borishi natijasida o'rindiqlar soni foiz hisobida aholi jon boshiga nisbatan kam bo'lgan. Yuqorida qayd etilgan raqamli ko'rsatkichlar viloyatning qolgan tumanlarida quyidagi holatda joylashgan: 1992-yilda Boysunda 65,3%, Bandixonda 66,6%, Muzrabodda 56,1%, Denovda 63,9%, Jarqo'rg'onda 63,0%, qumqo'rg'onda 52,2%, qiziriqda 75,4%, Sariosiyoda 87,3%, Termizda 172,1%, Uzunda 43,3%, Sherobodda 63,6%, Sho'rchida

53,5%, Termiz shahrida 264,3%, Denov shahrida 72,4% ni tashkil etgan bo'lsa, 1993-yilga kelib Boysunda 55,9%, Bandixonda 59,8%, Muzrabodda 53,3%, Denovda 61,5%, Jarqo'rg'onda 57,1%, qumqo'rg'onda 54,2%, qiziriqda 71,6%, Sariosiyoda 87,1%, Termizda 176,6%, Uzunda 47,3%, Sherobodda 61,2%, Sho'rchida 51,5%, Termiz shahrida 259,9%, Denov shahrida 67,6% ni tashkil etdi.

Shu tufayli viloyat sog'liqni saqlash bo'limi bu masalada jiddiy o'zgarishlar qilishni kun tartibidagi asosiy masala deb tushunib, bir qator tadbirlarni ishlab chiqdi. Viloyatda sog'liqni saqlash sohasida 1993-yili katta amaliy ishlar bajarilib, 605 bemorga mo'ljallangan kasalxona qurilib foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 100 o'rinli kasalxona qayta jihozlanib, uning atrofida 200 ming turli xil gul va meva ko'chatlari ekildi. Termiz va Denov shaharlaridagi kasalxonalar atrofini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari yuqori darajada olib borildi. Viloyat ko'z kasalliklari kasalxonasi, ayniqsa ibratli ishlarni bajara borib, 5000 tup gul va turli xil daraxt ko'chatlari o'tqazdi. Viloyatning 1kasalxonasidagi yangi 3 ta katta bino mustaqillik-yillarida qad ko'tarib, 300 ta bemorni davolash yangi zamonaviy bino va yangi tibbiy texnik asbobuskunalarni qabul qilish bilan boshlandi. Umuman, dastlabki uch-yil ichida tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun 30 mln. so'm miqsorida mablag' ajratildi. Viloyat sog'liqni saklash bo'limi bemorlarni sog'aytirish bilan birga madaniyma'rifiy ishlarni ham amalga oshirdi hamda bu sohada qator ijobiy ishlar bajarildi, bemorlarga xizmat qiluvchi madaniy bo'limlar tashkil etildi.

Mustaqillikning ikkinchiuchinchi-yillarida malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularni modsiyma'naviy jihatdan qo'llabquvvatlash uchun bir qator tadbirlar o'tkaziddi. Shuning uchun mutaxassislarning soni va salmog'i oshib bordi, viloyatda 1992-yili 3318, 1993-yili esa 3395 nafar oliy ma'lumotli tabiblar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatdi. Bu ko'rsatkichlar viloyat tumanlarida quyidagicha o'sib bordi: 1992-yili Oltinsoyda 158 ta, Angorda 136 ta, Boysunda 124 ta, Bandixonda 37 ta, Muzrabodda 211 ta, Denovda 406 ta, Jarqo'rg'onda 220 ta, qumqo'rg'onda 211 ta, qiziriqsa 104 ta, Sariosiyoda 271 ta, Termizda 143 ta, Uzunda 182 ta, Sherobodda 152 ta, Sho'rchida 262 ta, Termiz shahrida 998 ta, Denov shahrida 203 tani tashkil etdi. Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, viloyat tumanlarida oliy ma'lumotli shifokorlar soni-yildanyilga ma'lum

darajada o'sib bordi. O'z navbatida bu mutaxassislarning ishlashi va yashashi uchun yetarli darajada imkoniyatlar yaratilmadi. Chunki mutaxassislarga yetarli ish haqining kamligi, moddiy manfaatdorlikning yo'qligi bu sohada jiddiy izlanishlar qilishni talab etdi. Ayniqsa, yosh mutaxassislarni rag'batlantirish, qo'llabquvvatlash ishlari o'z holiga tashlab qo'yilishi natijasida ularning ishga bo'lgan qiziqishi susayib bordi.

Prezidentimiz I. A. Karimov sog'lom avlod O'zbekistonning kelajagi ekanligiga to'xtalib, quyidagi fikrni ta'kidlagan edi: «Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloqodob va umumbashariy g'oyalar ruxdsa kamol topgan insonni tushunamiz».

Kishining tan sog'lig'idan ko'ra ham, ko'proq uning ruhan kamol topib, o'zini sog'lom tutishi muhim ekanligi hammamizga ma'lum. Buning uchun kasallikning oldini olish juda zarur ekanligini aholiga tushuntirish asosiy tibbiy yo'ldir. Bu borada viloyatda tibbiyot maorifi sohasida ham katta ishlar qilinib, tuman va shaharlarda targ'ibot ishlari ko'ngildagidek olib borilgan. Viloyatda 1990-1993-yillarda 2 ta respublika miqyosida, 10 ta viloyat va 20 ta tumanshahar miqyosida ijobiy ishlar qilindi. E'tiborlisi shundaki, viloyatning Tojikiston, Afg'oniston hamda Turkmaniston bilan chegaradoshligi, bu davlatlardagi og'ir iqtisodiy vaziyat hamda turlituman yuqumli kasalliklarning tarqalishi vohaga ham xavf solib turadi. Ana shu xavfli kasalliklarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida barcha choratadbirlar ko'rilmoqda. Tegishli choratadbirlar viloyat miqyosida bajarilib, uning natijalari muntazam tekshirilib borilmoqda.

### **Axborot-uslubiy ta'minot**

Ushbu mavzuni o'tishda ta'limning interfaol usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu boradagi "Tadqiqot va loyiha" intellektual pedagogik usulidan hamda "Blits so'rov" texnologiyasi kabi interaktiv metodlaridan, shuningdek, mavzuga oid grafikli slaydlardan unumli foydalanish ham ko'zda tutilgan.

**Ma'ruza mashg'ulotlarida Tadqiqot va loyiha usullaridan foydalanish talabalarda analitik tafakkur darajasini oshiradi.**

Tadqiqot va loyiha usullari o'zlashtirish darajasining eng yuqori cho'qisi hisoblanadi. Bu usul bilan dars o'tilganda o'quvchilar olgan bilimlari asosida hali o'rganilmagan kichik bir masala ustida yakka yoki birgalashib izlanish olib borishadi, muammo yechimiga doir keltirilgan taxminni izlab topilgan dalillar asosida to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishadi va isbotlashadi.

**Usulning bosqichlari:**

- darsda hammaga qiziqish uyg'otadigan biror tarixiy muammo yoki u haqidagi masalani qo'yish,
- uni o'rganish, tadqiq qilish uchun ma'lumotlar to'plash,
- muammo yoki masalaning yechishga oid taxminlar, bashoratlar qilish,
- har bir bashoratning qanchalik to'g'riligini to'plangan ma'lumotlar asosida tahlil qilish va isborlash,
- xulosa chiqarish;
- sinf oldida taqdimot qilish.

**Surxondaryo tarixi fanidan ma'ruza mashg'ulotlarida "Blis-so'rov" texnologiyasidan foydalanish intellektual tafakkur darajani oshiradi.**

**"Blis-so'rov" texnologiyasi.**

Maqsadi: ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Bunda guruhlar o'zaro turli xil fikr mulohazalarni tezkor almashadilar. Bu texnologiyani qo'llash uchun fan nuqtayi nazaridan kengroq mavzu anlanishi tavsiya etiladi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

- 1. Surxondaryo viloyati sanoatida aholi ulushining samaradorligini baholang.*
- 2. Qishloq xo'jaligida xalq bandligini ta'minlash.*
- 3. Vohaning ijtimoiy sohalari: ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy muammolar.*

### **Adabiyotlar:**

1. I.A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., «Sharq» 1998.
2. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma’naviyat. 2008.
3. I.A.Karimov. Eng asosiy mezonhayot haqiqatini aks ettirish.T., O‘zbekiston, 2009. 26bet.
4. I.A.Karimov O‘zbekiston mustaqillik erishish ostonasida. 2011. T.
5. S.Tursunov va boshhalar. Surxondaryo tarixi ko‘z gusida. T.2001.
- 6.S.Tursunov. Surxonaryo viloyat tarixini o‘rganish. T., 1997.
7. S. Tursunov va boshqalar Surxondaryo tarixi. T., «Sharq» 2004.
8. Chag‘oniyon ilmiy to‘plam . T. 2001.
9. Surxondaryo. Ilmiy to‘plam. T., 1997.
10. Termiz. Ilmiy to‘plam. T., 2001.
11. Mirzaev J. Termiz tarixi. T., 2001.
12. Safarov Sh. Termiz va termiziyalar. T.,1993.
13. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T. Qomuslar Bosh tahririyati. 20012006. 123456789101112 jildlar.
- 14.Sharafiddin Ali Yazdiy, “Zafarnoma”, T., 1994.
- 15.S.N.Tursunov, Temur haqida tarixiy fikrlar, Termiz, 1993.

## **“SURXONDARYO TARIXI” FANIDAN TAVSIYA ETILADIGAN SEMINAR MASHG‘ULOTLARI**

### **1-mavzu: Surxondaryo tarixi maxsus kursining maqsad va vazifalari.**

#### **Reja:**

1. Surxondaryo tarixini o‘rganishning asosiy vazifalari.
2. Surxondaryo tarixining asosiy bosqichlari.
3. Surxondaryo tarixining manbalari.
4. Surxondaryo tarixining tarixshunosligi.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Surxondaryo tarixini o‘rganishdan maqsad. Surxondaryo tarixini davrlashtirish. Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar. Voha tarixi yuzasidan yozma manbalar. Surxondaryo tarixi tarixshunosligi. Voha tarixini o‘rganishning istiqbollari.

#### **Adabiyotlar:**

1. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997.
2. Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o‘rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.
3. Tursunov S.N., Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B., Surxondaryo tarix ko‘zgasida, Toshkent, «Sharq», 2001.
4. Tursunov S.N. Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B. Surxondaryo tarixi, Toshkent, «Sharq», 2004.
5. Jaloliddin Mirzo, Termiz tarixi, T., «Sharq», 2003.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, T., O‘zME nashriyoti. 111 jildlar. 2000-2006-yillar.

### **2-Mavzu: Surxondaryo viloyati tarixining eng qadimgi davri**

#### **Reja:**

1. Paleolit davrida Surxon vohasi.
2. Mezolit davrida Surxon vohasi.
3. Jez davri yutuqlari va ilk ziroatchilik makonlari.
4. Surxon vohasi ilk temir davrida.
5. Surxondaryo insoniyat beshiklaridan biri.
6. O‘zbekistonda ilk tasviriy san’atning shakllanishi.

### **Tayanch soʻzlar:**

Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shugʻullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix koʻzgidan.T., 2001.
3. Annaev T. Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar.T., 1997.
4. Xolmirzaev A. Zarautsoy sirlari. T., 2003.
5. Azimov M. Termiz tarixi, Termiz, «Jayhun», 2001.
6. Aminjonova T.N. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T., «Oʻqituvchi», 1977.
7. Berdiev X., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T., 1991.
8. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severnaya Baktriya Taxaristan problemi istorii i kulturi, T. «Fan», 1990.

### **3-Mavzu: Surxon vohasi Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibida.**

#### **Reja:**

1. Baqriyaning tarixiy geografik joylashuvi.
2. Ahamoniylar istilosi va uning oqibatlari.
3. Baqtriyada yunonmakedon istilosi.
4. Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibida.
5. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot

#### **Tayanch soʻzlar:**

Baqtriya va uning tarixiy geografik joylashuvi. Baqtriyada Ahamoniylar istilosi. Baqtriyada Iskandar istilosi. Katan qoʻzgʻoloni. Baqtriya va Salavkiylar davlati. Antiox I islohotlari. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga taʼsiri.

### **Adabiyotlar.**

1. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgasida.T., 2001.
3. Annaev T., Shaydullaev Sh., Surxondaryo tarixidan lavhalar, «Meros» nashriyoti, 1997.
4. Pyankov I.V., Baktriya antichnoy traditsii, Dushanbe, «Donish», 1982.
5. Termizbuyuk yo‘llar chorrahasidagi ko‘hna va yangi shahar. T., «Sharq»,2001.
6. Sagdullaev A.S. Usadbi drevne Baktrii. T., «Fan», 1987.
7. Sagdullaev A.S., Baktrineskaya legenda. T., «O‘zbekiston», 1990.

### **4-Mavzu: Yunon Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida Surxon vohasi.**

#### **Reja:**

1. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida Surxon vohasi.
2. Kushon podsholigi davrida Surxon vohasi.
3. Surxon vohasining Yunon-Baqtriya va Kushonlar davri madaniyati.
- 4.Siyosiy, ijtimoiy ,iqtisodiy va madaniy hayot

#### **Tayanch so‘zlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiyi iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorlilari va uning o‘rganilishi. Buyuk Ipak yo‘li va Surxon vohasi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
2. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgasida.T., 2001.
3. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi., T. «Sharq», 2004.
4. Annaev T. Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar., T. «Meros», 1997.
5. Pugachenkova G.A. Iskusstvo Baktrii epoxi Kushan. M., «Iskusstvo», 1979.
6. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severniy BaktriyaToxaristan: problemi istorii i kulturi. T., «Fan», 1990.
7. Pidaev Sh. Poselenie kushanskie vremeni Severniy Baktrii, T.. «Fan», 1978.

## **5-Mavzu: IX-XII- asrlarda Surxon vohasi .**

### **Reja:**

1. O‘rta asrlar davrida Surxon vohasining muhim ijtimoiy iqtisodiy siyosiy voqealari.
2. O‘rta asrlarda Surxon vohasida iqtisodiy munosabatlar va mulkchilik shakllari.
3. IX-XII asrlarda ilmfan va madaniyat.
4. Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida Surxon vohasi.

### **Tayanch so‘zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlarini. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo‘g‘ullar istilosi. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q., T. «Sharq», 1998.
2. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar., Meros, 1997.
3. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zguisida.T., 2001.
4. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001.
5. Annaev T. «Al-Hakim at-Termiziy». Toshkent , 1998.
6. Jaloliddin Mirzo. Termiz tarixi., Toshkent, «Sharq» 2001.
7. Arshavskaya Z.A., Rtveldze E.V., Hakimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari. T., Leturatura i iskusstvo. 1982.
8. Ibrahimov N. Ibn Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. T, 1993.
9. Ma‘naviyat yulduzlari. T., Xalq merosi, 2001.
10. Murtozaev B, Qodirov B. Chag‘oniyon adabiyoti. Yangi asr avlodi, T., 2003.
11. Mualliflar jamoasi. Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni. T. Fan, 2001.
12. Omonturdiyev J., AlHakim atTermiziy ta‘limoti. T., Universitet, 2000.
13. Tursunov S.N. Buyuk siymolar. T., Sharq, 2002

## **6-Mavzu. XIII-XIX- Asrlarda Surxon voxasi .**

### **Reja:**

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida.
2. Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida.
3. XIX asr oxirida Surxon vohasi.
4. Surxon vohasi Temur va Temuriylar davrida
5. Mo'g'ullar istilosi va uning oqibatlarini.

### **Tayanch so'zlar:**

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida vohaning aholining ijtimoiy siyosiy holati va Termiz va Chag'oniylar aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov beklklarini qo'shilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko'zguisida. T., 2001.
2. Jaloliddin Mirzo Termiz tarixi Toshkent, «Sharq» 2001
3. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: Meros, 1997.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi. 1994.
5. Ananev A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi. T.: Sharq, 2002.
6. Jaloliddin Mirza. Termiz tarixi. T.: Sharq, 2001.
7. Xo'jasamandar Termiziy. Dastur ulmuluk. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
8. Chag'oniylar tarixi. To'plab nashrga tayyorlovchi A.Xidirov. T.: Islom universiteti, 2002.
9. Qodirov B., Murtozaev B. Chag'oniylar adabiyoti, T.: Yangi asr avlodi, 2002.

## **7-Mavzu: Surxon vohasi 1917–1941-yillarda BXSРning tashkil topishi va Surxon voqasidagi milliy-ozodlik harakatlari.**

### **Reja:**

1. Surxon vohasida mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va uning oqibatlarini.
2. Surxon vohasida milliy ozodlik harakatlari.
3. Qatag‘onlik-yillarida Surxon vohasi.
4. XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

### **Tayanch so‘zlar:**

Termizda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Buxoro amirligining ag‘darilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Surxondaryo okrugining tashkil topishi. XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xo‘jaligi. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. Qatag‘onlik-yillarida Surxondaryo. XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

### **Adabiyotlar:**

1. Tursunov S.N., Kichkilov H. Termiz-yilnomasi. T.: Sharq, 2001.
2. Berdiev H., Ermatov H. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: 1991.
3. Azimov M. Termiz tarixi. Termiz, Jayhun, 2001.
4. Istoriya Uzbekistan v istochnikov. T.: Fan,
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tom 111. T.: 20002006.
6. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar. T.: Ma’naviyat, 2000.
7. Rajabov Q. Buxoroga Qizil armiya bosqini va unga qarshi ukurash. T.: Ma’naviyat nashriyoti, 2002.
8. Said Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. T.: Nur, 1996.
9. Ro‘ziev A.N. Surxondaryo viloyati. Termiz, Jayhun, 1996.
10. Tursunov S.N. va boshk. Surxondaryo tarixi. T.: Sharq, 2004.

## **8-Mavzu: Mustabid tuzum davrida Surxondaryo sanoati Surxondaryo viloyati ikkinchi jahon urushi-yillarida.**

### **Reja:**

1. Fashizm agressiyasining boshlanishi va viloyatda frontga safarbarlik.
2. Urush-yillarida viloyat qishloq xo‘jaligidagi ahvol.
3. Surxondaryoliklarning frontdagi qahramonliklari.
4. Surxondaryoliklarning frontga yordami.

### **Tayanch so‘zlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofoa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo‘jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

### **Adabiyotlar:**

1. Tursunov S.N. va b. Surxondaryo tarix ko‘zgisida. T., 2001.
2. Tursunov S.N., Pardaev T. Unutilmas jasorat. T., «Ma’naviyat», 1995.
3. Avliyoqulov Q, Ergashev R., Ismoilov R, Surxon yulduzlari, T., 1995.
4. Kozlovskiy V.N. Termiz shahrining tarixi, T., 1959.
5. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya, T., «Akademiya», 2001.
6. Tursunov S.N. Denov yog‘-ekstratsiya zavodi tarixidan lavhalar., Denov, 1992.
7. Qobilov E.O. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari, Termiz «Jayxun», 1993.

## **9- Mavzu. Surxondaryoda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xayot. (1946–1990-yillar)**

### **Reja:**

4. Urushdan keyingi-yillarda viloyat sanoati
5. Viloyat qishloq xo‘jaligidagi ahvol
6. Maorif, madaniyat va adabiy harakatchilik

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustabid tuzim sharoitida viloyat sanoati. Qishloq xoʻjaligi: yangi yerlarni oʻzlashtirish, yutuqlar va muammolar. Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari. Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar. Voha adabiy harakatchiligi.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Oʻzbekiston Milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura. 1jild, T.: Oʻzbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: Xavfsizlikka tahdid. Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: Oʻzbekiston, 1997.
3. Tursunov va boshq. Surxondaryo tarixi. T.: Sharq, 2004.
4. Avliyoqulov Q. Va boshq. Surxon yulduzlari. T.: 1995.
5. Berdiev H., Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T.: 1991.
6. Mirzaev Z., Qobilov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi. Termiz. Jayhun, 1996.
7. Mustaqillik maʼnaviyat va tarbiya. TerDU ilmiy toʻplami. T.: 2000.
8. Roʻziev A.N. Surxondaryo viloyati. Termiz. Jayhun, 1996.
9. Termiz-yilnomasi. Tuzuvchilar: S.Tursunov, H.Kichkilov T.: Sharq, 2001.
10. Tursunov S.N, Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligini rivojlantirish shartlari va pasayish omillari. T.: 1996.

### **10-mavzu. Surxondaryo mustaqillik-yillarida.**

#### **Reja:**

1. Viloyat sanoati
2. Qishloq xoʻjaligi
3. Xalq taʼlimi va madaniyat.
4. Adabiy hayot.
5. Sogʻliqni saqlash tizimi.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-

yillarida madaniy hayotdagi tub sifat o'zgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

#### **Adabiyotlar:**

1. Ro'ziev A.N. Surxondaryo viloyati. Termiz. Chag'oniyon, 1996.
2. Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. T.: Akademiya. 2001.
3. Termiz buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. T.: Sharq, 2001.
4. Surxondaryo viloyati. T.: Sharq, 1998.
5. Azimov M. Termiz tarixi. Termiz, Jayhun, 2001.
6. Alpomish o'zbek xalq qahramonlik eposi. T.: Fan 1999.
7. Inoyatova S. va boshq. Surxondaryo viloyati xalq ta'limi yuksalishda. Termiz Jayhun, 2001.
8. Murodov M., Ergashev A. Alpomishnoma. T.: Mehnat, 1999.
9. Mustaqillik ma'naviyat va tarbiya. TerDU ilmiy to'plami. T.: 2000.
10. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.

## Surxondaryo tarixi fanidan tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

<b>T/r</b>	<b>Mustaqil ta'lim mavzulari</b>	<b>Bajarilish tartibi</b>	<b>Bjarilish muddati</b>	<b>Hajmi (soatda)</b>
<b>1</b>	“Surxondaryo tarixi” maxsus kursining ilmiy hamda nazariy muammolari	Nazariy xulosaga asoslangan ma'lumotnoma yozish	1-xafta	2
<b>2</b>	Surxondaryo viloyati tarixining eng qadimgi davri. (Insoniyat tamaddunidagi o'rni)	Tezis yozish	2-xafta	2
<b>3</b>	Surxon vohasi Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibida (ijtimoiy munosabatlarni shakllanish bosqichlari misolida)	Ilmiy maqola yozish (tarixiy manbalar asosida)	3-xafta	2
<b>4</b>	Yunon-Baqtriya va Kushon podshohlari davrida Surxon vohasida ilk davlatchilikning shakllanishi.	Arxiv ma'lumotlarini asosida ilk davlatchilik maketini ishlab chiqish	4-xafta	2
<b>5</b>	IX – XII - asrlarda Surxon vohasida xalq hunarmandchiligining rivoji.	Hunarmandchilikka oid tarixiy rasmlar asosida to'plam yaratish	5-xafta	2
<b>6</b>	XIII - XIX- asrlarda Surxon vohasining qishloq xo'jaligi.	Tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash	6-xafta	2
<b>7</b>	Surxon vohasi 1917–1941-yillarda BXSРning tashkil	Siyosiy va ijtimoiy hayotni yorituvchi slayd tayyorlash	7-xafta	4

	topishi va Surxon voqasidagi milliy-ozodlik harakatlari.			
<b>8</b>	Mustabid tuzum davrida Surxondaryo sanoati. Surxondaryo viloyati ikkinchi jahon urushi-yillarida.	Tezis yozish	8-xafta	2
<b>9</b>	Surxondaryoda ijtimoiy -iqtisodiy va madaniy hayot. (1946–1990-yillar).	Ilmiy maqola yozish (tarixiy manbalar asosida)	9-xafta	4
<b>10</b>	Surxondaryo mustaqillik-yillarida.	Video rolik tayyorlash	10-xafta	2

## **Surxondaryo tarixi fanidan yakuniy nazorat savollari**

### **1- variant**

1. Kirish. Surxondaryo tarixi maxsus kursining maqsad va vazifalari.
2. Surxondaryo tarixini o‘rganishning asosiy vazifalari.
3. Surxondaryo tarixining asosiy bosqichlari.

### **Tayanch so‘zlar:**

Surxondaryo tarixini o‘rganishdan maqsad. Surxondaryo tarixini davrlashtirish. Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar. Voha tarixi yuzasidan yozma manbalar. Surxondaryo tarixi tarixshunosligi. Voha tarixini o‘rganishning istiqbollari.

### **2- variant**

1. Surxondaryo tarixining manbalari.
2. Surxondaryo tarixining tarixshunosligi.
3. Surxondaryo tarixini o‘rganishdan maqsad.

### **Tayanch so‘zlar:**

Surxondaryo tarixini o‘rganishdan maqsad. Surxondaryo tarixini davrlashtirish. Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar. Voha tarixi

yuzasidan yozma manbalar. Surxondaryo tarixi tarixshunosligi. Voha tarixini o'rganishning istiqbollari.

### **3–Variant**

1. Surxondaryo tarixini davrlashtirish.
2. Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar.
3. Voha tarixi yuzasidan yozma manbalar.

#### **Tayanch so'zlar:**

Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shug'ullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.

### **4–Variant**

1. Surxondaryo tarixi tarixshunosligi.
2. Voha tarixini o'rganishning istiqbollari.
3. Paleolit davrida Surxon vohasi.

#### **Tayanch so'zlar:**

Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shug'ullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.

### **5–Variant**

1. Mezolit davrida Surxon vohasi.
2. Jez davri yutuqlari va ilk ziroatchilik makonlari.
3. Surxon vohasi ilk temir davrida.

#### **Tayanch so'zlar:**

Baqriya va uning tarixiy geografik joylashuvi. Baqtriyayada Ahamoniylar istilosi. Baqtriyada Iskandar istilosi. Katan qo'zg'oloni. Baqtriya va Salavkiylar davlati. Antiox I islohotlari. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga ta'siri.

## **6–Variant**

1. Surxondaryo insoniyat beshiklaridan biri.
2. O‘zbekistonda ilk tasviriy san’atning shakllanishi
3. Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy,siyosiy diniy ahvol.

### **Tayanch so‘zlar:**

Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shug‘ullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.

## **7–Variant**

1. Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.
2. Baqriyaning tarixiy geografik joylashuvi.
3. Ahamoniylar istilosi va uning oqibatlari.

### **Tayanch so‘zlar:**

Baqriya va uning tarixiy geografik joylashuvi. Baqtriyayada Ahamoniylar istilosi. Baqtriyada Iskandar istilosi. Katan qo‘zg‘oloni. Baqtriya va Salavkiylar davlati. Antiox I islohotlari. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga ta’siri.

## **8–Variant**

1. Baqtriyada yunonmakedon istilosi.
2. Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibida.
3. Siyosiy, ijtimoiy ,iqtisodiy va madaniy hayot.

### **Tanch so‘zlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiyi iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorlilari va uning urganilishi. Buyuk Ipak yuli va Surxon vohasi.

### **9–Variant**

1. Baqriya va uning tarixiy geografik joylashuvi.
2. Baqtriyada Ahamoniylar istilosi.
3. Baqtriyada Iskandar istilosi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiyi iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorliklari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **10–Variant**

1. Katan qoʻzgʻoloni.
2. Baqtriya va Salavkiylar davlati.
3. Antiox I islohotlari.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiyi iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorliklari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **11–Variant**

1. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga taʼsiri.
2. Baqtriya podsholigi davrida Surxon vohasi.
3. Kushon podsholigi davrida Surxon vohasi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiyi iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorliklari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **12–Variant**

1. Surxon vohasining Yunon-Baqtriya va Kushonlar davri madaniyati.
2. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.
3. Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorlilari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **13–Variant**

1. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli.
2. Yuechjilar migratsiyasi.
3. Kushon podsholigining tashkil topishi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorlilari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **14–Variant**

1. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari.
2. Kushon davri yodgorlilari va uning oʻrganilishi.
3. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon Baqtriya podsholigining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi. Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari. Kushon davri yodgorlilari va uning oʻrganilishi. Buyuk Ipak yoʻli va Surxon vohasi.

### **15–Variant.**

- 1.O‘rta asrlar davrida Surxon vohasining muhim ijtimoiy iqtisodiy siyosiy voqealari.
- 2.O‘rta asrlarda Surxon vohasida iqtisodiy munosabatlar va mulkchilik shakllari.
- 3.IX-XII asrlarda ilm-fan va madaniyat.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo‘g‘ullar istilosi. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **16–Variant**

- 1.Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida Surxon vohasi.
- 2.Arablar istilosi va uning oqibatlari.
- 3.Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo‘g‘ullar istilosi. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **17–Variant**

- 1.Ilm-fan, IX-XI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti.
- 2.Termiz sayyidlari.
- 3.Mo‘g‘ullar istilosi.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo‘g‘ullar istilosi. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **18–Variant**

1. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi.
2. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida.
3. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilmfan, I XXI asrlarda Chag‘oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo‘g‘ullar istilosi. Chig‘atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **19–Variant**

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida.
2. Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida.
3. XIX asr oxirida Surxon vohasi.

#### **Tayanch so‘zlar:**

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida vohaning gi aholining ijtimoiy siyosiy holati va Termiz va Chag‘oniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov beklklarini qo‘shilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

### **20–Variant**

1. Surxon vohasi Temur va Temuriylar davrida.
2. Mo‘g‘ullar istilosi va uning oqibatlari.
3. Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida voha aholisining ijtimoiy siyosiy holati

#### **Tayanch so‘zlar:**

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida vohaning gi aholining ijtimoiy siyosiy holati va Termiz va Chag‘oniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov beklklarini qo‘shilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

## **21–Variant**

1. Termiz va Chagʻoniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari
2. Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov beklklarini qoʻshilganligi va uning tarixiy ahamiyati.
3. Surxon vohasida mustabid sovet hokimiyatining oʻrnatilishi va uning oqibatlarini.

### **Tayanch soʻzlar**

Termizda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi. Buxoro amirligining agʻdarilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Surxondaryo okrugining tashkil topishi. XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xoʻjaligi. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. Qatagʻonlik-yillarida Surxondaryo. XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

## **22–Variant**

1. Surxon vohasida milliy ozodlik harakatlari.
2. Qatagʻonlik-yillarida Surxon vohasi.
3. XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

### **Tayanch soʻzlar**

Termizda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi. Buxoro amirligining agʻdarilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Surxondaryo okrugining tashkil topishi. XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xoʻjaligi. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari. Qatagʻonlik-yillarida Surxondaryo. XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

## **23–Variant**

1. Termizda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi.
2. Buxoro amirligining agʻdarilishi.
3. Istiqlolchilik harakatlari.

### **Tayanch soʻzlar**

Termizda sovet hokimiyatining oʻrnatilishi. Buxoro amirligining agʻdarilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Surxondaryo okrugining tashkil topishi. XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xoʻjaligi. Surxondaryo

sanoatining ilk odimlari. Qatag'onlik-yillarida Surxondaryo. XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

#### **24–Variant**

- 1.Surxondaryo okrugining tashkil topishi.
- 2.XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xo'jaligi.
- 3.Surxondaryo sanoatining ilk odimlari.

#### **Tayanch so'zlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofoa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

#### **25–Variant**

1. Qatag'onlik-yillarida Surxondaryo.
2. XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat.
3. Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

#### **Tayanch so'zlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofoa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

#### **26–Variant**

1. Fashizm agressiyasining boshlanishi va viloyatda frontga safarbarlik.
2. Urush-yillarida viloyat qishloq xo'jaligidagi ahvol.
3. Surxondaryoliklarning frontdagi qahramonliklari.

#### **Tayanch so'zlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofoa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

### **27–Variant**

1. Surxondaryoliklarning frontga yordami.
2. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi.
3. Frontga safarbarlik.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofaa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xoʻjaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

### **28–Variant**

1. Mudofaa fondlari.
2. Urush-yillarida viloyat sanoati.
3. Qishloq xoʻjaligi.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofaa fondlari. Urush-yillarida viloyat sanoati. Qishloq xoʻjaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam.

### **29–Variant**

1. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati.
2. Ozod qilingan hududlarga yordam.
3. Urushdan keyingi-yillarda viloyat sanoati.

#### **Tayanch soʻzlar:**

Mustabid tuzim sharoitida viloyat sanoati. Qishloq xoʻjaligi: yangi yerlarni oʻzlashtirish, yutuqlar va muammolar. Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari. Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar. Voha adabiy harakatchiligi.

### **30–Variant**

1. Viloyat qishloq xoʻjaligidagi ahvol.
2. Maorif, madaniyat va adabiy harakatchilik.
3. Mustabid tuzum sharoitida viloyat sanoati.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida

### **31–Variant**

1. Qishloq xoʻjaligi: yangi yerlarni oʻzlashtirish, yutuqlar va muammolar.
2. Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari.
3. Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida

### **32–Variant**

1. Mustaqillik va keng imkoniyatlar.
2. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi.
3. Viloyat sanoati yangi odimlar sari.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida

### **33–Variant**

1. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar.
2. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar.
3. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida

### **34–Variant**

1. Surxondaryo mustaqillik-yillarida.
2. Viloyat sanoati
3. Qishloq xoʻjaligi.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

### **35–Variant**

1. Xalq taʼlimi va madaniyat.
2. Adabiy hayot.
3. Sogʻliqni saqlash tizimi.

### **Tayanch soʻzlar:**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xoʻjaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat oʻzgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

## **Surxondaryo tarixi fanidan yozma ish savollari**

### **1- variant**

1. Kirish. Surxondaryo tarixi maxsus kursining maqsad va vazifalari.
2. Surxondaryo tarixini o'rganishning asosiy vazifalari.
3. Surxondaryo tarixining asosiy bosqichlari.

### **2- variant**

1. Surxondaryo tarixining manbalari.
2. Surxondaryo tarixining tarixshunosligi.
3. Surxondaryo tarixini o'rganishdan maqsad.

### **3-Variant**

- Surxondaryo tarixini davrlashtirish.  
Voha tarixiga oid ashyoviy manbalar.  
Voha tarixi yuzasidan yozma manbalar.

### **4-Variant**

- Surxondaryo tarixi tarixshunosligi.  
Voha tarixini o'rganishning istiqbollari.  
Paleolit davrida Surxon vohasi.

### **5-Variant**

- Mezolit davrida Surxon vohasi.  
Jez davri yutuqlari va ilk ziroatchilik makonlari.  
Surxon vohasi ilk temir davrida.

### **6-Variant**

- Surxondaryo insoniyat beshiklaridan biri.  
O'zbekistonda ilk tasviriy san'atning shakllanishi  
Surxon vohasida qadimda aholining ijtimoiy yashash tarzi ular foydalanilgan mehnat qurollari diniy tasavvurlariva terib termachilik bilan shug'ullanganligi va ularning va vohada qadimiy inson yashagan makonlar va yodgorliklar.

### **7-Variant**

- Tarixning ilk bosqichlari va uning tarixiy ahamiyati.  
Baqriyaning tarixiy geografik joylashuvi.  
Ahamoniylar istilosi va uning oqibatlari.

### **8–Variant**

Baqtriyada yunonmakedon istilosi.  
Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibida.  
Siyosiy, ijtimoiy ,iqtisodiy va madaniy hayot.

### **9–Variant**

Baqriya va uning tarixiy geografik joylashuvi.  
Baqtriyada Ahamoniylar istilosi.  
Baqtriyada Iskandar istilosi.

### **10–Variant**

Katan qo‘zg‘oloni.  
Baqtriya va Salavkiylar davlati.  
Antiox I islohotlari.

### **11–Variant**

Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga ta’siri.  
Baqtriya podsholigi davrida Surxon vohasi.  
Kushon podsholigi davrida Surxon vohasi.

### **12–Variant**

Surxon vohasining Yunon-Baqtriya va Kushonlar davri madaniyati.  
Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.  
Yunon Baqtriya podsholigining tashkil topishi.

### **13–Variant**

Yunon Baqtriya podsholiging ijtimoiy iqtisodiy ahvoli.  
Yuechjilar migratsiyasi.  
Kushon podsholigining tashkil topishi.

### **14–Variant**

Kushonlar davrining muhim ijtimoiy iqtisodiy voqealari.  
Kushon davri yodgorlilari va uning o‘rganilishi.  
Buyuk Ipak yo‘li va Surxon vohasi.

### **15–Variant.**

O‘rta asrlar davrida Surxon vohasining muhim ijtimoiy iqtisodiy siyosiy voqealari.

Oʻrta asrlarda Surxon vohasida iqtisodiy munosabatlar va mulkchilik shakllari.

1X-X11 asrlarda ilm-fan va madaniyat.

### **16–Variant**

Qoraxoniylar va Saljuqiylar davrida Surxon vohasi.

Arablar istilosi va uning oqibatlari.

Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi.

### **17–Variant**

Ilm-fan, 1X-X1 asrlarda Chagʻoniyon adabiyoti.

Termiz sayyidlari.

Moʻgʻullar istilosi.

### **18–Variant**

Chigʻatoy ulusi davrida Surxon vohasi.

Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida.

Temuriylar davrida Surxon vohasi.

### **19–Variant**

Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida.

Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida.

XIX asr oxirida Surxon vohasi.

### **20–Variant**

Surxon vohasi Temur va Temuriylar davrida.

Moʻgʻullar istilosi va uning oqibatlari.

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida voha aholisining ijtimoiy siyosiy holati

### **21–Variant**

Termiz va Chagʻoniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari

Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibiga Boysun, Sherobod, Denov beklklarini qoʻshilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

Surxon vohasida Mustabid sovet hokimiyatining oʻrnatilishi va uning oqibatlari.

### **22–Variant**

Surxon vohasida milliy ozodlik harakatlari.  
Qatag'onlik-yillarida Surxon vohasi.  
XX asrning 20-30-yillarida Surxon vohasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol.

### **23–Variant**

Termizda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.  
Buxoro amirligining ag'darilishi.  
Istiqlolchilik harakatlari.

### **24–Variant**

Surxondaryo okrugining tashkil topishi.  
XX asrning 20-30-yillarida okrug qishloq xo'jaligi.  
Surxondaryo sanoatining ilk odimlari.

### **25–Variant**

Qatag'onlik-yillarida Surxondaryo.  
XX asrning 20-30-yillarida Surxondaryoda maorif va madaniyat.  
Surxondaryo viloyatining tashkil topishi.

### **26–Variant**

Fashizm agressiyasining boshlanishi va viloyatda frontga safarbarlik.  
Urush-yillarida viloyat qishloq xo'jaligidagi ahvol.  
Surxondaryoliklarning frontdagi qahramonliklari.

### **27–Variant**

Surxondaryoliklarning frontga yordami.  
Ikkinchi jahon urushining boshlanishi.  
Frontga safarbarlik.

### **28–Variant**

Mudofaa fondlari.  
Urush-yillarida viloyat sanoati.  
Qishloq xo'jaligi.

### **29–Variant**

Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati.

Ozod qilingan hududlarga yordam.  
Urushdan keyingi-yillarda viloyat sanoati.

### **30–Variant**

Viloyat qishloq xo‘jaligidagi ahvol.  
Maorif, madaniyat va adabiy harakatchilik.  
Mustabid tuzum sharoitida viloyat sanoati.

### **31–Variant**

Qishloq xo‘jaligi: yangi yerlarni o‘zlashtirish, yutuqlar va muammolar.  
Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari.  
Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar.

### **31–Variant**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar.  
Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi.  
Viloyat sanoati yangi odimlar sari.

### **32–Variant**

Qishloq xo‘jaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar.  
Mustaqillik-yillarida madaniy hayotdagi tub sifat o‘zgarishlar.  
Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

## **“Surxondaryo tarixi” fanidan malakaviy amaliyot savollari**

1. Siz o‘rganayotgan tuman hududi qancha.
2. Siz o‘rganayotgan tumanda qancha aholi istiqomat qiladi.
3. Siz o‘rganayotgan tuman qachon tashkil etilgan.
4. Siz o‘rganayotgan tuman qaysi hududlar bilan chegaradosh.
5. Siz o‘rganayotgan tumanda xo‘jalikning qaysi tarmog‘i yetakchi o‘rin tutadi.
6. Siz o‘rganayotgan tumanning asosiy suv manbalari haqida ma’lumot to‘plang
7. Siz o‘rganayotgan tuman, qishloq, shahar, qo‘rg‘on nomining mohiyatini, mazmunini aniqlang.
8. Siz o‘rganayotgan tumanda qanday arxeologik yodgorliklar va ular qaysi davrga oid.

9. Siz o'rganayotgan tumanda qanday monumental va tarixiy yodgorliklar bor.
10. Siz o'rganayotgan tuman aholisining milliy tarkibi qanday.
11. Siz o'rganayotgan tumanda qanday muqaddas ziyoratgohlar bor ularning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
12. Siz o'rganayotgan tuman tashkil etilgan paytda qancha aholi yashagan.
13. Siz o'rganayotgan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli XX asrning 20-30-yillarida qanday bulgan. Bunga arxiv fondlaridan ma'lumot to'plang.
14. Siz o'rganayotgan hududda qanday xalq qahromonlari o'tgan.
15. Siz o'rganayotgan hududda milliy istiqloqlilik harakati nomoyondalaridan kimlar o'tgan.
16. Siz o'rganayotgan tumandan ikkinchi jahon urushiga qancha kishi safarbar qilingan ulardan qanchasi urushda halok bo'lgan ma'lumot to'plang.
17. Siz o'rganayotgan tumanda hozir qancha ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari yashaydi, ularning jasorati haqida ma'lumot to'plang.
18. Siz o'rganayotgan tumandan qancha kishi sovet mustabid tuzimining qatog'oniga uchragan ular haqida ma'lumot yig'ing
19. Siz o'rganayotgan tumanda qanday dongdor dehqon, chorvador va mehnat faxriylari yetishib chiqqan ularning faoliyati va hayotiga oid ma'lumotlarni to'plang.
20. Siz o'rganayotgan tumandan qanday ziyoli insonlar. San'atkor, olim, shoir, yozuvchi yetishib chiqqan ularning faoliyati va ijodi haqida ma'lumot to'plang?
21. Siz o'rganayotgan tumanda "paxta ishi" tuhmatiga uchraganlar haqida ma'lumot to'plang.
22. Siz o'rganayotgan tumanda xalq ta'limi tizimi qanday holatda bo'lgan (50-60 yy).
23. Siz o'rganayotgan tumanda tibbiyot xizmati qanday bo'lgan (50-60 yy)
24. Siz o'rganayotgan tumanda qishloq xo'jaligida ahvol qanday bo'lgan (50-60 yy)
25. Siz o'rganayotgan tumanda sanoat qay ahvolda bo'lgan (50-60 yy)
26. Siz o'rganayotgan tumanda ijtimoiy himoya qanday holatda bo'lgan (50-60 yy)

27. Siz o'rganayotgan tumanda qishloq xo'jaligi qanday ahvolda bo'lgan (50-60 yy)
28. Siz o'rganayotgan tumanda maishiy xizmat qanday holatda bo'lgan (50-60 yy)
29. Siz o'rganayotgan tumanda qishloq xo'jaligida ahvol qanday bo'lgan (70-90 yy)
30. Siz o'rganayotgan tumanda sanoat qanday ahvolda bo'lgan (70-80yy)
31. Siz o'rganayotgan tumanda tibbiyot xizmati qanday holatda bo'lgan (70-80 yy)
32. Siz o'rganayotgan tumanda ijtimoiy himoya qanday ahvolda bo'lgan (70-80 yy)
33. Siz o'rganayotgan tumanda xalq ta'lim qanday ahvolda bo'lgan (70-80 yy)
34. Siz o'rganayotgan tumanda transport xizmati qanday holatda bo'lgan (70-80 yy)
35. Siz o'rganayotgan tumandja mustaqillik-yillarida qanday o'zgarishlar bo'ldi.
36. Siz o'rganayotgan tumanda kichik va o'rta biznes korxonolari qanday faoliyat yuritmoqda.
37. Siz o'rganayotganda mustaqillik-yillarida qishloq xo'jaligi qay tarzda rivojlanmoqda.
38. Siz o'rganayotgan tumanda fermerlik harakati qanday yo'lga qo'yilgan.
39. Siz o'rganayotgan hududda hunarmandchilik va kasanachilik qanday rivojlangan.
40. Siz o'rganayotgan tumanda qanday qo'shma korxonolari bor.
41. Siz o'rganayotgan tumanda mustaqillik-yillarida xalq ta'limi tizimida qanday o'zgarishlar amalga oshirdi.
42. Siz o'rganayotgan tumanda kasb-hunar ta'limi qanday yo'lga qo'yilgan.
43. Siz o'rganayotgan tumanda aholini ish bilan ta'minlash qanday yo'lga qo'yilgan.
44. Siz o'rganayotgan tumanda mustaqillik-yillarida ijtimoiy- himoya qanday yo'lga qo'yilgan.
45. Siz o'rganayotgan tumanda transport xizmati qanday yo'lga qo'yilgan

46. Siz o'rganayotgan tumanda mustaqillik-yillarida maishiy xizmat qanday yo'lga qo'yilgan.
47. Siz o'rganayotgan tumanda mustaqillik-yillarida tibbiyot xizmati qanday yo'lga qo'yilgan.
48. Siz o'rganayotgan tumanda mustaqillik-yillarida qanday fidokor insonlar yetishib chiqdi ular haqida ma'lumot to'plang.
49. Siz o'rganayotgan tumanda obodonchilik ishlariga qanday e'tibor berilmoqda
50. Siz o'rganayotgan tumanda matbuot va pochta xizmati qanday yo'lga qo'yilgan.
51. Siz o'rganayotgan tumanda savdo xizmati qanday yo'lga qo'yilgan.
52. Siz o'rganayotgan tumanda qanday tibiiy boyliklar mavjud va ularni qayta ishlash yuzasidan qanday tadbirlar ko'rilmogda.

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.T., "O'zbekiston". 2017-yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T., "O'zbekiston". 2017-yil.
3. Mirziyoev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., "O'zbekiston". 2017-yil.
4. Mirziyoev Sh. M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston", 2017-yil.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T., "O'zbekiston" NMIU, 2016-yil.
6. Mirziyoev Sh.M.Niyati ulug' halqning ishi ham ulug',hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi T., "O'zbekiston".2019-yil
7. Avliyoqulov Q, Ergashev R., Ismoilov R, Surxon yulduzlari, T., 1995.
8. Azimov M. Termiz tarixi, Termiz, «Jayhun», 2001.
9. Ata-Mirzaev, V.Gentshke, R.Murtazaeva, A.Saliev. Istoriko-demograficheskie ocherki urbanizatsii Uzbekistana, -T: Universitet, 2002
10. Arshavskaya Z.A., Rtveladze E.V., Hakimov Z.A., Srednevekovie pamyatniki Surxandari. T., Leturatura i iskusstvo. 1982.

11. Ananov A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi. T.: Sharq, 2002.
12. Askarov A. Drevnezemledelcheskaya kultura. - T. : Fan, 1977
13. Asqarov A. Eng qadimiy shahar.- T.: Ma'naviyat, 2001.
14. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi. 1994
15. Aminjonova T.N. Qadimiy yodgorliklar qissasi. T., «O'qituvchi»,
16. Annaev T., Shaydullaev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar, T.,
17. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997.
18. Annaev T. «Al-Hakim at-Termiziy». Toshkent , 1998.
19. Berdiev X. Birinchi odam viloyati. -T., «Nur», 1991.: 2000.
20. Berdiev X. Ermatov X. Surxondaryo tarixidan lavhalar -T. 1991 y. 70-bet
21. Berdiev O.K., Mahmudov X.B. Surxondaryo o'lkasi tabiati. -Termiz., «Jayxun». 1998.
22. Gorodskaya kultura Baktrii-Toxaristana i Sogda. Antichnost, rannee srednevekovye: Materialy sovetsko-frantsuzskogo kollokviuma. Otv. red. A.A. Askarov, G.A. Pugachenkova i dr. Izd-Vo, T.-.: «Fan», 1987.
23. Jaloliddin Mirzo, Termiz tarixi, T., «Sharq», 2003
24. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (miloddan avvalgi asrlardan to 1991-yil 31-avgustgacha). Toshkent: Sharq, 2001
25. Istoriya novy gorodov Uzbekistana. -T: Fan. 1976 y.
26. Ibrahimov N. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. T, 1993.
27. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi. -T.: O'zbekiston, 1996
28. Omonturdiyev J., Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti. T., Universitet, 2000.
29. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.; O'zbekiston. 2002
30. Kozlovskiy V.N. Termiz shahrining tarixi, T., 1959 Mirzaev Z.
31. Ma'naviyat yulduzlari. T., Xalq merosi, 2001.
32. Murtozaev B, Qodirov B. Chag'oniyon adabiyoti. Yangi asr avlodi, T., 2003.
33. Mualliflar jamoasi. Termiz shahrining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni. T. Fan, 2001.
34. Mirzaev Z., Qobilov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi. Termiz. Jayhun, 1996.
35. Norxayit Toxir Usmon. Kurash-yillari. –T., Mexnat 1992.

36. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. –T., “O‘qituvchi”, 2003-yil, 324 bet.
37. Tursunov S.N va boshqalar. Surxondaryo tarixi. -T.: Sharq, 2004.
38. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Sharq-T Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o‘rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.
39. Pyankov I.V., Baktriya antichnoy traditsii, Dushanbe, «Donish», 1982.
40. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severnaya Baktriya Taxaristan problemi istorii i kulturi, T. «Fan», 1990.
41. Pugachenkova G.A. Iskusstvo Baktrii epoxi Kushan. M., «Iskusstvo», 1979.
42. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V., Severniy BaktriyaToxaristan: problemi istorii i kulturi. T., «Fan», 1990.
43. Pidaev Sh. Poselenie kushanskie vremeni Severniy Baktrii, T.. «Fan», 1978.
44. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar. T.: Ma’naviyat, 2000.
45. Rajabov Q. Buxoroda Qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. T.: Ma’naviyat nashriyoti, 2002.
46. Rajabov B., Isomiddinov S. Yer osti boyliklarini izlab. -T: Sharq. 2002.
47. Raxmonov U. Raskopki keramicheskix pechey Sapalli na poselenii Bustan 4. IMKU. Выр. 15. T., 1979
48. Ro‘ziev A.N. Surxondaryo viloyati -T.: Jayxun 1996.
49. Rtveladze E.V., Aminov M. Surxondaryo. Qomuslar bosh tahririyati. 1996. 220 b.
50. Said Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. T.: Nur, 1996.
51. Safarov Sh. Termiz va Termiziylar -Termiz «Jayxun», 1993 y.
52. Sagdullaev A.S. Usadbi drevne Baktrii. T., «Fan», 1987.
53. Sagdullaev A.S., Baktrineskaya legenda. T., «O‘zbekiston», 1990.
54. Sagdullaev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalari. –T., 1996
55. Surxondaryo. Ilmiy to‘plam. T., 1997.
56. Tarix, mustaqillik, milliy g‘oya. –T., Akademiya. 2001
57. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida.–Toshkent: Sharq,2000
58. Tursunov S.N. Denov yog‘-ekstratsiya zavodi tarixidan lavhalar., Denov, 1992.
59. Tursunov S.N. Buyuk siymolar. T., Sharq, 2002..

60. Tursunov S.N., Surxondaryo tarixini o'rganish., T., Abdulla Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1999.
61. Tursunov S.N., Pardaev T. Unutilmas jasorat. T., «Ma'naviyat», 1995
62. Tursunov S.N, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish shartlari va pasayish omillari. T.: 1996..
63. Tursunov S.N Sherobod tarixidan lavhalar. Denov.1993.
64. Tursunov S.N., Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B., Surxondaryo tarix ko'zgasida, Toshkent, «Sharq», 2001.
65. Tursunov S.N. Qobilov E., Pardaev T, Murtozaev B. Surxondaryo tarixi, Toshkent, «Sharq», 2004.
66. Termiz. Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar. (mualliflar jamoasi) -T.: Sharq, 2001
67. Termiz-yilnomasi. Tuzuvchilar: S.Tursunov, H.Kichkilov T.: Sharq, 2001.
68. Termiz shahrining rangli bezakli albomi.–T.:Sharq, 2001
69. Termiz. Ilmiy to'plam. T., 2001.
70. Xolmirzaev A. Zarautsoy sirlari. T., 2003.
71. Xo'ja Samandar Termiziy. Dastur ulmuluk. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
72. Chag'oniyon tarixi. To'plab nashrga tayyorlovchi A.Xidirov. T.: Islom universiteti, 2002.
73. Qodirov B., Murtozaev B. Chag'oniyon adabiyoti, T.: Yangi asr avlodi, 2002
74. Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi, T.: “Sharq”, 2012
75. Qobulov E. Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi. –Termiz: 1996
76. Qobilov E.O. Surxondaryo sanoatining ilk odimlari, Termiz «Jayxun», 1993.
77. Chag'oniyon ilmiy to'plam . T. 2001
78. Xoliqova R. Rossiya – Buxoro: tarix chorrahasida. – T.:O'qituvchi, 2005
79. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, T., O'zME nashriyoti. 1–12 jildlar. 2000-2008-yillar.
80. O'zbekiston tarixi, R.Murtazaeva umumiy tahriri ostida, T., “Yangi asr avlodi” 2003.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>MA'RUZA MASHG'ULOTLARI</b> .....	4
<b>1-MAVZU: SURXONDARYO TARIXI MAXSUS KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI</b> .....	6
<b>2-MAVZU: SURXONDARYO VILOYATI TARIXINING ENG QADIMGI DAVRI</b> .....	14
<b>3-MA'RUZA: SURXON VOHASI AHAMONIYLARI VA ALEKSANDR MAKEDONSKIY SALTANATI TARKIBIDA</b> .....	34
<b>4-MAVZU: YUNON BAQTRIYA VA KUSHON PODSHOLIKLARI DAVRIDA SURXON VOHASI</b> .....	44
<b>5-MAVZU: O'RTA ASRLARDA SURXON VOXASI</b> .....	71
<b>6-MAVZU: XVI–XIX ASRLARDA SURXON VOXASI</b> .....	124
<b>7-MA'RUZA. SURXON VOHASI. 1917–1941-YILLARDA BXSERNING TASHKIL TOPISHI VA SURXON VOQASIDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI</b> .....	146
<b>8-MA'RUZA. SURXONDARYO VILOYOTI IKKINCHI JAHON URUSHI-YILLARIDA</b> .....	154
<b>9-MA'RUZA. SURXONDARYODA IJTIMOYIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT (1946–1990-YILLAR)</b> .....	163
<b>10-MA'RUZA: SURXONDARYO MUSTAQILLIK-YILLARIDA</b> .....	188
<b>“SURXONDARYO TARIXI” FANIDAN TAVSIYA ETILADIGAN SEMINAR MASHG'ULOTLARI</b> .....	213
<b>SURXONDARYO TARIXI FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI</b> .....	223
<b>SURXONDARYO TARIXI FANIDAN YOZMA ISH SAVOLLARI</b> .....	235
<b>“SURXONDARYO TARIXI” FANIDAN MALAKAVIY AMALIYOT SAVOLLARI</b> .....	239
<b>FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR</b> .....	242

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**YAKUBOVA DILARAM TADJIYEVNA**

## **SURXONDARYO TARIXI**

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

Muharrir *N.Pulatova*  
Tex. muharrir *M.Talipova*  
Sahifalovchi *N.Raimova*

Bosishga ruxsat etildi 07.08.2022.  
Qog‘oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. TIMES garniturasini  
Shartli bosma tabog‘i 15,5. Nashr tabog‘i 14,8  
Adadi 100. Buyurtma № 07-08.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti  
Toshkent, Komolon ko‘chasi, Erkin tor ko‘chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.